

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

Ismailova Zuxra Karabaevna
Mustafoyeva Durdoni Asilovna
Komilova Maloxat Olimovna
Raxmonova Muqaddas Qahramonovna
Sadikova Firuza Maxmudjanovna

KASBIY PEDAGOGIKA

Darslik

Professional ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan

Toshkent – 2023

UO‘K 37.013(075.8)
KBK 74.6ya7

Ismailova Z. K., Mustafoyeva D.A., Komilova M.O., Raxmonova M.Q.,
Sadikova F.M. **KASBIY PEDAGOGIKA**. Darslik./ T.: Lesson press. 2023-y. -
294 bet.

Darslik namunaviy dastur asosida yozilgan bo‘lib, undagi mavzular bo‘yicha tushuncha va fikrlar fanni to‘liq o‘zlashtirishga imkon beradi.

Darslikda malakali kichik mutaxassis tayyorlash ishlari, mutaxassislik bo‘yicha davlat ta‘lim standartida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ta‘lim mazmunida ko‘zlangan ta‘lim-tarbiya maqsadi va vazifalari, malakali kichik mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tarkibiy qismlari (nazariy mashg‘ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o‘zaro bog‘liq holda uzviy tashkillashtirilishining mohiyatan yoritilgan.

Darslik oliy ta‘lim muassasalarining barcha yo‘nalishi talabalari, magistrarlari hamda barcha qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar:

Z.K.Ismailova - professor

D. Mustafoyeva - dotsent

M.Q.Raxmonova - dotsent

F.M.Sadikova – PhD

M.O.Komilova - assistent

Taqrizchilar:

J.A.Xamidov – Jizzax politexnika instituti professori, p.f.d.

M.K.Xoshimova - dotsent

Ushbu darslik Universitet Ilmiy kengashining 2022 yil 19-dekabrdagi 465 a/f- sonli majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-9732-1-3

© Ismailova Z. K. Va b., 2023 y.

Annotatsiya

“Kasbiy pedagogika” fani jahon miqyosida tan olingan eng ilg‘or metod va yo‘nalishlar bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda o‘zining keng tadbiqini kutib yotgan, fanning boshqa sohalari bilan bog‘liq ravishda yangi konsepsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Ushbu darslikda yosh va ko‘p sohalarda rivojlanib borayotgan kasbiy texnik ta‘limning rivojlanishi hamda mazkur sohaning ijtimoiy yo‘nalishi, xususiyatlari hamda aspektlari mohiyatan yoritilgan.

Аннотация

Дисциплина “Профессиональная педагогика” обогащается самыми передовыми методами и направлениями, получившими мировое признание. Сегодня разрабатываются новые концепции и теории в связи с другими отраслями науки, ожидающими своего широкого воплощения.

В данном учебнике подробно рассматриваются развитие молодого и развивающегося во многих сферах профессионально-технического образования, а также социальная направленность, особенности и аспекты данной сферы.

Annotation

The science of “Professional pedagogy” is enriched with the most advanced methods and directions that have received worldwide recognition. Today, new concepts and theories are being developed in connection with other branches of science awaiting their wide implementation.

This textbook examines in detail the development of young and developing vocational education in many areas, as well as the social orientation, features and aspects of this area.

MUNDARIJA

KIRISH.....	8
1-BOB. KASBIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI, MAQSAD VA VAZIFALARI	10
1-Mavzu: Kasbiy pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	10
1.1 Kasbiy pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	10
1.2. Kasbiy pedagogika fanining asosiy tarmoqlari	14
1.3. Asosiy kasbiy pedagogik kategoriyalar	16
1.4. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi	17
1.5. Kasbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.....	19
2-MAVZU: PROFESSIONAL TA'LIM PEDAGOGIKASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	23
2.1.O'zbekistonda professional ta'limi islohoti	23
2.2. Kasbiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari	26
2.3. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar, kasblarni tahlil qilish metodlari	27
2.4. Oliygozlarda kasbiy ta'lim va uning rivojlanish darajasi.....	29
3-MAVZU: PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MILLIY ISLOHOTLAR YO'NALISHLARINING MOHIYATI	33
3.1. Jamiyat rivojlanishida kasbiy pedagogikaning paydo bo'lishi, uning komil inson ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni.....	33
3.2. Zardushtiylik ta'limoti. Islom dini ta'limoti	35
3.3. Xalq pedagogikasida kasbiy ta'limning rivojlanish bosqichlari.....	38
4-MAVZU: PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MILLIY ISLOHOTLAR YO'NALISHLARINING MOHIYATI	41
4.1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi umumiy qoidalari.....	41
4.2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim tizimi va uning turlari.....	44
4.3.Ta'lim-tarbiya tizimini boshqarish haqida.....	48
4.4. Barkamol avlodni yaratishda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning o'rni va ta'lim sohasidagi islohatlarda amal qilinishi	51
5-MAVZU: KASB PEDAGOGIKASI ASOSLARI	55
5.1. Kasbiy ta'lim pedagogikasi fanining falsafiy-metodologik asoslari.....	55
5.2. Ma'naviy va madaniy shakllanish jarayoni. Malakaviy tayyorgarlikda asosiy didaktik bosqichlar	56
5.3. Kasbiy pedagogika metodlari	57
5.4. Kasbiy pedagogikaning tarixiy sahifalari.....	58
5.5. O'zbekistonda kasbiy ta'limni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish.....	60

5.6. Germaniya va Fransiyada kasbiy ta'lim tizimi	61
6-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA PROFESSIONAL TALIM TIZIMI ISLOHOTLARI.....	65
6.1. Professional ta'lim pedagogikasining qonuniyatlari	65
6.2. Har tomonlama etuk va yuqori malakaga ega bo'lgan xodimlar tayyorlash	68
6.3. Bosqichli o'qitish nazariyasi. Texnologik bilimlarning uzluksizligi	70
6.4. Ishlab chiqarish ta'limining davrlari.....	71
2-BOB. PROFESSIONAL TA'LIMDA DIDAKTIK PRINSIPLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	76
7-MAVZU. PROFESSIONAL TA'LIM PEDAGOGIKASINING MARKAZIY OSIYODA BA G'ARB MAMLAKATLARIDA PEDAGOGIK FIKRLARI.....	76
8-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKADA TA'LIM JARAYONI.....	84
8.1. Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayonining mohiyati va tuzilishi	84
8.2. Kasb ta'limining tamoyillari.....	87
8.3. Pedagogik jarayonni loyihalash. Loyihalash jarayonining	91
obyekti va muammolari.....	91
8.4. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish.....	94
9-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKADA O'QITISH VOSITALARI VA ULARNING TAVSIFI	98
9.1. O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limining mazmun-mohiyati	98
9.2. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish uchun yaratilgan imkoniyatlar	101
9.3. Ta'lim mazmuni tuzilmasini makro va mikro darajasi.....	107
10-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOLARI	111
10.1. Jamiyatda shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida	111
10.2. Kasbiy va ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxsning unga amal qilishi	114
10.3. Kasbiy va ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi, shaxsning kasbiy jihatdan o'z-o'ziga baho berish	116
10.4. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning kasb tanlashga ta'siri	120
11-MAVZU. KASB PEDAGOGIKASIDA TA'LIM METODLARI.....	124
Tayanch so'zlar: Metod (usul), So'z orqali, ko'rgazmalilik, amaliy usullar, nazorat qilish, rag'batlantirish.	124
11.1. Kasb ta'limi metodlari va ularning tavsifi	124
11.2. Nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'lim metodlari	129
11.3. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodi.....	134

11.4. O‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish metodi.....	135
12-MAVZU: SHAXSNING KASB TANLASHIGA TA’SIR ETADIGAN IJTIMOVIY, BIOLOGIK OMILLAR HAMDA TA’LIM-TARBIYA OMILLARI	142
12.1. Shaxsning rivojlanishi haqida tushuncha	142
12.2. Shaxsning kasb talashiga ta’sir etuvchi asosiy omillar	143
12.3. Shaxsni kamol topishida tarbiyaning roli.....	146
13-MAVZU: O‘QITISH VOSITALARINING YARATILISHI VA QO‘LLANILISHI, HAMDA UNING TA’LIMDAGI AHAMIYATI.....	155
13.1. O‘qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida.....	155
13.2. Hozirgi zamon o‘qitish vositalarining tavsifnomasi.....	158
13.3. O‘qitish vositalari va ularning turlari.....	162
13.4. O‘qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari	166
13.5. O‘qitish jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish yo‘llari ..	168
14-MAVZU: KASB TA’LIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	173
14.1. Kasbiy pedagogikada innovatsion texnologiyalar.....	173
14.2. O‘qitish texnologiyalari majmuaviy interaktiv tizim sifatida.....	178
O‘tkazilish jarayoni.....	180
14.3. Seminar darslarini tashkil etishda interaktiv metodlar	182
14.4. O‘qitishda yangi texnologiyalarni loyihalashtirish	183
14.5. Pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash	189
15-MAVZU: KASBIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	198
15.1. Ta’lim texnologiyasi va uning tuzilishi	198
15.2. Kasb ta’limida axborot texnologiyalari.....	206
15.3. Muammoli ta’lim texnologiyasi va uning maqsadi, vazifasi.....	209
15.4. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati.....	215
3-BOB. PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASIDA TARBIYAVIY.....	224
ISHLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI	224
16-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKADA TA’LIM TARBIYA JARAYONI VA TA’LIM MAZMUNI.....	224
16.1. Talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy, kasbiy madaniyatini tarbiyalash	224
16.2. Kasb ta’limi muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati	226
16.3. Kasb ta’limi muassasalarida mehnat intizomi va axloqiy tarbiya muammosi.....	229

16.4. Yoshlarni kasbga yo‘naltirishda tarbiyaning tarkibiy qismlarining o‘rni	231
17-MAVZU: O‘ZBEKSITONDA MAHSUS KASB-HUNAR TA’LIMIDA DAVLAT TA’LIM STANDARTLARI	235
17.2. O‘zbekistonda professional ta’limining rivojlanishida davlat ta’lim standartining o‘rni va roli	240
17.3. Uzliksiz ta’lim tizimida davlat ta’lim standartlariga amal qilish.....	243
18-MAVZU: PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI	247
18.1. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish	247
18.2. Pedagogik jamoa – o‘quv muassasasini boshqarishning obyekti	250
18.3. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi	252
18.4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing	253
18.5. Kasbiy ta’limda rahbarlik qilish va unga qo‘yiladigan talablar.....	255
19-MAVZU: MUHANDIS-PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH	261
19.1. Kasbiy malakaviy tuzilmada kadrlarning o‘zgarishi	261
19.3. Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlar tayyorlashga qo‘yiladigan asosiy talablar.....	263
19.4. Xodimlarning kasbiy malakasini oshirish va qayta tayyorlash.....	267
20-MAVZU: TA’LIM JARAYONIDA TESTOLOGIYA ASOSLARI..	273
XULOSA.....	289
TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT	292

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligiga erishishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlanishi, kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta ko'rib chiqish va tashkil etishni o'z oldiga dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Bu muhim vazifani hal etishda kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi bo'lgan uzluksiz ta'lim ning bir bo'g'ini - yangi turdagi o'quv muassasasi bo'lgan kasb-hunar kollejlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'rta maxsus, kasbhunar ta'limini yangi turdagi ta'lim muassasasi sifatidagi rivoji, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi m asalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu m asalalarni hal etishda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limini tashkil etish, ta'lim usullarini tanlash va yangilarini ishlab chiqish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy mutaxassis kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol usullari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-usuliy jihatdan asoslash lozim bo'ladi. Kollejlarda malakali kichik mutaxassis tayyorlash ishlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- mutaxassislik bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligi;
- ta'lim mazmunida ko'zlangan ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi;
- malakali kichik mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tarkibiy qismlari (nazariy mashg'ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o'zaro bog'liq holda uzviy tashkillashtirilishi;
- kasbiy ta'lim berish mazmunining fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti darajasi talablariga javob berishi. Bu talablarni bajarishda ishlab chiqarish ta'limining o'rni beqiyosdir.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun ma'lum texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, nazariy, texnikaviy bilimlar beriladi. U o'z mohiyatiga

ko'ra nazariy ta'lim va amaliy mehnat jarayonlarining sintezidir. Bu holat unga har tomonlama majmuaviy yondashuvni talab etadi. Har qanday ta'lim jarayoni o'zaro bir-birini taqozo etuvchi o'qitish - o'qish faoliyatini ko'zda tutadi. Bunda, maxsus ixtisoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchi faoliyati ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish hamda ularni qo'llashning amaliy ko'nikma hamda malakalarini o'zlashtirish. Ular ta'lim jarayonida birlashadi va bir butun pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ushbu xususiyat ta'lim berish jarayoni va usullariga ham taalluqlidir. Ishlab chiqarish ta'limi uzoq tarixga ega ta'lim berish turi bo'lib, uzoq davrlar mobaynida u bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirib kelingan.

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tobora keng ko'lam olayotgan yangi texnika va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bundan kelib chiqqan holda, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari uchun zamonaviy talablar darajasiga o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qo'llanma ham bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy pedagogika borasidagi nazariy bilimlarini puxta egallashlariga ko'maklashish, amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga puxta zamin tayyorlashga qaratilgan. Shuningdek, qo'llanma oliy ta'lim muassasalari hamda kasbhunar kollejlari o'qituvchilari, soha tadqiqotchilari uchun asosiy manbalardan biri bo'lib qoladi deb ishonamiz.

1-BOB. KASBIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH TARIXI, MAQSAD VA VAZIFALARI

1-Mavzu: Kasbiy pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

- 1.1 Kasbiy pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
- 1.2. Kasbiy pedagogika fanining asosiy tarmoqlari
- 1.3. Asosiy kasbiy pedagogik kategoriyalar
- 1.4. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi
- 1.5. Kasbiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari

Tayanch soʻzlar: milliy m'naviyat, ma'rifat, madaniyat, aqliy, axloqiy, amaliy, jismoniy sifatlar, ezgu niyat, ezgu soʻz, ezgu amal, pedagogika, komil inson, ta'lim-tarbiya, predmet, obyekt.

1.1 Kasbiy pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan yoshlar tafakkuri va ongida, yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga astoydil kirishish, doimo yonib yashash hissi jo'sh urgan bo'lishi kerak. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash barcha o'quv yurtlarining, shu jumladan, akademik-litsey, gimnaziya, kasb-hunar kollejlari, pedagogika institut va universitetlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Buyuk alloma A.Avloniy ta'kidlaganlaridek: «Tarbiya biz uchun yo hayot. yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».¹ Haqiqatan ham inson hayotini saodatga, baxtga, sof insoniy faoliyatga, o'zi tanlagan kasbga ega bo'lishida tarbiyaning roli nihoyatda muhim.

Yoshlarni tarbiyalashda biz uchun qadrli bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, unitilmas merosimizga mehr-muhabbat, ularga sodiqlik ruhini shakllanitira olsak, har birimiz uchun ijobiy natija berayotgan ishlarimiz borligi bilan faxrlanamiz.

Buning uchun avvalo milliy g'urur, milliy ong, milliy g'oya, ma'naviyat, yuksak madaniyat egasi kabi tushunchalarni yoshlarning ongiga singdirishimiz lozim. Chunki tarixni bilmasdan, o'rganmasdan

1.А.Авлоний .Туркий гулистон ёхуд-ахлоқ.-Т.:Ўқитувчи.1992.

undan ruhiy, ma'naviy ozuqa olmasdan turib, kelajakga, kelajakdagi orzu umidlarga erishib bo'lmaydi.

Demak, Kasbiy pedagogika fanining predmeti, o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun ham uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Tarbiya jamiyatning vazifasi bo'lib, u faqat ishlab chiqarish munosabatlari ta'sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g'oyalari ta'sirida aniq shaklga ega bo'ladi, shuning uchun ham ko'p jihatdan ma'rifatchi va pedagoglar faoliyatining natijasini ifodalaydi. Agar tarbiya alohida mustaqil vazifa sifatida kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan birga tarkib topgan bo'lsa, ta'lim nazariyasi fan sifatida bir muncha keyinroq shakllangan.

Tarbiya jamiyat hayotida sezilarli rol o'ynaydi. Jamiyatda tarbiya jarayonida to'plangan tajribani umumlashtirish ehtiyoji tug'ilib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga tayyorlash imkonini beradigan maxsus o'quv yurtlarini ochish zaruriyati paydo bo'lishi bilan birga, ta'lim nazariyasi ham fan sifatida rivojlana boshladi.

Ibtidoiy jamoa davrida ham ijobiy tarbiya tajribasini ommalash-tirishga urinish harakatlari bo'lgan. Masalan, kattalar va yoshlar o'rtasidagi munosabatlar bilan, keyinroq turli odat va marosimlar bilan bog'liq, kishilarning o'zini tutishning ba'zi bir ko'rinishlari shakllana boshlagan.

Qadimiy va O'rta Sharq adabiyoti namoyondalari orasida nazariy-pedagogik tarbiya ko'rinishiga ega bo'lgan qator ilmiy qarashlar mavjud bo'lgan. Ular orasida Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Kaykavus, Ibn Sino, Al-Farobiy, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlarini misol keltirish mumkin.

Feodalizm davrida tarbiya asosan din ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim nazariyasining asosiy g'oyalari diniy ilm orqali ifodalangan.

Tarbiya nazariyasining g'oyalari ancha oldindan ilgari surilgan bo'lishiga qaramay pedagogik ilmiy bilim-fan sifatida bir oz keyin shakllangan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi Yan-Amos Komenskiy (1592-1670) nomi bilan bog'liqdir. Komenskiy tomonidan taklif etilgan tamoyillar, ta'lim jarayonining shakl va uslublari

«Pedagogika»ning oltin fondiga kirgan. Uning mashhur «**Buyuk didaktika**» asari pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasida birinchi muhim ilmiy asar hisoblanadi.

O‘quv muassasasidagi o‘quv jarayonida ta’lim, tarbiya va ma’lumot o‘zaro bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Har qanday fan o‘rgatilishi mobaynida pedagog tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini shakllantiradi, madaniy xulq-atvorini tarbiyalaydi.

«Pedagogika» atamasi qadimiy Yunonistondan kelib chiqqan. Bu erda quldorlar farzandlarini o‘quv muassasasiga kuzatib qo‘yadigan, olib boradigan odamlarni «Peydalog» deb atashgan. Keyinchalik bu atamaning ma’nosi birmuncha o‘zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko‘rgan va tarbiya bilan shug‘ullangan shaxslar «Pedagog» deb atala boshlagan. Ko‘p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat o‘sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o‘rganadi, deb qaralgan. Ammo hayot shuni ko‘rsatdiki tarbiya nafaqat yoshlar uchun, balki kattalar uchun ham taalluqli ekanligini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni qolabersa butun insoniyat uchun tarbiyalash va o‘qitish, ularga ma’lumot berish qonuniyatlarini o‘rgatuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.

Oldinigi tarbiya jarayoni kattalar tomonidan bevosita mehnat faoliyatida amalga oshirilgan bo‘lsa, jamiyat rivojlana borgan sari bunday yo‘l talabga javob bermay qo‘ydi. Endi tarbiya bilan bilimdon, tajribasi etarli odamlar shug‘ullana boshladilar. Mashg‘ulotlar tobora tashkiliy shakl, ko‘rinishlarga ega bo‘lib, sekin-asta bu jarayon o‘quv muassasalarida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Pedagogika uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tib, hozirgi vaqtda ilmiy bilimlarning yaxshi shakllangan, katta nazariy va amaliy materiallarni o‘z ichiga olgan yirik tarmog‘iga aylandi. Bularning barchasi pedagogikaning tabaqalanishi, ya’ni uning alohida tarmoqlarga ajralishiga sabab bo‘ldi.

Har bir mustaqil fan o‘zining predmeti va metodik asosiga ega bo‘lgani kabi Kasbiy pedagogika fani ham fan sifatida shakllanib, o‘z predmetiga ega bo‘ldi. Barcha ijtimoiy fanlar kabi jamiyatdagi o‘zgarishlar, inqiroz, yuksalishlar Kasbiy pedagogika fanining metodologiyasi, o‘qitish jarayoni, g‘oyalar rivojiga ham o‘z navbatida ta’sirini ko‘rsatadi. Lekin insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat, tarbiyaviy jarayon mavjud bo‘lgan. Shu sababli ham tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash, hamda oldin tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, insoniyat hayotidagi buyuk o‘zgarishlarni, jamiyatni rivojlanishini, farovon

turmush tarzini tasavvur qilish qiyin.

Kasbiy pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot ishlar, pedagogik g'oyalar, ilmiylikka asoslangan natijalar jamlanmalari, ilmiy ishlanmalar, tajribalar, tavsiyalar asosida bir qator ilmiy pedagogik qo'llanmalar, darsliklar chop etilgan.

Xozirgi zamon pedagogika fani jahon pedagogikasining etakchi bir qismi bo'lib, pedagogika fani tarixi bilan mustahkam bog'liqdir. Kasbiy pedagogika fanining tarixi esa, pedagogikaning qismlaridan biri, uning maxsus tarmog'i hisoblanadi.

Kasbiy pedagogikaning bosh masalasi insonning kasbiga sadoqati, uni sevishi, butun hayotini unga bag'ishlab ijod qilish hislarini tarbiyalashdir. Tarbiyadagi keng ma'no ta'lim, rivojlanish, ma'lumot bilan bog'langan xolda barkamol insonni voyaga etkazishdir.

Kasbiy pedagogika fanining maksadi:

-Respublikamizda komil insonni voyaga etkazishning bir butun xolatdagi muammolarini xal qilish;

-Ta'lim-tarbiya samaradorligini tinmay oshirish va uni dunyo talablari darajasiga olib chikish, kasbiy mutaxassislika ijodiy yondashish;

-Umuminsoniy kadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib, kasbiga sadoqatli yondashish imkonini yaratish;

-Pedagogika-tarbiyashunoslik qoida, konunlarni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish va yangi ish shakllarini izlashga tadbirlar belgilash;

-Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlashtirish muammolarini xal qilish;

-“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni amalga oshirish.

Kasbiy pedagogika fanining vazifalari:

-Sharq va G'arbda xalk yaratgan xalk ogzaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, komil insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish;

-Komil insonni tarkib toptirishning konuniyat, koida va zaruriy sifatlarini aniklash;

-Pedagogikadagi ta'lim-tarbiya nazariyasini xozirgi darv xususiy metodikasi bilan uzviylik muammolarini ishlab chikish va yangi pedagogik texnologiya konunlariga amal qilish;

-Ta'lim-tarbiya nazariyasidagi koida, konun, tamoyil, metod va usullarini amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish;

Xalq ta'limini boshqarish va raxbarlik masalalarini chuqur o'rganib

bo'lajak o'qituvchilarni kanday tayyorlash muammolarini hal qilish.

Pedagogika fanining mazmuni, maksadi, vazifalari, tamoyil, usul va vositalari umuman, xar bir inson uchun zarur bulgan tarbiyaviy ta'sirlar yangicha asosga ega bulishi kerak.

“O‘zbekistonning yangilanish va rivojlanish yo‘li turтта asosiy negizga asoslanadi:

- Umumiy kadriyatlarga sodiklik;
- Xalkimizning ma'naviy merosini mustaxkamlash va rivojlantirish;
- Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

Kasbiy pedagogika tarixi pedagogik ta'limotning ta'lim va tarbiyaning rivojlanish masalalarini, ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etuvchi pedagogik g'oyalarning salbiy pedagogik g'oyalarga qarshi kurashi tarixini, hukmron tabaqalarning demokratiyaga qarshi kurashish siyosatini ochib tashlaydi, ilg'or pedagogik g'oyalar, hur fikrlar, ta'lim qonuniyatlarining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoyillarini tahlil qiladi, muhimi umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o'rta tashlaydi.

1.2. Kasbiy pedagogika fanining asosiy tarmoqlari

Tarixiylik tamoyili har qanday fan rivojlanishining zarur tamoyili hisoblanadi. Zero o'tmishni hozirgi davr bilan qiyoslash faqat hozirgi hodisalarning asosiy rivojlanish bosqichlarini yaxshi kuzatib borishga yoki o'tmishning bebaho tajribasi hamda erishilgan yutuqlardan foydalanishga yordam berib qolmay, shu bilan birga, bu sohada xatolarga yo'l qo'yishdan saqlaydi va kelajakka yo'naltirilgan amaliy takliflar, maqsadli izlanishlarni amalga oshirishga ko'p darajada asos bo'ladi. Jamiyat hayotini qayta qurish, o'sib kelayotgan yosh avlodni shuningdek, hamma mehnatkashlar tabaqalarini tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi. Bunday sharoitda pedagogikaning tadqiqot sohalari doirasi kengayadi. Xozirgi kunda pedagogikani asosiy tarmoklari sifatida kuyidagilarni keltirib utamiz.

Yosh davrlari pedagogikasi mazkur guruhlar bilan, ularning yoshiga qarab olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi, hamda eng avvalo ularni tarbiyalanuvchilarning o'quv muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi.

Katta yoshdagilar pedagogikasida oliy o'quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarni tarbiyalashning nazariy masalalari va metodikasini

ishlab chiqadigan pedagogika tarmog‘i sifatida Oliy o‘quv yurti pedagogikasining shakllanayotganligi, uning aniqlashib borayotganligi ko‘zga tashlanadi.

Milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy o‘quv yurtlarida yoshlarga ta‘lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan **harbiy pedagogika** sohasi shug‘ullanadi.

Bulardan tashqari **oila pedagogikasi** bugungi kundagi dolzarb vazifalardan birini tashkil etib, oilalarda, oila markazlarida, mahallalarda, jamoat tashkilotlarida, oila-nikoh muassasalarida amalga oshirilayotgan tadbirlarda namoyon bo‘ladi.

Umumiy pedagogikada tarbiyalanuvchilar orasida mafkuraviy targ‘ibot va madaniy ma‘rifiy ishlar ham o‘ziga xos tarmoqlariga egadir. Bu mehnatkashlarni tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo‘shadi va belgilangan pedagogik g‘oyalarga suyanadi. Pedagogika fanining hamma tarmoqlari o‘zining turli rivojlanish, taraqqiyot bosqichlariga egadir: ularning ayrimlari aniq shakllanib bo‘lgan va etarli darajada keng ishlab chiqilgan boshqalari o‘zining shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda (masalan, oliy o‘quv yurti muassasasi pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi) ba‘zi bir tarmoqlar esa pedagogikadan endigina ajralib chiqishi boshlanmoqda. Umumta‘lim o‘quv yurtlarida emas, balki yordamchi o‘quv yurtlarida shug‘ullanishlari mumkin bo‘lgan shaxslar ya‘ni, ko‘rish, eshitish, so‘zlash a‘zolarida kamchiliklari bo‘lgan shaxslarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiyalash va ta‘lim berishning o‘ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar pedagogika fanining maxsus guruhini tashkil etadi. Pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus guruhga birlashtirilgan. Ular quyidagilar:

Defektologiya tarmog‘ining o‘zi ham o‘z navbatida alohida mustaqil bo‘lgan bir necha tarmoqlarga bo‘linadi:

Surdopedagogika - kar va gung tarbiyalanuvchilar ta‘lim-tarbiyasi masalalari bilan;

Tiflopedagogika - ko‘zi ojiz tarbiyalanuvchilar ta‘lim-tarbiyasi bilan;

Logopedlar esa nutqida nuqsoni bor, duduqlanadigan bola bilan ishlaydi.

Oligofrenopedagogika - aqli zaiflar ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Bunday ilmiy ishlar bilan shug‘ullanadigan institutlar Respublikamizda turli tavsiyalar berish, metodikani ishlab chiqish bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar, tajriba almashinish bilan ham samarali

tadbirlarni olib borishadi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida maxsus tashkil etilgan Defektologiya fakultetida munosib mutaxassislar tayyorlanayotganligi fikrimizning dalilidir.

1.3. Asosiy kasbiy pedagogik kategoriyalar

Bizga yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, pedagogika Fani ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, yo'llarini ko'rsatib beradi. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga tarbiya, ta'lim, ma'lumot kiradi. Lekin, hozirgi pedagogikani taraqqiy etib borishida, asosiy pedagogik kategoriyalar qatoriga rivojlanish va shakllanishni xam kiritisa bo'ladi.

Tarbiya - O'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va ma'suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida shakllanib boradigan jarayondir. Pedagogikada «tarbiya» tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llanishi mumkin.

Keng ma'noda qo'llanishi deganda – katta avlod vakillari o'zlari to'plagan xayotiy tajribalarini yosh avlodga qoldirishlarini tushunish mumkin.

Tor ma'noda qo'llanishi deganda – maxsus ta'lim muassasalari orqali shaxsda aniq bilim, dunyoqarash, ichki xisssiyotlarini, umuman xayotga tayyorgarligini rivojlantirish tushuniladi. Shu yerda savol tug'iladi: qaysi ta'lim muassasasi boshqasiga nisbatan tarbiya taqdiriga ko'proq ta'sir ko'rsatadi? Bola tarbiyasini buzilishiga faqat tarbiya muassasalari va pedagoglar ko'proq sababchimi? Degan savollar insoniyatni doimo qiziqtirib keladi.²

Ta'lim – maxsus tayyorlangan kishilar raxbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, kunikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, ikki tamonlama xarakterga egadir. O'qituvchining

² И.П.Подласий . Педагогика .Владос .2003.25-стр .

faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijani beradi. Ta'lim jarayonini mazmunini bilim, ko'nikma va malaka tashkil qiladi.

Bilim – bu o'quvchilar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bilimni xayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

Ko'nikma – mashq qilish natijasida beriladigan xarakatlar yiqindisidir.

Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali **malakaga** aylanadi.

Bilim asosida ko'nikma va malaka paydo bo'ladi. Bilim baxsda kerak bo'lsa, ko'nikma mexnatda, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

1.4. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Kasbiy pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o'ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. SHu bilan birga, pedagogika o'quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko'pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o'quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

«Kasbiy pedagogika» tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o'rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog'liqdir. «Falsafa» fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyat-larini tashkil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy xodisalar orasidagi o'zaro aloqalar; dunyoqarashni, ahloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning ahloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni xal etishda pedagogika ahloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni xis qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llari belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiyligini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan obyektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

Kasbiy pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Kasbiy pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak. kon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki

jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan bo'lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o'zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo'lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Albatta ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir tomondan ta'lim nazariyasini, ta'lim-tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Ovrupo orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyida keltiriladigan tushunchalarda xususiy milliylikdan ko'ra, umuminsoniylik jihatlarning ko'pligi ko'zga tashlanib turadi.

1.5. Kasbiy pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Pedagogika fani o'z mazmunini boyitishda yangilashda mavjud bo'lgan pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri qo'llansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog pedagogik jarayonda o'z auditoriyasi tarbiyalanuvchilari xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan, ularni psixologiyasini chuqur o'rganib bir qator metodlarni qo'llash mumkin. Chunki pedagogning asosiy maqsadi dars jarayonini tarbiyaviy ta'sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodlarni keltirib o'tish lozim bo'ladi.

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat usuli (yakka tartibda, guruh bilan)
3. Talabalar ijodini o'rganish usuli.
4. Test usuli
5. Ma'lumotlarni tahlil qilish usuli.
6. Eksperiment-tajriba-sinov usuli.
7. Statistika ma'lumotlarini taxlil qilish usuli.
8. Matematika va kibernetika usuli.

Ta'lim usullarini tanlash bilan bir katorida O'qituvchi darsdagi talabalarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini urganishi xamda taxlil qilishi shart.

Pedagogik kuzatish - odatda tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalardagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Suhbat metodi - so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'li shvaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Suhbat metodida maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnet tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va praktikasi intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinash va h.k.

Pedagogik so'rash metodi - tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni («ha», «yo'q») ham taqozo etishi mumkin.

Test sinovlar metodi - bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli – bunda o‘quvchilarning umumiy miqdori, uning o‘sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasiga, sinfdan qolishning oldini olish, Rag‘batlantirish va jazolash choralari turlariga, maktabning moddiy bazasiga e‘tibor beriladi.

Eksperiment, tajriba-sinov usuli - Ushbu tajriba asosan ta‘lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy fara zyoki amaliy ishlarning tadbiqu jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Statistika ma‘lumotlarini tahlil qilish usuli - xalq ta‘limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag‘larning doimiy o‘sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali qurollar, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari - o‘qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta‘lim va uni mashina orqali boshqarish, o‘qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta‘lim berish, maktab hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlardir.

Bu kabi metodlardan foydalanib ta‘lim va tarbiya ishlarini olib borish faqatgina pedagog uchun emas, iqtisodiyot jabxalarida faoliyat yuritayotgan boshqaruvchi xodimlar, oilada farzand tarbiyasi bilan shug‘illanuvchi ota-onalar uchun ham, jamoa bilan ishlaydigan ma‘suliyatli shaxs uchun xam zaruriy shart bo‘lgan usullardan biridir. Zero, inson tarbiyasidek murakkab jarayonga hech qachon e‘tiborsiz bo‘lmaslik zarur

O‘z-o‘zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. Kasbiy pedagogika fanining predmeti nima?
2. Kasbiy pedagogika fanining obykti va maqsadi, vazifalarini izohlang!
3. Kasbiy pedagogika qanday fanlar bilan aloqada?
4. Kasbiy pedagogika tarmoqlarini ko‘rsatib o‘ting!
5. Kasbiy pedagogika fanining qanday ilmiy tadqiqot metodlari mavjud?
6. Kasbiy pedagogika fanining qanday katigoriyalarini bilasiz?

Adabiyotlar

1. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta'limiy- axloqiy qarashlar.-T., 2005.
2. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
3. Ismayilova . Z. K. Pedagogika. -T.: Moliya-iqtisod. 2008
4. O‘.Tolipov, M.Barakaev, SH.SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma’ruzalar matni).– T.: TDIU, 2001.
5. N.Xo‘jaev, J. Hasanboev. Iqtisodiy pedagogika. – T.: TDIU, 2002.
6. G‘aybullaev M. va b.q.. Pedagogika. (Ma’ruza matni) - T.O‘z.MU. 2000.
7. Maxmudov Yu.G‘., Xudoyqulov X.J. Pedagogika.Psixologiya. –T.: Djayin-Press. 2011.
8. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.inter-pedagogika.ru.
9. www.newhorizons.org. www.rhecherswithoutborders.org.
www.thelearningweb.net. www.inetlibrary.com.

2-MAVZU: PROFESSIONAL TA'LIM PEDAGOGIKASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

- 2.1. O'zbekistonda professional ta'limi islohoti.
- 2.2. Kasbiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari.
- 2.3. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar; kasblarni tahlil qilish metodlari.
- 2.4. Oliygozlarda professional ta'lim va uning rivojlanish darajasi.

Tayanch so'zlar: allomalar, insoniyat kamoloti, ta'lim-tarbiya mazmun-mohiyati, axloqiy va salbiy sifatlar, kasbiy islohat.

2.1.O'zbekistonda professional ta'limi islohoti

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasi Qonun-qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, xalqimizning milliy boy tajribasiga asoslanib, ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan, hamda yuksak kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qib olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarni tanlab, ularning barcha imkoniyatlarini yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Tub islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish ko'p jihatdan iqtisodiy ta'limga bog'liqdir. Kishilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirmasdan turib, chuqur o'zgarishlarni amalga oshirib bo'lmaydi.

«Mustaqil taraqqiyotimizning bosib o'tgan yo'lga nazar tashlar ekanmiz milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarilganligi, ko'pgina sohalarda barqaror o'sishga erishilganligining guvohi bo'lamiz. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davr ichida milliy istiqbol g'oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda».¹

Bugungi kunda xalqning boy zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida mutaxassislar

1.Шодмонов Ш., Алимов Р., Жўраев Т. Иқтисодиёт назарияси. Т.: Молия, 2002, 3-бет.

tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Bugungi kunda, mamlakatimiz Oliy ta‘lim tizimida muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamon talablari darajasida qayta tashkil etish maqsadida iqtisodiy ta‘limning halqaro andozalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki dunyoning rivojlangan va bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarning deyarli barchasi yangi mexanizmning keskin o‘zgarishlariga moslasha oladigan va har qanday sharoitda raqobatlasha oladigan muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlash borasida zamonaviy iqtisodiy ta‘lim tizimiga egadirlar.

Jamiyat taraqqiyoti darajasi, axborotlarning haddan tashqari ko‘pligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, umuman olganda, hayot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni vaziyatni tezda anglay oladigan, ayni shu vaziyat uchun to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan yuksak malakali mutaxassislar qilib tayyorlash uchun faqat an‘anaviy uslublargagina tayanib dars o‘tish etarli emas.

Hozirgi paytda tayyor bilimlarni o‘zlashtirish asosiy maqsad bo‘lmay, eng asosiysi talaba-yoshlarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil kasb tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish obyektiv zaruriyatga aylandi.


Ma‘lumki iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar o‘z navbatida mutaxassislar malakasi va mahoratini yuqori bo‘lishini, mutaxassislarga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga moslashuvchan, o‘z malakasini oshirishga intiluvchan bo‘lishni talab etadi. Buning uchun muhandis-pedagog mutaxassislarni mustaqil izlanish, fikrlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatish lozim.

Oliy ta‘limning respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘naviy rivojini ta‘minlashda o‘zi tanlagan mutaxassis bo‘yicha bozor iqtisodi sharoitida ishlashga layoqatli, yuqori malakali, iqtidorli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Bo‘lajak kadrlarda chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirish, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqatini, Vatanga muhabbatini, bu yo‘ldagi fidoyilikni tarbiyalashni davom ettirish ham oliy ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridandir.²

Iqtisodiyot bilan shug‘ullanishning birinchi vazifasi talabalarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish bo‘lsa, keyingisi ana shu bilim asosida malaka va ko‘nikmalar hosil qilishdir. Iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni

² Фуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес.-Т.: «Шарк», 2002.

rivojlantirish jarayoni quyidagicha kechadi: bilim-ko‘nikma-malaka. Bu jarayon mexanizmi quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:



Professional ta'lim bizga, O'zbekiston mustaqilligining birinchi yillaridan kirib keldi. Chunki, qo'llanayotgan tajribalar kasbiy ta'limning asosi bo'lib xizmat qiladi. Talabalarimizga kasbiy ta'lim, kasbiy tarbiya berish muammolari ko'zga tashlanib qoldi. Har bir insonning hayoti asosini iqtisodiy faoliyat tashkil etar ekan, u albatta har bir odamdan iqtisodiy fikrlashga o'rganishni talab qiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida bu talab yanada kuchayadi. Shuning uchun ham muhandis-pedagoglarga yoshlikdan boshlab iqtisodiy fikrlashni o'rganishlari uchun, mamlakatimizda o'rta umumta'lim maktabidan boshlab, iqtisodiy bilim asoslarini o'rganishga kirishildi.

Oliy o'quv yurtining talabalari, ayniqsa iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtining talabalari esa iqtisodiy fikrlashni o'rganibgina qolmay, keng doiradagi iqtisodiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga baho berish, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijalarga olib kelishini ko'z o'ngida keltira bilishni o'rganishi zarur.

Shunday qilib, bugungi kunda jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolarni o'z vaqtida anglab etgan holda ularni oqilona hal qilish uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilash soha mutaxassislaridan juda katta bilim va malakani talab etadi. Bo'lg'usi muhandis-pedagoglar bugungi davr talablariga javob berish uchun o'z bilim va malakasini tinimsiz oshirib borishi, zamonaviy tajribalarni qunt bilan o'rganishi, izlanishi lozim. Bu nafaqat bugungi kun kishilari, balki kelajak avlod oldida ham juda katta mas'uliyatni bo'yniga olish demakdir.

2.2. Kasbiy pedagogikaning rivojlanish bosqichlari

Kasb ta'limi uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilib borildi, biroq ushbu tadbir bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllanish darajasining pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'z bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. SHu sababali kasbiy mahorati etishmaydigan, ijodiy izlanishlardan yiroq, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar ishida no'noq kishilar ham shu sohaga aralashib qoldilar. Oliy ta'lim tizimida yo'l qo'yilgan bunday xato va kamchiliklar ijtimoiy hayotimizda o'zining salbiy oqibatlarini namoyon qildi. Respublikamizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, kasb mahorati deyilganda bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o'zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning bugungi bosqichida "Kasb pedagogikasi" fanining asosiy vazifasi sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan mutaxassislarni tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondoshuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tadbiriq qilish sifatlarini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim. Kasbiy ta'limga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Ta'lim islohotlari natijasida gimnaziya, litsey, kollej va boshqa turdagi yangi o'quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi;
2. Oliy o'quv yurtlarida kasb ta'limini tashkil qilish, alohida bo'lim va fakultetlarning tashkil etilishi;
3. Kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog'lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

4. Kasbiy ta'lim muassasalarining aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi, mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllarini joriy etishi va boshqalar.¹

Kasbiy pedagogika talabalarni ta'limi, tarbiyasi, o'qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, ta'lim-tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta'limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. Ushbu fan insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko'zda tutadi.

2.3. Kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o'zgarishlar, kasblarni tahlil qilish metodlari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi – yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini barpo etish strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlarini uning komponentlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish vazifalarini hisobga olgan holda ishlab chiqishdan iboratdir. Bu masalani ilmiy-pedagogik jihatdan to'g'ri hal etish, hozirgi kundagi tadqiqot ishlarining mavzusi va tadqiqotchilarning mashaqqatli mehnati tufayli amalga oshiriladigan muammodir.

Shuning uchun iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida hamda ta'lim tizimini o'rganish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilgan yutuqlarni atroflicha tahlil etish, mavjud muammo va kamchiliklarni batamom bartaraf etish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish usullarini ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali amalga oshirish, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari ilgari suriladi. Bunda, asosiy e'tibor O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonini jadal sur'atlarda rivojlantirishga qaratiladi. Bu esa mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyot – bu shunday xo'jalik tizimiki, u zarur hayotiy ne'matlarni yaratish yo'li bilan odamlar va jamiyat ehtiyojini qondiradi, xo'jalik yuritish faoliyatini yaxshilaydi, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlaydi. Demak, inson birinchi navbatda, moddiy talab-ehtiyojini qondirishga iqtisodiy faoliyat orqali erishadi, o'z rizq-ro'zini yaratadi.

1. Ў.Қ.Толипов, М.Баракаев, Ш.Шарипов. Касбий педагогика. (Маърузалар матни). –ТДИУ, 2001.

Bunga erishish uchun muhandis-pedagog mutaxassislarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish orqali ularni:

-jamiyat iqtisodiy qonunlarini o'rgatuvchi bilimlar bilan qurollantirish;

-jamiyatning iqtisodiy siyosatini to'g'ri anglab etadigan mutaxassis-shaxsni shakllantirish;

-ishlab chiqarishdagi faol iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish, mehnat qilishning ilg'or shakl va metodlarini o'rganib olishga yo'llaydigan dastlabki malakalarni egallab olish.

Bu kabi muammolarning oqilona hal etilishi esa har tomonlama bozor munosabatlari talablariga javob bera oladigan muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlashga bog'liqdir. Chunki, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mustaqil respublikamiz oldidagi yangidan-yangi maqsad va vazifalarni chuqur anglab etgan, har tomonlama etuk, zamon talablariga mos keluvchi bilim va tajribaga ega bo'lgan muhandis-pedagog mutaxassislarga mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin. Biroq, yangi sharoitda samarali faoliyat yurita oladigan muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlash borasidagi muammo va kamchiliklarning mavjudligi tufayli, yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlarni o'zida mujassam etgan mutaxassislarni tayyorlashda bir qator to'siqlar yuzaga kelgan bo'lib, ularning oqilona yechimini topish bevosita mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beruvchi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

«Kasbiy pedagogika» fanining asosiy tushunchalari, mazmun-mohiyati kasbiy ta'limning turli tizimlarida quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

-o'qituvchilarning yangi va yanada murakkab tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o'z kasbiy mahoratini oshirishi;

-kasbiy-texnik ta'limning yangi konsepsiyalarini amalga oshirish vosita va yo'llarini yaratishga alohida e'tibor qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;

-pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish;

-ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish;

-rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta'lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solishi uchun sharoit yaratish, kasbiy mahoratni egallashi uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga erishishdan iborat.

2.4. Oliygozlarda kasbiy ta'lim va uning rivojlanish darajasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, rivojlanishning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini tanlab oldi hamda huquqiy demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyatini qurishni amalga oshira boshladi. Bunday davlatda jamiyatning ma'naviy yangilanishi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirish jahon hamjamiyatiga uyg'unlashtirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zbek xalqining ko'p asrlik ilmiy va madaniy an'analarini, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika hamda jamiyatning rivojlanish istiqbolini e'tiborga olgan holda ta'lim sohasida olib borilayotgan aniq maqsadlarga erishishning muhim shartlari bo'lib hisoblanadi.

Mohiyati jihatidan mutlaqo yangi bo'lgan Kadrlar tayyorlashning milliy modeli "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan iborat qonunlarning qabul qilinishi va joriy etilishi ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirish hamda yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni oldindan qayta tayyorlashdan iborat strategik maqsadga erishish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu o'zgarishlarni maxsus dasturlar asosida amalga oshirish, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini joriy etish, kompyuterlashtirish, ham xorijda, ham o'z yurtimizda oliy ta'lim muassasalaridagi yosh mutaxassislarni jadal tayyorlashni tashkil etish, bular barchasi, Prezidentimiz, davlatimizning diqqat markazida turibdi. Respublikamiz hukumati tomonidan umuman moliyalash tizimini, xususan, ta'lim tizimidagi moliyalashni takomillashtirishni talab etilmoqda.

Mamlakatimizda 1997 yildan boshlangan mavjud ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni, ta'lim muassasalariga iqtidorli, bilimga chanqoq yoshlarni jalb etmasdan, oliy maktab faoliyatini tubdan o'zgartirmasdan turib ezgu ishlarimizni mantiqiy yakuniga etkazib bo'lmaydi. Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishda yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida samaraga erishishda ta'lim tizimini takomillashtirishda, ta'lim muassasalari faoliyatiga shart-sharoit, imkoniyat yaratishda etarli mablag'ga ega bo'lmasdan turib ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan oliy ta'limni moddiy qo'llab-quvvatlash o'quv yurtlarining noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy xizmat ko'rsatish va ustavga muvofiq amalga oshiriladigan boshqa faoliyatlar hisobiga o'quv yurtlari daromadini oshirish bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi lozim. Bular ta'lim muassasalarida

zamonaviy texnika vositalari, jihozlar, yangi texnologiyalarga xususan, axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojni ta'minlaydi, ular mustaqilligini oshiradi, fanning ta'lim bilan uyg'unlashuvining ta'sirchan vositalarini ishlab chiqish va joriy etish imkonini beradi va oqibat natijada oliy ta'lim tizimiga yangi kuch baxsh etadi. Bu sa'y-harakatlar o'zlarida ilmiy bilim bilan garmonik jihatdan mukammal inson bo'lishini mujassamlashtirgan, oila, jamiyat, davlat oldida o'z mas'uliyatini chuqur his etadigan fidoyi mutaxassislarni tayyorlashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishi shubhasizdir.

Bizning mamlakatimiz uchun kadrlar tayyorlash va yangi ta'lim ustuvorliklariga alohida e'tibor qaratib kelgan Prezidentimiz I.Karimov shunday degan edi: "Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatida insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan jips bog'liq uzluksiz ta'lim tizimi orqali fuqaro shaxsni har tomonlama rivojlangan bo'lishi ko'zda tutiladi", shu bilan birga davlat boshlig'i tomonidan xalqaro tajribani albatta hisobga olgan holda o'zida ana'analarni mujassam etgan va takomillashgan jamiyat barpo etishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'limning eng muhim vazifasi bo'lib, jamiyatni zamonaviylashtirish, mamlakatni rivojlanishining oldingi o'rinlariga olib chiqishga qodir mutaxassis xodimlar bilan mustahkamlash, sog'lomlashtirish, yangilash va to'ldirish hisoblanadi. Bunda zamonaviy bozor iqtisodiyoti mutaxassislari tayyorlashga yangi talablar qo'yimoqda. Har bir ish o'rnida ishlab chiqarishni rivojlantirishda ishtirok etish, o'z tavsifi va texnologiyaviy jihatiga ko'ra ancha murakkab mahsulotning tez o'zgaradigan yuqori sifatligini ta'minlash, ashyolar tannarxi oshib borishini iashlab chiqarish usullarini takomillashtirishi va sarflarni kamaytirish yo'li bilan tizginlashdan iboratdir.

Asosiy masala shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoiti har bir ishtirokchiga faol iqtisodiy fikrlashga erishish talabini qo'yimoqda. Innovatsiya strategiyasida bu ayniqsa yuqori ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, bozor iqtisodiyoti garchi yangilikka qulaylik bersada, lekin o'zi bunga shart-sharoit yarata olmaydi. SHuning uchun bozor munosabatlariga jalb etilgan barcha mutaxassis xodimlarda strategik fikrlash, iqtisodiy rivojlanish qonunlarini tushunish, yangilikni baholay bilish, mustaqil qaror qabul qilish, yuzaga kelgan qiyinchilikni engay bilish, zarur bo'lganda o'z qarorini asoslab tushuntirib berish va isboti bilan ifodalash muhim sifat bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda kasb ta’limi islohotlarini amalga oshirishdan asosiy maqsad ta’lim-tarbiya jarayonini yuqori cho‘qqilarga olib chiqishdir. Islohotlarni amalga oshirish zaruriyati kasb pedagogikasi fani oldiga ko‘proq ijodiy xarakterdagi ilmiy tadqiqot ishlarini yaratish vazifasini qo‘ymoqda. Hozirgi zamon har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlarni o‘qitish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirishni talab etadi. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ta’limning eski usullaridan voz kechish, faqat muayyan bilimlar majmuigagina ega bo‘lgan yosh kadrlarni tayyorlashdan o‘zining butun bilim va imkoniyatini namoyon etishga qodir, yuksak axloqli, har tomonlama yetuk insonni tayyorlashga o‘tish kerak. Kasb pedagogikasining jahon miqyosida erishgan yutuqlari darajasini, axloqiy-estetik me’yorlar rivoji ustuvorligi hisobga oluvchi milliy maktabga tayanuvchi, milliy madaniyat o‘chog‘i hisoblanuvchi, shu bilan birga madaniyatlarning oqilona dialogini olib borishga qodir uzluksiz ta’limni rivojlantirish strategiyasi haqidagi masala dolzarb bo‘lib qoldi. Bunday ta’lim umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim va oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirilishi va mustahkamlanishi lozim.

O‘z-o‘zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. O‘zbekistonda kasb ta’limi islohoti qachondan boshlangan?
2. Kadrlar tayyorlashdagi kasbiy-malakaviy o‘zgarishlar haqida fikr bildiring?
3. Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Kasb ta’limi vazifalariga nimalar kiradi?
5. Kasbiy mahorat deganda nimani tushunasiz?
6. Kasbiy ta’limning shakllanish jarayoni haqida Sizing fikringiz?
7. Kasb ta’limi tizimini rivojlantirishdagi asosiy yo‘nalishlar nimalardan iborat?
8. Mamlakatimiz iqtisodiyotida qanday o‘zgarishlar amalga oshirilyapti?
9. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimidagi ustuvorliklar nimalardan iborat?
10. Oliy kasbiy ta’lim va uning rivojlanish bosqichlari haqida so‘zlab bering?

Adabiyotlar

2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta'limiy- axloqiy qarashlar.-T., 2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. Ismayilova . Z. K. Pedagogika. -T.: Moliya-iqtisod. 2008
5. O‘. Tolipov., M.Barakaev., SH. SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni).– T.: TDIU, 2001.
6. N. Xo'jaev, J. Hasanboev. Iqtisodiy pedagogika. – T.: TDIU, 2002.
- 7.G'aybullaev M. va b.q.. Pedagogika.(Ma'ruza matni) - T.O'z.MU. 2000.
9. Maxmudov YU.G'., Xudoyqulov X.J. Pedagogika.Psixologiya. –T.: Djayin-Press. 2011.
10. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.inter-pedagogika.ru.
11. www.newhorizons.org. www.rhecherswithoutborders.org.

3-MAVZU: PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MILLIY ISLOHOTLAR YO'NALISHLARINING MOHIYATI

Reja:

- 3.1. Jamiyat rivojlanishida kasbiy pedagogikaning paydo bo'lishi, uning komil inson ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni.
- 3.2. Zardushtiylik ta'limoti. Islom dini ta'limoti.
- 3.3. Halq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari.

Tayanch so'zlar: komil inson, aqliy, amaliy, axloqiy, jismoniy sifatlar, zardushtiylik, islomiy-axloqiy tarbiya, etnografiya.

3.1. Jamiyat rivojlanishida kasbiy pedagogikaning paydo bo'lishi, uning komil inson ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish mazmun-mohiyati va uslubiyati davrlar rivojlanishida taraqqiy etib kelganligini nazarda tutmasdan turib, o'quvchilarni o'qitish reja va dasturlarini tuzib bo'lmaydi. Ta'lim-tarbiya bu birinchi navbatda hayotiy tajribani bir avloddan keyingi avlodga taqdim etishdir. O'zbek xalqining bu sohadagi tajribasi juda boy. Hozirgi zamon pedagogika fani ta'lim-tarbiyaga oid ota-bobolarimizning fikr va g'oyalarni o'zlashtirishga, xalq pedagogikasi manbalarini, milliy urf-odatlar va qadriyatlarini o'rganishga ham xizmat qiladi. SHuni ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqining nihoyatda boy madaniy-ma'naviy merosi o'sayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasida buzilmas poydevor vazifasini o'taydi. Ta'lim-tarbiyani o'rganar ekanmiz, u juda qadimiy jarayon ekanligini insoniyat butun hayoti davomida u bilann shug'ullanganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu jarayonda ajdodlarimiz tarbiyaviy ta'sirining samarali usullari va manbalarini qidirib hayotga tadbiq qila oladigan faoliyatini yosh avlodga bag'ishlaganlar. Buning natijasida tarbiya haqidagi g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshlagan. Bu esa Kasbiy pedagogika fanining paydo bo'lishiga olib kelgan.

O'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omilidir. Buning ijtimoiy funksiyasi avloddan-avlodga oilaviy, mexnat, ijtimoiy va siyosiy tajribani o'tkazishi bilan yaqqol ko'rinadi. Bu tajriba madaniyat, san'at, sanoat, ilm, til, ma'rifat, g'oya orqali va odob-axloq qoidalari bilan ifodalab beriladi. Har bir davlat tizimi, ijtimoiy munosabatlar, insoniyat istiqboli, uning hayot va turmush darajasi sanoat va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiya inson jamiyati paydo bo'lishi bilan boshlandi va rivojlanib bordi. Ko'p asrlar ilgari O'zbekiston xozirgi hududida ibtidoiy jamoa-urug'chilik tuzumi davrdagi bolaning ta'lim-tarbiyasi oilada (qiz-bolalar ayollarning, o'g'il-bolalar voyaga yetishlari bilan erkaklar ko'rigida), jamoa, mehnat va ov maskanlarida bo'lib o'tar edi. Yosh bola tug'ulishi bilanoq ota-ona parvarishi orqali atrof-muhit, odamlar bilan munosabat va muloqot va mehnat bilan tanishadi. Turmush va mehnat faoliyati boshlanishi bilan halol mehnat bilan oziq-ovqat topishi, ishlab chiqarish tajribasi kabi ko'nikmalarini o'zlashtiradi. SHu jarayonda bolada aqliy, ruhiy va jismoniy kamolot, ma'naviyat va madaniyat, odob va axloqiy qarashlar shakllanadi va rivojlanadi. Mehnatda bola dehqonchilik, chorvachilik, uy, mehnat va ov uchun qurollarni ishlab chiqarishlarni o'ziga o'zlashtirib oladi va shu bilan tarbiyalanadi. YOshlarga o'rgatilgan mehnat ko'nikma va malakalari ularni tabiat fojialaridan o'zini va oila a'zolarini saqlash, erdan yaxshi hosil olish, chorvani o'stirish va ko'paytirish, ovda kuchli, chaqqon va epchil bo'lish, jamoasi bilan birgalikda qiyinchiliklarni o'tash, ya'ni yaxshi yashash uchun bor kuchi va aqlini ishga solish kerak bo'lsa, kurashishga tayyorlanar va binobarin, aql-idroqli, qobiliyatli, xushmuomala va odobli bo'lib o'sishlariga xizmat qilardi.

O'zbek xalqi hayot va mehnat jarayonida, borliqdagi narsalar va vaziyat-xodisalarga munosabatlari asosida o'z dunyoqarashi, qadriyatlarini va aqidalariga tayanib muhim falsafa va pedagogik fikr va g'oyalarini xalq og'zaki ijodi asarlariga kiritgan. Bu ilk fikrlar "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustam-doston", "Barchinoy", "Farxod" mifologik dostonlarda ifodalangan. Xalq ijodi bo'lmish bu dostonlar xalq pedagogikasidan o'zbek millatining yosh avlodni hayotga tayyorlashda qo'llagan vosita va usullarni, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odati va an'analari ta'lim-tarbiya qoidalari va xayotiy tajribasini mujassamlashtiradi. Shu jihatdan, bu dostonlar yoshlarni davr talablariga muvofiq odamizot qilib yetishtirishda, ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda qo'llagan qonuniyat, tamoyil, usul, vosita va tajribalar majmualaridir.

O'zbek xalq pedagogikasi hali maktab va maqsadli o'qitish bo'lmagan, kasbiy pedagogika fan sifatida shakllanmagan davridayoq oila va atrofdagi jamiyat orqali yosh bolalarda aql-idroq, odob-axloq, mehnatsevarlik, uddaburonlik, iste'dodlik, jismoniy va ruhiy salomatlikka tayanish, jangovarlik, insonparvarlik, mehr-murvatlilik, shiddatlilik, do'stlik xislatlarini shakllantirish va kuchaytirish usullari hayotiy tajribadan kelib chiqib paydo bo'ldi va rivojlandi. Odamlar o'sha paytda

ham bilganki insoniyat bu dunyoda qolishi uchun vaxshiylik, qonho'rlik, o'g'rilik, urush va mojaro, odamizotni qiynash bilan mutlaqo erishib bo'lmaydi, balki shu uchun tinchlik, vijdoniylik, insonparvarlik, halol mehnat kerak. Xalq pedagogikasidan kelib chiqqan milliy urf-odat va an'analarimiz jamoa ahlining o'z-o'zini anglashiga, ijtimoiy burchini bajarishiga, har bir aqli bor inson shaxs bo'lishiga ijobiy ta'sir etadi. Xalqimiz hayot kechirishi, tinchlikni saqlash va sog'lom, kasbga ega, mexnatsevar avlodni o'stirishiga xatti-xarakatlari yo'l-yo'riqlarimizni bilib olishlaramizga asosiy omil bo'ladi.

3.2. Zardushtiylik ta'limoti. Islom dini ta'limoti


Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalar eramizdan oldingi VI asrda shakllanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda pedagogik g'oyalarning shakllanishida zardushtiylik ta'limoti, buyuk pedagogik fikrlar o'zbek xalkimizning "Avesto" muqaddas kitobida ham ifodalangan va qimmatli fikrlar talqin etilgan. Islom dinidan avvalgi davrda O'rta Osiyo xududida zardushtiylik dinining xalqimizga nisbatan ta'siri kuchli edi. Zardushtiylik dini o'sha davrdagi O'rta Osiyo davlatlar ijtimoiy-siyosiy tuzumi, xalq madaniyati, jamiyat urf-odat va qadriyatlari, inson ma'naviyati va ta'lim-tarbiyasi masalalarini aks ettirdi, yosh avlod turmush tarzi va fe'l-atvorining muhim yo'nalishlarini belgiladi. Zardushtiylik otashparvar dinining "Avesto" muqaddas kitobi qadimgi Xorazm vohasida paydo bo'lgan. "Avesto"da "yaxshi" va "yomon" xodisa, vaziyat, xarakter va yurish-turishlar haqida gap boradi. Zardushtiylik xudo Axura-Mazda odamizotni poklik, yaxshilik, halol mehnat, osoyishtalikka chaqiradi va shularni qilish uchun har bir xoxlagan insonga vaziyat va imkon yaratadi va yordam beradi. Zardushtiylik ikkinchi xudosi Anxra-Manyu esa aksincha yomonlikka chaqiradi va odalarning yaramas ishlari va xarakterlariga asos soladi. Ikki xudo va shular bilan yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg'on, hayot va mamot, poklik va nopoklik, halollik va ifloslik, rahm-shavqat va bag'ritoshlik orasida abadul-abad kurash umribod o'tadi. Zardushtiylik diniga sig'inganlarni "Avesto" ekin erlarni parvarish qilish va ko'paytirish, suv va shudgor joylarni asrab-avaylash, uy-joy qurish, uyni olov, bola-chaqa, mexnat qurollari, uy hayvon va qushlari, osh-qozon, idish-tovoq bilan to'ldirish, atrofni gul, o'simlik va meva daraxtlar bilan obodon qilishga chaqiradi. "Avesto" faqat odam emas, balki bir xovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havo ham muqaddas deb xisoblaydi.

“Avesto”da ona erimizning daryolaru-bog‘lar, tog‘laru-buloqlar, ko‘lu-sahrolar, butun hayvonot va o‘simlik dunyosi xudomizdan odamizotga buzish va tor-mor qilish uchun emas, balki ularni saqlash, ezozlash va dunyoni yanada go‘zal bunyod qilishga chorlaydi.

Har bir inson jamoa ichida o‘zining tutgan ijobiy o‘rni va hayotida tutilgan yo‘li bo‘lishi darkor. O‘zining kayfiyati va salomatligi bo‘yicha esa ularni saqlash amaliy choralarni ko‘rish, ozodalik va jismoniy tarbiyaga rioya qilish, kiyim, uy va ish joyini tozalikda tutish, nopok joylarga bormaslik va nopok narsalarga tegmaslik, buzilgan ovqatlarni emaslikka hamma vaqt xabardor bo‘lishi kerak. Zardushtiylik har narsa, vaziyat, xodisada odam o‘zining bunyodkorlik, insonparvarlik, rahmshavqatlik va xushmuomalaligini ko‘rsatishiga chaqiradi. “Avesto”da dunyoning yaratilishi, insonning kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik va ijodkorlik yo‘lidagi orzulari o‘z ifodasini topgan.

“Avesto” avloddan-avlodga meros qoldirgan ma’naviy qadriyatlarimizning nodir namunasidir. Unda o‘tgan ajdodlarimizning hayot va mehnat, insonning ahloq-odobi, baxt va go‘zallik, hurmat va adolat to‘g‘risidagi falsafiy va pedagogik mushohadalari o‘z ifodasini topgan.

“Avesto”da insonning ta’kidlangan asosiy sifatleri




Ota-bobolarimiz islom dinni va uning falsafasiga tayanib yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga alohida e’tibor berganlar. Ular islomiy ta’lim-tarbiyaning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatiga diqqat va e’tiborini chuqur qaratganlar. Mamlaktimiz rahbari Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik, Olloh qalbimizda, yuragimizda”. O‘zbekiston halqi tarixida islom ta’limotining ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalarining shakllanishida ahamiyati cheksizdir. Qur’oni Karim va hadisi SHariflar pedagogika ilmining eng ko‘zga surtma ko‘rinishidir. Ularda musulmon ahlining dunyoqarashi falsafasi, ma’naviyati, axloqi, e’tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirish yo‘llari bayon qilingan. Ular gumanistik ta’lim-tarbiya usullarni ma’qullab, bu gumanistik usullarida bolani puxta o‘ylab tuzilgan yurish-turish, o‘qish, mehnat, ozodalik, jismoniy, aqliy va ruhiy mashqlar ichki

tartib qoidalari bilan tarbiyalashga unga har tomonlama bilim berishga, bolaning mustaqil fikrlashini, ijodkorligi va faolligini o‘stirishga e‘tibor qaratgan. “Ilm ibodatdan afzaldir”- deb aytgandilar Payg‘ambarimiz (MRSAV). O‘qitish faqat hayotiy bo‘lsin, o‘qitishni turmush, atrof-muhit bilan bog‘lab olib borish lozim. SHunda u tushunarli va xalqchil bo‘ladi. Payg‘ambarimiz (MRSAV) bilim berishni mehnat bilan qo‘shib olib borish to‘g‘risidagi fikrni ilgari surganlar. Ular aytgan edilarki: “Ilm olmoqqa har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarz”.

Qur‘oni Karim va hadisi Shariflarda tarbiya masalalariga katta e‘tibor beriladi. Bolaning har bir ishiga ota-ona namuna bo‘lishi uchun ularning so‘zi va ishi bir bo‘lishi amri ma‘ruf. Ta‘limga o‘rgatish kerak, ammo tarbiya qoidalarini bola ko‘pincha o‘zi ota-ona, aka va uka, opa-singil, ustoz va jamoaga qarab o‘rnak olishi bilan o‘zlashtirsin.

Savodxonlik, arifmetika, astronomiya, geometriya, tarix, tabiyatshunos-lik, she‘riyat, musiqa, husnixat va tillar o‘rgatilishi tarafdori bo‘lib, islom dini jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat beradi. Bu ishda jismoniy tarbiyaning gimnastika, yugurish, kurash va harbiy mashqlar qilish yo‘li bilan, bola tanasini sog‘lom, baquvvat, mehnat, harbiy va boshqa ishlarga loyiq qilib chiniktirish usulini asos qilib oladi. YOsh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashi va har bir odam o‘zi, oilasi va Vatani uchun har tomonlama mukammal bo‘lib rivojlanishi kerakligini izohlab beradi.

Islom dini xududimizga kelgani zahoti O‘rta Osiyo xalqining shu jumladan, o‘zbeklarning ta‘lim-tarbiyasida yangi nazariya va amaliyotlar paydo bo‘ldi. Islom dini tavsiya etgan ta‘lim-tarbiya tizimida bilimlilik, kasbga ega, vijdoniylik, xudogo‘ylik, rahm-shavqatlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, fidoiylik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, intizomlikni shakllantirish va o‘stirish asosiy o‘rinni egalaydi. Bunda ta‘lim-tarbiyaning usullari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:



3.3. Xalq pedagogikasida kasbiy ta'limning rivojlanish bosqichlari

Amir Temur davrida O'rta Osiyoda islom dini va shu bilan birga ta'lim-tarbiya rivojidan bahramand bo'ldi. Ko'p madrasa va masjidlar qurildi va ularda aholi o'qib bir necha fanlarni o'zlashtirishga muvoffaq bo'ldi. Bu davrlarda Sharq mamlakatlari Eron, Ozarbayjon, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston bilan bo'lgan iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlantirildi. Uzoq va yaqin joylardan bilimli va uddabron bolalarni yangi hunarlarga o'rgatish uchun mahoratli muallim va ustalar taklif qilindi. XVIII asrda Markaziy Osiyoda uchta Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklar hukum surdi. Ular davrida ichki hayot, iqtisod, savdo, xunarmandchilik, me'morchilik, madaniyat va musiqa va she'riyat san'ati ancha rivojlanib bordi. Bu barcha ishlarga yosh mutaxassislar kerakligini bilgan hukumron doiralar yoshlarni oldin madrasa va masjidlarda keyin har bir bolani xoxishi va intilishi bo'yicha u tanlangan ustoz qo'liga o'qitish va hunarga o'rgatish uchun yubordi. Ustoz oilasida esa shu kasb-hunar avloddan avlodga o'tib turish an'anasi davom ettirildi. Xonliklarda Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Afg'oniston bilan savdo-sotiq ishlari yo'lga qo'yildi. Buyuk Ipak yo'li o'n asrdan ortiq davr mobaynida Xitoydan Evropaga va Evropadan Xitoyga borayotgan karvonlarni o'tishini ta'minladi. Karvonlar nafaqat mol keltirar, balki yangi axborot, yangi sanoat va madaniyat bilan tanishtirardi. Aqliy salohiyati kuchli bo'lgan xalqimiz tez orada porx, qog'oz, ipak va boshqa matolar, dehqonchilik va harbiy qurol, shisha, chinni-farfor, paxta maxsulotlari, yangi taomlar ishlab chiqarish, etishtirish va tayyorlashini o'zlashtirib oldi va bu albatta yangi sanoatlarni tashkillash va yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga oid yangi xunarlar o'rgatishiga turtki bo'ldi. SHu bilan birga xokim va boy fuqarolarning farzandlari chet elga tahsil olish, yangi kasb va xorijiy tillarni o'rganish uchun yuborardi. Har bir shunaqa o'qishga borib kelgan yosh yigit o'zi bilan siyosat, iqtisodiyot, ma'rifat va madaniyatga oid yangi tasavvur, progressiv demokratik fikr va g'oyalarni o'zlashtirib o'zbek xalqining turmush tarzini engillashtirish va rivojlantirishni o'ziga maqsad qilib qo'yar edi va zo'ravonliksiz bajarishga harakat qilar edi.

XVIII asrda Rossiya chor qo'shinlari tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyoda tarixiy-siyosiy vaziyat yuzaga keldi, milliy zulm kuchaydi, Evropa turmush tarzi o'zbek halqi hayotiga kelib kira boshladi. Ilm-fan, sanoat, madaniyat va ta'lim-tarbiya g'arbcha rivojlana boshlandi. O'lkamizda mustamlakachilar zavod, fabrika, ishlab chiqarish va qayta

ishlash korxonalar, temir va avtomobil yo'llar qurilishini va shu jumlada shaharlarda maktab va gimnaziyalarni tashkil qildi. Maktablarda evropacha o'qitish o'z rivojini topdi YA.A.Komenskiy va F.Gerbert metodikasi, ya'ni "sinf-dars" tizimi paydo bo'la boshladi.

Bu rus-tuzem maktab va gimnaziyalarda o'qigan xalqimiz ko'pchiligi ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or g'oya, usullar va tajribalarni o'zlashtirib, yangi o'zbek intelligensiya vakillariga aylandi. Bular uzoq va yaqin hududlarga ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at olib kirishga harakat qildi. Bu ilg'or ma'rifatparvarlar o'zlarini jadidlar deb nomlab o'zbek halq pedagogikasiga ilm-fan sohasidagi yangi umuminsoniy o'zgarishlarni kiritish, ta'lim-tarbiyani qayta isloh qilish, mamlakatimizda bironta savodsiz odam qoldirmaslik, erkak va ayolga teng huquq berish va milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab qolishni nazarda tutadigan buyuk vatanparvar kishilar edi. Jadidchilar harakatini Markaziy Osiyoda rivojlanishni Rossiya davlatining o'lkamizda mavqei oshishi bilan belgilandi.

XX asr boshida Sovet xukumati vujudga kelishi bilan O'zbekiston Respublikasi Sovet ittifoqi tarkibiga kiritildi. O'lkamizda ilmu-fan, og'ir va engil, oziq-ovqat sanoati rivojlandi, yangi o'rta, o'rta mahsus va oliy o'quv yurtlarda yoshlar tahsil olib, kim injener, kim ishchi, kim murabbiy yoki tibbiy xodim bo'ldi. O'g'il va qizlarni bir sinfda o'qitish ishlari yo'lga qo'yildi. Bu o'z o'rnida ta'lim va tarbiya samaradorligini yanada oshirdi. Konstitutsiya bo'yicha har bir o'smir o'rta maktabni tugatishiga majburiyat qo'yildi. xalqimiz zavod va fabrika boshliqlari, hukumat rahbarlari, ilmu-fan, madaniyat va san'at arboblari bo'ldilar. Ammo osmonimiz hamma vaqt musafo emas edi. Qizil terror payti minglab yurtdoshlarimiz vaxshiylarcha o'ldirildi. Sovet hukumati bilardiki millat uchta narsa bilan mavjuddir. Bu – yashayotgan hudud, uning oni tili va diniy va milliy urf-odatlar, qadriyatlar. Shuning uchun qadriyatlarimiz, dinimiz va ona tilimizni unutishimiz uchun ko'p ko'rinayotgan va ko'rinmayotgan harakatlar bo'ldi. Natijada ancha-muncha vatandoshlarimiz ona tilimizni unutib, faqat rusiyzabon bo'lib, din farzlarini bajarmay qo'ydi, urf-odatlarimizni unutdi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim tug'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida shakllangan uzluksiz ta'lim tizimining asosiy maqsadi komil inson, barkamol avlodni tarbiyalashdir. XXI asrda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan

mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma‘naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi muammosi dolzarb masalaga aylandi.

O‘z-o‘zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. O‘zbek xalqining milliy pedagogikasini paydo bo‘lishini tahlil qilib o‘ting.
2. Zardushtiylik ta‘limoti inson tarbiyasiga qaratilgan asoslarini aytib bering
3. Islom dini ta‘limoti qaysi ta‘lim-tarbiya usullardan iborat?
4. Halq pedagogikasining rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib bering.

Adabiyotlar:

1. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta‘limiy- axloqiy qarashlar.-T., 2005.
- 3.Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. Ismayilova . Z. K. Pedagogika. -T.: Moliya-iqtisod. 2008
5. O‘.Tolipov, M.Barakaev., SH. SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma‘ruzalar matni).– T.: TDIU, 2001.
6. N.Xo‘jaev, J.Hasanboev. Iqtisodiy pedagogika. – T.: TDIU, 2002.
7. G‘aybullaev M. va b.q.. Pedagogika.(Ma‘ruza matni) - T.O‘z.MU. 2000.
- 9.Maxmudov YU.G‘.,Xudoyqulov X.J. Pedagogika.Psixologiya. – T.: Djayin-Press. 2011.
- 10.www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.inter-pedagogika.ru.
- 11.www.newhorizons.org. www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net. www.inetlibrary.com.

4-MAVZU: PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MILLIY ISLOHOTLAR YO'NALISHLARINING MOHIYATI

Reja:

4.1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi umumiy qoidalari.

4.2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim tizimi va uning turlari.

4.3. Ta'lim-tarbiya tizimini boshqarish haqida.

4.4. Barkamol avlodni yaratishda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning o'rni va ta'lim sohasidagi islohatlarda amal qilinishi.

Tayanch so'zlar: Mustaqilik, "Ta'lim to'g'isida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dastur", barkamol avlod, uzluksiz ta'lim, ta'lim islohatlari, boshqaruv.

4.1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi umumiy qoidalari

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning zsururiy asoslarini belgalaydi, xamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

2-modda. Ta'lim to'g'risidagi qonui xujjatlari

Ta'lim tug'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim soxasidagi munosabatlar Qoraqalpog'isgon Respublikasinig qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari shug'ullaniladi.

3-modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

-umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar–ta'limining majburiyligi;

-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

-ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanliga;

-davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun baravar va ochiqligi;

-ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

-bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;

-ta'lim tizimida davlat va jamoat boshkaruvini uyg'unlashtirish.

4-modda. Bilim olish xuquqi

Jinsi, tili, yoshi, irkiy, milliy mansubligi, e'tikodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavkei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan kat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlilik kafolatlanadi.

-Bilim olish huquqi;

-davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

-ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan xolda ta'lim olishni tashkil etish;

-ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunap o'rgatish;

-barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng xukuqlarga ega bo'lishi;

-oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida atteetatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning, fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat kilayotgan fuqaroligi bo'lmagan. shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqi

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud xukumiga asosan man etilgan shaxslar ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

6-modda. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquklari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish xuquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiya-sidan maxrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmuilariga hamda o'quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuniigdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan muvofiq'ullanishga haqli.

7-modda. Davlat ta'lim standartlari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga quyiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

8-modda. Ta'lim berish tili

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

9-modda. Ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

4.2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim tizimi va uning turlari

II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA'LIM TIZIMI YAGONA VA UZLUKSIZDIR

10-modda. Ta'lim turlari.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim hududidagi turlarda amalga oshiriladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi; oliy ta'lim;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

11-modda. Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuq maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qati nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o'rta ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

boshlangich ta'lim (I-IV sinflar);

umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar).

Boshlangich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yunaltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

13-modda. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-g'unar kollejida o'qishning yunalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar buyicha ishlash huqiqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, professional ta'limberadi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yunaltilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar buyicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

14-modda. Oliy ta'lim

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanishi ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, professional ta'limasosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi xujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yunalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limidir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haklidirlar.

15-modda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan exqtiyojlarini taminlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni kayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Maktabdan tashqari ta’lim

Bolalar va o‘smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, madaniy-estegik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yunalishlarda maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan "Tashqari ta’lim muassasalariga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar — o‘smirlar sport maktablari, san’at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog‘lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi.

18-modda. Oiladagi ta’lim va mustaqil ravishda ta’lim olish

Davlat oilada ta’lim olishga va mustaqil ravishda ta’lim olishga ko‘maklashadi. Bolalarni oilada o‘qitish va mustaqil ravishda ta’lim olish tegishli ta’lim muassasalarining dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Ta’lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahatva boshqa yo‘sinda yordam ko‘rsatiladi.

19-Modda. Ta’lim to‘g‘risidagi xujjatlar

Akkreditatsiya qilingan ta’lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot tug‘risidagi hujjat (shaxodatnoma, diplom, sertifikat, guvoxnoma) berishdi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi xujjat oilada ta’lim olgan yoki mustakil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya kilingan ta’lim muassasalarinng tegishli. ta’lim dasturlari bo‘yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga xam beriladi, davlat ta’lim muassasalarida o‘qitilishi shart bo‘lgan va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilab qo‘yiladigan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomga o‘zlashtirilgan fanlar ro‘yxati, ularning xajmlari va fanlarga ko‘yilgan baholar yozilgai varaqa ilova qilinadi.

Dissertatsiya ximoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning xukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot tug'risidagi xujjatlari belgilangan tartibda o'zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiklagan namunadagi ma'lumot tug'risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisos bo'yicha ishlash huquqini beradi.

III. TA'LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH

20-modda. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun xujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq. imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

21-modda. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish

Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

22-modda. Etim bolalarni va ota-onalaritsing yoki boshqa qonuniy vakillariniagi vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish

Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining va vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o'smirlarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning

xulosasiga binoan amalga oshiriladi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishta mudtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari

Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o'qishga muxtoj bolalar va o'spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiy muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta'lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun hujjatlarida belgalangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

4.3. Ta'lim-tarbiya tizimini boshqarish haqida.

IV. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH VA YAKUNLOVCHI QOIDALAR

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik;
- ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni atgestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim tug'risidagi xujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
- davlat ta'lim standartlarini tasdiklash;
- davlat tomonidan tasdiqangan namunadagi ma'lumot tug'risidagi xujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari mikdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgalash;

-davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash;
ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

26-modda. Ta'limni boshqarish buyicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ruyobga chiqarish;
ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

o'quv va o'quv-uslubiyat adabiyotlarini yaratish va namur etishni tashkil qilish;

ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiklash;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash tug'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oishrishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari

Madalliy davlat hokimiyati organlari:

ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;

o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar;

ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar:

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

28-modda. Ta'lim muassasasini bopqarish

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim - muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumki.

29-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidaga o'zaro munosabatlar.

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim tug'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim tug'risidagi hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatining qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yishga haqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o'quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari

Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huqulari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim olishlari uchun javobgardirlar.

31-modda. Ta'limni moliyalash

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek byudjyotdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

32-modda. Ta'limni rivojlantirish fanlari

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

33-modda. Xalqaro xamkorlik

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o'rnatish, qonun hujjatlarida belgilan tartibda ular bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

34-modda. Ta'lim tug'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti

Toshkent shahri.

29 avgust, 1997 yil.


I.A. KARIMOV

4.4. Barkamol avlodni yaratishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o‘rni va ta’lim sohasidagi islohatlarda amal qilinishi


Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol nasilni tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifa qo‘ydi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda ta’lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish yo‘lida oliy o‘quv yurtlari zimasiga umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-xunar kollejlari uchun malakali kadrlarni tayyorlashni yanada yaxshilash vazifalarini qo‘ymokda. Bu esa hozirgi vaqtda oliy o‘quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarni nazariy bilimlarni chuqur o‘rgangan, amaliy darslarni o‘tkazishni ham puxta egallashni talab etmoqda. Mutaxassislar buyuk insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, muomalaga kirisha oladigan, o‘z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e’tibor bermoqda. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo‘lajak mutaxassis - o‘qituvchini yuksak pedagogik bilim va ko‘nikmalari bilan qurollangan, ma’naviyatli va madaniyatli shaxs, mahoratli ustoz sifatida tayyorlash kerakligi muhim.

Hozirgi kunda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy va moddiy-ma’naviy shart-sharoitlar mutaxassis-o‘qituvchilarga yangi talablar qo‘ymokda. O‘qituvchining dars beradigan o‘quv predmeti bo‘yicha qo‘yilgan talablar pedagogik texnologiya, interfaol metod va innovatsion o‘yinlar, pedagogik mahorat, pedagogik texnika, pedagogik ijod, pedagogik muloqot va madaniyat bilan echishi yanada oshganini ko‘rish mumkin.



O‘quv yurtlarida o‘qitishning asosiy maqsadi Kadrlar tayyorlash milliy dasturning maqsad va mazmunidan kelib chiqadi. Mazkur dasturda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish kabi asosiy vazifa turadi.




Barcha sohalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni oliy o‘quv yurtlari tayyorlaydi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olganlar o‘zi sohasi bo‘yicha iqtisodiyot, siyosat, madaniyat davlat va nodavlat tashkilotlarga ishga kirib faol mehnat ko‘rsatadi. Bulardan bitta katta guruhi albatta maktab, litsey, kollej va oligohlarda o‘z kasbiga o‘rgatish bilan ishga kirishadi. Shu oliy maqsadni ko‘zda tutib barcha oliy o‘quv yurtlarimizda ta’lim-tarbiya va aniq kasbni o‘qitish uslubiyotlariga qaratilgan bir necha fanlar o‘qitiladi, kasbiy ta’lim bo‘limlari ochilgan.

Oliy ta’lim o‘rta maxsus, professional ta’lim negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriyat va magistratura) bosqichga ega. Bakalavriyat mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan tayanch oliy ta’limdir. Bakalavriyat ta’lim yo‘nalishlari

bitiruvchilariga davlat tomonidan kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqi beriladi. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan oliy ta'limdir. Magistrarga davlat tomonidan kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish, o'z kasbi bo'yicha oliy o'quv yurtlarda ishlash va ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish huquqlari beriladi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini va shu jumladan barcha kasblarga o'qituvchilik tarkibini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagi masalalar amalga oshirilyapti:



Shunda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy hamda umumbashariy madaniy-tarixiy an'analariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilayapti, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanayapti. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib borilayapti. O'zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari, mahalla, bir necha davlat markazlari, jamoat tashkilotlari va fondlar faol mehnat qilayapti.

Shu talablarga taqozo etib, oliy o‘quv yurtlarda «Kasbiy pedagogika» fanning o‘qitishi keng yo‘lga qo‘yilgan. **«Kasbiy pedagogika» kursini o‘qitishning asosiy maqsadi:** bakalavriat bosqichi talabalarini o‘z o‘quv predmeti bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi xamda amaliyoti buyicha etuk malakaga ega bo‘lishlarini ta‘minlashdir. Hozirgi zamon o‘qituvchisi o‘quv predmetini puxta bilish, bu bilimlarning yuqori darajadagi shaxsiy va kasbiy tajribaga, ilg‘or ilmiy yutuklarga ega bo‘lishga asoslanganligini ijodiy yondashishga imkon yaratadi. Hayotimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo‘lib, u har tomonlama etuk, kasbga chuqur ega bo‘lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, mahoratli va ijodkor, jamiyatdagi hamda kasb vazifalarini yaxshi bilgan shaxs bo‘lishi darkor.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar:

1. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun qachon qabul qilindi?
2. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun necha bob va necha moddadan iborat?
3. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning Iv bobida nima haqida so'z yuritiladi.
4. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari nima?
- 5 Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimadan iborat?

Adabiyotlar

1. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta'limiy- axloqiy qarashlar.-T., 2005.
- 3.Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. Ismayilova . Z. K. Pedagogika. -T.: Moliya-iqtisod. 2008
5. O'. Tolipov., M.Barakaev., SH. SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma'ruzalar matni).– T.: TDIU, 2001.
6. N.Xo'jaev, J.Hasanboev. Iqtisodiy pedagogika. – T.: TDIU, 2002.
- 7.Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 1996.
- 8.G'aybullaev M. va b.q.. Pedagogika.(Ma'ruza matni) - T.O'z.MU. 2000.
- 9.Maxmudov YU.G'.,Xudoyqulov X.J. Pedagogika.Psixologiya. –T.: Djayin-Press. 2011.
- 10.www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.inter-pedagogika.ru.
- 11.www.newhorizons.org. www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net. www.inetlibrary.com.

5-MAVZU: KASB PEDAGOGIKASI ASOSLARI

Reja:

- 5.1. Kasbiy ta'lim pedagogikasi fanining falsafiy-metodologik asoslari.
- 5.2. Ma'naviy va madaniy shakllanish jarayoni. Malakaviy tayyorgarlikda asosiy didaktik bosqichlar.
- 5.3. Kasbiy pedagogika metodlari.
- 5.4. Kasbiy pedagogikaning tarixiy sahifalari.
- 2.5. O'zbekistonda kasb ta'limini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish.
- 5.6. Germaniya va Fransiyada kasbiy ta'limining tuzilmasi.

Tayanch so'zlar: Milliy g'oya, milliy mafkura, inson nodir va betakror, ma'lumot, madaniyat, mentalitet, nazariy, empirik izlanishlar.

5.1. Kasbiy ta'lim pedagogikasi fanining falsafiy-metodologik asoslari

Pedagogika fan sifatida boshqa fanlarga o'z ta'sirini ko'rsatib, bilim tizimining bir butunligini tashkil etadi. Shu bilan birga bir necha bo'limlarga bo'linishi mumkin.

Ularga: maktabgacha tarbiya pedagogikasi, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim pedagogikasi va boshqalar.

Pedagogikaning har bir ko'rinishi o'zining maxsus ko'rinishiga egadir. Bilim berishni falsafiy-metodologik bosqichi malakaviy pedagogikani umumiy ko'rinishlarida samarali bilim berish. O'qitilayotgan yo'nalishni aniq muammolardan kelib chiqan holda ish olib borilsa, samarali natijalarga erishiladi.

Falsafiy metodologik asos mazmunida g'ayri oddiy mehnat bo'lib, u asosan metodologik muammolar echimidagina qo'llaniladi.

So'nggi yillar davomida falsafiy bilim berishga alohida ehtibor berilmoqda.

Malakaviy o'qitish tizimida falsafiy bilim berish birinchi qadam bo'lib, bu sohada erishilgan yutuqlar va tajribalar qo'llanishi mumkin.

Kasbiy pedagogikaning fan sifatidagi o'rni.

Kasbiy pedagogikani ilmiy o'rnini aniqlash uchun uning obekti va predmetini ajratib olish kerak. Bizga ma'lumki ilm bu haqiqatda sodir bo'lgan jarayonlarni o'rganish va isbotlashga yo'naltirilgan ilmiy bilim yo'nalishidir.

Ilmiy obekt sifatida boshqa turli xil fanlarni ishtirokini taminlash ayrim hollarda talab ham etadi.

Ilmning predmeti - bu obektning shunday tarifi borki, unda izlanishlar aniq yo'nalish bo'yicha olib boriladi.

5.2. Ma'naviy va madaniy shakllanish jarayoni. Malakaviy tayyorgarlikda asosiy didaktik bosqichlar

Insonning madaniy va ma'naviy shakllanishi quyidagilar asosida amalga oshadi.

1. Ma'lumot. 2. Madaniyat. 3. Mentalitet

Pedagogik izlanish va metodika, pedagogik amaliyotlarning asosiy izlanishni qaysi echi.mga qaratilgan bo'lishi kerak? Bu kabi savollar-ga javob berish uchun pedagogik faoliyatning ikki asosiy yo'nalishini ko'rib chiqamiz.

Bir tomondan bu faoliyat o'qituvchining kundalik, o'quv va tarbiyaviy ishlariga, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabatga, o'qitishning . tarbiyaviy ishlarida o'quvchining bilim, malaka va ko'nikmalariga bog'liq.

Pedagogikaning asosiy maqsadi esa bu jarayonni samarali va sifatli taminlashdir.

Buning uchun konkret metodlardan, tashkiliy formalardan samarali foydalanish kerak. Boshqacha qilib aytganda, chuqur nazariy ishlab chiqilgan tizimni qo'llash zarur, tizim o'ta qattiq bo'lishi kerak emas.

Bu metodda ma'lum miqdorda erkinlik, pedagogik san'at, pedagogik mahorat o'z o'rnini topgan bo'lishi kerak. Pedagogik tizim va pedagogik jarayon o'zaro bir-biri bilan bog'liq ekanligini unitmaslik kerak.

Kasbiy pedagogikada falsafiy- metodologik taraqqiyot.

Malakaviy pedagogikaning asosiy ish yo'nalishi kelajakka qaratilgan bo'lib, qanday konsepsiya bo'lmasin, agar ularning kelajakda ilm rivojlanishiga hissasi qo'shilgandagina bunday qaror va yangiliklar tasdiqlanib qabul qilinadi.

SHu bilan birga pedagogik bilim berish birlamchi tashkiliy ish bo'libgina qolmay, u eng avvalo maxsus tashkil etilgan ichki tartibga, izlanishga tayanib, so'ngi texnik rivojlanishlarga va aniq yutuqlarga tayanib faoliyat yuritishi kerak.

Malakaviy tayyorgarlikda asosiy didaktik bosqichlar

1. O'quv yurti bitiruvchisi egallaydigan bilimlar.

Bu modul tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a) bitiruvchining egallaydigan ish o'rnini;
- b) bitiruvchining dunyoqarash sifati;
- v) bitiruvchining standart talablariga javob beradigan bilimi;
- g) bitiruvchining ish o'rnida qo'laydigan bilim, ko'nikma va malakalari;
- d) bitiruvchining mutaxassis sifatida shakllanishi va ijodiy ish olib borishi;

2. O'quv materiallarini mazmun jihatdan tanlash.

O'quv materialini tanlash albatta uning mantiqiy ketma - ketligi, mazmunan bitiruvchining fikrlash doirasini va g'oyalarini ishlab chiqish, ilmiy farazni rivojlantirish va shu bilan birga kelajakda fanga o'z hissasini qo'shishga undamog'i kerak.

3. Tanlab olingan o'quv materialini tizimli tasniflash

O'quv materialining asosiy qismi, uni mantiqiy fikrlash, tushunishni, munozara silishni talab etadi. SHu bilan birga uni o'zlashtirish, o'zining qobiliyatidan kelib chiqqan xrla ijodiy yondoshish xam zarur.

4. O'qitishning jarayonli tomonlari.

Eng yaxshi tanlab olingan (mazmunan hamda o'lashtirishning osonli-gi) o'quv materialini amaliyotda qo'llash sharoitiga o'quvchi ega bo'lma-sa, bu qo'llanma samarasiz bo'ladi. SHuning uchun o'quvchi o'qituvchining tashkiliy va amaliy taraflarini chuqur o'rganish, iloji boricha shu soxa mutaxassisligini talab silish maqsadga muvofiq.

5. Qabul qilinayotgan masalalarning echimini tajriba va sinovlarda o'tkazish.

Tanlangan o'quv qo'llanmaning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini, o'quv metodi va formalarini ko'rib xal qilish mumkin emas. Buning uchun albatta nazariy, amaliy va metodologik o'zaro bog'liqlik, didaktik va eksperimental metodlardan olingan etarlicha ishonchli bo'lgan tashxislari va amaliyotda bo'lgan dalolatnomalarni o'zaro bog'lab hal qilish kerak bo'ladi.

5.3. Kasbiy pedagogika metodlari

Kasbiy pedagogikada izlanish metodlari 2 xil bo'ladi:

1. Nazariy
2. Empirik izlanishlar.

Nazariy izlanish metodlariga: analiz, sintez, modellashtirish, konkretlashtirish kiradi.

Empirik izlanish metodi: birlamchi va umumiy metodlarga bo‘linib, birlamchi metodlarga: - kuzatish, og‘zaki so‘rash, suhbat, yozma so‘rash, mutaxassislar baxsi, testlar kiradi.

Umumiy izlanish metodiga: - tashxis qilishni o‘rganish, pedagogik tajribani umumlashtirish va tajriba kiradi.

Bu metodlar malakaviy pedagogikada keng tarqalgan bo‘lib, ishchilarning malakasini aniqlash, kasbiy muammolarni hal etishda keng tarqalgan. Ish faoliyatini o‘rganishda bajarayotgan ishning umumiy unumdorligani aniqlashda ish xulosasini o‘rganuvchi xarakteristika yordamida o‘rganiladi.

O‘rganish jarayonida ishchini malakasini aniqligi muhim rol o‘ynaydi, Bu esa maxsus o‘lchov asboblari va moslamalari bilan aniklanadi. Markaziy nerv tizimini funksional xolatini aniqlash.

Bu metod asosan o‘quvchi organizmining berilayotgan o‘huv materialini o‘zlashtirish va o‘quv mehnat faoliyatida organizm holatini aniq lash uchun qo‘llaniladi. O‘quvchi diqqatining holati rivojlanishi, ish jarayonida charchashi, u yoki bu ish faoliyati bilan organizmga salbiy yoki ijobiy ta’siri, surilishlar, mashg‘ulotlar tasirida markaziy nerv tizimida o‘zgarishlar va boshqalar.

Boshqa metodlarga nisbatan shartli reako‘iyalar metodi ko‘prots qo‘llaniladig o‘quvchiga rangli, ovozli va boshqa signal beriladi.

Javoban o‘quvchi biron bir murakkab bo‘lmagan harakat ko‘rsatishi kerak. Masalan, tutmasini bosish. Bu jarayonni xarakter va bajarish vaktiga ko‘ra, markaziy nerv tizimsi holati (o‘quvchining). SHu vatst ichida unda bo‘layotgan o‘zgarishlar va uning o‘zgarishiga turli ta’sir ko‘rsatuvchi faktlar haqida xulosa qilish mumkin.

Bu metod bilan bir qatorda, malakaviy pedagogikada markaziy nerv tizimsini anitslovchi boshqa metodlar ham qo‘llaniladi.

Masalan: xotoli so‘zlar yig‘indisi - o‘quvchi xatolarini tez topib, tagiga chizib quiishi kerak, sonli testlar - tasodifiy sonlar ishti-rok etgan jadval, u erdan ortiqcha sonlarni o‘chirish kerak.

Bu metodlarning samaradorligini oshirish uchun qoida bo‘yicha, kompleks bog‘liklikda umum pedagog izlanish metodlari bilan qo‘llaniladi.

5.4. Kasbiy pedagogikaning tarixiy sahifalari

Malakaviy pedagogikaning uzoq yillar va bir necha avlodlar tajribasida yig‘gan ma’lumotlarni insoniyat tarixi hamma jab’alarida

avlodlarni o‘qitish va malakaviy pedagogik bilimlar berish dunyo tarixida o‘zining alohida o‘rniga ega.

Quldorlik tuzimida aqliy va jismoniy mehnat orasida farq bo‘lib, jismoniy mehnat qullar zimmasida edi.

Quldorning asosiy ish faoliyati aqliy mehnat bo‘lib, ular asosan falsafa va siyosatni tashkil etgan. Bu esa o‘z vaqtida malakaviy mehnat bilimining g‘oyaviy rivojlanishiga ta‘sir etadi.

O‘rta asr davomida diniy hukmronlik bo‘lib, unda kasblar xudo tomonidan berilgan, egallangan xunarga u urf-odatlar, ilohiyot va sirli deb qaralgan. Bu esa jamiyatda egallanayotgan hunarga munosabatni belgilaydi.

Malakaviy o‘qitishning asosiy formasida hunarmand va savdogar bolalari ustaxonalarda o‘qitilib, o‘rta asr ustasi o‘zining o‘quvchisiga faqatgina o‘zining bilim va malakalarini beribgina qolmay, bir parchasi o‘zining dunyoqarashini yakkaqiligini shogirdiga bera olgan. XI asrda Gugo Sen-Vektorskiy, T.Mora, T.Komponello pedagogik asarlari yuzaga keldi.

Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, fan rivoji, madaniyati va texnikaning rivojlanishi bilan 14-17 asrlarda malakaviy o‘qitishning muammolari, formalari, ularni tashkil etish, samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqishlar oshib bordi. ,

Ingliz iqtisodchi va pedagogi Bellersa yozgan asari malakaviy o‘qitishning - sotsial pedagogik masalalari, ya‘ni kasb egallash yo‘li bilan kambag‘allikdan qutilish yaxshi tarbiya va keng bilim haqidagi savollarga javob bera oladi.

IX asr oxiri va XX asr boshlarida sotsial iqtisodiyotchilar ta‘siri ostida G‘arbiy Evropa pedagogikasida mehnat maktabini isloh qilish boshlandi. Uning asosiy yo‘lboshchisi Georg Kershensheyner.

AQSHda malakaviy pedagogikaning rivojlanishi mehnat va uning ishlab chiqarishga ilmiy yondoshish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish sifatini oshirish, raqobatbardoshligini ko‘tarish bilan bog‘liqdir. Bu xarakatlarni ilmiy tashkilotchisi AQSHlik muhandis F.U.Teylordir.

Uning ishlab chiqqan metodlari "Teylorizm" nomi bilan bizgacha etib kelgan. IX asr oxirlarida G‘arbda malakaviy bilim berish metodikasida amaliy pedagogika metodikasi yuzaga kelib, u korxonalarda alohida ustaxonalar tashkil qilinib, uning natijasida korxonalardan ustaxonalar ajralib chiqib, pedagogik faoliyat olib borishga bog‘liqdir.

XX asr pedagoglari malakaviy pedagogikani asosiy vazifasi deb ishchi-o‘quvchini, maxsus maktab o‘quvchisini analiz qilishni, ishlab

chiqish talabiga javob beruvchi, malakaviy va politexnik bilim-larni, mehnat va o'qitishni o'zida mujassamlashtirish texnologik shakllarni, malaka, ko'nikmalarini oshirish va tarbiyalash deb tu-shinadilar.

Bu yillarda ishlab chiqarishda o'qitish metodikasini asosiy muammolarini hal qilish eski texnologiyalarni mukamallashtirish va yangilarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Malakaviy pedagogikaning yangi rivojlanish bosqichi 50-yillarda xalq ta'limi tizimida hayot va maktab orasidagi bog'liqlikni mustahkamlash to'g'risidagi qonundan boshlanadi.

Biroq pedagogikaning bu jabhasida rivojlanish to'xtab qoldi, chunki qonunga asosan, o'rta maktabning yuqori sinflariga yoshlarni umumiy kasblarga tayyorgarligi funksiyasi yuklatilib, bu bajarib bo'lmas vazifa edi.

70-80 yillarda malakaviy pedagogikaning rivojlanishi qiyin sotsial, siyosiy sharoitda kechdi. Uning rivojlanishiga sotsial iqtisodiy faktlar tasir ko'rsa-tib, pedagogik fanlar davlatning va siyosatning qattiq chegaralangan qarorlari ostiga tushib, fanning ko'p qirralari echilishi ruxsat etilmay, umumiy malakaviy bilim berish qattik ta'qiq ostida qoldi.

Bu o'z vaqtida iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keladi. Bir tomondan jamoaning ish faoliyatining pasayishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan ishlab chiqarishdagi ishchilarni malakasini oshirish va real yangiliklarni berishga to'sqinlik qildi.

5.5. O'zbekistonda kasbiy ta'limni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish

Hozirgi davrimizda malakali bilim tizimining rivojlanishi tendensiyasi bilimni regionlashtirish, integratsiyalash, standartlashtirish, demokratlashtirish va boshqalarning to'xtovsiz rivojlanishini amalga oshiriladi.

Ta'limning uzluksizligi.

Birinchi marta uzluksiz ta'lim konsepsiyasi 1965 yilda YUNESKO Forumiga taqdim etilgan edi. Uni yirik nazariy olim Lengrandom olib chiqqan edi, Uzluksiz ta'limning asl mohiyatini biz «Bibliya», «Qur'on», «Hadislar» va hikmatli so'zlarda, umuman insoniyat tarixi va rivojlanishi hamda guvohi bo'lgan muqaddas kitoblarda ham ko'ramiz.

Ta'lining birlashishi,

Berilgan tendensiya 1"bo'limda yaqqol ko'rsatilgan bo'lib, so'nggi 20 yil davomida hujjatlarda 2 aspekt to'g'risida so'z boradi.

1. Ilmiy texnikaning yutuqlari

2. Ilm va texnika yutuqlari, yangi texnologiya, yangi qo'llanmalar, ma'lumotlarni qayta ishlab chiquvchi moslamalarni keltirib, bu esa fanni rivojlantirishga olib keladi.

Ta'lim standartlari.

Boshlang'ich malakaviy ta'lim-standartlari berilgan ta'lim bosqichlarini va maqsadlarini talab qiladi.

1. Mutaxassis ishchi xodimlarning ta'limini davom ettirishi uchun minimal darajaga javob beruvchi baza tashkil etish.

2. Mutaxassislarning profilini muta'assis tayerlov sifati-ni oshirish orqali kengaytirish.

3. Uzluksiz ta'lim tizimi aloqasini yaxshilash va tayyorlov aspektlarini tartibga keltirish.

4. Davlat ichida va davlat tashqarisida xalqaro mexnat bozorida mutaxassislarning olgan bilimlariga ishonchni ta'minlash.

Ta'limning demokratiyalashishi.

Ta'lim jarayonini yo'naltiruvchi kuch bu ta'lim tizimini demokratiyalashdir.

Ta'limda demokratlashtirish jarayoni mu'im bossichlardan o'tdi, ya'ni bepul umumiy ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim olishda teng xuquqlilik.

Qobiliyatdan kelib chiqqan holda 'ar bir shaxs o'zini shakllantirishi, inson xuquqlarini va erkinliklarini 'urmat qilish.

Demokratlashtirish asosiy shartlaridan biri bu ta'lim tizimini jamoat tarafidan nazorat silib turishidir.

5.6. Germaniya va Fransiyada kasbiy ta'lim tizimi

Bu konsepsiya insonni shakllantirish sifatlarida bilish faoliyatini rad etib, hamma psixologik xolatlar organizmning tashqi reaksiyasi deb tushuniladi, uning diqqat markazida xarakat ko'rinishlari muammosi turib, uning ta'sirida o'quvchilarning qabul qilinishini namoyish etishlari kerak.

1. Dalillarni eslab qolish.
2. Dalillarni maxnosini tushunish.
3. Eslab qolingani qo'llash.
4. Mazmun va formasini analiz qilish.

Bu jarayon qismlarga ajratilib, qismlar orasidagi bog'liq echiladi va keyin butun mexanizimni tushunishga olib keladi.

5. Butunlikni qismlarda tushunish, bu jarayon yangi noyob ma'lumotlarni tushunarli va oddiygina qabul qilishdir

6. U yoki bu narsani qimmatililigini va zarurligini anglash.

Ruhiy ko'nikma.

1. Daraja passiv: quloq, ko'z organlari orqali signal qabul qilib, diqqatni jamlash.

2. Aktiv: diqqatning biron bir narsaga o'z ta'sirini ko'rsatish.

3. Baho berish: kuzatish, ta'sir ko'rsatish, biror bir narsaga o'z ta'sirini ko'rsatish.

4. Tashkiliy g'oyalar: falsafiy ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarni hal qilish. Biron bir qimmatli narsani ikkinchisidan farq qila olish.

5. Maqsadli faoliyat: tekshirilgan qiymatlar darajasiga ko'ra shaxs sifatida shakllangan, ijobiy va salbiy faoliyat turi.

O'qitish metodining ratsionalistik modeli o'quv materialini samarali o'zlashtirish, rivojlantirishning didaktik maqsadiga erishish, kommunikativ ijodiy faoliyatning mazmunini tashkil etuvchi kasbiy ta'limning shaxs sifatida shakllantirishdir.

Ta'limning gumanistik jarayonlari.

Gumanistik ta'lim umuminsoniy qadriyatlarni ekologik muammolarini, ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi ta'lim tizimidir.

Yosh pedagoglarni shakllantirish konsepsiyasi.

Talabalarni o'quv yurtlarini bitirgandan keyin kasbga kirib borishlari ikki murakkab jarayonni o'z ichiga oladi.

1. O'qituvchi sifatida shakllanishi, sharoitga moslashish va pedagogik mahoratga ega bo'lishi.

2. Yangi ijtimoiy sharoitni o'rganish, unga baho berish va yangiliklar kiritish.

O'quv tarbiya jarayonida maqsad qo'yish ko'nikmasi.

Maqsadni aniq va to'g'ri tanlashgina, o'quv jarayonining asosiy komponentlari: o'zaro bog'liqligini, muamoni, samaradorligini aniqlaydi. Aniq maqsadlar qo'yish faqatgina o'quvchilar faoliyatini aniq tashxislabgana qolmay, qo'yilgan maqsadga asosan berilgan bilim natijasida o'qituvchilik faoliyatlariga xam bog'liq. Shunday qilib, aniq maqsad qo'yish bir tarafdin shaxsiy maqsad deb qaralsa, ikkinchi tarafdin umumiy maksadga erishish deb qaraladi.

Umumiy maqsadlarni aniq qo'ya bilish, bilimga ega bo'lgan. o'zlashtirish va munosabatni o'quvchida shakllantirishdir.

Dunyo kasbiy ta'lim tizimini o'rganmay turib, bu sohada yangi shakllarni tuzib bo'lmaydi. Bu sohada bizga uzluksiz ta'lim tizimini olib

boruvchi davlatlar tajribasi, ularning ishlab chiqqan ta'lim standartlari bizga juda zarur. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada uzluksiz ta'lim va kasbiy ta'limning yangi tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim turli yo'nalishlardagi mutaxassislarni, shuningdek, boshlang'ich o'rta maktablarning o'qituvchilarini tayyorlashni nazarda tutgan.

Olmoniyada kasbiy ta'lim tizimi.

Olmoniyada bir necha murakkab tuzilmaga ega bo'lgan kasbiy ta'lim tizimi qabul qilingan bo'lib, ta'lim oluvchilarni mutaxassislikka yo'llashda 3 ta bosqichdagi maktablar tashkil etilib, ular o'z faoliyatini boshlang'ich ta'limdan keyin davom ettiradi. Olmoniyada o'quv jarayoning tayyorlash va boshqarish markazlashtirilgandir.

O'quv jarayonining turli jabhalarida o'zining javobgarliklari bo'lib, u turli bosqichlarda turlichadir.

Olmoniyada kasbiy ta'limning tuzilmasi.

1-bosqich: Kasbiy ta'limga tayyorgarlikning birinchi yili (Nazariy bilimlar berilib ushbu kasbga yo'naltiriladi).

2-bosqich: Ishchilar nazariy va amaliy oiladosh kasblar bilan ham tanishib boradilar (tugatilgandan keyin birinchi sinov olinadi).

3-bosqich: Mutaxassilashtirish jarayoni bo'lib, u imtihon bilan tugallanadi. Bu tizimda ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarga hamda kasblar haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

Qo'shimcha malaka hosil qilish bilan birga ularining fikrlariga ega bo'lib, mehnat faoliyatiga o'z hissalarini qo'shishlari kerak.

1-2 bosqich keng ma'noda ishchilar tayyorlab berib, ular oddiy ish jarayonlarini bajarib, murakkab jarayonlarda 3-bosqichga suyanadalar. 3-bosqich bo'lg'usi mutaxassis hodimlar nazariy ham amaliy bilimlarga ega bo'lib, qurilma va moslamalarni (stanoklarni) sozlash, tamirlash ishlarini bajaradilar.

Kasbiy ta'limning fransuz modeli.

Fransiyada maktabni bitirgach, kollejlarda o'qitish tizimi xukmronlik qiladi.

Bu o'z navbatida erta kasb egallashdan asrab qoladi. Fransiyada boshlang'ich ta'lim asosan 11 yoshgacha bo'lib, keyin o'quvchi kollejda ta'lim oladi. Undan keyingi ta'limini o'quvchi umumta'lim yoki texnik litseylarda davom ettirishadi.

Bugungi kunda texnik litseylar keng texnik bilimlarni berib, u asosida bakalavr unvonini olish mumkin. O'quv muassasasining ixtisosligiga qarab bakalavr fransuz tilini, sosiologiya asoslarini, matematika, fizika, tabiiy fanlar, texnologiya fanlarini yaxshi egallaydilar.

Texnologiya yo‘naliishidagi bakalavrlar chet tillarni, kompyuter va tijorat bilimlariga ega bo‘ladilar, hamma baklavrlar oliy o‘quv bilim yurtlarida ta‘lim olish huquqiga egadirlar,

Bakalavr unvonini olishni xohlagan ta‘lim oluvchi navbatda maktabni, kollejni bitirganligi haqida diplom olib, undan keyin 3 yil kasbiy litseylarda o‘qishlari kerak.

Malakali ishchilarnp tayyorlashda davlat va xususiy litseylar faoliyat ko‘rsatib, ularning hammasi davlat nazorati ostida bo‘ladi. Kasbiy ta‘limga o‘qish jarayonini Ta‘lim vazirligi ishlab chiqib, uni ma‘lum o‘quv yilida tamirlash javobgarligi davlat zimmasidadir.

Kasbiy ta‘lim tizimining butun faoliyati markazlashgan bulib, o‘quv mazmunini o‘zgartiruvchi qonun va qarorlar davlat miqyosida qabul qilinadi.

Umumiy kasbiy ta‘limda o‘qitish jarayoni bepuldir.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar:

1. Insonning madaniy va ma‘naviy shakllanishi nimalar asosida amalga oshiriladi?
- 2 Kasbiy pedagogikaning izlanish metodlari necha xil bo‘ladi ularga izoh bering?
3. Olmoniyada kasbiy ta‘lim tizimi qanday yo‘lga qo‘yilgan?
4. Fransiyada kasbiy ta‘lim tizimi qanday yo‘lga qo‘yilgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta‘limiy-axloqiy qarashlar. -T., 2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996.
5. G‘aybullaev M. va b.q.. Pedagogika. - T. 2000.
6. Xudoyqulov X.J. “Pedagogika.Psixologiya”. -T.: Dizayn-Press. 2011.
7. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.

6-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA PROFESSIONAL TALIM TIZIMI ISLOHOTLARI

Reja:

- 6.1. Professional ta’lim pedagogikasining qonuniyatlari.
- 6.2. Har tomonlama yetuk va yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassis xodimlar tayyorlash.
- 6.3. Bosqichli o‘qitish nazariyasi. Texnologik bilimlarning uzluksizligi.
- 6.4. Ishlab chiqarish ta’limining davrlari.

Tayanch so‘zlar: Ishlab chiqarish, yakka holda, guruhlab, ommaviy o‘qitish, asosiy (uzoq yilga mo‘ljallangan), dinamik o‘qitish.

6.1. Professional ta’lim pedagogikasining qonuniyatlari

Rivojlanishning ilk bosqichlaridayoq pedagogik faoliyat o‘z o‘rnini topib oldi. Bugungi kunga kelib ilm va fan, ishlab chiqarishning o‘zaro bog‘liqligini hamda malakali pedagogika bu sohalarida o‘zining ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Buni yana ham samarali shakilantirish uchun pedagogik qonuniyatlarni bilishimiz kerak. Ular quyidagilardan iborat.

Ishlab chiqarish turiga qarab ishchilarni shu sohaga tayyorlash.

Ishlab chiqarish turiga qarab o‘qitish dasturlari 3 ta katta guruhlarga bo‘linadi.

1. Yakka holda.
2. Guruhlab.
3. Ommaviy.

Ishlab chiqarishning har bir turi o‘zining texnik jarayonlariga ega bo‘lib, shu bilan birga o‘zining formalariga ega. Ishlab chiqarishning u yoki bu turi bo‘lishdan qatqiy nazar bir guruxning o‘zida 3 ta ishlab chiqarish turi mavjud bo‘lishi mumkin.

Yakka holda ishlab chiqarish - o‘z xarakteriga ko‘ra o‘zining afzalliklariga ega bo‘lib, u yoki bu operatsiyalarni universal uskunalarda bajarish imkonini berib mahsulotga qo‘iiladigan turli talablarni aniq bajarish imkonini beradi. Ishlab chiqarishning bu turi mutaxassisdan o‘lchov asboblaridan to‘g‘ri foydalana bilishni talab etadi.

Guruhlab - bu tur yakka holda ishlab chiqarishdan ozgina farq qilib, bunda chiqariladigan mahsulot donalab emas, balki qism-qism qilib ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Har bir ishlab chiqilgan mahsulot turi bir xil nomda va bir xil o‘lchamlarda bo‘ladi. Har bir operatsiya alohida-alohida uskunalarida bajariladi. Bu erda ishlab chiqarish xizmat ko‘rsatishi

ya'ni moslash, sozlash, kichik ta'mirlash ishlari maxsus ishchilarga yuklatiladi.

Ommaviy - ishlab chiqarish va ularning ish joylarida tinimsiz ravishda qaytarilishi bilan bu operatsiyalar ish joyida xarakterlanadi. Uchastka va guruhlardagi asboblarni sifati ularni tipi, jamlanishi va samaradorligi ishlab chiqarilayotgan maxsulotga mos bo'lishi shart.

Ishlab chiqarish jarayonida ishchilarining mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish bo'yicha bilim darajasi.

Ishlab chiqarish jarayonida mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ishchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa tarixiy davr ichida avtomatlashtirishning rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin.

1-bosqichda butunlay avtomatlashtirish yoki yarim avtomatlashtirish, maxsus yoki universal uskunalar ish jarayoni.

2-bosqichda moslamalar va transportlar orasida o'zaro bog'liqlikni hosil qilish.

3-bosqichda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini va o'lchamlarini nazorat qilish uchun maxsus o'lchovchi va mexanik boshqaruvchini belgilash.

4-bosqichda dasturlashtirilgan boshqaruv avtomatik qurilmalari, Ular o'z-o'zini sozlash xususiyatiga ega.

5-bosqichda maxsus ishlab chiqarishga kibernetik va EHM mashinalar. Ish jarayonida ishchilarni vazifasi hisob-kitob va boshqarib borish hamda nazorat kilishdir. Har bir avtomatizatsiya bosqichlarida ishchilarga qo'yiladigan talablar o'zgarib borib, bu talab avtomatlashtirishni rivojiga qarab qo'yiladi.

Texnologik bilimlarni uzluksizligi.

Texnik jarayonni uzluksizligi ish shakllarining uzluksizligiga bog'liq. Buning uchun texnologik jarayonlarni chuqur taxlil qilish kerak.

Ishlab chshqarish korxonasiining ish sharoitini o'rganish. Bu erda eng avvalo korxonaning ichki sharoiti va asosiy kasblarni o'rganish. Ishchilarni qo'llaydigan texnologik operatsiyalari, mutaxassislarni ish sharoiti va korxonaning ichki sharoiti, ya'ni ishlab chiqarishni asosiy qo'l mehnati tashkil etadimi yoki zamonaviy texnologiya?

Ishlab chiqaruvchi uskunalarni va ishlab chikarish jarayonida ishlatiladigan ish qurollaridan foydalanishni bilishi.

Korxonada ishlayotgan ishchining ish faoliyatiga qarab, ya'ni u so'nggi texnologiya bo'yicha ishlaydimi yoki avtomatlashgan texnologiyadan foydalanadimi? Bu albatta ishchining shaxsiy bilim va malakasiga bog'liq.

Malakavyay texnik bilimlar mazmuni mintaqa ko‘rinishida.

Ishchilar orasida nisbatan tee-tez sodir bo‘lib turadigan kamchilik va o‘zgarishlar, malakali o‘qitishni 2 turga bo‘lib o‘qitishni talab etadi.

1. Asosiy (uzoq yilga mo‘ljallangan)

2. Dinamik (maxsus muddatga mo‘ljallangan). Shuning uchun ta‘lim turini ajratib olish muhimdir. Mintaqalarda o‘quv materiallari mezonlarini ajratish quyidagicha bo‘ladi:

a) kompetentligi;

b) turli materiallar;

v) turli murakkablikda;

g) mahsulot birligi;

d) texnologik tomoni;

e) xavfsizlik.

O‘quvchilarda umumta‘lim va malakaviy bilimlarni o‘zaro bog‘liqlik asosilari.

Bu ishning asosiy maqsadi shundan iboratki o‘quv jarayoni bilan birgalikda ta‘lim oluvchalarni ish jarayonini ham qamrab oladi. Hozirgi vaqtda pedagogik ilmda nazariy 3 ko‘rinishdagi o‘zaro bog‘liqlik ilgari surilmoqda.

1-ko‘rinishdagi o‘zaro bog‘liqlik. Bir obektni turli xil fanlarda o‘rganish. Bu erda biron bir masalani turli fanlarda o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi xaqida so‘z yuritiladi.

2-ko‘rinishdagi o‘zaro bog‘liqlik. Bir ilmiy metodni turli xil o‘quv fanlarida qo‘llash.

3-ko‘rinishdagi o‘zaro bog‘liqlik. Bir qonunni turli fanlarda isbotini topish. Hozirgi fan texnika rivojlangan, yil sayin bilimlar hajmi g‘oyat jadal o‘sib borayotgan sharoitda o‘qitish jarayonini shunday tashkil qilishga to‘g‘ri keladiki, maktabni bitirib chiqqanlar o‘z amaliy faoliyatlari jarayonida yangi bilimlar, malakalar, ko‘nikmalarni mustaqil egallashlari uchun eng *kulay* sharoit yaratilsin. Buning uchun bilim, malaka va ko‘nikmalar puxtagina emas, balki moslashuvchan xam bo‘lishi, o‘quvchilar ularni yangi ishlab chiqarish sharoitlarida qo‘llay olishlari kerak. Ular quyidagilardan iborat:

1. Malakaviy beriladigan kasbga yaqin bo‘lgan va bevosita shu soxa bo‘yicha fanlarni chuqur o‘rganish.

2. Butun fanlar tizimidan malakaviy zarur bo‘ladigan fanlarni ajratib olish.

3. Umumta‘lim fanlari bilan birgalikda mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rgatish.

4. Amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish.
5. Ishlab chiqarishda uchraydigan masalalarni to'g'ri qo'yish va to'g'ri hal etish.
6. Matematik qonunlarni o'quv bilim yurtlarida o'quv materialini va fanlarga tadbiq etish.
7. Tayanch savollarni to'g'ri tanlash va tuzish.
8. O'quv jarayoni saviyasini trenajyorlar yordamida ko'tarish.
9. Uy vazifalari orqali malakaviy o'qishni amalga oshirish.
10. Asosiy fanlar bo'yicha malakaviy texnik o'qitishni tayanch mazmuni.
11. Ishlab chiqarish mazmunini fanlar bilan o'zaro bog'lash.

6.2. Har tomonlama etuk va yuqori malakaga ega bo'lgan xodimlar tayyorlash

Keng malakali ishchi-mutaxassis uchun asosiy model qilib ilg'or ishchilarni mehnat faoliyatini misol qilib yoki namuna qilib olishimiz kerak. Ularni malakalari, ish qobiliyatlari, pedagogik kuzatuv va tajriba orqali o'rganiladi. O'rganib chiqilgan natijalar asosida mukammal model yaratiladi. Bunday model ishchi-mutaxassislarni shaxsiy sifatlarini va fikrlashlarini, bilim darajalari, ko'nikma malakalari, ish jarayonida qo'llaniladigan uslub va metodlarni aniqlashga yordam beradi. Keng malakali ishchi-mutaxassisni modeli quyidagi ko'rinishda tuzilishi mumkin:

1. Prognostik - oldindan bilish va ish rivojini xarakterlash.
2. Malakaviy - texnik mazmuniga qo'yiladigan talablar.

1. Bu maqsadda maxsus ruxsat etilgan va tasdiqlangan xujjatlarni: maqola, qo'llanma, ilmiy texnik kutubxona, axborotlardan turli xil ilmiy tashkilotlar, dissertatsiyalar, patentlar, axboroti va konferensiya materiallaridan va h.k. keng foydalaniladi.

2. Ishchilarni malakaviy tayyorlash uchun ishlab chiqilgan talab va mazmun. Oldindan tashxislangan ma'lumotlar modelda qayd qilinib ilmiy tayangan holda ishchini malakasini oshirishga imkon beradi. SHu bilan birga didaktik prognozni ajratish kerak. O'quv rejasini va dasturlarni mukammalligidan va ishchi reja ustida ishlashda tashxisli ma'lumotlar zarur. Ishlab chiqilgan model o'quv jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlarga ruxsat etish.

Ishchi kasblarni guruhlash asoslari.

Kasbiy pedagogikani qonun-qoidalarini yaxshi o'zlashtirish kasbiy o'qishning ayrim metodologik muammolarini hal qilishni engillashtiradi.

Ilmiy texnikani asosiy yoʻnalishi sgandartlashtirish boʻlib, ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish, kompleks mexanizatsiyalash, unifika-siyalash, EHMni qoʻllash, tipovoy, guruxlangan va umumiy texnologiyani qoʻllash, ixtirochilik, ratsionalizatorlik ishchi-mutaxassislarni ijodiy texnik ijodkorligi asosiy yoʻnalishidir. Avtomatlashtirilgan uskunalar, alektron hisoblash texnikasi ishlab chiqarishni hamma jabhalarini texnik asosini tashkil etadi. Ilmiy texnikani turli kasblardagi umumiylik asosi shundaki, turli kasb egalari har-xil sohalarda ishlaydilar, bu ishchining faoliyati turlichaligini anglatib, ishga tayyorgarlik, uni nazorat qilishda bir xil talab qiladi. Bu esa oʻz vaqtida ishchi-mutaxassislarni kasbiy oʻqitishni turdosh kasblarga guruxlab oʻqitishni imkonini yaratadi. Birlashtirilgan kasblarni guruxlash ishchilarni ish mazmunini ishiga qarab olib boradi. Bilim va malakalarni egallashda xam umumiylik boʻlib, ularga qurilmalarni sozlash ish rejimini tanlash ishlab chiqilgan maxsulotni oʻlchash, chizmani oʻqish, texnik kartalardan foydalanish va boshqalar misol boʻla oladi. Hozirgi davrda xalq xoʻjaligida 6,5 mingdan ortiq kasb mavjud boʻlib, bu kasblarni ham amaliy oʻrganib chiqish mumkin emas. SHuning uchun xamma kasblar guruxlashtirilib chiqiladi va guruxlash metodi qoʻllaniladi. Kasblarni guruxlashni muxim bosqichi umumtexnik guruh mazmuni va asosiy oʻrganish predmetiga qarab amalga oshiriladi. Umumtaʼlim predmetlaridan umumiy texnika predmetlari xamma guruxlar uchun birdek boʻlib, oʻquv dasturidan amaliy, nazariy oʻqitish boʻyicha mavzular ajratilib olinib ular oʻqitilayotgan kasb kirgan guruxga bogʻliq boʻladi, Kasblarni guruxlashtirish va guruxlangan kasblar va korxonadagi ish joyini loyixalash boʻyicha xar bir kasbga malakaviy tasifnoma ishlab chiqiladi. Qaysi kasbni olmaylik biz shu kasbga mos boʻlgan ish maʼlumoti, koʻnikma va malaka xaqida maʼlumot topamiz. Kasblarni guruxlashda eng asosiysi - oʻquv bilim yurtlarida oʻquv dasturni mazmuni ilmiy texnik rivojlangan, malakaviy tayyorligini olib kiradigan hissasini, birinchi tarafdin umumiy oʻrta taʼlim ikkinchi tarafdin umumiy oʻrta politexnik tayyorgarlikni qoʻllash va shu bilan malakani oshirish lozim. Bunda:

a) ish jarayoniga taqsimlash maqsadida kasblar yigʻindisini oʻrganish;

b) turdosh kasblarni bir-biriga oʻxshashligini moslama va jixxozlarni ishlab chiqaruvchi maxsulot turini taqsimlash maqsadida ajratilgan guruxlarni oʻrganish;

- v) o'quv guruxlarga qo'shish uchun umumiy kasblarni ilmiy texnik umumligini aniqlash uchun ajratilgan guruxlarni o'rganish kasblarga didaktik analizlarni qo'shish;
- g) ajratilgan o'quv guruxlarni soxalar bo'yicha shakllantirish.

6.3. Bosqichli o'qitish nazariyasi. Texnologik bilimlarning uzluksizligi

Didaktika ta'lim tizimining asosiy negizini tarbiyaviy o'quv jarayoni tashkil etib, u o'z vaqtida ikki bosqichga bo'linadi. a) doimiy; b) dinamik.

Buning asosida o'quv dasturlar ishlab chiqishni asosiy va maxsus jarayoni, kerakli kasb ta'limga muvofiq aniq va puxta shu bilan bir qatorda o'zaro bog'liqlikda dastur asosida olib boriladi.

Asosiy o'quv jarayoni - bu bosqichda ta'lim oluvchilar umumiy talablarga javob beruvchi bilim, malaka va qo'nikmalarga ega bo'lib, ular shunday bilim oladilarki, u ilmiy texnik o'zgarishlar ta'siriga mos keladi. Umumiy mehnat egallangan bilim, qo'nikma va malakalarga kasbiy bilimlarga asos bo'lib, uning mustaxkamligi ishlab o'qitishni samaradorligiga olib keladi. Asosiy o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar kelajakdagi uning faoliyati, mehnat turi va ishlab chiqarishdagi egallaydigan o'rniga bog'liq bo'ladi. Asosiy bilim berish jarayoni maxsus bilim berishni negizi bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun ta'lim oluvchi ko'rsatilgan fanlar bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarini mustaxkam egallab bormog'i lozim.

Maxsus o'quv jarayoni - asosiy o'quv bosqichdan maxsusga o'tish sekin - asta ro'y berib, butun o'quv jarayoni shu maqsadlarga qaratilgan vaqt ichida olib boriladi. Maxsus bosqichda o'qitish tanlangan kasbga yo'naltirish bo'yicha olib borilib, o'qitish jarayoni shu sohadagi texnik va texnologik rivojlanish talablariga javob bermog'i lozim, ammo markazlashgirilgan tartibda ishlab chiqilgan o'quv dasturi xo'jalik sohasidagi yoki korxonalar talablariga javob bera olmaydi, chunki bir sohada texnologik jihozlarni bir turi o'rganilsa, ikkinchi turida ishchi-muqaxassislarni tayyorlashda sohalar bo'yicha o'qitish afzaldir.

O'quvchining asosiy ish mazmuni - xizmat ko'rsatuvchi texnologik jarayonlarni mohiyatiga singish, ish rejimini olib borishni optimal ajratish, nozik tomonlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni o'z vaqtida ta'mirlash yuqori sifatli ish ta'minlovchi texnologik jarayonni aniqlash.

Maxsus o'qitish jarayonida-ta'lim oluvchilarni korxonaning xususiyatlari bilan aniq va mukammal tanishtirish jarayonida uning korxonadagi hamma ish turlarida egallagan bilim va malakasini amalda

qullay olishni ta'minlash lozimdir. Talim oluvchilar ishlab chiqarishdagi texnik va texnologik jarayonlar, qurilma va moslamalar xaqida bilim olib amalda qo'llay bilishlari lozim. Kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish keng, umumtexnikaviy asosida olib borilishi kerak. Bu o'z vaqtida ishchining istagan korxonada faoliyat ko'rsatishini taminlaydi. Maxsus o'qitish jarayonida o'qituvchi ustaning ishlab chiqarish jarayoniga o'qitishda quyidagilarga erishmog'i lozim:

1. Talim oluvchini hozirgi zamon texnika jarayoni metodlari va zamonaviy metodlarga, qurilmalarda ishlashni o'rgatish.

2. Mehnatni tashkil etish metodi xam ta'lim oluvchini zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga, kasbiy malakasiga qarab turli ish operatsiyalarini bajarishni zamonaviy texnologiya talabiga javob beruvchi ishlab chiqarishni tashkil etish.

3. Talim oluvchini ish me'yorini bajarishga ijodiy yondoshishga o'rgatish.

4. Korxonadagi ish chizmalarini to'g'ri o'qishga texnologik hujjatlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish.

5. Korxonada jamoasida ta'lim oluvchi ishidan muhim tarbiyaviy sifatida foydalanish.

6. Talim oluvchini mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarishdagi va yong'in xavfsizligi talablariga amal qilishga o'rgatish.

7. Talim oluvchini ish o'rni va ish qurollariga nisbatan javobgarlik va qadrlash xissini singdirish.

8. Talim oluvchida ish madaniyati haqida taasurot berish, ish joyini to'g'ri tashkil etishni o'rgatish.

9. SHunday ishchi-mutaxassisni tarbiyalashga erishish kerakki, u anglagan xolda ish unumdorligini oshirishga o'z hissasini qo'shsin. Ularni ishlayotgan korxonaning obro'si, ish sifatini oshirish ruhida, mehnat intizomiga qat'iy rioya qilishini tarbiyalash.

6.4. Ishlab chiqarish ta'limining davrlari

Ishlab chiqarish jarayonida ta'lim berish bir necha davrlarga bo'lib o'rgatiladi.

Boshlang'ich davr - bu vaqtda ta'lim oluvchilar o'zlarini ustalarini tanimaydilar, bir-birlarini ishlab chiqarish jarayoni haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydilar. O'quv ustasi xar bir ta'lim oluvchini shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, ularda ish joyini, kasbni tanlashga qiziqishni uyg'otib mehnatga bo'lgan umumiy talablar, ish sharoiti bilan

tanishtiradi. Ishlab chiqarish ustasi ta'lim oluvchilarni texnik to'garaklarga qiziqtirib, ishlab chiqarish sohasi bo'yicha faxriylar bilan uchrashuvlar tashkil etadi. Ishlab chiqarish ustasi birinchi kunlardan oq guruh faolini saylab oladi va ta'lim oluvchilarni jamoaga aylantiradi. Bu bosqichda tashkiliy ishlar ko'proq olib borilib, ta'lim oluvchilar asosan o'zaro bir-birlari bilan va ish jarayoni bilan tanishadilar. Bu jarayonni ishlab chiqarishga, o'qitishga aloqasi bo'lmaydi va o'rtacha 2 haftacha vaqt davom etadi.

Tayyorgarlik davri- bu vaqtga kelib ta'lim oluvchilar aniq ish turlari bilan tanishib, ularni o'quv-ishlab chiqarish, mehnat faoliyati ishlab chiqaruvchi xarakterga ega bo'ladi. Guruxda usta ishonadigan o'z-o'zini boshqaruvchi organlar faoliyat ko'rsatib, bu vaqtga kelib usta quyidagi masalalarni hal qiladi: ish o'rnini tashkil etish, mehnat xavfsizligiga javob berish, ishlab chiqarishda intizomli bo'lish ish qurollarini asrab-avaylash, shaxsiy gigiena va sanitariya qoidalariga rioya qilish va boshqalar. Talim oluvchilarni ish jarayoni texnik xujjatlarni o'rganish, moslamalarni sorolash, ish o'rnini ishga tayyorlash, ishlab chiqilgan mahsulotning sifatini tekshirishdan iborat bo'lib, ular oddiy ish jarayonlarini o'rganib boradilar. Ustaning ko'p marotaba ko'rsatib va tushuntirib berishi, ketma-ket o'zlari ish bajarishlari natijasida ularda birlamchi ko'nikmalar hosil bo'ladi.

Kasbni o'zlashtirish davri - ish jarayonlarini o'rgangandan so'ng olingan bilim va malakalarni mukammalashga o'tiladi. Buning uchun shunday ishlar tanlanadiki, ish jarayonida yangi o'rnatilgan mavzu va undan oldingilari qamrab olinadi. Shunda ta'lim oluvchilarda egallangan bilim shakllanish xususiyatlari rivojlanadi.

Kasbiy egallash muddatida usta quyidagi masalalarni ta'lim oluvchilar rivojlantiradi: ish jarayonida ish ritm va tempga amal qilish, bajarilayotgan ishda texnik talablarga javob berish, masalalarni mustaqil xal qilish va buyurilgan ishga javobgarlik xissini tarbiyalaydi.

Nazorat qilish va yakunlash davri - bu muddatni asosiy vaEIFasi faqatgina olingan bilim va malakalarni mustahkamlab qolmay, balki ularni zamonaviy moslama va qurilmalardan foydalangan holda mukammalashib borishidir. Ishlab chiqarish faxriylarning ishlarini o'rganish va o'zlashgirib olish ta'lim oluvchida ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida mustaqillik hissini shakllanib borishiga yordam beradi. Talim oluvchilar mehnat jamoasi oqimiga kirib jamoada rivojlanib, tarbiyalanib, shaxs sifatida shakllanib boradilar. Bu muddat oxirida ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ishlarni rejalashtirishi o'z ish joylarida ilg'or

metodlarni qo‘llashlari, mustaqil ravishda ish qurollarni boshqarishlari va ishlashlari chizma va texnologik hujjatlardan foydalanishlari va shu bilan birga ishlab chiqarishdagi yangi yutuqlarga erishishga intilishlari, vaqtni, xom ashyoni tejashlari, mehnat xavfsizligi talablariga javob berishlari kerak bo‘ladi. Yosh ishchi-mutaxassslar yuqoridagi talablarga javob berganlari haqida mehnat faxriylari bilan aloqalarni uzmasliklari, ularni qadrlab hurmatlashlari lozim.

Ishlab chiqarish ta‘limi predmetli tizimi-bu jarayon xunarmandchilikni o‘qitish davrida vujudga kelib ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, vaqti, ilg‘or texnika va texnologiyani rivojlanishi bilan shakllanishi mumkin. O‘qitish jarayonida o‘quvchi yoki yosh ishchi chiqargan mahsulotlarni ko‘rib chiqib, bu ishlab chiqarishga o‘qitish deb yakkalik formasini namoyish etadi. Bu tizimning asosiy kamchiligi ishlab chiqarilgan mahsulot qayta ishlanmay, buning oqibatida ta‘lim oluvchilar xato harakatlarni o‘zlashtirar edilar. Keyinchalik bularni qayta o‘qitishga to‘g‘ri kelib ta‘lim oluvchi egallaydigan bilim va ko‘nikma shakllanar edi. Ishlab chiqarish ta‘limining operatsiyali tizimi - bu jarayon texnikaning rivojlanishi bilan vujudga kelib ishchilar mehnatini mazmun va xarakterini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning turiga qarab, talabga qarab o‘zgartirishga olib keladi. Bu tizimda o‘qitish jarayoni tezlashib ta‘lim oluvchilar mahsulot ishlab chiqarishga qaratilmay egallayotgan kasblarga o‘qitiladilar.

Mehnat ta‘limining operatsiyali potokli tizimi - bu hozirgi zamon ishlab chiqarishni tashkil qilinishining eng ilg‘or zamonaviy formasi bo‘lib, bu o‘qitish tizimida ishchi aloxida ish turini bajarib keyingi operatsiyani keyingi ish o‘rniga uzatadi. Mahsulot tayyor bo‘lguncha texnologik jarayon nechta ish joyiga bo‘lingan bo‘lsa shu jarayonlardan o‘tib tayyor mahsulot shakliga keladi.

Ishlab chiqarish ta‘limining operatsiyali predmetli tizimi - bu tizimda ishlab chiqarish jarayonida har bir ish operatsiyasini o‘rganilib mahsulotni tayyorlashdagi oddiydan murakkabga qarab intilgan bo‘lib, bu erda ta‘lim oluvchi bajargan ishni natijasini ko‘rgan holda qilayotgan ishga qiziqish uyg‘onib boradi.

Ishlab chiqarishni - kompleksli, operatsiyali, majmualiy tizimi -bu jarayonida ish ketma-ketligi ish obektini tanlash ma‘lum ketma-ketlikda va o‘zaro bog‘liqlikda olib boriladi. Bu yo‘l orqali ta‘lim oluvchilar bajarishi kerak bo‘lgan xamma ish turi bilan tanishib ta‘lim oluvchi ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat ketma-ketligini mukammal o‘zlashtiridilar.

Ishlab chiqarish tizimining qabul qilish, majmuali kamayish tizimi - bu tizimning mohiyati shundaki, kasbni muhim elementlarini ajratib olib, shu asosda keyingi ketma-ketligini puxta o'zlashgirishga olib keladi. Bundan oldingi tizimdan farqi shundaki, ishlab chiqarish jarayonida bajarilayotgan operatsiya emas, balki bajarilgan ishni qabul qilish yotadi. Bu tizimni kamchiligi bir ishni bir necha yo'llarda bajarishda qaysi yo'lni tanlashdir.

Ishlab chiqarish ta'limini invariant tizimi - bu tizimni mazmuni o'quv materialni tasniflash va o'quvchiga yuqori malakali kasblarni o'rgatish.

Ishlab chiqarish ta'limining muammoli analitik tizimi - bu erda o'quv jarayoni va butun o'quv material alohida o'quv muammolarga bo'linib mustaqil mazmunga ega. Berilgan muammo mehnat jarayonlaridan kelib chiqib, ta'lim oluvchilarni faoliyatida bajariladigan ish uchun zarur bo'lgan aqliy va jismoniy jarayonlar o'rganiladi. Har bir muammo uchun mustaqil vazifa belgilanib, ularni hal qilishda muammoli mavzuni tarkibiy tizimi umumiy ko'rishda ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganiladi. Har bir muammo ta'lim oluvchilar tomonidan ko'rib chiqilib so'ngra har bir muammoga izoh beriladi. Texnologik jarayondagi bu muammoning o'rnini ajratilib beriladi.

O'quv dasturi, o'quv predmetining sifati, fandagi yutuqlar, o'zgarishlar javob berishi uchun o'quv dasturni ishlab chiqishda ilmiy tamoyillariga rioya qilish kerak. Bularni asoslari quyidagilar:

1) Kasbiy malakani rivojlantirish, unga tashhis berishda muammoli bilimlarning tizimida muammoni aks etishi.

2) O'quv dasturida zamonaviy fan yutuqlaridan olingan sohadagi texnik va texnologik yutuqlarni qo'llanilishi.

3) Politexnik tamoyillarni aks etishi. Har bir fan o'z ichiga umumilmiy kasbiy politexnik tushunchalarni qamrab oladi. Kasbiy pedagogikada ilmlarni asosining tavsifiga texnikani umumiy klassifikatsiyalash asosi, ishlab chiqarish jarayonining hamma tamoyillari sotsial iqtisodiy mehnat sharoiti kabi tushunchalar kiradi. Umum ilmiy tushuncha masalan - kuch, tezlik, iroda (mustahkamlik) yuklama tushunchalarni qamrab oladi.

4) Malakaviy texnik bilim berish o'zaro aloqadorlikdagi aksi. Asosiy yo'nalishlarga o'zaro bog'liqli umumta'lim fanlar, kasbiy yo'nalishdagi fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Umumta'lim va maxsus fanlar ishlab chiqarishdagi o'qitishda qo'llaniladi.

5) O'rgatilayotgan kasbga nisbatan qo'llaniladigan o'quv fanlari va asosiy g'oyalarni ajratish. Turli kasbga o'qitishda kerakli fanlarni chuqur

o'rgatib borish mutaxassislik bo'yicha asosiy fanini kerakli miqorda nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish, kasbni puxta egallashda samarqadorlikni ta'minlaydi.

6) O'quv dasturida mehnat faxriylarining ishlab chiqarishdagi tajribasi.

7) Bilim yurtini tugatgan ishchini ishlab chiqarishdagi kelajakdagi malakasini o'sishini mo'ljallash. Bizga ma'lumki, kasbiy texnika o'qitish dasturlarida ishlab chiqarishga o'rgatishda ishchining malakasi oshib borib, agar ishchi o'z ustida ishlamasa, zamonaviy texnologiyalarni qo'llamasa uni bilimlari eskirib, keraksizlanib boradi. SHuning uchun berilayotgan nazariy bilimlar bir sinf yuqori darajada olinsa yosh ishchi-mutaxassisning umumtexnikaviy va maxsus dunyoqarashini kengaytirish, ishlab chiqarishdagi darajalarda o'sishini ta'minlaydi.

8) O'quv dasturlarda (qo'shimcha) asosiy kasb bilan birga qo'shimcha mehnatga o'rgatish, o'quv dasturlarga asosiy kasbga qo'shimcha ishga o'rgatuvchi mavzularni kiritish kerak. Aralash kasblarni o'rganish minimal bilim berish bilan chegaralanib, berilayotgan asosiy kasbga o'rindosh qilib olinadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar:

1. Ishlab chiqarish turiga qarab o'qitish dasturlari qanday guruhlarga bo'linadi?

2. Malakaviy - texnik mazmunga qo'yiladigan qanday talablarni bilasiz?.

3. Didaktika ta'lim tizimining asosiy negizi necha bosqichda bo'linadi. ular qaysilar?

4. Ishlab chiqarish ta'limi qanday davrlariga bo'linadi?

5. O'quv dasturni ishlab chiqishda qanday ilmiy tamoyillariga rioya qilish kerak?

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O'zbekiston, 1997.

2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta'limiy-axloqiy qarashlar.-T., 2005.

3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.

4. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 1996.

5. G'aybullayev M. va b.q.. Pedagogika. - T. 2000.

6. Xudoyqulov X.J. "Pedagogika.Psixologiya".-T.: Dzayn-Press.2011.

7. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.

www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.

www.inetlibrary.com.

2-BOB. PROFESSIONAL TA'LIMDA DIDAKTIK PRINSIPLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

7-MAVZU. PROFESSIONAL TA'LIM PEDAGOGIKASINING MARKAZIY OSIYODA BA G'ARB MAMLAKATLARIDA PEDAGOGIK FIKRLARI

Reja:

7.1. Markaziy Osiyoda XIX asrda ijtimoiy hayot va Xonliklar davrida kasbiy pedagogikaning tarixiy jihatdan paydo bo'lishi.

7.2. Markaziy Osiyodagi ta'lim-tarbiya tizimini tarixiy jihatdan shakllanishi. Jadidchilik harakatining ta'lim-tarbiyaga ta'siri.

7.3. G'arb mamlakatlarida pedagogik fikrlar. Yan Amos Komenskiyning pedagogika sohasidagi buyuk xizmatlari.

Tayanch so'zlar: Buyuk mutafakirlar, Temuriylar davri, Jadidchilik harakati, sinf-dars sistemasi, rus-tuzem maktablari, G'arb pedagoglarining ilg'or g'oyalari.

Chet el pedagogika ilmining eng ko'zga ko'ringan namoyondalari ko'pchiligi insonparvar, gumanistik ta'lim-tarbiyani ma'qullab yosh avlodni hayot va kasbga puxta tayyorlash va shu uchun bolani odobli, axloqli, vijdonli, mehnatsevar qilib o'stirish, unga har tomonlama bilim berish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish, uning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodkorligiga katta e'tibor qaratish deb aytib o'tgan.

Buyuk qadimgi yunon faylasufi **Sokratning** (e.a. 469-399) fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad narsa va xodisalarni, tabiatni o'rganish bo'lmay, balki kishining o'z-o'zini bilib olishi, axloqan kamol toptirishi bo'lmog'i lozim. Fikr qo'zg'uvchi savollar bilan suhbat o'tkazish, o'zlari fikr yuritib to'g'ri echimini topishga undaydi kishini. Didaktikada buni birinchi ishlatgani uchun "Sokrat metodi" deb e'tirof etilgan.

Atoqli qadimgi yunon faylasufi **Platonning** (e.a. 427-347) fikricha bolalar 3 dan 6 yoshgacha turli jismoniy va aqliy o'yinlar bilan shug'unaladilar, shuningdek bolalalarga hikoya qilib beriladigan bilimlarni to'g'ri tanlash kerakligini uqtirib o'tadi. U bolalarga ta'lim-tarbiya berish faqat jamoada bo'lishini va uni ijtimoiy tarbiyaga chaqiradi.

Buyuk qadimgi yunon faylasufi **Aristotelning** (e.a. 384-322) fikricha tabiat odamzot jonining uch hilini bir-biri bilan chambarchas bog'lab

qo‘ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo‘ldan borib, bolaning tarbiyasiga uch tomondan qarashimiz darkor. Bular – jismoniy, aqliy va ahloqiy tarbiyadir. Uning aytishicha har bir davlat xukumatning faqat bitta maqsadi bo‘lishi darkor, bu esa hamma fuqarolar uchun ta‘lim-tarbiya berishni ta‘minlashdir. Oila va ijtimoiy tarbiyaning o‘zaro bog‘likligiga uqtirishga haarkat qiladi. Tarihda birinchi bo‘lib, mutafakkir yosh avlod davrlarini aniqlashga urinib ko‘rdi va uch davrga bo‘ldi: 7 yoshgacha – go‘daklik va bolalik; 7 yoshdan – 14 yoshgacha - o‘smirlik; 14 yoshdan – 21 yoshgacha – balog‘at davri. Birinchi davrda bola kuzatish, takrorlash va o‘yin orqali ta‘lim-tarbiya oladi, ikkinchi davrda o‘smir astoydil o‘qiydi, ko‘p fanlarni o‘zlashtiradi, mustaqil fikrlay boshlaydi, xayotning yaxshi va yomon tomonlarini bilib oladi, jismoniy, aqliy va ahloqiy tarbiya oladi. Uchinchi davrda balog‘atga etgan kishi mayllarini aniqlaydi, qobiliyatlariga yaqin bor ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradi, o‘ziga hunar tanlab oladi, kasbga ega bo‘lish uchun harakat qiladi.

Atoqli qadimgi yunon faylasufi **Demokrit** (e.a. 460-370) tabiat bilan tarbiya bir-biriga o‘xshaydi deb ta‘lim-tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini ilgari surdi. U ta‘lim-tarbiya ishida mehnatning o‘rni katta ekanligini ta‘qidlab, ta‘lim mehnat asosidagina go‘zal narsalarni hosil qiladi deb e‘tiborimizni qaratadi.

Buyuk slavyan pedagogi, pedagogika fanining otasi YAn Amos Komenskiyning pedagogika sohasidagi xizmatlari juda katta. U 1592 yilda chex diniy jamoasida tegermonchi oilasida tug‘ilgan. YAn Amos Komenskiy ota – onasidan juda erta etim qoladi. Universitenti bitirgach Fulkens shahridagi qardoshlik maktabida o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi. So‘ngra mahaliy jamoada rahbarlik vazifasida ishlaydi, ilmiy ish bilan shug‘ullanib, chex tili hususiyatlari, halq og‘zaki ijodini o‘rganadi, o‘qitishning mazmuni va usullarini takomillashtiradi. 1628 yilda chex qi bilan birga lshaning Leshko shahriga ko‘chib keladi, bu shaharda qardoshlik maktablarini ochib, o‘qituvchilik qila boshlaydi, o‘zini olam shumul shuhratiga keltirgan “Buyuk didaktika” va “Onalar maktabi” asarlarini nashr qildiradi.

1641 yilda Londonda katta tantana bilan kutib olishadi. U SHvetsiya va Vengeriyada ham maktablarni isloh qilish bilan shug‘ullanadi. U 1670 yilda vafot etadi.

Ya.A.Komenskiy o‘rta asrdagi tarbiyadan farqli o‘laroq tug‘ilganidan boshlab bola egallagan qobiliyatini ko‘prog‘ini oilaning tuhfasi deb hisoblaydi va bu qobiliyat faqat oilaviy tarbiya jarayonida shakllanadi va

rivojlanadi. Uning fikricha tarbiya tabiyatga uyg'un bo'lishi, tarbiyada bola shaxs hususiyatlari hisobga olinishi lozim.

U inson rivojlanishini 4 bosqichga go'daklik, bolalik, o'smirlik va etuklik davrlariga bo'ladi.

Bola tug'ilgandan to 6 yoshigacha onalar maktabida; 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar o'z ona tilida o'qitish ishlari olib borilishini; 12 yoshdan 18 yoshgacha o'smir va yigitlar lotin maktabi va gimnaziya o'qishini; 18 yoshdan 24 yoshgacha har bir davlatning akademiyalarida o'qishni tashkil etishni tavsiya etadi. O'qitish ta'lim bosqichlarining uzviyligi va o'zaro bog'liqligini taklif etadi.

Har bir mashg'ulot oldingisi bilan bog'langan, o'quvchining yoshi va qobiliyatiga mos bo'lishini e'tirof etadi.

YA.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" va "Onalar maktabi" asarida o'qitishning yangi sistemasi haqida so'z yuritiladi., ya'ni "Sinf-dars" sistemasi haqida. Bu sistema tezlik bilan butun dunyoga keng tarqaladi. "Sinf – dars" sistemasi o'quvchining yoshi va bilim darajasiga qarab alohida gurhlarda, alohida sinfxonalarda maxsus mutaxassislar yordamida olib boriladigan ta'lim jarayonlari nazarda tutiladi.

Ulug' chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy** (1592) o'zining pedagogik nazariyasida ta'lim-tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishini aytib o'tgan bo'lib "Buyuk didaktika" asarida "o'qitish tabiat talabiga bo'ysinishi kerak"deb yozadi. Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi. Lekin kishi ijtimoiy borliq ham bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida ham o'sadi.

Komenskiy fikri bo'yicha insonning rivojlanishi 4 davrga bo'linadi:

Go'daklik-0-6 yoshgacha	Bolalik-6-12 yoshgacha	O'smirlik-12-18 yoshgacha	Yetuklik-18- 24gacha
----------------------------	---------------------------	------------------------------	-------------------------

Bular to'rtta ta'lim jarayonini talab qiladi:

maktabgacha tarbiya	boshlang'ich ta'lim	o'rta ta'lim	Oliy ta'lim
------------------------	------------------------	--------------	-------------

va quyidagi maktablarda o'qitiladi:

ona maktabi	Halq maktabi	gimnaziya	Universitet, akademiya
-------------	--------------	-----------	---------------------------


Maktablarning vazifalari:

Sez ish organlarni o‘stirish, atrofdagi Dunyo bilan tanishtirish, mehnat, haqqoniylik, to‘g‘rilikka o‘rgatish	Xotirasini kuchaytirish, to‘g‘ri so‘zlash va yozishga arifmetika, geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarga o‘rgatish	Klassik tillar, tabiiyot, ilohiy fanlarga o‘qitish, tafakkur va boshqa qobiliyatlarini o‘stirish, axloqiy tarbiya berish	Tanlangan kasbga ega qilish, irodasini, SHaxsini bir butun o‘stirish
---	---	--	--

Komenskiy hammaning o‘qishga jalb etilishini va o‘z ona tilida boshlang‘ich ta’lim olishini uqtiradi. Ulug‘ pedagog ta’lim-tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlash ekanligi, buni aqliy, axloqiy va diniy tarbiya bilan amalga oshirishi mumkin deb aytib o‘tadi. Uning qarashicha o‘quvchi o‘ylashiga, harakatlanishiga, masalalarni yecha bilishiga, o‘z fikrini to‘g‘ri ifoda qilishiga o‘rgatmog‘i lozim: “Faqat mehnat odamni ulug‘laydi, unga yoshlikdan o‘rgatish darkor”. Olim o‘qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi:

Komenskiy darslik qanday bo‘lishni aytib, o‘z zamonasi uchun bir necha namunali darslik va qo‘llanmalar tuzdi.

Darslik qisqa, mazmunli, tushunarli tilda va ravon bayon etilishi, izchil va oddiy, oladigan bilim va rasmlarga boy bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Uning darsliklarini ensiklopediyalar deyish mumkin, chunki ularda surat bilan berilgan tabiat (inson, o‘simlik va hayvonot olami, inson tanasi va ichki dunyosi haqida, anatomiya, fizika, ximiya, biologiya, geografiya, geometriya, astronomiyalarga doir), odam faoliyati (turmush tarzi, kasb-hunari, hulq-atvorlari, tabiat va jamiyat bilan munosabatlari, xo‘jalik va madaniyati), ijtimoiy hayot haqida (davlat va jamiyat tuzumi, qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati) qisqa ma’lumotlar berilgan. Ulug‘ zot bolada yoshligidan boshlab axloq va odob fazilatlarini shakllantirish kerakligini aytadi. Mardlik, o‘zini jamoada tuta bilish, tartib-intizom, chidamlilik, boshqalarga foyda etkazish, oila va jamoa oldida burchini ado qilish kabi xislatlar fazilatidir. Yosh avlodni kamtarlik, mo‘min-qobillik, xayrixoxlik va xushmuomalilik, kattayu-kichikka hurmat, mehnatsevarlik, pokizalıklar tarzida tarbiyalash muhim vazifalardir.



Mutafakkir “Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmon” maqolini keltirib, kaltak vositasiga mutlaqo qarshi chiqadi va bolalalarga insoniy muomalada bo‘lishni tavsiya qiladi. Agar o‘qituvchi bolani sevsa, uning yaxshi bo‘lishini istasa, darsi mazmunli va qiziqarli o‘tsa, mavzuni tushuntira bilsa intizomlik o‘zi-o‘zidan vujudga keladi. Iste’dodsiz,

ma'lumotsiz o'qituvchi maktabda ishlamasligini taqidlab, Komenskiy o'qituvchilik "Er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" deb hisoblaydi. O'qituvchi jamiyatida muhim vazifani bajaralayotganini, o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi bilan u sof vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'zini va ota-onaday bolalarni sevishi, ularda bilimga havas tug'dirishi, ergashtirishi darkor.

Nemis pedagogi **Iogann Fridrix Gerbart** (1746-1841) o'zining "Umumiy pedagogika" asarida fanning didaktik vositalarini aniqlab oldi. Buyuk olim tarbiyalanuvchi o'qitish nazariyasini tasniflab berdi, "ta'lim berish", "o'qitish" va "o'qish"ni muhimligini aniqlab oldi, o'quv jarayonning imkoniyatlarini ochdi, o'qitish metodlar tizimini (tahlil qilish, tasvirlash, bayon qilish, ifoda qilish, isbotlab berish, umulashtirish) belgilab berdi.

Ulug' shveysar olimi **Iogann Pestalotssi** (1746-1827) yangi tizimli maktabning ta'lim-tarbiya dasturini tuzib amaliyotda tekshirib oldi, o'quv materialni muvafaqiyatli o'zlashtirish psixologik manbalarni aniqladi. Buyuk pedagog o'quv ma'lumotni tushunish va qayta ishlash mashqlar tizimi orqali bolaning psixofiziologik imkoniyatlarni va uning qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta'lim metodikasini yaratdi. Pedagogik jarayonda o'qituvchi yoshidagi va hususiy psixologiyaga tayanishini aytib o'tdi.

Nemis pedagogi **F.Frebel** (1782-1852) o'zining "Inson tarbiyasi" kitobida odamga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik-pedagogik me'yor va qoidalarga tayanib, individual va yoshidagi hususiyatlardan kelib chiqib, tarbiya qonunlarini ta'riflab berdi. Buyuk pedagog o'qituvchining maqsadi yoshlarning ijobiy qobiliyatlarini aniqlashi va ularni rivojlantirishiga qaratdi.

Nemis pedagogi **Adolf Disterveg** (1790-1866) buyuk pedagog-olim. U "yomon o'qituvchi haqiqatni aytib o'tadi, yaxshi o'qituvchi esa uni topishga o'qitadi" deb muammoli pedagogika tizimini yaratishiga katta xissa qo'shdi.

Buyuk rus pedagogi **Konstantin Ushinskiy** (1824-1870) muntazam pedagogika tizimining yaratuvchisi, ko'p darsliklarning muallifi. Olim fikricha tarbiya bolaga insonparvarlik, fidoiylilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, intizomlik, odamlarga hurmat, samimiy munosabatlarni o'stiradi. Tarbiya tizimida vatanparvarlik, vatanga fidikorona mehnat asosiy o'rinni egallaydi. Bola yoshidagi psixologik hususiyatlarni e'tiborga olib, darsda ko'rsatmalilik tamoyiliga katta ahamiyat berdi. "Bola shakl, rang, tovush, umuman sezgilar bilan fikrlaydi". Bundan bola uchun

ko'rsatmali o'qishning zarurligi kelib chiqadi, "bu o'qish mavhum tasavvurlar va so'zlarga emas, balki konkret obrazlarga asoslanadi". Bola o'quv materialni anglab, puxta va mustahkam o'zlashtirishiga etaklab olib borilishi kerak. Olim o'quv materialni takrorlash, takrorlaganda uni kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risida batafsil uslubiyot va tarbiya tizimini ishlab chiqdi.

Buyuk rus pedagogi **Pyotr Lesgaft** (1837-1909) jismoniy tarbiya tizimini ishlab chiqdi, jismoniy tarbiyani joriy qilishning tom ma'nodagi tashabbuskori edi. Nafaqat erkaklar, balki xotin-qizlardan jismoniy tarbiya ta'limidan tarbiyachi-murabbiylar tayyorlash oliy kurslarini ochdi, Rossiyaning ko'p shaharlarda uning tashabbusi bilan stadion va sport maydonchalar qurildi va halqqa xizmat qildi. Lesgaft tarbiya ijtimoiy harakterga ega, u bolaning o'sib kamolga etishida hal qiluvchi sifatlaridan biridir, bola faqat oila va maktab ta'lim-tarbiyasining yuqori darajada bo'lgani bilan rivojlanadi deb xisobladi.

Ulug' rus pedagogi **Anton Makarenko** (1888-1939) o'zining mehnat va ijodiy faoliyatida maktab bolalari ta'lim-tarbiya olishlari bilan biron kasbga, mutaxassis bo'lishi uchun kelajak mehnatiga tayyorgarlik ko'rishni ta'kidlab o'tgan. Uning "Pedagogik poema" asarida yosh hukukbuzar va etim, boshpanasiz, ko'chada qolgan bolalarni maktab, internat va koloniyalarda qanday ta'lim-tarbiya berish, ular bilan qanday munosabatlarda bo'lish, hayot va mehnat faoliyati tizimini tashkillash masalalarni ko'taradi va echishini butun pedagogik jamoaga ko'rsatib beradi. SHu va boshqa asarlari bolalarning ichki dunyosi va hulq-atvorini shakllantirish pedagogik va psixologik matariallarga nihoyatda boydir.

Buyuk amerika pedagogi **Djon Dyui** (1859-1952) o'quvchi bolalarning ta'limini ularning boshdan kechirilgan hayotiga, kichkina hayotiy tajribasiga va tasavvurlariga yaqinlashtirib qo'yishga harakat qilib, ularning o'zlashtirayotgan obyektiga qiziqishni uyg'otishga intildi. Uning maktab asosiy shiori har bir nazariyani ishda, amaliyotda ko'rishdir: "Aytsang – unutib qo'yadi, ko'rsatsang - vaqtincha xotirasida qoladi, ishga kiritsang – umrbod esida saqlaydi". Bunday o'qitish jarayonida bolaning tabiiy o'sishining qismlari: ijtimoiy (muloqot va o'zaro ta'sirga intilish), tuzilmaviy (harakat va o'yinga intilish), tadqiqot (aniqlash va tushunishga intilish), ekspressiv (o'zining qiyofasini ko'rsatishiga intilish), his-tuyg'uviy (masalani o'zi yechishidan bahramand bo'lish) ko'zda tutiladi. Sinfdan tashqari ishlarda faqat har hil yoshdagi bolalarning birga va bir ishni qilishga amaliyotlar o'tkaziladi. Har bir tushuncha laboratoriya tarzda aniqlanadi, o'qitish jarayonida o'yin va sahnalashtirish usullardan

keng foydalaniladi, “o‘qituvchi - o‘quvchi” tizimida individual darslar afzal ko‘riladi. Sinflar bolalar qiziqishi, intilishi, layoqati bir bor imkoniyat va qobiliyatlarning darajasi teng, bir biriga dil tortishi bilan tuziladi. Dyui maktabi uchun yangi o‘qitish metodlarni topish, bolalarning intilishiga diqqat-e’tibori, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, faoliyatlarini kengaytirishdan iborat.

Yuqorida tilgan oligan faylasuf va pedagog olimlarning fikr-g‘oyalari, ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlari butunjahon ta’lim-tarbiya rivojiga salmoqli hissa qo‘shib, hozirgi davrda ham maktab va oliy o‘quv yurtlari faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning kasbiy mahoratida poydevor bo‘lib hizmat qilmoqda.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar:

1. Ma’naviy kamolot yo‘lida o‘zbek halqimizning yutuqlarini ko‘rsatib bering.
2. Buyuk allomarimizning pedagogik fikrlari nimaga qaratilgan?
3. Al-Xorazmiy, Al-Buhoriy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Naqshband, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Avloniy, Xamza pedagogik yutug‘i nimada?
4. Pedagogik qarashlar yosh avlodni kamol toptirish yo‘lida nimaga o‘rgatadi?
5. Xonliklar davrida ichki hayoti, iqtisod, savdo, hunarmandchilik, madaniyati qanday rivojlangandi?
6. Jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari kim va ular haqida izoh bering.
7. Yan Amos Komenskiy shaxs rivojlanishini qanday davrlarga bo‘ladi va uning xizmatlari nimada?
8. Evropada ko‘zga ko‘ringan pedagoglarning nomlarini izohlab bering!

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta’limiy- axloqiy qarashlar.-T., 2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996.
5. Ismayilova Z.K. Pedagogika. –T.: Moliya-Iqtisod. 2007.
6. G‘aybullayev M. va b.q.. Pedagogika. - T. 2000.
7. Xudoyqulov X.J. “Pedagogika.Psixologiya”.-T.: Dzayn-Press.2011.
8. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.

8-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKADA TA'LIM JARAYONI

Reja:

8.1.Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayonining mohiyati va tuzilishi.

8.2.Kasbiy ta'limining tamoyillari.

8.3.Pedagogik jarayonni loyihalash. Loyihalash jarayonining obyekt va muammolari.

8.4.Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish.

Tayanch so'zlar: Didaktika, ta'lim oluvchi, o'qituvchi faoliyati, ta'lim obyekt, ta'lim tamoyillari, nazariya va amaliyot, onglik, uzviylik, faollik.

8.1. Kasbiy pedagogikada ta'lim jarayonining mohiyati va tuzilishi

Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas va muhim qismlaridan biri bo'lib, u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasi "Didaktika" tushunchasi bilan ham ifodalanadi. "Didaktika" so'zi grekcha "didakos" so'zidan olingan bo'lib, "o'qitish, o'rgatish" degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish obyekt o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va uning shakllaridir. Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga etkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

Fan va texnikaning rivojlanishi ham ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi esa o'z navbatida ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim jarayonida:

-Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi.

-Kerakli malakalarga ega bo'ladi.

-Ko'nikmalar hosil qiladi.

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar o'rnatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida olib boriladi. SHuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta'lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi va boshqaruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni beradi. Talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak. Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida amalga oshiriladi. O'qish talabalarning o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma'lum bo'lgan haqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat tomonidan hozirgacha erishilgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berilishi kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarning echimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lur edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar bu fanlarning asoslarini o'rgatishdir. Ammo shunga qaramay hozirgi o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisodiyot asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmaganda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon etkazmaganda holda echimini topishga harakat qilmoqdamiz.

Pedagogik jarayon – bu o‘qituvchi va talaba bilimlarini, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llashni o‘z ichiga qamrab oladi. Kasb ta’limi jarayonida mazmun, o‘qish, o‘qitish, tarbiyalash asosiy bog‘lovchi komponentdir.

Ta’lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma’noni anglatadi. YA’ni bu: talabalarda bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish: ularda dunyoqarash, fikr va e’tiqodlarni shakllantirish; o‘quvchilarning muayyan darajada o‘qimishli, madaniyatli, tarbiyali chin inson bo‘lishiga erishish; ularning qobiliyatlarini o‘stirishdan iboratdir.

Ta’lim – insoniyat tajribasining ma’lum tomonlarini, ya’ni talabalar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydigan faoliyatdir.

Demak, pedagogik ta’lim jarayonining mazmunini bilim, ko‘nikma va malakalar tashkil qiladi. Talabalar o‘qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bunda bilimning o‘zi kifoya qilmaydi. Uni hayotda ko‘p unum beradigan qilib qo‘llay olish lozim. Buning uchun esa talabada ko‘nikma va malaka hosil qilish zarur.

Ko‘nikma – mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig‘indisidir. Iqtidor va ko‘nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Bilim asosida ko‘nikma va malaka hosil qilinadi. Bilim bahsda kerak bo‘lsa, ko‘nikma mehnatda, dunyoni o‘zlashtirishda zarur bo‘ladi. SHu jihatdan Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlarda va maktablarda bahslar, bellashuvlar, o‘tkir zehnlilar mushoirasi, quvnoqlar va zukkolar bellashuvini tashkil etish foydalidir.

Ta’lim oluvchining xarakteri va faolligi rivojlangan holda uning darajalari turlichadir. Ammo shu bilan birga ta’lim oluvchilar passiv bo‘lsa, o‘qitish jarayonini amalga oshirish juda qiyin bo‘ladi.

-Ta’lim oluvchining ilm qabul qilishi faolligi uning shaxs sifatida shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim oluvchida o‘z-o‘ziga, mehnatiga, boshqa shaxslarga, jamiyatga, ishlab chiqarishga, atrof-muhitga munosabati shakllanib boradi.

-Pedagogik jarayonning muhim spetsifik sharoitlari. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning muhim spetsifik shartlaridan biri bu amaliy o‘qitishdir. Bu uning muhim tashkil etuvchi komponentidir. O‘qitish jarayoni amaliyotdan tubdan farq qiladi, chunki ishlab chiqarishdagi o‘qitish uslubining asosiy maqsadi, bu ta’lim oluvchini ma’lum bir kasbga yo‘naltirish va shakllantirishdir.

Pedagog va ta'lim oluvchi orasidagi o'zaro birlik va aloqadorlik haqida gapirganda boshqaruvchi va o'rgatuvchi shaxs bu o'qituvchi ekanligini unutmazlik kerak. Faqat pedagogning ta'lim oluvchiga bilim bera olishi, shaxs sifatida shakllantira olishi va o'z ta'sirini ko'rsata olishi mumkin.

O'qitish jarayonining muhim komponenti: Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida belgilangan bo'lib, uning tarkibiga ijtimoiy maqsadlar, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimning aniq maqsadlarini belgilaydi. Pedagogik jarayon faqat ta'lim mazmunigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni;

-Pedagogik jarayonning sharoitiga qarab mazmun belgilanmasa, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishlari qiyin kechadi, shuningdek, ta'lim jarayoni bilan amaliyotdagi sharoit orasidagi bog'liqlik yo'qoladi.

-Guruhning shaxsiy imkoniyatidan kelib chiqib. o'qituvchi dasturiga mantiqiy o'zgarishlar kiritib, shu bilan birga pedagogik jarayonning o'zaro bog'liqligini buzmaganda maqsadga erishiladi.

Ma'lumot berishning pedagogik jarayoni-o'qituvchilarning ilmiy, texnik va texnologik ishlab chiqarishdagi bilimlarini shakllantirishdir. Mazkur jarayonda o'qituvchi va ustaning vazifasi ta'lim oluvchida ijobiy sifatlarni rivojlantirish uchun tarbiyaviy vazifalarni maksimal qo'llashdan iborat bo'ladi. O'qituvchi ta'lim oluvchilarda jamoatchilik, do'stlik, intizomga rioya qilish, rostgo'ylik, o'z ishiga javobgarlik kabi insoniy sifatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Buning uchun o'qituvchining o'zida tarbiyalovchi sifatlarni mujassam bo'lishi kerak.

8.2. Kasb ta'limining tamoyillari

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holda bir tizimni tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchi-talabalarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv yurtlarida beriladigan bilimning ilmiy xarakterga ega bo'lishi fan-texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim.

SHunday ekan, o'qituvchi ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur. O'quv fanlari ham ilm-fan asosida yaratiladi. O'qitishning ilmiylik tamoyillari ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa ularni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga qaratilgan.

Ta'lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim tamoyillari har ikkala faoliyatning ya'ni pedagog va talaba tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. SHunga ko'ra ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta'lim tamoyillari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malaka xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

Inson vujudga kelibdiki, o'z farzandiga bilganlarini o'rgatish, o'zi ega bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini keyingi avlodga o'tkazish dastavval anglanmagan holda bo'lsa-da mavjud edi. Bu yashash uchun kurash qonunidan kelib chiqib, yashashning zaruriy sharti hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan avloddan-avlodga o'tkazish lozim bo'lgan bilimlar hajmi ham ortib bordi. Bilimlar, egallash lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalar murakkablashib bordi. Bu jarayon olimlar tomonidan tahlil qilinib asta-sekin ma'lum qoidalar ishlab chiqildi.

Ta'lim jarayonini chuqur o'rgangan olimlardan biri qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqida shunday fikrlarni bildiradi. O'quv jarayonida pedagog quyidagi qonuniyatlarga:

- talabaning zeriktirmasligi;
- bilim berishda turlilikka asoslanishi;
- uzviylikka, izchillikka rioya qilishi kerak.

Beruniy yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish samarali natijalar berishini ham ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) bilim olishda yoshlarni o'quv muassasasida o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

-talabaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;

-o'qitishda jamoa bo'lib, o'quv muassasasida o'qitishga e'tibor berish;

bilim berishda talabalarning maylini, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

-o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Ushbu ishlab chiqilgan qoidalar ta'limda mustahkam o'rin egallay boshladi.

Shunday qilib, ta'lim tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi. Albatta didaktika tamoyillari har bir davrning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarib boradi. Chunki ta'lim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ta'lim (o'qitish) jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Unda pedagog va talabalar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun qoidalari ya'ni ta'limga quyilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq.

Keyingi yillarda ta'lim qoidalarini o'rganish ularni tahlil qilish va mukammallashtirish ustida ish olib borilmoqda. Ta'lim qoidalarini sistemallashtirish masalasi ham doimo faol masala bo'lib kelgan.

Bugungi kunda kasbiy pedagogika fani quyidagi **ta'lim tamoyillarini** ajratib ko'rsatmoqda:

-Ta'limning ilmiy bo'lishi;

-Ta'lim-tarbiyaning birligi;

-Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi;

-Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

-Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillikka erishish;

-Ta'lim jarayonining ko'rsatmali va ko'rgazmali bo'lishi;

-Bilimlarni puxta va tizimli o'zlashtirib borish;

-Ta'lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish;

Umumdidaktik tamoyillar bilan pedagogik jarayon qonunlari o'zaro aloqada bo'lib, u o'zining spetsifik xususiyatlariga ega. **"Kasbiy pedagogika"** fanining asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

-Politexnik tamoyil

-Ta'lim oluvchilarda amaliyot va nazariyani o'zaro bog'lash tamoyili

-Modellashtirish tamoyili

- Mobillik tamoyili
- Tartibli ketma-ketlik tamoyili
- Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili
- Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili

Politexnik tamoyil – bu tamoyil zamonaviy ishlab chiqarishning ilmiy asoslari tizimini egallashni nazarda tutib, shu bilimlar asosida umumkasbiy politexnik va maxsus bilimlarni shakllantiradi.

Politexnik tamoyillarni o‘qitishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

- asosiy yo‘nalishdagi rivojlangan texnika va ilmiy o‘qitish;
- o‘zaro bir-birlari bilan bog‘langan o‘quv material tizimini tashkil qilish;
- o‘qitilayotgan fanni kelajakda amaliyotda qo‘llash;
- ta’lim oluvchilarning yoshlariga mo‘ljallab o‘qitish;
- umumta’lim bilimlariga tayanish;
- ta’lim oluvchilarning qiziqishlarini qoniqtirish;
- o‘quv materialining ketma-ketligi va turg‘unligiga rioya qilish.

Ta’lim oluvchilarda amaliyot va nazariyani o‘zaro bog‘lash tamoyili

O‘quv jarayonida nazariy va amaliy bilim berish o‘zaro aloqadorlik va o‘quv predmetining asosiy maqsadi amaliyotda qo‘llashga qaratilgan bo‘lib, bu maqsad quyidagi shartlarga amal qilishga bog‘liq:

- nazariy bilimlarning amaliyotda sinalishi;
- ish jarayonida sohaviy bilimlar va ularning fanda qo‘llanilishi;
- mutaxassis-xodimlarni samarali o‘qitish uchun kasbiy ishlab chiqarishga qarab kasbiy bilim berish.

Mutaxassis faoliyatini o‘quv jarayonida modellashtirish tamoyili

Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun engilliklarni oldin o‘zlashtirish, o‘qitish metodlarini o‘quv rejasini va o‘quv dasturini olish mumkin.

Mobillik tamoyili

Bu tamoyil shaxsning texnik bilimlarini tez o‘zlashtirish qobiliyatiga qaratilgan. Mutaxassis-xodimning ijodiy ish xarakteri, dunyoqarashining kengligi muammolarni anglab olish, ishlab chiqarishdagi rivojlanishini ko‘ra bilishdir.

Tartibli ketma-ketlik tamoyili

Bu tamoyil quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quv rejasini planlashtirish;
- o‘quv jarayonida ketma-ketlikka rioya qilish;

- deduktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash;
- umumta’lim bilimlarini tayanch qilib olish;
- o‘quv materiallarini o‘zaro bog‘liq holda tartibli berib borish.

Atrof-muhitni tashkil etish tamoyili

Atrof-muhit deganda avvalam bor ta’lim muassasasida o‘quv qurollari bazasini ishlab chiqarish va didaktik vositalarni, texnik, texnologik, ekologik talablar, shu bilan birga mehnat muhofazasini ta’minlash va ta’lim oluvchilarning sog‘lig‘ini saqlash sharoitlarini yaratish lozim.

Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyili

Bu tamoyil bugungi kunda o‘ta dolzarb bo‘lib, kompyuterlar hayotimizning turli sohalariga kirib kelmoqda. Pedagogik sohaga ham kirib kelib ta’lim oluvchilarga kompyuterlar yordamida mavzuni kengroq, qiziqarliroq va tushuntirilayotgan mavzuni amaliyotini ham ekranda ko‘rsatib berish imkonini yaratadi.

8.3. Pedagogik jarayonni loyihalash. Loyihalash jarayonining obyekti va muammolari

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida tak’lim jarayonini samarali tashkil qilish, uning izchilligi va uzluksizligini ta’minlashga erishish masalalari etuk mutafakkirlar hamda ilg‘or pedagoglarning diqqat – e’tiborini jalb etib kelgan. Yosh avlod ta’lim tarbiyasini tashkil etishning ushbu jihatlari o‘z davrida Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Yan Amos Komenskiy, D.K.Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy va boshqalar tamonidan o‘rganilgan.

Axborotlar almashinuvining globallashuvi, shuningdek, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida ro‘y berayotgan ilmiy yangiliklarning son va sifat jihatidan keskin o‘sib borishi o‘z-o‘zidan talabalarga ular borasida tezkor sur’atda va batafsil ma’lumotlar berishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Ushbu talabning ijobiy ravishda qondirilishi, eng avvalo ilmiy-nazariy hamda amaliy bilimlarni o‘zlashtirishning qulay shakli bo‘lgan ta’lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishi o‘quv manbalari (o‘quv dasturi, rejasi, darslik, qo‘llanmalar) saviyasi, shuningdek pedagogning bilim darajasi va pedagogik mahoratiga bog‘liqdir.

Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda o‘quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o‘quv rejasi

mohiyatining nazariy va amaliy jihatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart–sharoitlarning mavjudligi, pedagog va talabalar o'rtasida samimiy, ijobiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi o'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi, materiallarni yig'ish va ularni mohiyati bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashdan iborat.

O'quv predmetining mavzusi yoki faoliyat mazmuniga doir manbalar mohiyatini o'rganib chiqish pedagog uchun talabalar e'tiboriga taqdim etilayotgan mavzu xususida ularga batafsil, mukammal ma'lumotlarni bera olish, ta'limning umumiy jarayonini tasavvur etish imkonini bera oladi.

2–bosqich. Ikkinchi bosqich o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida kichik bo'lim (band)lar bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ta'lim maqsadi va vazifalarining aniq, puxta belgilab olinishi o'qituvchi, shuningdek, talabalar faoliyatini muayyan yo'nalishga solish, ta'lim maqsadiga erishishda vaqtdan unumli foydalanish, ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan didaktik va tarbiyaviy muammolarning oldini olish, mavjud shart-sharoitlardan oqilona foydalanishga zamin hozirlaydi. Ikkinchi bosqich natijasi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha yagona, umumiy hamda xususiy maqsadlar, shuningdek, vazifalarni qayd etish bilan tavsiflanadi.

3–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning uchinchi bosqichi ta'lim maqsadi va vazifalariga tayangan holda o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir.

Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarining xajmi ham o'z ifodasini topa olishi kerak. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi talabalar

tamonidan muayyan bilim, ko'nikma hamda malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchi bosqich samarasi talabalar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

4–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning eng muhim bosqichi hisoblangan bu bosqichda mashg'ulotning shakli, metod va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Mazkur bosqichning muhimligi shundaki, aynan mashg'ulotning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini taminlashga olib keladi. Ular yordami bilan o'quv predmetining mavzusi (faoliyat mazmuni) borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, talabalar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilib olinadi. Muayyan mashg'ulot uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining 90 foizlik samaradorligini ta'minlaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan ana shu bosqichda ochib beriladi. Talabalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, bahs – munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Mana shu holatdagina talabalar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l–yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

5–bosqich. Navbatdagi bosqichda talabalar tomonidan bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zlashtirilishi uchun etarli deya belgilangan vaqt hajmi, ya'ni talabalarda muayyan mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va malakalarning qancha vaqt oraliqida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

6–bosqich. Bu bosqichda topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Bosqich natijasi sifatida ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimining samaradorligiga alohida e'tibor berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi.

Mazkur bosqichda ishlab chiqilgan mashqlar tizimini quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

- mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tomonidan yechilishi lozim bo'lgan mashqlar;

- darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar (uy vazifalar).

Talabalar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar bir–birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik va eng muhimi evolyusion xususiyat kasb eta olishi lozim.

7–bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning 7-bosqichida talabalarning umumiy faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi talabalarning mavzu (faoliyat mazmuni) yuzasidan ma'lum tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va xolis aniqlay olish imkonini beradi. Test tizimini ishlab chiqishda testlarning izchil, uzviy hamda bir-birlari bilan uyg'un bo'lishlariga ahamiyat berish zarurdir.

8-bosqich. Ta'lim jarayonini loyihalashning so'nggi bosqichi yaratilgan loyiha (andoza)ning ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi, ta'lim jarayonining yakuniy darajasini o'rganish bilan nihoyalanadi.

Mazkur bosqichda ta'lim jarayonining umumiy ahvoli, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi, navbatdagi Mashg'ulotlar jarayonida sodir bo'lgan kamchiliklarni oldini olishga qaratilgan chora–tadbirlar belgilanadi

8.4. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish

Ta'limda yoshlarni bilim, ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash shuningdek, bilimlarni tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ta'lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi. Albatta ta'lim tizimining samarali bo'lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Pedagog birinchi galda o'z kasbini sevishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o'zining katta mas'uliyatini his qila olishi shart. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi hamda hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi, umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo'lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olishi, o'z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

Ta'lim oluvchilarning asosiy o'quv faoliyati bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, mazkur faoliyat quyidagi komponentlarni

o'z ichiga oladi: o'quv materiallarini qabul qilish, fikrlash, egallab qolish va qo'llash. Bu komponentlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular o'quv jarayonida ketma-ket qo'llanilib, butun bir o'quv jarayonini tashkil etadi.

1. Ta'lim oluvchining o'quv materialini qabul qilishi.

O'quv materialining qabul qilish o'quv jarayonining eng muhim qismidir. O'quv materialini yaxshi qabul qilinishi o'quv ishlab chiqarish faoliyatida mustahkam fundament rolini o'ynaydi.

2. O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlari.

O'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun eng avvalo ta'lim oluvchining ichki ehtiyoji bo'lishi kerak. Ichki o'zlashtirish javob bergandan imtihongacha esda saqlanib, keyin esdan chiqadi. O'zlashtirishning muvaffaqiyati ta'lim oluvchining faoliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki ta'lim oluvchi berilayotgan materiallarga qiziqsa va o'z ustida ishlasa o'zlashtirishning eng yuqori cho'qqisiga erishishi mumkin.

O'zlashtirishning ichki faktlaridan yana biri berilayotgan materialni ta'lim oluvchi tomonidan tushunishdir. Chunki ta'lim oluvchi mavzuni tushunmasa, qancha o'z ustida ishlamasin, oldingi mavzular bilan bog'liq bo'lmasa, mavzuning o'zlashtirilishi sodir bo'lmaydi va juda sayoz bo'ladi.

3. Qabul qilishning tashqi faktorlari.

O'quv materialini qabul qilishning asosiy faktorlari asosan o'quv materialining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Uning qiyinligi shundaki, o'quv materialida qo'llaniladigan texnik materiallar aniq va abstraktligiga, amaliyotga bog'liqligiga qarab farq qiladi.

4. Eslab qolish. O'quv materialini qabul qilishning eng muhim komponenti bu yangi materialni eslab qolish va xohlagan vaqtda uni nazariy va amaliy qo'llay bilishdir. Ta'lim oluvchi o'quv materialini bilan faol ishlaganda uni yaxshi eslab qolib, samarali qo'llaydi. Eslab qolishning eng asosiy samaradorligi ta'lim oluvchining irodaviy xususiyatlariga bog'liq.

5. Bilimlarni qo'llashda ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Bizga ma'lumki bilimlarni amaliy faoliyat davomida qo'llay bilish, bilimlarni egallaganlik darajasini ko'rsatadi. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish, ya'ni laboratoriya ishlarini bajarish davomida egallagan bilimlar asosida uy vazifasini bajarish, bilimlarni mustaqil egallashdan iborat. Bu jarayonda bilimlar kengayib va mukammallashib, chuqur o'zlashtirilgan bilimga aylanadi.

Ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishda o'z ustida mustaqil ish olib borishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. SHaxsiy bilimlarni oshirish, ta'lim olishning alohida turi hisoblanib, o'z-o'zini o'qitish jarayoni ko'proq ta'lim oluvchining zimmasiga yuklatiladi. Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik shartlar quyidagilar hisoblanadi:

-Ta'lim oluvchining shaxsiy kasbiy malakasining yuqoriligi.

-Mutaxassislarning bilim darajasi mehnatning raqobatbardoshligini ko'taradi.

-Hozirgi zamon texnologiyalari va mutaxassislar faoliyati ishsizlikni keltirib chiqarib, ishsizlarni yangi mutaxassislik turiga qayta o'qitishni taqoza etadi.

-Dunyo iqtisodiyotining rivojlanishi mutaxassis kadrlar bilimining mukammallashib borishiga olib keladi.

Kasbiy ta'limning samaradorlik mezonlari

Asosiy samaradorlik kriteriyasiga mutaxassislik kiradi:

- malakaviy faoliyatda mustaqillik hissi;
- mehnat xavfsizligiga amal qilgan holda texnik talablarni bajarish;
- ishlab chiqarishda vaqt va normalarni bajarish;
- kasbiy faoliyatda fikrlash va o'z-o'zini nazorat qilib borish;
- mehnat madaniyatiga qat'iy amal qilish;
- mehnat faoliyatiga ijodiy yondoshish;
- bajarilgan ish uchun mas'uliyatni his qilish kabilar kiradi.

Ushbu bobda ta'limda talaba yoshlarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularning qobiliyati va iste'dodlarini rivojlantirish jarayonida baholash va bilimlarini tekshirib turish muhim ahamiyat kasb etishi, baholash ta'lim tizimida foydalanilayotgan metodlar qanchalik samarali ekanligini, talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam berishi haqidagi fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimining samarali bo'lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liqligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay bilishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo'lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olishi, o'z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

Ta'lim tamoyillari - umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malaka

xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisidan iborat. SHu nuqtai nazardan ta'lim tamoyillari va uning turlari bo'yicha fikrlar bayon qilingan.

Kasb ta'limi jarayonining mohiyati va uning tuzilishi, kasb ta'limining tamoyillari, pedagogik jarayonni loyihalash, pedagogik rejalashning umumiy algoritmi, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish jarayoni, kasb ta'limida shaxsiy malakaviy bilimlar olish kasbiy ta'limning samaradorlik kriteriyasi kabilarga alohida yondoshilgan.

O'z-o'zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. Pedagogik jarayonning mohiyati va tuzilishi nimadan iborat?
2. Talabalarning o'quv faoliyati qanday tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi?
3. Pedagogik texnologiyada shaxsiy mo'ljallash deganda Siz nimani tushunsiz?
4. Kasbiy ta'limning samaradorlik mezoniga nimalar kiradi?
5. Pedagogik loyihalash – bu nima?
6. Monitoring deganda nimani tushunasiz?
7. Ta'lim texnologiyasiga nimalar kiradi?
8. Mehnat madaniyati tushunchasini asoslab bering?
9. Kasbiy ta'limning tamoyillari haqida fikr bildiring?
10. Kompyuterlashtirilgan pedagogik jarayon tamoyiliga misollar keltiring?

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O'zbekiston, 1997.
2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta'limiy-axloqiy qarashlar.-T., 2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 1996.
5. Ismayilova Z.K. Pedagogika .-T.: Moliya-iqtisod.2007.
6. G'aybullayev M. va b.q.. Pedagogika. - T. 2000.
7. Maxmudov YU.G'. Xudoyqulov X.J. "Pedagogika.Psixologiya".-T.: Dzayn-Press.2011.
8. Xudoyqulov X.J. Odob-axloq va tarbiya durdonalari.-T.: TTYMI.2008.
9. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.

9-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKADA O‘QITISH VOSITALARI VA ULARNING TAVSIFI

Reja:

- 9.1. O‘zbekiston Respublikasida kasb ta’limining mazmun-mohiyati.
- 9.2. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish uchun yaratilgan imkoniyatlar
- 9.3. Ta’lim mazmuni tuzilmasining makro va mikro darajasi

Tayanch so‘zlar: kasb ta’limi, kasb-hunar, o‘qitish vositalari, kasbiy samaradorlik, umumiy mutaxassislik bloki, makro va mikro darajalar.

9.1 O‘zbekiston Respublikasida kasbiy ta’limining mazmun-mohiyati

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi mutaxassislar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi. SHu nuqtai nazardan mamlakatimiz ta’lim tizimida qator o‘zgarishlar joriy qilindi. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning joriy etilishi, yangi o‘quv rejalari, dasturlar, darsliklarning ishlab chiqilishi, ta’lim muassasalarining attestatsiya va akkreditatsiya qilinishi, yangi tipdagi ta’lim muassasalarining tashkil qilinishi respublikamizda ta’lim tizimiga kengroq ahamiyat qaratilayotganligining hamda YUrtboshimizning mutaxassis kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor berayotganligining yaqqol namunasidir.

Bugungi kunga kelib, yangi tipdagi maktablar, umumta’lim o‘quv yurtlarining tarmog‘lari rivojlanib bormoqda. “Sog‘lom avlod uchun”, “Ma’naviyat va ma’rifat”, “Iqtisodiy ta’lim”, “Qishloq maktabi”, “Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tiklash”, “Ijtimoiy himoyalash” va boshqa tarmoq dasturi ro‘yobga chiqarilmoqda.

Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning xududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirishga kirishildi. Hozirgi kunda bu tizimda minglab yoshlar kasb-hunar sirlarini o‘rganmoqdalar. Oliy ta’limda kadrlar tayyorlashni markazlashtirishdan huquqiy yo‘nalishga o‘tkazish ishi olib borilmoqda, o‘quv yurtlarining tarmog‘i kengaymoqda. Bilimlarning yangi tarmoqlari bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy ta’limni ko‘p bosqichli tizimga o‘tkazish amalga

oshirilmoqda. Abiturientlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullari joriy etilmoqda.

Oliy malakali kadrlar sifatiga oshgan talablarga muvofiq aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash ishida tub o'zgarishlar bo'lmoqda. Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar kengaymoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashda uning hayotiy siklining uchta asosiy bosqichlariga kompleks yondashilgan.

Birinchi bosqichda kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni prognozlashtirish va shaxs, jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish belgilangan. Bu o'rinda kvalifikatsiya darajasining o'sib borishi belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda kadrlar tayyorlashni ta'minlash va ularning kvalifikatsiya darajasini amalga oshirish.

Uchinchi bosqichda, professional faoliyat sohasida kadrlardan foydalanish, vaqti-vaqti bilan malakani oshirish va qo'shimcha professional ta'lim yoki qo'shimcha professional ta'lim doirasida kvalifikatsiya darajasini ta'min etish va yangilab turish.

Milliy dasturning kompleks vazifalarida sifatli kadrlar tayyorlash qaroridan, eng muhim vazifani ishlab chiqish va professional ta'limning barcha pog'onalarida davlat ta'lim standarti tamoyillariga bag'ishlangan "raqobatbardosh va sifatli kadrlar tayyorlash" dasturi ishlab chiqilgan.¹

Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ta'minlash uchun kasbiy ta'limda standartlashtirish o'sib, yuksalib borishi zarur. Uning mohiyati yuqori va sifatli talablar bo'yicha amaliyotda erishilgan normalarga munosabati belgilanadi. Kasbiy ta'limda standartlashtirish kompleks bo'lishi kerak.

-Birinchi undagi o'zaro bog'liqlik darajasida kadrlar tayyorlash ishchi xodimdan tortib, to yuqori malakali mutaxassisgacha professional ta'limining uzluksizligi qamrab olishi zarur.

-Ikkinchi ta'lim standarti mutaxassisning hayotiy siklining barcha bosqichlarini qamrab olishi va ularning o'zaro aloqalarini ta'minlashi kerak.

Ta'lim muassasalarining integratsiyalashgan akademik litsey, kasb-hunar kolleji va boshqalarni tashkil qilish. Bunday ta'lim muassasalarida quyidagilar nazarda tutiladi:

-Professional ta'limning tashkiliy va metodik izchilligini ta'min etish;

¹ И.Иномов. Иқтисодий тарбия назарияси. – Т.: ТДИУ, 2005. 196-бет.

-Sohalar vazifasini hal etish uchun maqsadli mutaxassislar tayyorlashni amalga oshirish;

-O'rta zveno mutaxassislarini tayyorlash uchun moddiy-texnika bazalaridan va oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilar tarkibidan foydalanish.

Kasb ta'limi integratsiyasining gorizontali bo'yicha – yirik texnika universitetlari, ilmiy o'quv, ilmiy ishlab chiqarish va o'quv ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etishdan iborat. Bundan maqsad raqobatbardosh oliy ma'lumotli mutaxassislar (bakalavr va magistrlar), shuningdek, ishlab chiqarish birlashmalari, kasb-hunar kollejlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash.

Bunday integratsiya quyidagilarga ruxsat etadi:

-Birlashayotgan oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik, ilmiy va pedagogik potensialidan samarali foydalanish;

-Ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni bilan fan sohalarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

-Ilmiy xodimlar, o'qituvchilar va talabalarning birgalikda foydalanishlari uchun tajriba eksperimental va fundamental tadqiqot bazasini rivojlantirish;

-Kasbiy ta'limning barcha darajalarida davomli integratsion tajribani o'tkazish.

Kasb ta'limining vertikal va gorizontal ravishda integratsiyalashganligi bo'yicha turli darajadagi raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etish kerak.

Kasb ta'limining xalqaro integratsiyalashuv yo'llari:

1. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda ta'lim muassasalarini (universitetlar, kollejlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari) tashkil etish, bu esa bozor va xalqaro munosabatlar, yuqori texnologiya bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislar yo'nalishi bo'yicha bo'lishi zarur.

2. Iste'dodli yoshlarni sanoati va intellektual darajasi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim muassasalarida o'qitish.

3. Xorijiy mamlakatlar ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish va shu bilan birga talabalar, ilmiy tadqiqotchilar, pedagoglar tajriba almashinuvini keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

9.2.O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish uchun yaratilgan imkoniyatlar

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1997 yildagi Oliy Majlisning IX-sessiyasida so‘zlagan «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir» mavzusidagi ma‘ruzasi ta‘lim tizimi oldida turgan ulkan vazifalarni belgilab berdi. Ushbu sessiyada qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o‘tkazilayotgan tub islohotlarning ustuvor yo‘nalishini belgilab berishda alohida o‘rin tutadi. SHu boisdan yoshlarning ma‘naviy, axloqiy, jismoniy, ruhiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama kasb-hunar tanlashga mustaqil tayyorlash dolzarb muammodir.

Yoshlarni kasb-hunar tanlashga tayyorlashda har bir o‘g‘il-qiz shaxsidagi individual xususiyatlar majmuasini nazarda tutib, ularning ruhiyatidagi tug‘ma imkoniyatlar, hayot davomida tarkib topgan va mustahkamlanib, xarakteriga aylanib qolgan ma‘lum bir kasb-hunarga nisbatan bo‘lgan layoqat, moyillik, iqtidor, iste‘dod, qobiliyat, qiziqish va aql-zakovat ustunliklariga qarab kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish bugungi kunimizning xarakterli belgilaridir.

O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ularning ma‘naviy-axloqiy qiyofasidagi insoniy fazilatlar bilan ta‘limiy xarakterdagi xislatlar majmuasi o‘rtasidagi o‘zaro moslikning qaydarajada tanlayotgan kasb-hunarga tayyorlashda fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar va mahalla faollarining shaxsiy namunasi va hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar kasbga tayyorlashning hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biridir.

Maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga bo‘lgan intellektual va ma‘naviy ehtiyojlarini mukammalroq qondirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalariga, kasb-hunar haqida ma‘lumot beruvchi o‘quv markazlariga, jahon andozalari talablariga javob beradigan zavod va fabrikalarga ekskursiyalar uyushtirish, ilg‘or kasb-hunar vakillari bilan uchrashuv va kechalari tashkil etish, o‘quvchilardagi kasb-hunarga oid tasavvur va tushunchalarini kengaytirishga alohida imkoniyat yo‘llarini ochadi.

Tajribali pedagoglar har bir kasb-hunarning ijtimoiy mohiyatini yoshlar tomonidan qanday tushunib anglashlarini, ular kasb-hunar egasi sifatida kimlargadir kerakli odam sifatida, Vatan, el, yurt uchun fidoyi mehnat qilish ularning muqaddas burchlari ekanligini qalbdan his etuvchi hushyor murabbiy, barkamol pedagog sifatida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Pedagog o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ilm-fan uchun chanqoq bo'lgan, yangiliklarga intilib yashaydigan, milliy g'ururi yuksak, favqulodda holatlarda o'zini namoyon eta biladigan qobiliyatli yoshlarni aniqlashda psixologik, pedagogik tadqiqotlarning ilmiy tavsiyalarini nazarda tutib, tadbirkorlik asosida yondashadigan ijodkor, izlanuvchan, zukko, ziyrak, aql-zakovat egasi bo'lishi lozim.

Qadimdan ota-bobolarimiz bola tarbiyasida mehnatga o'rgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e'tibor berganlar. Farzandlarining layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar. SHu o'rinda har bir ota-ona oilada o'z farzandlarining qaysi kasb egasi bo'lishlariga jiddiy e'tibor berishlari zarur. CHunki bolalar biror kasbga qiziqsin, uni egallashga harakat qilishsin. Insonning kasb-kori uning husni deyishadi. Mehnatsevarlik xalqimizning asosiy xislatlaridan hisoblanadi. Mehnat tufayli farzandlarimiz mustaqil hayotga erkin inson bo'lib qadam qo'yadilar. Har bir narsani o'zlari hal qilishga o'rganadilar.

Bolada mehnatga munosabat dastavval oiladan boshlanadi. Tabiiyki bunda ota-ona o'z farzandiga namuna bo'lmog'i lozim. Oila a'zolarining mavqei, obro'-e'tibori, ularga nisbatan munosabat mehnat natijalari asosida bo'ladi. Inson mehnati u egallagan kasb-hunar vositasida amalga oshiriladi.

Har bir inson u yoki bu kasbni yoki bir necha kasb-hunarni egallashi mumkin, «Bir yigitga qirq hunar ham oz» degan maqolning mazmunida ham bir kasbni egallash hayotiy ehtiyoj ekanligiga ishora etiladi. Har bir kasbning, hunarning o'ziga xos mashaqqati va lazzati bor. Uning mashaqqatini matonat tinimsiz izlanish, sabr-toqat bilan enggan insongina, uning lazzatidan bahra oladi.

Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayishi omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi, shaxs sifatida shakllanishi mumkin.

Mehnatga psixologik, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik kabi axloqiy, irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 13-moddasida ta'kidlanganidek, «Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishini ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir».

Mehnat qilish jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish mehnati. ijtimoiy foydali mehnat turida faol ishtirok etadilar va chiniqadilar.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mehnat ta'limini turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi. Barcha qiyinchilik va sinovlarga bardosh bera oladigan yigit-qizlarga mazkur tanlagan kasbiga nisbatan yaroqli deb topiladi. Mehnat ta'limi esa xuddi ana shuning amaliy tomonini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega.

Mehnatsevarlik - insonning butun hayoti va faoliyatida amalga oshadigan jarayondir. Halol mehnat - kishi hayotining mazmunini tashkil etadi. Halol mehnat bilan tirikchilik qilish va yashash inson hayotining eng oliy bezagidir.

Shu bois donolar «Mehnat kishilik jamiyatining eng zarur yashash shartidir», «Inson nima bilan faxrlansa yoki e'zozlansa hammasi mehnatning natijasidir», «Mehnat umuminsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlar taraqqiyotining negizidir» deb bejiz aytmaganlar. Ushbu o'rinda Baxouddin Naqshbandning «Dil ba yoru dast ba kor» degan mashhur hikmati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Buyuk allomaning o'zi bunga amal qilib kelgan. Ul zot talabalarni madrasaga qabul qilish paytida biron kasbi bormi deb so'rar ekan. Hunarsiz odam o'qishga qabul qilinmagan. Buning sababini buyuk alloma shunday izohlagan. «Agar kishi hunarli bo'lsa, u bilimni haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo'lmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halol mehnatni unutadi». Hazrati Baxouddin Naqshbandning bu ta'limoti XIV-XV asrda O'rta Osiyo va Xurosonda keng tarqaldi. U har bir kishining dehqonchilik qilishi, savdo ishi bilan shug'ullanishi, naqqoshlik, quruvchilik kabi hunarlarni egallashi va uning halol mehnatini ulug'ladi.

XV asrda yashagan SHarqning etuk allomasi Jaloliddin Davoniy ham Baxovuddin Naqshband ta'limotiga asoslangan holda ijod qildi.

Davoniy insonning axloq-odoblil bo'lishida mehnatning ahamiyatini yuksak baholaydi. Insonning har bir harakati har bir bosgan qadami mehnat tufayli ekanligini va uni amalga oshirishdan oldin puxta o'ylab ko'rishi, aql tarozisi bilan o'lchashi lozimligini ta'kidlaydi. Ayniqsa birgalashib ishlashga alohida ahamiyat beriladi.

«Inson bir o‘zi mehnat qilib, yashash uchun va har kuni zarur bo‘ladigan narsalarni qo‘lga kiritishi qiyin. YAKka holda hayot kechirish uchun u o‘zi ovqat pishirishi, kiyim-kechak tikishi, mehnat qurollari yasashi va shunga o‘xshash ko‘p ishlarni bajarishi kerak bo‘lar, bir necha kasb-hunarni egallashga majbur edi. Bu esa hammaga ham nasib bo‘lavermaydi. «Odamlar birlashib, bir-birlariga yordamlashganda boshqalar to‘g‘risida chinakam qayg‘uradi, o‘zaro yordam va aloqa o‘rnatilganda adolatning sinalgan yo‘llari paydo bo‘ladi, yashash vositalari tartibga tushadi, kishilarning ahvoli mustahkamlanadi va inson zoti saqlanadi»¹

Davoniy bilan yashash vositalarining bunyod etilishi uchun, kishilar bir-birlariga yordam ko‘rsatishlari natijasidagina kerakli mashg‘ulotlarni etishtirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Xalqimizda «Mehnat-rohat poydevori», «Suvsiz hayot bo‘lmas, mehnatsiz rohat», «Mehnatsiz rohat yo‘q», «YOshlikdagi mehnat qarilikda davlat keltirar», «Mehnat bilan qarisan rohat bilan yasharsan» kabi maqollar mavjud. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek xalqi orasida mehnat qilish, uy qurish, hovli-joy qilish, imorat qurish qadim-qadimdan ota meros bo‘lib kelmoqda. SHuning uchun ham o‘zbek oilalarida farzandlar ko‘paysa yoki o‘g‘ilni uylantirish oldidan ota merosga amal qilish uni qadrlash, boyitish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Qadimdan ota-bobolarimiz bola tarbiyasida mehnatga o‘rgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e‘tibor berganlar. Farzandlarini layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar. SHu o‘rinda har bir ota-ona oilada o‘z farzandlarining qaysi kasb egasi bo‘lishlariga jiddiy e‘tibor berishlari zarur. CHunki bolalar biror kasbga qiziqsin, uni egallashga harakat qilishsin. Dehqonchilik, bog‘dorchilik, tikuvchilik, naqqoshlik, ganch-o‘ymakorlik, duradgorlik kabi kasblar bir necha asrlardan buyon xalqimiz mehnat faoliyatidan keng o‘rin olgan. Mehnatsevarlik xalqimizning asosiy xislatlaridan hisoblanadi. Mehnat tufayli farzandlarimiz mustaqil hayotga qadam qo‘yadilar, erkin inson bo‘lib, har bir narsani o‘zlari hal qiladilar.²

Xalqimiz «Hunar-hunardan o‘nar» deganda, odamning rizqi-nasibasi hunardan, mehnatdan paydo bo‘lishini nazarda tutgan. Bu hikmatlar yoshlarga ibratdir. Bizning ota-bobolarimiz azal-azaldan hunarmand, ijodkoru mirishkor bo‘lishgan. Ularning hunarlari oradan

¹ X. Аликулов. Жалолиддин Давоний.- Т.: Ўзбекистон, 1992, 30-бет.

² У.Маҳкамов. Одоб-ахлоқ сабоқлари. – Т.: Фан, 1995. 84-бет.

necha yuz yillar o'tsada, hanuz qadr-qimmatini yo'qotmay, ko'rku tarovatini namoyish etib turibdi. Duradgorlik deysizmi, naqqoshlik deysizmi, zargarlik deysizmi, bog'bonligu sohibkorlik, ustachilik deysizmi - hammani lol-hayron qoldiradigan ezgu ishlar ajdodlarimizdan, bizlargacha etib kelgan.

Ajdodlarimiz o'z hunarlarini, san'atlarini kelgusi avlodlarga to'kis-tugal etkazish, ularni o'tmishimiz madaniyati-yu, san'ati bilan oshno qilish uchun nechog'lik mehr-ixlos, katta g'ayrat-shijoat bilan, ko'z nurini, qalb qo'rini sarflab, tinimsiz mehnat qilganlarining guvohi bo'lamiz. Ayni paytda bilamizki, bizlar ko'rgan-bilgan san'atkorlik, bunyodkorlik mahsullari o'z zamonasida yaratilgan asarlarning daryodan bir tomchisi, xolos. Chunki sobiq sho'ro davriga kelib, hunarmandchilikning qadru-qimmatini keskin pasayib ketganidan bobolardan qolgan boyliklar ham talon-taroj qilib yuborildi. Ne-ne ajoyib kasblar, jumladan kosibchilik, kasamachilik, hunarmandlik san'ati ishlab chiqarish ro'yxatidan deyarli o'chirib tashlandi. CHinakam san'at asarlari o'rnini o'yinchoq sifat buyumlar etallab oldi.

«Haq joyida qaror topadi» deb bejiz aytmagan dono xalqimiz. Mana, vaqti kelib, yana o'sha ota-bobolarimizdan qolgan hunarmandlik san'atiga keng yo'l ochildi. Lekin achinarlisi shundaki, bu ishlar eng mohir va zabardast ustalarimiz olamdan o'tib ketgandan keyingina yo'lga qo'yildi. Endigi gap yoshlar katta qiziqish, zo'r ishtiyoq bilan ajdodlarimiz ishini davom ettirishlarida, qoldi.

Qadim udumlarimizdan yana bir ibratlisi shundaki, ota-onalar kasb tanlashda farzandlarining o'zlariga to'la erkinlik berishgan. Ular qaysi bir hunarni mukammal o'rganishlariga ko'zlari etsa, shunga rozi bo'lib ko'makdoshlik qilishgan. Hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi bu qoidaga rioya qilmaydilar. Farzandlari o'qigandan ko'ra o'zi istagan kasb-hunarni egallasa baxtli hayot kechirishini o'ylamaydilar. Ular farzandlari o'rta maktabni bitirishi bilan ularning oliy maktabda tahsil olishlari uchun qobiliyatlari, bilimlari, sabru bardoshlari etarlimi, yo'qmi, bu bilan hech hisoblashmasdan, bir amallab oliygohlarga o'qishga kiritishga harakat qiladilar. Ko'plar bunga muvaffaq ham bo'ladilar. Lekin keyinchalik buning oqibati nima bo'ladi? Farzandlar yo o'qishning o'ziga xos mashaqqatlariga toqat qila olmay yoki o'qishni davom ettirishga bilim darajalari etmay, tashlab ketadilar. Vaholanki, orada zoe ketgan bir-ikki yil vaqt mobaynida ular o'zlariga munosib biror hunarni egallashlari va hayotda ravon yo'lni topib olishlari mumkin edi.

Demak, xulosa qilib aytganda, yoshlarga bilim berish, ularni kasbhunarga o'rgatish masalalariga ayniqsa ota-onalar mas'uliyat bilan yondashishlari zarurligi bugungi kun talabidir.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ijtimoiy-pedagogik masaladir. Bu jarayonda, birinchi navbatda, o'quvchilarning qobiliyatlari va mehnati jamiyat manfaatlariga mos tarzda hisobga olinishi lozim. Insonning ijtimoiy holati dastlab uning ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi o'rni bilan belgilanadi va bu holning asosiy belgisi mehnatning o'ziga xos xususiyati va ijtimoiy mohiyati hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish tizimi — shaxsga kasbni va uning shaxsiy sifatlarini o'rganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat va prinsiplar, uslub va vositalar birligidir. Kasbga yo'naltirish barcha o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'lab olib boriladi. Ongli kasb tanlash o'smirlar etarli darajadagi umumiy va politexnik tayyorgarlikka ega bo'lgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. O'quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim. Buning uchun uni kuzatish (bevosita, bilvosita) o'quvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarini tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, suhbat, test, intervyu olish mumkin. Kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qaerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarni biror kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni, bilimlarni faqat maktabda zmas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari, qarindoshlaridan ham bilib oladilar.

YOshlar o'z oldilarida haqiqiy, keng hayot yo'li ochilishi uchun ko'p kuch-g'ayrat sarflashlari kerak va eng asosiysi o'z ko'ngillariga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali ishni tanlashlari lozim. SHu boisdan ham o'rta maktabni bitirayotgan yigit va qizlar qanday kasb egasi bo'lishi to'g'risida ko'p o'ylaydilar. Mamlakatimizda turli kasblarni egallash uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Zero kasb tanlash – jiddiy va mas'uliyatli ishdir. O'z hayot yo'lini jiddiy sur'atda belgilab olish oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. O'quvchi yoshlarning kasbhunarga layoqatini o'rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish, malaka va ko'nikmalarini o'rganish lozim.

O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish, kasbga yo'naltirish ishlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun maktab psixologi tuman tashxis markazi bilan hamkorlikda ish olib borsa, ayni muddao bo'ladi.

9.3 Ta'lim mazmuni tuzilmasini makro va mikro darajasi

Ta'lim mazmunining tuzilmasini makro darajasi modulli blok yordamida amalga oshiriladi. Modulli blok yondashuv ta'lim mazmuni asosini ajratib olishga yordam beradi, hamda kasbiy ta'lim tizimini moslashuvchanligini ta'minlab beradi.

Aniq bir yo'nalish bo'yicha ta'lim mazmunini tekshirish boshlang'ich kasbiy ta'lim sohalaridan boshlanadi. Kasb ta'limi mazmuni umumiy holda umumta'lim va kasbiy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Umumta'lim tayyorgarlik gumanitar va tabiiy ilmiy bloklar orqali tanishtiriladi.

Umumta'lim blokiga – nazariy va amaliy o'quv materialini kiradi, yaqin kasblar guruhi integratsiya asosini o'taydi, tarmoqlardan ya'ni ishlab chiqarishdan ajratilgan yoki tarmoqlararo darajada bo'ladi.

Ta'limda kasbiy blok eng asosiysi hisoblanadi, kasbiy blokda o'quv materialini, turli kasbiy faoliyatni so'ralayotgan darajada o'rganiladi. Mutaxassislik bloki – nazariy va amaliy o'quv materialini kasbi mutaxassisligini o'rganish uchun zarur.

Umumiy mutaxassislik bloki – ayrim hollarda ko'rsatiladi, keng miqyosli texnika va texnologiyani qamrab oluvchi, mehnatning mazmuni bo'yicha nisbatan har xilligi bilan farqlanadi. Bir necha mutaxassisliklar uchun kasblar bo'yicha umumta'lim mazmunini ajratib, umumiy mutaxassislik blokiga kiritilishi mumkin. Masalan, «Tikuvchilik» kasbi uchun ta'lim mazmuni tanlanganda, yuqori qatlam bo'yicha – tikuvchilik ishlab chiqarishga to'g'ri keladi, o'rta qatlam bo'yicha kiyimlarni, yakka tartibda tikish texnologiyasi, yaqin kasblar guruhi, quyi qatlam – «tikuvchilik» kasbi mutaxassisliklar, masalan, ayollar engil kiyimlari tikuvchisi kabilar.¹

Birinchi qatlam umumtexnik bloki ko'rinishida tikuvchilik ishlab chiqarish uchun bo'ladi (fanlar «Materialshunoslik», «Bozor iqtisodiyoti»), ikkinchi qatlam – yakka tartibda kiyimlarni tikish – yaqin kasblar guruhi umumkasbiy blok ko'rinishida («Madaniyat», «Kiyimlarni loyihalash asoslari»), uchinchi qatlam tikuvchilik kasbi uchun umumiy blok ko'rinishida («Kiyimlarni tikish texnologiyasi asoslari», «Kiyimlarni modellashtirish va konstruksiyalash asoslari»). Uchta asosiy bloklarga

¹ Ў.Қ.Толипов, М.Барақаев, Ш.С.Шарипов. Касбий педагогика. (Маърузалар матни). – Т.: ТДИУ, 2001.

mos keluvchi 3 ta mutaxassisliklar: ayollar engil kiyimi, ayollar ustki kiyimi, erkaklar kiyimi. Bu blok «Kiyim tayyorlash texnologiyasi» o'quv fani uchun tanlangan mutaxassislikka bog'liq holda aniq mazmunlar bilan to'ldiriladi.

Qo'shimcha 4 ta blokni ko'rib chiqamiz.

1. Yo'nalishni o'zgartirish bloki – egallangan kasblar asosida yangisini egallash, ishsizlarni o'qitish tizimi uchun muhimdir. Tikuvchini qayta o'qitib o'zini mutaxassisligiga mos ravishda bichuvchi mutaxassisligini berish. Bunday yo'nalishni o'zlashtirish tikuvchiga yakka faoliyatni olib borishiga yordam beradi.

2. Kasbiy ta'limni oshirish bloki – kadrlar tayyorlashning 2 tizimi bilan bog'liq. Agar 2 tizim – umumtexnik daraja va tarmoqli tayyorlashni kasbiy ta'limni o'rta darajasigacha olib borish masalasi bo'lsa u holda kasbiy ta'lim diplomlari bilan texnik diplomni ham oladilar.

3. Biznes blok – bozor iqtisodiyoti sharoitida muhimdir. Bu blok odamlarni bozorga borishga va o'z ishini ochishga yordam beradi. Blok – kasbiy tayyorgarlikdan o'tib ketuvchi bloki – o'z kasbi bo'yicha yangi texnika va texnologiyalar haqida ma'lumotlar yangi texnika va texnologiyalarda ishlashi uchun ishchi-xodimlar, mutaxassislar tayyorlashda muhimdir. Mazkur blok bo'yicha o'qitish biror firma tomonidan uning iltimosiga ko'ra o'quv dasturiga kiritilishi mumkin.

Biz asosiy va qo'shimcha bloklarni ko'rib chiqdik. SHular asosida uzluksiz kasbiy ta'limda kasbiy ta'lim mazmuni quriladi. Uzluksiz kasbiy ta'lim yaxlitligini tuzish uchun bloklarga ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi bloklarni kiritish mumkin.

Ularga «Kompyuter asoslari», «Bozor iqtisodiyoti va kichik biznes», «Huquq asoslari» kabi bloklar asosiy tuzilma elementi hisoblanadi. Ular yordamida ta'lim mazmuni ham shakllanadi. Masalan, boshlang'ich kasbiy ta'lim mazmunidagi ko'pgina kasblarni egallash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunday mutaxassislik boshlang'ich darajada egallanadi.

Yuqori darajadagi o'qitish mazmuni tuzilgandan keyin (standart, modul-blok o'quv dasturi kasbiy ta'lim uchun ta'lim berish muassasalari yoki bo'lmasa kishilarning bandlikka o'qitish bloki modul o'quv dasturi) modulli birliklar mazmuni ochib beriladi (fan, fan doirasi, amaliy mashg'ulot turlari va mehnat).

Fandan oldin o'quv predmeti dasturini o'zlashtirish uchun kiritilgan ob'ektlar, hodisalar va faoliyat uslublari «o'quv elementi» degan umumiy

atama bilan ifodalab olamiz. Har qanday o'quv dasturi o'quv elementlardan iborat bo'ladi. O'quv elementlari 2 guruhga taqsimlanadi.

Birinchi guruhda o'quv jarayonida ob'ekt va predmet faoliyat uslublari ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi guruhda – hamma ko'rsatkichlar kiritilib, ular yordamida ob'ekt va jarayonlarning afzalliklari ochib beriladi, ular o'quv elementi deb nomlanadi.

Yirik o'quv elementi mazmuni, asosiy o'quv elementi, bo'g'inli o'quv elementi, eng asosiy o'quv elementlari orqali ochib beriladi.

Mikro darajadagi o'qitish mazmunining tuzilmasi uchun «Badiiy loyihalash asoslari» fanini misol qilishimiz mumkin. Umumiy kasbiy blokka kiruvchi – yakka tartibda kiyim tikish, mavzuli rejaga mos keluvchi mavzular o'quv elementlari asoslari, ya'ni;

- figurali chizish
- siluet shakllarini tuzish
- kiyimlarni badiiy loyihalashda – kiyimlar qismlari
- jurnallarga qarab kiyim modellarini chizish
- ranglar asosi
- kostyumni badiiy loyihalash va hokazolar.

Kiyimlarni badiiy loyihalashda – kiyimlar detallari o'quv elementlari orqali ochib beriladi – taqilma turlari, , adiplar turlari, eng turlari, cho'ntak turlari, ularni bezash va hokazo.

SHunday qilib, mikro darajadagi o'qitishda ichki tartibdagi modulning mazmuni amaliy ish orqali ochib beriladi. Mikro darajadagi tuzilma o'quv kurslari mazmunini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ushbu bobda o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan talablar, ta'lim standartlari, kasb-hunar ta'limi dasturi, kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim mazmuni tuzilmasining modul darajasi, mikro va makro darajadagi o'qitish kabilar bo'yicha qator ma'lumotlar berilgan. Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoqli standarti – malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi va kasb-hunar bo'yicha ta'lim mazmunining zarur va etarli hajmi va so'nggi maqsadlarini, o'quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi. SHuningdek, unda DTSga oid fikrlar bayon qilingan.

O‘z-o‘zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. Kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standarti haqida fikr bildiring?
2. Kasb pedagogikasida ta’lim mazmuniga nimalar kiradi?
3. Ta’lim mazmuni tuzilmasini makrodarajasi nima bilan izohlanadi?
4. Mikrodarajadagi o‘qitish mazmunining tuzilmasi nima bilan belgilanadi?
5. Kasb-hunar ta’limi dasturi haqida so‘zlab bering?
6. Kasb pedagogikasining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
7. Kasb ta’limi mazmuniga qo‘yiladigan talablarni so‘zlab bering?
8. O‘qitish dasturlariga nimalar kiradi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta’limiy- axloqiy qarashlar.-T.,2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. . O‘. Tolipov., M. Barakaev., SH. SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma’ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.
5. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996.
6. G‘aybullaev M. va b.q.. Pedagogika. - T. 2000.
- 7.N.Xo‘jaev va boshqalar. Pedagogika asoslari. - T.: TDIU, 2003 .
- 8.Maxmudov YU.G‘., Xudoyqulov X.J. “Pedagogika.Psixologiya”.-T.: Dzayn-Press.2011.
- 9.Professionalnaya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002.
10. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.
11. www.bilimdon.uz. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asosiy veb sayti.

10-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOLARI

Reja:

10.1. Jamiyatda shaxs ijtimoiy tasirlar mahsuli sifatida.

10.2. Kasbiy va ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxsning unga amal qilishi.

10.3. Kasbiy va ijtimoiy tasirlarning shaxs tomonidan anglanishi, shaxsning kasbiy jihatdan o'z-o'ziga baho berish.

10.4. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning kasb tanlashga ta'siri.

Tayanch so'zlar: shaxsning yo'nalganligi, ijtimoiylashuv, qiziqish mas'uliyat, qiziqish, e'tiqod, dunyoqarash, norma, kasbiy mehnat intizomi, sanksiya.

10.1. Jamiyatda shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida

“Shaxs” tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki,- “Homo sapiens” - “aqli zot” tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida er yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy - sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. SHuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi -deyilgan.³

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi,

³ Каримова В.М.,Акромова А.Ф. Психология.(Маъруза матни). -Т.: 2000.

madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab SHarq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. SHaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil echimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar. (Lens, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki "top - toza paxta" (tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo'lib (1632-1704) uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalar bo'lishi mumkin emas, ular xoxish - tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Xayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.

G.Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, xattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga xarakter qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib,

shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir. SHaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishlikdir.

SHaxsga taaluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (obyektini), so'ngra shu ta'sirlarning sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq "mening hayotim", "bizning dunyo" degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, ahloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Bulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub'ekt bo'lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

SHaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi : siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy va boshqalar. Bu ta'sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

SHunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshq.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muxandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy

xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

10.2. Kasbiy va ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxsning unga amal qilishi

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan xarakteristik talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, "Assalomu alaykum" deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hakoza. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, xayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, "ko'zini moshday qilib ochib qo'yish" ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va

qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat xarakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida taxsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator xuquqlar bilan birgalikda o'sha oliygo'ha ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan "farzandlik" roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. YA'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. SHunga ko'ra, kimdir "tartibli, ba'mani, fozil, ahloqli va odobli" deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa erda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir - biriga

zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu xolat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

10.3. Kasbiy va ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi, shaxsning kasbiy jihatdan o'z-o'ziga baho berish

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq - atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning ahloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul xarakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z - o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, xissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. YA'ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy xarakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

SHaxsning o'zi, o'z xulq -atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz - "Men" - obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

"Men"-obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z - o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan,

no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, xattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, xissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Men" - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya "Men" - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qaergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. SHu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, hayoli boshqa erda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda "mahmadona, laqmaroq" bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo'l qo'ymaslik uchun "O'rtoq, shoshmayapsanmi?" deb so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. YA'ni, suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar ("men unga qanday ko'rinyapman?") - refleksiyaadir.

SHaxsning o'zi xaqidagi obrazi va o'z - o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan "kattalik" xissi qizlarda ham, o'smir yigitchalarda ham nafaqat o'ziga, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. qizlardagi "Men" - obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'proq bu obrazning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o'zida ayni paytda mavjudligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'li uyg'un ekanligiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan "Men" - obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. qizlarda esa

tashqi tarafdin go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor - yo'qligiga bog'liq xolda "Men" obrazi mazmunan idrok qilinadi. qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa - da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

"Men" - obrazi va o'z - o'ziga baho. "Men" - obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlari va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. YA'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni, uning o'zi sub'ektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z - o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. YA'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u sub'ektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat xaqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqchiligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida xosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlari va hatti-xarakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xattoki, bunday xolat suitsidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan "qochishga" intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'zi-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning

boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtoqlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik xolat "noadekvatlik effekti" deb atalib, uning oqibatida shaxs xattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, "xalaqit berdi-da", "falonchi bo'lmaganida" kabi bahonalar ko'payadi). YA'ni, nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar xaqida bora-bora odamlar "oyog'i erdan uzilgan", "manmansiragan", "dimog'dor" kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar - ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi - referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. SHuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

SHunday qilib, o'z - o'ziga baho sof ijtimoiy xodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho - o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat xislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash xislarini tarbiyalamoqda. Bu esa,

o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o'z-o'zini baholash-o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya obyektini sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);
- o'z-o'zini ishonirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);
- o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifatida);
- o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish);
- ichki intizom - o'z-o'zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har erda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

SHaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog'liq tarzda o'z - o'zi bilan muloqatga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. SHuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga holis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan xatolik uchun o'z "ich - etini eb tashlaydi". Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

10.4. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning kasb tanlashga ta'siri

Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli, Dunyoqarash - shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. SHuning uchun ham uning shakllanishi va o'zgarishi masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri - ma'naviy - ma'rifiy islohotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolari dunyoqarashini istiqloq ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda

yangicha xurfiylik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu o'rinda psixologiya o'zgarishlar sharoitida e'tiqod, dunyoqarash va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar xususida quyidagilar ajaratadi:

1. Ma'naviyat va ma'rifat. Avvalo ma'rifat xususida. Bu - odamning tabiat, jamiyat va insonlar to'g'risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bo'lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun - mohiyatini belgilaydi. Demak, yoshlarga qaratilgan va ular o'qib, o'rganishi uchun yo'naltirilgan barcha turdagi ma'lumotlar (kitoblar, ommaviy - ahborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir.

2. Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir.

3. Ma'kura. Har bir davrning o'z ma'kurasini bo'ladi va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

4. Ijtimoiy ustanovkalar. Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu - shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, obyektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus olimi V.A. YAdov o'zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) elementar ustanovkalar (set) - oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'pincha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

B) ijtimoiy ustanovkalar (attitud) - ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy obyektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart - sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

V) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy

yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir.

G) qadriyatlar tizimi - ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr - qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustnovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li - bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta'sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda, obyektivlashadi, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi. SHuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u erda biror g'oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o'z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so'zlar va iboralar, xarakterlar bilan qaytaraveradi va shu yo'l bilan ko'pchilikning ma'qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo'llaniladi. SHulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o'zgartirishga erishish mumkin.

O'z-o'zini nazorat qilish va tekshirish uchun savollari:

1. SHaxs va ijtimoiy muhit masalasi. Xulq normalari.
2. Ijtimoiy sanksiyalar va shaxs xulqining muvofiqligi.
3. SHaxsning o'z-o'zini anglashi. "Men" obrazi.
4. SHaxs, uning ijtimoiylashuvi omillari.
5. Ijtimoiylashuv o'choqlari va sharoitlar.
6. Ijtimoiylashuv bosqichlari. SHaxs va jamiyat.
7. SHaxs yo'nalishining psixologik tizimi.
8. SHaxs dunyoqarashi. Mustaqillik dunyoqarashining obyektiv shart - sharoitlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: O'zbekiston, 1997.
2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta'limiy-axloqiy qarashlar.-T., 2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.

4. O‘.Tolipov., M. Barakaev., SH. SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma‘ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.
5. Karimova V.M., Akromova A.F. Psixologiya. (Ma‘ruza matni). – T.: 2000
6. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996.
7. G‘aybullaev M. va b.q.. Pedagogika. (Ma‘ruza matni). - T. 2000.
8. N.Xo‘jaev va boshqalar. Pedagogika asoslari. - T.: TDIU, 2003 .
9. Mahmudov YU. G‘., Xudoyqulov X. J. “Pedagogika.Psixologiya”.- T.: Dzayn-Press.2011.
10. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002.
11. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.
12. www.bilimdon.uz. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining asosiy veb sayti.

11-MAVZU. KASB PEDAGOGIKASIDA TA'LIM METODLARI

Reja:

- 11.1. Kasb ta'limi metodlari va ularning umumiy tavsifi.
- 11.2. Nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'lim metodlari.
- 11.3. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodi.
- 11.4. O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish ietodi.

Tayanch so'zlar: Metod (usul), So'z orqali, ko'rgazmalilik, amaliy usullar, nazorat qilish, rag'batlantirish.

11.1. Kasb ta'limi metodlari va ularning tavsifi

Ta'limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni echish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo'lgan talab ham kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi nafaqat bugungi kun talabini balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o'zagiga aylanadi. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ta'lim – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tamonlama harakterga ega. O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijani beradi. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malaka tashqil qiladi.

Kasb ta'limi metodlari deganda - o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar ta'lim oluvchilarning texnik-texnologik bilimlarni, ko'nikma va

malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'лади.

Xalq ta'limi vazirligi, pedagogika ilmiy tadqiqot instituti, metodist pedagoglarning, xususan pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri - ta'lim-tarbiyadagi muammolarni, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish, barcha o'quv fanlari bo'yicha yangi milliy dasturlar yaratish, ta'limni pog'onalash, dars jarayonini toifalashdan iboratdir.

SHu munosabat bilan yaqin o'tmishdagi o'zbek o'quv muassasasilari o'qitish tarixiga bir nazar tashlash ayni paytda ta'lim metodlarini o'rganishni osonlashtiradi. SHubhasiz, mazkur ta'lim metodikasi tarixiga oid manba muayyan darajada ta'limning metodik bo'shliqlarini ma'naviy jihatdan to'ldiradi, pedagog tarbiyachilarning pedagogik meros va xalq pedagogikasiga bo'lgan katta ehtiyoj va qiziqishlarini qondiradi.

Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rinni egallaydi.

Metod-yunoncha atama bo'lib, usul, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar) har qanday axborotni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi sinflarga ajratiladi:

- so'z orqali ifodalanadigan metod;
- ko'rgazmali metod;
- amaliy metod.

Ta'lim jarayonida talabalarni o'zlashtirish, fikrlash jarayonini tashkil etish bo'yicha esa quyidagi metodlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- laboratoriya ishlari metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- reproduktiv-evristik metod;
- ilmiy-tadqiqot metodi;
- o'qitishning muammoli-izlanish metodi;
- o'qitishning induktiv va diduktiv metodi.

Axborotni so'z orqali etkazish va qabul qilishga qaratilgan birinchi guruh metodlariga: Hikoya, suhbat, ma'ruza kabilarni kiritish mumkin.

Nutq madaniyatini o'stirishda hikoyaning o'qitish va fikrlarni bayon qilish metodi sifatidagi imkoniyatlari boshqa metodlarga nisbatan yuqoridir.

Hikoya qilish - pedagog tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid fakt, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon etiladi. Bu metod materiallarni bayon qilishda, obrazlarga xarakteristika berishda, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayotdagi voqealarni tasvirlashda qo'l keladi.

Hikoya qilish davomida talabalar passiv tinglovchi bo'lib qolishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Talabalarning diqqatini tasvirlanayotgan obyektga qaratibgina qolmay balki xuddi shu obyekt haqida ular ongli va aktiv fikr yuritishlarini ham ta'minlamoq lozim.

O'quv materialini tushuntirish - pedagog tomonidan o'rganilayotgan mavzuning narsa, hodisa va voqealarning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, qonun va qoidalarni uqtirishdir. Bu metod ko'proq matematika, fizika, ximiya, ona tili, rus tili va shunga o'xshash fanlarni o'qitishda qo'l keladi. Pedagogning ma'lum bir fanning u yoki bu mavzuga oid qonun, qoidalarni qanchalik asosli ekanligini faktlar, misol va dalillar keltirish, shuningdek, masalalar, misollar ishlash yo'li bilan isbotlab beradi.

Bu jarayonga talabalarning faol ishtirok etishlarini ta'minlamay turib, kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa bayon qilinayotgan materiallarini umumlashtirish va xulosalar chiqarishda talabalarning o'z mulohazalari bilan ishtirok etishlarini ta'minlash muhim.

Ma'ruza metodi. Bu metod o'quv materiali hajmining kattaligini, mantiqiy tuzilishi, obrazlari isbot va umumlashtirishning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar hikoya darsning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda ularni to'la qamrab oladi. Ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, mavzuga oid ko'rgazmali materiallarni namoyish etish, ma'ruza oxirida umumiy xulosalar chiqarish kabilar samaradorlikni oshiradi. Ma'ruza metodi keng qamrovli axborotni talabalarga etkazishda g'oyatda qo'l keladi.

Suhbat. Bu metod asosan savol-javob yo'sinida olib boriladi. Suhbatlarning ma'lum maqsadga qaratilganligi ularning xarakterini belgilaydi. Suhbat evristik, etik, instruktiv metodik xarakterda bo'lishi mumkin.

Suhbat metodi talabalarning faol ishtiroki orqali o'tkazilganligi uchun ularda ham mustaqil fikrlash, xulosalash kabi xislatlarni shakllantiradi. Mashg'ulotlarni tashkil qilish va uni olib borish jarayonida pedagog suhbat metodidan foydalanganda quyidagi shartlarga amal qilishi kerak.

O'qitishning ko'rgazmali metodlari

O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga talabani undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilish va nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishdadir.

O'qitishning amaliy ishlar metodi.

Amaliy metodlarga masalalar echish, chizmalar tayyorlash, yozma mashqlarni bajarish kabilarni kiritish mumkin. Nazariy jihatdan egallangan bilimlar amalda qo'llab ko'riladi. Grafik jadval, kartalar chizish ham tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilishga va ularni mustahkamlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari metodi.

Laboratoriya mashqlari frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, praktikumlar o'qitishning texnik vositalari va o'quv qurollari tipidagi boshqa asbob-uskunalar bilan mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi. Laboratoriya metodining boshqa o'qitish metodlaridan farqi, shundaki, bu metod bilan ish qo'rilganda har qaysi talaba nimanidir mustaqil, shaxsan tajriba qilib kuradi. Dars pedagog rahbarligida talabalarning mustaqil tajriba o'tkazishlariga qaratilgan bo'ladi. Laboratoriya mashg'ulotlarida mustaqillik, faollik, tashabbuskorlik oshadi.

Mustaqil ishlar metodi.

Keyingi davrda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki bu metod talabada ijodkorlikni, mustakillikni rivojlantiradi. O'quv dasturlarida mustaqil ta'lim uchun soatlar ajratilmoqda. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ma'lum fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ishning mazmuni, shakli va vazifalari tanlab olinadi. Topshirilgan mustaqil ishni bajarish uchun pedagog kerakli adabiyotlar va yo'l-yo'riqlarni ko'rsatishi, qisqacha tushuntirish berishi lozim. Talaba bajarishi kerak bo'lgan mustaqil ish ko'p vaqt egallamasligi va shu bilan bir qatorda talabaga rivojlantiruvchi sifatida ta'sir ko'rsatishi kerak.

Reproduktiv, evristik metod.

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda talabalarning o'quv materialini tezroq va mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash bilimdagi tipik kamchiliklarni tez aniqlash uchun qulay. Reproduktiv metodlar ayniqsa o'quv materialining mazmuni asosan axborot xarakterida bo'lsa, murakkab va butunlay yangi bilimlar o'rganilishi lozim bo'lgan holatda samarali natija beradi. Tafakkurning reproduktivlik xarakteri pedagog yoki boshqa manba orqali xabar qilinadigan o'quv

axborotlarini faolroq qilishini va eslab qolinishini nazarda tutadi. Hikoya, ma'ruza, ko'rgazmalilik va amaliy ishlar ham reproduktiv asosga qurilishi mumkin. Reprodktiv xarakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlarning davomida talabalar namunaga ko'ra ilgari yoki yaqindagina o'zlashtirgan faolligini oshirish maqsadida ular ko'pincha evristik ya'ni qisman izlanuvchan metod bilan qo'shib olib borilishi mumkin. Yangi mavzuni bayoni davomida o'rganilayotgan materialning ba'zi elementlari ustida talabalarga fikr yuritish imkoni beriladi. Pedagog tomonidan engil qisqa savollar tuzilib, talabalarning ishtirokida ularga javob topishga harakat qilinadi. Evristik metod talabalarning bilish darajasini aniqlashga ham yordam beradi. Demak, evristik metod yangi mavzuni idrok qilishda talabalarning ham qisman ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ilmiy tadqiqot metodi.

Bu metod ta'lim tizimida unchalik keng tarqalmagan metod bo'lib, ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Pedagog rahbarligida talabalar yoki bir talaba ma'lum ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishi va ma'lum fan uchun yangi xulosalarni yasashi mana shu metodni qo'llash jarayonida vujudga keladi. Bu metod asosan oliygohlarda qo'llaniladi. Bu metod davomida ilmiy bilish jarayoni sodir bo'ladi, ya'ni hali noma'lum bo'lgan bilimlar kashf etiladi va egallanadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot rejasi tuziladi. Maqsad belgilanadi va tadqiqot usullari tanlab olinadi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar yasaladi.

O'qitishning muammoli-izlanish metodi.

Yangi mavzuni o'rganish jarayoni o'rganilayotgan materialni tayyor holda talabalarga bayon etmasdan, balki muammo sifatida taqdim etish muammo-izlanish metodini keltirib chiqaradi. YA'ni dars davomida yasash kerak bo'lgan xulosalar pedagog tomonidan emas, balki talaba tomonidan yasalishiga harakat qilinadi. Har bir talaba qo'yilgan muammoga o'ziga xos yondashib uni hal etishga harakat qiladi va o'z fikrlarini bayon etadi. O'rtaga tashlangan fikrlar muhokama qilinadi va pedagog tomonidan yo'naltiriladi. Pedagog va talabalar birgalikda xulosalar yasashadi. Muammoli-izlanish metodi talabalarni bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqillikka, ijod qilishga o'rgatadi, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bu metodda o'rganilayotgan masala chuqur tahlil etilishi va bilimlarning puxta bo'lishiga yordam beradi. Bu metod o'rganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning tafakkur darajasi hisobga olinishi kerak. Tanlangan mavzuni tahlil etish uchun talabalarda ma'lum

bilimlar bazasi mavjud bo'lishi lozim. SHu tufayli ham bu metodni qo'llash uchun talabalar alohida axborotlar bilan qurollantiriladi. Keyingi davrlarda muammoli-izlanish metodidan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'qitishning induktiv va deduktiv metodi.

O'qitishning mantiqiy metodlari ikki turda: Induktiv va deduktiv metodlar bilan olib borilishi mumkin.

Darslarga tayyorlanish jarayonida o'qitishning induktiv, deduktiv kabi metodlarini tanlash zarurati ham tug'iladi. Keyingi davrlarda deduktiv o'qitishga talab va e'tibor kuchaydi. Ammo tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib faqat tabiiy-ilmiy emas, balki umum mehnat xarakteridagi tajribalar amaliy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishga umid qilib bo'lmaydi. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum mantiqiy-xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishni tanlashni anglatadi.

Induktiv metodlar texnik qurilmalarni o'rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo'llaniladi. Matematika va fizikaga doir ko'pgina masalalar, ayniqsa pedagog talabalarni ayrim umumiyroq formulalarni mustaqil egallashlariga olib kelishi zarur deb hisoblangan hollarda, induktiv metod vositasida echiladi.

Deduktiv metoddan foydalanganda pedagog va talabaning faoliyatida avval umumiy holat, formula va qonuni beriladi, so'ngra asta-sekin ayrim holatlarni chiqarib aniqroq vazifalarni hal etish nazarda tutiladi.

Deduktiv metod o'quv materialini tezroq o'tishga yordam beradi, abstrakt tafakkurni aktivroq rivojlantiradi. Nazariy materialni o'rganishda, anchagina umumiyroq holatlarning ayrim oqibatlarini aniqlashni talab qiluvchi masalalarni echishda deduktiv metodni qo'llash ayniqsa foydalidir.

11.2. Nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'lim metodlari

Pedagogik amaliyotda quyidagi metodlar – og'zaki metod (og'zaki bayon, tushuntirish, suhbat), kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko'rgazmali metod (ko'rgazmalar, kino, videofilm, kuzatuv), amaliy metod (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar) lardan keng foydalaniladi.

Didaktik vazifalarga bog'liq holda quyidagi metodlar qo'llaniladi – bilimlarni hosil qilish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash, mustahkamlash, bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish.

Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga mos ravishda ikki metod ajratiladi va ular 2 guruhga birlashtiriladi: reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.

O'qitishning *reproduktiv va muammoli-izlanish metodlari* eng avvalo, o'quvchi-talabalarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv metodlar birinchi navbatda, o'quvchi-talabalarning o'quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladi.

Hikoya qilish usuli reproduktiv tuzilganda o'qituvchi qoidalarni, dalillarni, tushunchalarning ta'rifini tayyor holda beradi, u asosiy e'tiborini mustahkam o'zlashtirib olinishi zarur bo'lgan asosiy tomonlarga qaratadi.

Ma'ruza ham xuddi shunday tarzda tuziladi: o'qituvchi muayyan ilmiy ma'lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqacha yozib oladilar.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'quv materialini o'quvchi-talabalar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi. O'quvchi-talabaning fikrlash faoliyatida mantiqiy to'g'ri, ilmiy xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar yuzaga keladi. Paydo bo'layotgan muammoni hal qilish uchun, u o'rganilayotgan qoidalarni to'g'ri tushunib olishga intiladi.

Ta'lim metodini 3 ta asosiy guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.
2. O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodi.
3. Ta'lim oluvchilar o'quv faoliyati samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Metodlarning har bir turi guruhlariga bo'linadi va o'z navbatida ularning ham alohida metodlari bor, bular esa ta'lim jarayonining quroli hisoblanadi.

O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodiga quyidagilar – suhbat, ko'rgazmali va amaliy metod, o'qituvchi boshchiligida induktiv yoki deduktiv, reproduktiv yoki produktiv yo'nalish-lardagi metodlar kiradi.

O‘quv faoliyatiga qiziqtirish va rag‘batlantirish metodiga – o‘quv bilish va o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o‘qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan.

Har bir metod boshqa bir metod yordamida qo‘llaniladi. Masalan, reproduktiv va muammoli izlanish metodi suhbat, ko‘rgazmalar, amaliy faoliyat yordamida qo‘llaniladi. SHu navbatda suhbat, ko‘rgazmali va amaliy faoliyat metodlari ham reproduktiv yoki izlanish metodlari orqali qo‘llanilishi mumkin.

Hayotiy o‘quv jarayonida esa eng muhimi bu metodlarni turlarga bo‘lish emas, balki o‘qituvchining chuqur bilimga ega bo‘lishi, metodlardan unumli foydalana olishi, ta’lim oluvchilarga o‘quv ishlab chiqarish, o‘quv faoliyatida metodlarni to‘g‘ri qo‘llay olishga o‘rgatishdir.

O‘quv muassasalarida boshlang‘ich kasbiy ta’limni o‘qitishning nazariy qismi quyidagi fanlarni 3 ta siklini tashkil qiladi: umumiy ta’lim, umumiy texnik ta’lim va kasbiy ta’lim.¹

Umumiy ta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim metodining umum didaktik, xususiy didaktik va xususiy metodik aspektlari pedagogik adabiyotlarda chuqur bayon qilib berilgan.

Umumtexnika va kasbiy fanlarni o‘qitish metodlari ko‘pincha o‘ziga xos mazmunga ko‘ra aniqlanadi:

- ko‘p komponentli tuzilma, obyektlarni turli xil yo‘nalishlarda o‘rganish;

- ta’lim oluvchilarning ishlab chiqarish ta’limi bilan o‘zaro bog‘liqligi;

- materialning keng qamrovliligi, tajribaviy izlanish soni va sifati jihatidan, xizmat ko‘rsatish usullarini amaliy o‘rganish;

- o‘quv materialini mazmuniga yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, mahalliy shart-sharoitni aks ettirish.

Ta’lim metodlarida bularni inobatga olish zarur.

1. Ta’lim oluvchilarni o‘quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi.

Suhbat metodi. Og‘zaki bayon. Umumtexnika va kasbiy fanlarni o‘rganish jarayoni o‘quv materialini og‘zaki bayonini gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzu to‘liq taqqoslanadi, isbotlanib, misollar bilan tushuntiriladi.

Bayon qilinayotgan material ta’lim oluvchilarning tushunishi uchun qiyin bo‘lgan, yangi ma’lumotlar xabar qilingan, mehnat usullarini

¹Ў.Қ.Толипов. ва бошқалар. Касбий педагогика (Маърузалар матни). – Т.: ТДИУ, 2001.

bajarish yo'llarini tushuntirib berish talab qilingan hollarda og'zaki bayon qilish metodidan foydalaniladi.

Umumiy talablardan quyidagilarni ajratib olamiz:

- ilmiy-texnik aniq mazmun;
- mantiqiy tuzilishi va ketma-ketligi;
- ta'lim oluvchilarga tushunarli va oson etib boradigan;
- har bir bosqichda fikrning aniq va ravshanligi;
- ta'lim oluvchilarning e'tiborliligi, faolligini oshirish.

Suhbat – bu kasb ta'limining shunday usulidirki, unda o'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar yordamida ta'lim oluvchilarda ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni hosil qilib esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish savol-javob metodi orqali amalga oshiriladi. Bunday suhbat ***evristik suhbat*** deyiladi.

Umumiy o'tkazilgan suhbatlar ta'lim oluvchilarni qiziqishini, diqqatini oshirishga, bilimlarni yaxshi egallashga olib keladi. Lekin suhbat metodi og'zaki bayon metodidan ko'ra murakkabroqdir, ya'ni o'qituvchidan darsga puxta tayyorlanishni talab qiladi.

Kasbiy fanlarni o'rganishda evristik suhbatning quyidagi shartlarini ko'rsatish mumkin:

- o'quv materialining mazmuni mantiqiy to'g'ri tuzilgan bo'lishi shart;
- yangi o'quv materialini o'rganishda ko'proq texnik va texnologik hujjatlarni muhokama qilishga qaratish kerak;
- suhbatni boshqa metodlar va o'quv ishlari turlari bilan birga o'tkazish kerak (tushuntirish, kitob bilan ishlash, kuzatuv).

Evristik suhbatda savollar keng qamrovli tuzilgan bo'lishi lozim.

Ushbu o'rinda quyidagi savollarni ko'rsatish mumkin:

1. Fanlarni qarama-qarshi qo'yish (uning ko'rinishini, jarayonini, dalillarini va boshqalarni);
2. Har xil holatga tushib qolganda ham bilimlaridan foydalana olishni aniqlash;
3. Sababini tashxisli tushuntirish;
4. Isbotlash «ha» yoki «qarshi» ga dalil keltirish;
5. Fanlararo bog'liqlikni o'rnatish.

Suhbat o'tkazishda uning mantiqiy rejasiga qat'iy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, unda

mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini ta'lim oluvchi sezishi lozim. O'qituvchi suhbatni xulosa qilib tugatishi kerak.

Kitob bilan ishlash: tez o'qitish, konspekt olish, reja tuzish, misollar muhokamasi, nazorat savollariga javob berish va hokazolar.

2. Ko'rgazmali metod

Insonning tashqi olamni sezishining eng muhim organi – ko'zdir. Olimlarning fikricha, 80% informatsiya ko'z orqali tushadi, 80% ish operatsiyalari ko'z orqali qilinadi. Mana shulardan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga ega.

Umumtexnik va kasb ta'limi fanlari bo'yicha ko'rgazmali metodlar, tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofilm, kino proeksiya, kompyuter, multimedia). O'qituvchi mavzuni tushuntirishda ko'rgazma sifatida yoki bir xil hollarda o'rganilayotgan fan bo'yicha aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metodlar juda qulaydir.

3. Amaliy metod.

Mashq amaliy metodning asosi hisoblanadi. Mashq o'tkazishning asosiy maqsadi o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishni o'rgatishdir. Ta'lim oluvchilarning bilimlarni mustahkamlashda ham mashqlarning o'rni kattadir. Hamma mashqlarni 3 ta asosiy tipga keltirish mumkin: reproduktiv, badiiy, izlanuvchanlik.

Reproduktiv mashq - bu tipdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarni o'rganishadi. Reproduktiv mashqda chizmalar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar muhokama qilinadi va ta'lim oluvchilar ularni bajarishadi. Kasbiy fanlar bo'yicha esa texnik hujjatlar, stanok pasportlarining texnologik kartalari o'rganilishi mumkin.

Badiiy mashq - bu turdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar egallagan bilim va malakalaridan turli xil kombinatsiyalarda foydalanishadi, ya'ni oldiga qo'yilgan vazifalarning mustaqil original javoblarini topishadi. Badiiy mashq turlaridan biri produktiv masalalarni hal qilish: tanlash (asbob, ishlov berish turi, sozlovchi mexanizm), taqqoslash va baholash (ishni bajarish yo'li, asboblarning qo'llanilishi) aniqlashga bog'liq bo'lgan (texnik talab, aloqadorlik), turli xil texnik jarayonlarni tushuntirishdan iborat. Bu turdagi mashqlar orqali o'rganilayotgan mashina, mexanizm, qurilmalarning sxemalari tuziladi.

Izlanish mashqi – bu ham egallangan bilimlarni mashqlarda badiiy qo‘llash bo‘lib, ta’lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi.

11.3. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodi

Hozirgi kunda ilmiy va amaliy pedagogikada ta’lim metodlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim oluvchilarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o‘yinlardan foydalaniladi. Bulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani – didaktik o‘yinlardir.

Kasb ta’limidagi didaktik o‘yinlar: «texnik diktant», kichik konkurslar, «kim epchil-u, kim chaqqon», «texnik kurashlar», «savollar», «texnik loto», «texnik domino» va hokazolar.

Ta’limning faollik metodiga seminar darslari ham kiradi. U uch bosqichdan iborat: seminar bo‘yicha o‘qituvchining ma’ruzasi, ta’lim oluvchilar seminar bo‘yicha mustaqil uy vazifalarini tayyorlab kelishi va seminarlarni o‘tkazishi. Bunda ta’lim oluvchi tayyorlab kelgan matnlari va ko‘rgazmali qurollari, asboblari va jihozlardan foydalangan holda tushuntirib beradi.

Kasbiy ta’lim muassasalarida amaliy ishlarda interaktiv darslar ham keng qo‘llanilmoqda. Bu darslarda ikki yoki bir necha fanlarning mavzulari o‘rtasidagi aloqadorlik o‘rganiladi. Masalan, matematika va informatika, fizika va ximiya, kasbiy texnologiya va ishlab chiqarish ta’limi va boshqalar.

Ta’lim oluvchilarning o‘quv bilish faoliyati faolligi darsdan tashqari ishlarda texnik kashfiyotchiligini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Darsdan tashqari ishlar – kasbiy ta’lim ustasi tanlovlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ratsionalizatorlar va kashfiyotchilar bilan uchrashuv, ilm-fan namoyandalari, texnik olimlar bilan uchrashuvlar, namunali ishlar ko‘rgazmasi, texnik to‘garaklar orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish ta’limining asosiy maqsadi – ta’lim oluvchilarda aniq bir kasb, soha bo‘yicha ustachilikni shakllantirishdir. Ishlab chiqarish ta’limida bu asosiy maqsadga bosqichma-bosqich erishiladi. Quyida «kasb ustasi» tushunchasini ochib beruvchi mezon ko‘rsatkichlari keltirilgan:

-Bajarilayotgan ishning sifati–texnik talablarni bajarish, me’yor va ko‘rsatkichlarga mos kelishi, ijobiy natijalar olish;

-Mehnatni tashkil qilish–belgilangan vaqtda bajarish, vaqtdan unumli foydalanish, ish vaqtida tejamkorlik;

-Kasbiy mustaqillik–mustaqil ish turini tanlashni bilish, ishlab chiqarishning yuqori sifatini ta'minlash, to'g'ri xulosalar chiqarish, o'z-o'zini boshqarish, mehnat madaniyatiga amal qilish, ishni rejalashtirish, yangi texnika va texnologiya bilan ishlay olish, yuqori texnologik intizom, kasbiy bilimlarni ishda qo'llay bilish, mehnat faoliyatini va ish joyini to'g'ri tashkil qilish, mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

O'quv ishlab chiqarish ishlarida faollik, ya'ni aqliy bilim katta rol o'ynaydi. Faollik ta'lim oluvchilar mustaqilligida va maqsadli faoliyat tanlashlarida va ularni ijobiy natijalarga olib kelish, mehnatni rejalashtirish, analiz va xatoliklarga yo'l qo'ymasligida namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv ishlab chiqarish ta'limidagi faolligi – mashinalarni, agregatlarni ishlatishdagi qobiliyati, ichki jarayonni bilishi va qilingan tahlillar asosida maqsadli echimlarga kelishlarida ko'rinadi.

Ishlab chiqarish ta'limidagi «faollik» metodiga – ishlab chiqarishdagi texnik masalalarni echish kiradi: ishlov berish, tuzatish, boshqarish me'yorini hisoblash, avtomatlashtirilgan jihozlar uchun boshqaruv dasturini ishlab chiqish, jadval, diagrammalardan kerakli ma'lumotlarni topish kabilar.

Ishlab chiqarish ta'limining «faollik» metodiga mashqlar ham kiradi. Mashqlar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan masalalarni echish uchun qo'llaniladi. Bunday mashqlar ishlab chiqarish hayotida sodir bo'ladigan jarayonlarga ta'lim oluvchilarni tayyorlaydi. Mashqlarni o'tkazish uchun jarayon hosil qilish kerak bo'ladi. Misol uchun, agregatlarni sozlash, texnologik me'yorlarni buzilganligi, ish joyida buzilish holatlarining sodir bo'lishi kabilar.

11.4. O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish metodi

Ta'limda nazorat qilishning 2 turi mavjud. Birinchi – ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini har xil kuzatish, ikkinchisi – ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishdan iborat.

Ko'nikma deganda shaxsning bilim olishi, elementar tajriba va malakaga tayanib biron ishni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati tushuniladi. Oritirilgan bilimlar shaxs xatti-harakatining nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlarga asoslanib xatti-harakatlarning ketma-ketligi, alohida bosqichlari fikran xayoldan o'tkaziladi. Elementar tajriba talablarida aynan biror faoliyat haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Biron kasb yoki faoliyat haqida tasavvurga ega bo'lishda

elementar tajriba bilan birga boshqalarning tajribasini tasavvur qilish ahamiyat kasb etadi. Bu erda pedagogning shaxsiy namunasi, mutaxassis kadrlarning ilg'or tajribalari, etuk olim ijodkorlarning ish jarayoni misol bo'la oladi.

Mehnat ko'nikmalarining shakllanishi jarayonida talabalar ko'rish yoki eshitish orqali faqat harakatlarning qanday bajarilishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Bu faqat namuna, bajarilishi kerak bo'lgan ish haqidagi kirish instruktati hisoblanadi. Ko'nikmaning shakllanishi uchun talaba bu harakatlarni o'zi bajarib ko'rishi shart. Ta'limning turli bosqichlarida talabalar mehnat ko'nikmalarining darajasi har xil bo'ladi. Elementar ko'nikmalar asta-sekin murakkab ko'nikmalarga aylanadi, murakkab ko'nikmalar ko'p marta qaytarilishi yoki mashq qilinishi natijasida malakalar paydo bo'ladi.

Malaka – bilimlarga asoslanib mashq yordamida aylangan faoliyatning avtomatlashgan komponenti hisoblanadi. Malaka tez va aniq bajarish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarning avtomatlashgan elementlari sanaladi. Malakalar bajarilayotgan faoliyatning faqat mahorat tomonini, ya'ni ayrim harakatlarni ifodalaydi.

Mehnat ko'nikmalarining shakllanishi uchun faqat tafakkurning yoki aqliy faoliyatning o'zigina yetarli emas. Talabalarda murakkab ko'nikmalarning, umumlashgan safarbar ko'nikmalarning shakllanishi uchun ular bevosita amaliy mehnat faoliyatida, uzoq payt mashq bajarishda qatnashishlari shart.

“Kasbiy pedagogika” fanini o'rganishda nazariy ta'lim jarayonida nazorat qilishning asosiy metodlari, ta'lim oluvchilarning bilimlarini og'zaki tekshirish, hamda yozma tekshirish, nazorat ishlari «texnik diktant»lar o'tkazish, texnik hujjatlarni muhokama qilish va boshqalar qo'llaniladi. Nazariy ta'limda ta'lim oluvchilarning bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini nazorat qilish, sxemalarni yig'ish, o'lchash, mexanizmlarni tuzatish, buzilish sabablari kabi metodlar qo'llaniladi. Bu metodga yana laboratoriya – amaliy ishlar orqali tekshirishni ham kiritish mumkin.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida ta'lim oluvchilarning o'quv ishlab chiqarishda bajargan va bajarayotgan nazorat qilishning asosiy metodlari: joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar hisoblanadi.

Tashxisli nazorat turlaridan biri – test o'tkazishdir. Test ikki usulda o'tkaziladi.

Birinchi usul – tashkil qiluvchi sifatida, dasturlashtirilgan ta'lim, nazorat va qayta aloqa tizimi.

Ikkinchi usul – mustaqil nazorat qilish metodi. Ishlab chiqarish ta'limida test mustaqil o'z-o'zini nazorat qilish metodi hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limining har bir bosqichida testlar o'tkazish mumkin.

Pedagog va talabaning dasturli faoliyati ta'lim jarayonidan jamiki ortiq harakatlarni yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga va pirovard natijada – ko'zlangan yakuniy natijalarni qo'lga kiritishga intilishni ifodalaydi. Didaktik jarayonni loyihalashda pedagog «texnolog» sifatida faoliyat ko'rsatadi: har bir darsda ta'lim maqsadini aniq o'rnatishi, o'tilayotgan o'quv materiallarini mazmunan saralashda talabalarning o'zlashtirish faoliyati darajalarini, fanni bayon qilishning ilmiy tilini hisobga olishi lozim. SHuningdek, tashkiliy shakllarning mosini tanlab, belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich talabiga mos holda o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirish uchun unga oldindan alohida tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Umuman ta'lim jarayoniga oldindan ishlov bermasdan, yakuniy natijalarining ta'lim maqsadiga mos kelishini chamalamasdan, o'qitish davomida yuzaga keladigan noqulay holatlarga bog'liq holda boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish mumkin emas.

Baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratni o'z ichiga oladi. Joriy nazorat uzluksiz qayta bog'lanishni ta'minlaydi va odatda baholashsiz o'tkaziladi, shuning uchun u bilimlarni shakllantirishda ishtirok etadi. Pedagogik texnologiyada qayta bog'lanish nafaqat o'qitish jarayonini tuzatib borish uchun, balki o'quv maqsadlarini aniqlashtirish uchun ham xizmat qilishadi. YAKuniy nazoratda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishganlik darajasi baholanadi.

Reyting nazorati og'zaki, yozma va test usulida bo'lishi mumkin:

1. Og'zaki va yozma nazorat.

Og'zaki nazoratning afzalliklariga shaxsiy munosabat, o'qituvchining talaba bilan jonli muloqoti, uning fikrlarini nutq shaklida ifodalashga mashq qildirish, bilimlarni yanada chuqurroq tekshirish maqsadida pedagog tomonidan qo'shimcha savollar berish imkoniyatlari kiradi. Pedagog tomonidan qo'yilgan savolga og'zaki javob berishga tayyorlanish doimo talabaning faol fikrlashi bilan bog'langan.

Og'zaki javob yaxshi tayyorlangan talabaga o'zining iqtidorini, qo'shimcha egallagan bilimlarini namoyish etishga imkon beradi. Bevosita muloqot tufayli pedagogda savol-javob davomida talabaning bilimlari to'g'risidagi barcha gumonlarni bartaraf etish imkoni bo'ladi. SHu bilan bir vaqtda og'zaki nazoratda talabalar bilimlarini baholashda

ma'lum darajada pedagog shaxsiyatining aks etishi namoyon bo'ladi. Har bir pedagogda talabalarning o'zlashtirish darajalarini baholashda doimo xolis va shaxsiy munosabat bir vaqtning o'zida ro'yobga chiqadi.

Umuman olganda, talabani yozma va og'zaki nazoratda olgan bahosi ba'zan xolis bo'lmaydi. Talabani bahosi, odatda, nafaqat uning bilimlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Bilimlarni baholash amaliyotida pedagoglar guruhning o'rtacha darajasini mo'ljalga oladi. SHuning uchun kuchsiz guruhlarda baholar odatda ko'tarilgan, kuchli guruhlarda pasaytirilgan bo'lib chiqadi.

YOzma nazorat o'quv materialini o'zlashtirish darajasini hujjatli tarzda o'rgatish imkonini beradi, shuningdek, talabaga o'z fikrlarini qog'ozda bayon qilish imkonini beradi. Ikki-uch mustaqil ekspertlarning ishlarini tekshirish uchun jalb qilish bilan o'tkaziladigan tashqi yozma nazorat aniq mezonlar bo'lgan taqdirda obyektiv bahoga yaqin baholashga imkon beradi. Ammo bilimlarni og'zaki va yozma nazorat qilishning an'anaviy usuli ma'lum kamchiliklarga ham ega:

- imtihonda talaba berilgan biletning 3-4 savoliga javob beradi, baho esa butun o'quv fanini bilish uchun qo'yiladi;

- farq qilish qobiliyati kuchsiz bo'lgan 5 ballik shkala ishlatilgan;

- og'zaki va yozma nazorat har doim ham bilimlarni baholashning obyektivligini, aniqligini va ishonchligini ta'minlamaydi;

- og'zaki so'rov ko'p o'quv vaqti sarflanishini talab qiladi, yozma ishlar pedagoglarning ularni tekshirishga ko'p mehnat sarflashlari bilan bog'liq.

2. Test (inglizcha–sinash) – bu biror-bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqlardir. Testning to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi. O'z etaloniga ega bo'lmagan har qanday test, odatdagidek, bajarilish sifati haqida sub'ektiv mulohaza yuritish evaziga xulosa chiqaruvchi nazorat topshirig'iga aylanib qoladi.

Test nazoratlari va uning afzalliklari:

- etarli tarzda tuzilgan pedagogik test natijalari nazorat o'tkazayotgan shaxsga bog'liq bo'lmagan xolis pedagogik o'lchov quroli hisoblanadi;

- test o'quv mavzularining barcha asosiy mazmunini qamrab olishi mumkin, o'qitish natijalarini test usulida o'lchash barcha tekshiriluvchilarga baravar qo'llanadigan oldindan ishlab chiqilgan mezon asosida aniq va ishonchli baho beradi;

-test nazorati texnologiyalashuvchan bo'lib, u nisbatan qisqa vaqt ichida ma'lum o'quv mavzulari o'zlashtirilishining to'la nazoratini kam kuch va vositalar sarflagan holda o'tkazish imkonini beradi.

-test nazorati kompyuterlar yordamida oson avtomatlashtiriladi. Bu pedagogik test o'tkazishning asosiy afzalliklaridan biridir.

To'g'ri tashkil qilinganda pedagogik test talabalar bilimlarini xolis baholash samarasini beradi, chunki bu baho uni qo'yayotgan odamga bog'liq bo'lmaydi. U barcha tekshiriluvchilarga bir xil qo'llanadigan qilib tuzilgan mezon bo'yicha to'g'ri echilgan test topshiriqlari foizi asosida aniqlanadi. SHuning uchun pedagogik test to'la asos bilan o'qitish natijalarini aniq va ishonchli baholashga imkon beradigan pedagogik o'lchov quroli deb ataladi. Ammo bunday baholash jarayoni faqat ilmiy talablarga rioya qilingan holda tuzilgan, tekshiriluvchan va me'yoriga etkazilgan sifatli test vositasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim jarayonida bilim, iqtidor va ko'nikmalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. O'tkazilgan tajribalarga va o'quv adabiyotlarida izohlangan ilg'or uslublarga asoslanib nazoratning mezoni va bajaradigan funksiyalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1.Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2.Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqini o'stirish funksiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o'z bilim, iqtidor va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish ehtiyoji uyg'onadi.

3.Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xusiyatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi. Rivojlanish o'quv faoliyati orqali, ya'ni nutq orqali amalga oshiriladi.

4.Nazorat jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydi. O'quv materialini yanada chuqur o'zlashtiriladi, hodisalar o'rtasida yangi bog'lanishlar o'rnatiladi, shu bilan aqliy faoliyat yanada takomillashadi.

5.Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobiy xislatlari shakllanib bormog'i lozim.

6.Nazoratni baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o'zgarishlarining me'yori aniqlanadi.

7.Nazorat – ko'p qirrali murakkab jarayon. Nazorat talabalarda doimo jonli qiziqish, kuyunish, ayanch, xursandchilik hislarini uyg'otib, aqliy faoliyatni faollashtiradi. YUqorida kaysatilgan funksiyalar bir-biriga uzviy bog'langan holda yuz beradi.

To'g'ri tashkil qilingan o'zini o'zi nazorat o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy va tanqidiy yondashish imkonini beradi. Bu

ayniqsa yangi predmet o'rganilayotganida talabalarning bundan oldingi o'quv predmetlarida o'zlashtirilgan bilimlarga ega bo'lishligida ko'rinadi. Talabalar mustaqil ishlab etishmaydigan bilimlarini to'ldirib borsa yaxshi, ammo o'zini o'zi nazorat qila olmaydigan talabalarning yangi mavzuni o'zlashtirish jarayoni murakkab kechadi. SHuning uchun ham oliy o'quv yurtlarida ishlaydigan pedagoglar yangi predmet va yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning yangi dasturni o'zlashtirishga tayyorlik darajasini aniqlash maqsadida dastlabki nazoratni amalga oshirishlari zarur bo'ladi.

Pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan metodlar – og'zaki metod (og'zaki bayon, tushuntirish, suhbat), kitob bilan ishlash (instruktiv materiallar), ko'rgazmali metod (ko'rgazmalar, kino, videofilm, kuzatuv), amaliy metod (mashqlar, laboratoriya, amaliy ishlar) lardan foydalanish bo'yicha qator materiallar berilgan. "Kasb pedagogikasi" fanini o'rganishda nazariy ta'lim jarayonida nazorat qilishning asosiy metodlari, ta'lim oluvchilarning bilimlarini og'zaki tekshirish, hamda yozma tekshirish, oraliq nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat ishlari va testlarni o'tkazish jarayonlari yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

SHuningdek ushbu bobda kasb ta'limi usullari, nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'lim usullari, ta'lim oluvchilarni o'quv bilish faoliyatini tashkil qilish, mashqlar va mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish jarayonida faollik metodi, test, reyting, ta'lim usullarini tanlash kabilar talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat qilish va tekshirish uchun savollar:

1. Kasb ta'limi metodlariga nimalar kiradi?
2. Ishlab chiqarish jarayonida faollik metodini izohlang?
3. Nazariy ta'lim metodi deganda nimani tushunasiz?
4. Ko'rgazmali va amaliy metodlarni izohlab bering?
5. Nima uchun ishlab chiqarishda yozma yo'riqnomadan foydalaniladi?
6. Bilim, ko'nikma va malakaga ta'rif bering?
7. Mehnat faoliyatining harakatlarini ko'rsatish metodiga nimalar kiradi?
8. Ta'lim jarayonida nazorat qilishning qanday turlari mavjud?
9. Testning afzallik tomonlari nimada?
10. Suhbat metodiga nimalar kiradi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta’limiy-axloqiy qarashlar.-T., 2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. O‘.Tolipov., M. Barakaev., SH. SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma’ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.
5. Isailova Z.K. Pedagogika. – T.:Moliya Iqtisod.2008.
6. Karimova V.M.,Akromova A.F. Psixologiya.(Ma’ruza matni). –T.: 2000
7. G‘aybullaev M. va b.q.. Pedagogika. (Ma’ruza matni)- T. 2000.
- 8.N.Xo‘jaev va boshqalar. Pedagogika asoslari. - T.: TDIU, 2003 .
9. Mahmudova YU.G‘., Xudoyqulov X.J. “Pedagogika.Psixologiya”.- T.: Dzayn-Press.2011.
10. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002.
11. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.
12. www.bilimdon.uz. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asosiy veb sayti.

12-MAVZU: SHAXSNING KASB TANLASHIGA TA'SIR ETADIGAN IJTIMOIIY, BIOLOGIK OMILLAR HAMDA TA'LIM- TARBIYA OMILLARI

Reja:

- 12.1. Shaxsning rivojlanishi haqida tushuncha.
- 12.2. Shaxsning kasb tanlashiga ta'sir etuvchi asosiy omillar
- 12.3. Shaxsni kamol topishida tarbiyaning roli.

Tayanch so'zlar: Shaxs rivoji, biologik omil, sotsial omil, ta'lim-tarbiya, jismoniy, aqliy, ma'naviy kamol topish, sog'lom avlod, biologik va psixologik asoslar.

12.1. Shaxsning rivojlanishi haqida tushuncha

Pedagogikada rivojlanish va tarbiya o'zaro bog'liq holda muammolardan bo'lib, u ko'p munozaralarga sabab bo'ladi. SHaxsning rivojlanishi qiyin, murakkab jarayon, u ko'plab ichki va tashqi ta'sirlar va omillar orqali ro'yobga chiqadi.

Inson hayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib, o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda, biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy, ham ma'naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Pedagogika va psixologiya fanlari rivojlanishni biologik hamda ijtimoiy xususiyatlar bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi, har tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida pedagogika fani rivojlanish qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi omillarni, shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya hamda faoliyat ta'siri, ahamiyatini aniqlaydi, tahlil qiladi. Ma'lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uning shakllanishi, eng avvalo, hayot sharoitlariga bog'liq. SHaxs hayoti davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi. Natijada, shaxsga aylanadi, shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz lozim.

Prezident I.A.Karimovning 2000 yil "Sog'lom avlod yili" munosabati bilan so'zlagan nutqlarida: "Bizning ezgu niyatimiz – kelajagi buyuk davlat va erkin jamiyat qurish. Bizning taraqqiyot strategiyamiz sog'lom

avlod tarbiyasiga tayanadi va uni rivojlantirishga qaratilgan", deb ta'kidlaganlar.

Har bir jamiyatda shaxsning shakllanishi, kamol topishi muhim muammolardan hisoblanadi. SHu sababli shaxs shakllanishi masalalariga to'g'ri yondashish uchun shaxs tabiatini, tuzilishini, uning xulq-atvorini va unga ta'sir etuvchi sabab va vositalarni bilish zarur.

12.2. Shaxsning kasb talashiga ta'sir etuvchi asosiy omillar

SHaxsning rivojlanish jarayoni bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular irsiyat, ya'ni biologik omil, ta'lim-tarbiya va shaxs faolligi (ijtimoiy omil) shaxsni shakllantirishning asosiy omillari deb tushuniladi.

Ma'lumki, shaxs, inson tirik organizm, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo'ysunadi.

O'zbekiston Respublikasi jamiyatida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi, kamol topishi muhim muammolardan biri deb hisoblanadi. SHu sababli bo'lajak mutaxassis-o'qituvchi shaxsning shakllanishi masalalariga to'g'ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, uning xulq-atvori, saviyasi, qobiliyat va imkoniyatlarini va ularga ta'sir qiluvchi sabab va vositalarini bilishi zarur. SHaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni to'rtta omil ta'sirida sodir bo'ladi.



Har bir kishi tirik maxluq bo'lib, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonuniyatlariga, genetikadan kelib chiqib, yoshlar aqli, ruhiyati, anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Bolaning aqliy, ruhiy va jismoniy shakllanishi va rivojlanishi biologik omilga bog'liqdir. Biologik bo'lgan irsiyatning, ya'ni bolaning aqliy, ruhiy va jismoniy salomatligiga tegishli nasl-nasabining roli va mazmun-mohiyatiga, albatta, alohida e'tibor berish darkor. Odam bolasi, birinchidan, butun insoniyat (odam anatomiyasiga bog'liq), ikkinchidan,

ota-onasi, bobo-buvilari (ajdodlariga o'xshash tashqi jismoniy ko'rinishi hamda aqliy va ruhiy xususiyatlari bilan), uchinchi, xudo, tabiatdan (ajdodlarida bo'lmagan tashqi jismoniy ko'rinishi hamda aqliy va ruhiy xususiyatlari, qobiliyatlari bilan) berilgan xos tug'ma tashqi va ichki xususiyatlar, xatto ayrim kasalliklar bilan dunyoga keladi. Tug'ilgandan so'ng bolada (aqliy va ruhiy sog'lom tug'ilgan bo'lsa) shaxs bo'lib shakllanishi, etuk inson bo'lib voyaga etishi imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola o'zining biologik belgilarni qabul qilib olib, birinchi kunlaridayoq aqliy, ruhiy va jismoniy-fiziologik tomonlari bilan o'sishini boshlaydi. Genetika fani odam rivojlanishining irsiy dasturini ochib berdi. Bu dasturga binoan odam bo'lish umumiyligi va xususiyatini, insoniyat qabilasi davomiyligini va odam organizmiga yordam berayotgan tizimlarning rivojlanishini, faqat odamga mansub nutq, to'g'ri yurish, mehnat faoliyati va tafakkurini, miya va tana tabiiy o'sishini aniqlaydi, Ota-onalardan bolaga tashqi alomatlarini, jumladan, badan, bosh suyagi va yuz tuzilmasining xususiyatlari, soch, ko'z, teri ranglari, organizmdagi har xil oqsil modda birikmasi, qon guruhi, rezus-faktor hamda ruhiy jarayonlarini olib o'tadigan nerv tizimining xususiyatlari va bir necha kasalliklar (qon kasalligi – gemofiliya, qand kasalligi – diabet, pakanalik va h.k.) o'tadi. Avlodiga ota-onaning fan, san'at, sport bilan shug'ullanish, ko'p kitob o'qish, musiqa chalish, teatr sahnasida o'ynash, o'qituvchilik va murabbiylik qilish ijobiy ta'assurot qoldiradi. Zero, aksinchasi, shular bilan shug'ulanmaslik hamda ota-onaning alkogol va giyohvand moddalarni iste'mol qilish, yuqumli va venerologik kasalliklarga uchratish, tamaki chakish, umumiy – ma'naviysizlik va sog'lomsizlik turmush tarzini kechirish keyingi nasliga salbiy ta'asurot qoldirmoqda. Mutaxassis-o'qituvchi o'quvchi bola shakllanishining irsiy masalalariga to'g'ri yondashishi hozirgi zamon pedagogikasi talab qiladi.

Shaxs, ayniqsa, bola jismoniy rivojlanishi, sog'ligi biologik omilga bog'liq. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan irsiyatning, ya'ni bola nasl-nasabining rolga olimlarimiz alohida e'tibor berilmoqda. Har bir bola insonlarga xos tug'ma xususiyatlar bilan dunyoga keladi. SHunday ekan, odam bolasi tug'ilgandan so'ng unda shaxs bo'lib shakllanish, etuk inson bo'lib voyaga etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola o'zining ajdod-avlodlaridan ko'pgina biologik belgilarni meros sifatida qabul qilib oladi, hatto ayrim kasalliklar ham nasldan-naslga o'tadi. Biologik omillar shaxsning jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. SHunday ekan, sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga kelishini unutmashimiz lozim.

Prezident I.A.Karimov 2005 yil "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qqilar ekanlar: "Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimi, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman", deb ta'kidlaydilar.

Sog'lom avlod tarbiyasi oson ish emas, u har bir inson, har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. YUrtboshimiz fikrlarini davom ettirar ekanlar: "... hech shubha yo'q, sog'lom avlod orzusi ajdodlarmizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilish. Agar ota-bobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar tashlasak, ular nasl-nasab, etti pushtining tozaligiga, avlodning sog'ligiga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz. Sog'lom bolaning tug'ilishi, eng avvalo, onaning sog'ligiga bog'li", ⁴– deydi. Tabiatning buyuk mo'jizasi bo'lmish ayol dilbandini to'qqiz oy o'z bag'rida, yurak ostida avaylab dunyoga keltiradi. Uni voyaga etkazish uchun o'zini ayamadan, butun hayotini baxshida etadi.

Ana shu jarayonda ayol neki yaxshilik yoki yomonlik ko'rsa, ona vujudi orqali homilaga o'tadi. Sog'ligi nochor, xo'rlangan, iztirob chekkan onadan sog'lom farzand tug'ilmaydi. Sog'lom bolaning dunyoga kelishida otaning qoni toza, tani va ruhi sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, sog'lom farzand faqat sog'lom oilada tug'iladi. Oilaning sog'lomligi, undagi muhit, ota-onaning totuvligi, bir-birini tushunishi, qo'llab-quvvatlashi, o'zaro izzat-hurmati bilan belgilanadi.

Demak, shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u, albatta, bolani o'rab olgan muhit ta'sirida rivojlanadi. SHaxsning hayoti-faoliyati davomida muhit unga yo ijobiy, yo salbiy ta'sir ko'rsatishi, rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qqilishi mumkin. Muhit – bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqea va hodisalar majmui. Bular: tabiiy muhit (geografik, ekologik), ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat), oila muhiti va boshqalar . Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi barkamol avlodni voyaga etkazishdagi dastlabki qadamlar. SHaxs rivojlanishiga erishish har bir jamiyatda tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsga aniq maqsad va reja asosida ta'sir etiladi.

⁴ Президент И.А. Каримовнинг 2000 йил "Соғлом авлод йили" муносабати билан сўзлаган нутқларида:

Buning natijasida muhitdagi voqealar to'g'ri ijobiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tujiladi. Muitt bera olmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto tarbiya tufayli shaxsda tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga etkazish mumkin. Bundan tashqari, muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlar ham qayta tarbiyalanadi.

12.3. Shaxsni kamol topishida tarbiyaning roli

Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi. SHu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o'yin, xoh mehnat, xoh o'qish, xoh sport bo'lsin, shaxs rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. SHaxs ulg'ayib borgani sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi. Turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o'zgarib boradi. SHu sababli bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga ega.

O'quvchi-talabalar rivojlanishida o'quv jarayonlarining aiamiyati va ta'siri beqiyos. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini o'stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'ladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq me'yorlari shakllanadi. SHaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'i nazar, uning rivojlanishida meinat faoliyatining aiamiyati katta. Ayniqsa, meinat insonning iam jismoniy, iam ma'naviy kamol topishida muim manba iisoblanadi. Meinat jarayonida uning ishtirokchilari bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar, o'zlarining nimaga qodir ekanliklarini ko'rsatishga iarakat qiladilar. Meinat orqali shaxsning axloqiy sifati tarkib topadi. Ularda vatanparvarlik, mas'uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Ular o'z-o'zini tarbiyalashga astoydil kirishadi. O'z-o'zini tarbiyalashda ota-ona, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri yanada samarali bo'ladi. Tarbiya bilan rivojlanishning o'zaro bir-biriga ta'siri va munosabatlari mavjud, chunki qaerda tarbiya jarayoni muammolari to'jri ial etilsa, u shaxs kamolotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Kamol topgan shaxs tarbiyaning roli va imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi.

Tarbiya shaxs rivojlanishini ta'minlashi uchun boladagi rivojlanish moiiyatini tushunish, bilish faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlash zarur. Tarbiya, iaqiqatan iam, rivojlantiruvchi omil bo'lmoji uchun tarbiyalanuvchi jamiyatning tarbiya oldiga qo'ygan talablarini, shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika fani shaxs

rivojlanishida tarbiyaning etakchilik rolini e'tirof etish bilan birga, ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini tan oladi.

SHaxsning rivojlanib kamol topishi, iayotning iamma bosqichlarida bir xil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va iayot tajribalariga qarab iar xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'sayotgan avlodning yoshi, o'ziga xos xususiyatlarini bilish va iisobga olish juda zarur, Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarning iar birining o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud.

Bu o'ziga xoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. YOsh xususiyatlarini iisobga olish, bola xususiyatiga moslashish emas, balki shu yosh davrda bola imkoniyatlarini iisobga olgan iolda, ta'lim va tarbiyaning to'jri tashkil etilishi demak. SHundagina shaxs rivojlanishiga tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarni o'qitish va tarbiyalash muvaffaqiyati o'qituvchining iar xil yoshdagi bolalar o'rtasidagi tafovutlarni qay darajada iisobga olishiga bojliq. SHunday ekan, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi maktab iamda o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarning yosh davrlari bilan xususiyatlarini iisobga olmoji lozim. SHaxs, uning xulq-atvori, umuman, jismoniy va ma'naviy taraqqiyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon murakkab va ziddiyatli. SHu sababli rivojlanish jarayoni bir tekis bormaydi, balki bunda sakrashlar, notekisliklar iam sodir bo'ladi.


SHunday ekan, o'qituvchi va tarbiyachilar bolaning yoshi oshgan sari uning eitiyojlarida, intilish yoki qiziqishlarida qanday sifat o'zgarishlari sodir bo'layotganini muntazam kuzatib borishlari lozim.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy aytganidek, pedagogika fanining eng muhim vazifasi – shaxs rivojlanishini iar jihatdan o'rganishi va o'qituvchining ishda muvaffaqiyat qozonish sharti o'z o'quvchilarining xislat va xususiyatlarini bilishi.

Kishi tujilgan kунidan boshlab, ijtimoiy mavjudot bo'lib qoladi. Uning xarakteri, xulq-atvori, shaxsi barcha ijtimoiy omillar yijindisi, ya'ni tevarak-atrofdagi odamlarning unga munosabati, namuna ko'rsatishlari, mafkuralari, o'z faoliyatida iosil qilgan tajribasi ta'sirida shakllanadi. Albatta, ijtimoiy omillar inson shaxsining har tomonlama shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagog bolaning muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning iammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim.

Bolaning tug'ma bo'lgan **temperamenti**, aqliy salohiyati, biron ishga layoqatligi, bilimlarni o'rganish va malakalarni amalga oshirish tezligi,

tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasini birinchi kunlaridayoq tekshirib hamda bilib olishi shart. Bu organizm xususiyatlari har bir odamning gen kodida belgilangan. Masalan, bolaning ta'lim-tarbiyasiga temperament turi (sangvinnik, xolerik, flegmatik, melanxolik), uning mobil (faollik, chaqqonlik, tezlik, uyushqoqlik) yoki rigidligi (aksinchalari), ekstravertligi (dilkashlik, fe'lining epchilligi, moslashmoqligi) yoki introvertligi (aksinchalari hamda kamtarlik, o'zini etarli darajada xis qiladigan) asabi mustahkam yoki mustahkam emasligi katta ahamiyat kasb etadi.



Qolgan bolaning xususiyatlari, uning qobiliyatlari deb hisoblasa bo'ladi, ya'ni:

aqliy salohiyati: ish yuzasidan bir qolipdagi shart-sharoitlarda vazifani notaxlit echish qobiliyati;


biron ishga layoqatligi: har bir shaxsda u yoki bu ishga aniq bir layoqati borligi aniqlangan bo'lib, uni topib to'g'ri o'stirish oila, maktab va jamiyat oldida muhim masala qo'yiladi. Ayni paytda, odamning layoqati aniq bir kasb yo xunarga emas, balki biron bir sohaga (aniq, tabiiy

yoki ijtimoiy-gumanitar fanlar, madaniyat va san'at, ishlab chiqarish, xizmat qilish, ta'lim-tarbiya berish, davolash, jismoniy tarbiya va sport sohalaridan biriga) yo'naltirilgan bo'ladi;

bilimlarni o'rganish va malakalarni amalga oshirish tezligi: kishilarning har birida bu bor sifati har hil bo'ladi va uch turga bo'linadi: tez o'rganadiganlar – ularga bu ishda vaqtning ozmunchasi yoki kerak emasdir (5% odamlar), sekin o'rganadiganlar – bularga esa bu ishda vaqtning ko'prog'i yoki ko'pligi kerak (90%), vaqtga qaramasdan o'rganmaydiganlar (5%);

tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi: kishilarning har birida bu bor ham sifatlari har xil bo'ladi va uch turga ham bo'linadi: reproduktiv – taqlid qilish, o'xshatish asosida tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi, produktiv – namuna asosida tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi, ijodiy – mantiq asosida tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi.

Shuning bilan, odamning tug'ma sifatlari va qobiliyatlari quyidagilardan iborat:



Qobiliyatlar – bu har bir odamning biron-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishiga shaxsiy-psixologik xususiyatlari. Bu qobiliyatlar shaxsning bilim, ko'nikma va malakalariga mansub emas, ammo ularni hosil qilish tezligi va osonligiga aniq bir darajada yo'l beradi. Bu qobiliyatlarning shakllanishi va rivoji bolaning tug'ma alomatlaridan paydo bo'ladi. Alomatlar – bu qobiliyatlarning tabiiy dastlabki shartlari, qobiliyatlar rivojining tagida yotgan anatomik-fiziologik xususiyatlari.

Alomatlar tug‘ma bo‘lib, o‘zlari aniq emas, hech nimaga yo‘llanmagan, ko‘p ma‘nolidir. Tabiiy alomatlardan odamda, mumkin qadar, masalan, rassom yoki, aksincha, olim qobiliyatlari o‘sishi mumkin. Odam miyasining yuqori psixik funksiyalari aniq bir vazifaga qaratilgan bo‘lmaydi. Ya‘ni, bir necha bolalarning biron bir o‘xshash fiziologik alomatdan har xil qobiliyatlar rivojlansa ayni muddaodir. SHuni aytish joizki, qobiliyatlar bilim, ko‘nikma va malakalar emas, balki ularni yaratadigan, imkon tug‘diradigan xususiyatlardir. Bu yoki u qobiliyat har bir odamzotda bor, lekin uni topib, aniqlab to‘g‘ri o‘stirish bilan u meva berishi mumkin. SHunda bu qobiliyatlar to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya berish va o‘z ustida ishlash, katta mehnat qilish yuzasidan bola quyidagi yuqori darajalargacha chiqishi mumkinligini aytib o‘tsak bo‘ladi:

Iqtidorlik darajasi – umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘ziga kiritadigan birikmadir.

Talant darajasi – o‘z ichiga mashhur mukamallik, zavqiy ergashtirish, yuqori serg‘ayratlik, ajoyiblik, rang-baranglik oladigan iqtidorlikning yuqori darajasi.

Daholik darajasi – o‘z ichiga antiqa, eng baland ijod, insoniyat oldin bilmagan bir nimani ochib berish yo‘lida iqtidorlik va talant ko‘rsatadigan eng yuqori sifatli darajasi

Shaxs - ijtimoiy hayotning mahsuli bo‘lib, u o‘rab olgan muhit ta‘sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida muhit unga ijobiy va salbiy ta‘sirlar ko‘rsatadi, bor qobiliyatlarini o‘stiradi, rivojlanish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi yoki ahti-paymon qiladi.

Muhit - bu shaxsga ta‘sir etuvchi tashqi voqea, vaziyat va hodisalar birikmasidir. Jumladan, shaxsning hayoti va faoliyati:

Tabiiy muhit - shahar yoki qishloq, tog‘ yoki tekislik, o‘rmonzor yoki cho‘l, suvdan ser yoki suvi kam xudud, iqlimi issiq yoki sovuq, quyosh yoki yomg‘ir kunlari ko‘pmi-kammi, ekologik toza yoki xavfli joy va boshqa.

Ijtimoiy muhit - shaxs yashayotgan davlat iqtisodiyoti, siyosati, jamiyatda o‘rnatilgan xalqning turmush tarzi, iste‘mol qiladigan narsalarning to‘qligi, oladigan maosh yetarliligi, shaxs huquq, erkinlik va manfaatlarini muhofaza qilishi.

Oila muhiti - ota-onaning jismoniy va ruhiy sog‘lomligi, oilada o‘rnatilgan munosabatlar, bolaga nisbattan sevgi va hurmat izhori, oila a‘zolarining kasblari va jamiyat oldidagi bor hurmatlari, madaniyat va san‘atga intilishlari, oila ichida iqtisodiy va ma‘naviy eson-omonligi.

Tashqi muhit - maxallada, qo'shnilar, ish va o'quv joylardagi jamoalar bilan munosabatlari, sinf va kursdoshlari, do'stlari bilan aloqalari, ularning manfaatlari va ular bilan qilinadigan xatti-harakatlari va ishlari.

ommaviy ahborot vositalari muhitidan (radio, televizor, internet tarmoqlarining ahborot mazmun-mohiyatining ta'sirlari) tashkil topadi.

Odam shaxs bo'lishi faqat ijtimoiylashuv jarayonida, ya'ni boshqa odamlar bilan munosabatida o'tmoqda. Kishilar jamiyatidan tashqari aqliy, ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy shakllanish bo'lmaydi. SHu aytib o'tilgan muhitlar orasida shaxs rivojlanishiga, ayniqsa yoshlik chog'ida, katta ta'asurot, ulkan iz oila, o'y muhiti qoldirmoqda. Oila ko'pincha bolaning manfaat va ehtiyojlarini, dunyoqarash va qimmatli mo'ljallarini aniqlab beradi, bolaning tabiiy alomatlarini o'stirish chog'ida moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar tug'diradi. Oilada bolaning shaxsiy va ijtimoiy sifatlariga asos solinadi. Prezident I.Karimovning aytishlaricha: "Sog'lom avlod orzusi ajdodlarmizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar solsak, ular nasl-nasab, yetti pushtining tozaligiga, avlodning sog'ligiga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz" Sog'lom bolaning tug'ilishi va o'sishi, eng avvalo, ota-onaning sog'ligiga, ular bir-biriga bo'lgan hurmat va ehtiromiga bog'liq,. Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, ammo uni voyaga etkazish uchun aqliy, ruhiy va ma'naviy etuk oila kerak, chunki faqat shunda ota-ona o'zini ayamadan, butun hayotini bolaga baxshida etadi. Boshqacha aytganda, sog'lom farzand faqat sog'lom oilada tug'iladi, yaxshi farzand faqat uni sevadigan, hurmat qiladigan oilada katta bo'ladi. Oilaning sog'lomligini, undagi muhit, ota-onaning totuvligi, bir-biriga diqqat-e'tibori, oila a'zolarini tushunishi, qo'llab-quvvatlashi o'zaro izzat-hurmati belgilaydi.

Muhitlar orasida iqtisodiy-siyosiy-ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Inson tug'ilgan kundan boshlab ijtimoiy mavjudot bo'lib qoladi. Uning dunyoqarashi, xulq-atvori barcha ijtimoiy omillar yig'indisi, ya'ni tevarak-atrofdagi ishlar, g'oya va fikrlar, odamlarning unga munosabati, namuna ko'rsatishlari, mafkuralari, o'z faoliyatida hosil qilgan tajribasi ta'sirida shakllanadi. Jamiyatimizdagi ijtimoiy omillar yosh avlodning har tomonlama shakllanishiga ijobiy samarali ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil O'zbekistonimizda xalqimiz qadriyatlari va zamonaviy talablarga bo'ysunish va bu borada ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, Konstitutsiyamiz va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda asoslangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rejalashtirilgan ulkan ishlarni tashkil qilinishi

barkamol avlodni yaratishdagi dastlabki qadamlardir. Prezidentimiz “Sog‘lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog‘lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e‘tiqodi butun bilimi, ma‘naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman”, deb ta’kidlaydi.

Yosh avlodning komil inson bo‘lib etishiga ta’lim-tarbiya, ya’ni pedagogik nufuzi, ta’siri eng kuchli ahamiyat kasb etadi. Irsiyat va muhit bolaga tasavvursiz ta’sir qilsa, pedagogik nufuz esa tarbiya oluvchi odam tasavvuri va tafakkuriga asoslanadi. SHuning uchun ham inson tarbiyasi murakkab va og‘ir ish bo‘lib, u har bir oila, har bir o‘qituvchi-murabbiydan, butun jamiyatdan jiddiy e’tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. Faqat o‘qitish va tarbiya berish orqali insondagi rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish mumkin. Ta’lim-tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta’sir etiladi. SHaxs rivojlanishi masalalari O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Buning natijasida bolaning tug‘ma xususiyatlari hamda muhitdagi voqealarning to‘g‘ri ijobiy ta’sirini amalga oshirish imkoni tug‘iladi. Muhit bera olmagan yoki undan kelgan salbiy narsalar ta’lim-tarbiya orqali o‘tdi. Ta’lim-tarbiya tufayli shaxsda tug‘ma kamchiliklarni o‘zgartirib kamolga etadi. Ilmiy-pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday o‘quvchi faoliyati (o‘qish, maktab va uy mehnati, maktabdan tashqari faoliyat, mustaqil ishlar, to‘garak va sport seksiyalarga qatnashish va b.q.) shaxsning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiya bilan rivojlanishning o‘zaro bir-biriga ta’siri va munosabatlari mavjud, chunki qaerda ta’lim-tarbiya muammolari to‘g‘ri hal etilsa, u shaxs kamolotiga to‘g‘ri va ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kamol topgan shaxs ta’lim-tarbiyaning imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi.

Tarbiya samarali rivojlantiruvchi omil bo‘lmog‘i uchun o‘qituvchi-murabbiy jamiyatning ta’lim-tarbiya oldiga qo‘ygan talablarini bajarish jarayonida shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. O‘quvchi-talabning xususiyatlarini hisobga olish uning xususiyatiga moslashish emas, balki shu davrdagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya mazmuni va usullarni tashkil etish demakdir. Bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning yutug‘i o‘qituvchining har xil yoshdagi bolalar o‘rtasidagi tafovutlarni qay darajada hisobga olishiga bog‘liqdir. Bu borada o‘qituvchi-murabbiy maktabgacha yoshdagi va maktab hamda o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan o‘quvchi-talabalarning yosh davrlari bilan xususiyatlarini hisobga olmog‘i lozim. Biroq, tarbiya – rivojlantiruvchi manbaa emas, bu faqat tug‘ma, tabiiy alomatlarining

rivojlantiruvchi asosiy omilidir. Faraz qiling, odam va maymun bolalarini mutlaqo bir xil sharoitlarda o'stirsak, tarbiyalasak, maymun bolasi bir, ikki, o'n yildan keyin o'zining aqliy va ruhiy xususiyatlari bilan odam bolasiga o'xsharmikan? Albatta, yo'q, irsiyat o'z so'zini bu erda aniq ayta oladi: maymun odamday fikrlashni ham, gapirishni ham, o'zini tutishini ham o'ziga qamrab olmaydi.

O'quvchi-talabaning rivojlanishida o'z-o'zini boshqarish ahamiyati va ta'siri beqiyos kattadir. Bola intilishi uning bilimlarni o'zlashtirishi, tafakkurini o'stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib qoladi, unda shaxsiy va ijtimoiy xulq me'yorlari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, uning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. U ulg'aya borgan sari uning faoliyatga intilishi ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa mehnat faoliyati turlari ham o'zgarib boradi. SHu sababli bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlariga intilishlari katta ahamiyatga egadirlar. Bu borada mehnat insonning aqliy, ruhiy, jismoniy hamda ma'naviy kamol topishida muhim manba bo'ladi. Mehnat jarayonida odam o'zining nimaga qodir ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. Mehnat orqali shaxsning aqliy va axloqiy sifatleri tarkib topadi, ularda mas'uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. U o'z-o'zini tarbiyalashga astoydil kirishadi. O'z-o'zini tarbiyalashga oila, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri yanada samarali bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchi shaxsning o'z-o'zini boshqarishiga yordam sifatida boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlash zarur.

SHaxs, uning temperamenti, aqliy salohiyati, biron ishga layoqatligi, bilimlarni o'rganish va malakalarni amalga oshirish tezligi, tushunish saviyasi va o'zlashtirish darajasi, xarakteri, xulq-atvori, umuman aqliy, jismoniy va ma'naviy taraqqiyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon murakkab va ziddiyatlidir. Shu sababli rivojlanish jarayoni bir tekisda bormaydi, bunda qiyinchiliklar sodir bo'ladi. Shunday ekan, o'qituvchi va murabbiylar o'quvchining ehtiyojlarida, intilish va qiziqishlarida uning muayyan rivojlanish davridagi belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi bilan ijobiy sifat o'zgarishlarini hayotga chaqirib muntazam ishlashi darkor. SHaxs kamoli, uning shakllanishi va rivojlanishi – bu maqsad, uni ta'lim-tarbiyasi esa – vositadir.

O‘z-o‘zini nazorat qilish va tekshirish uchun savollar:

1. SHaxs va inson o‘rtasidagi farq nimada?
2. SHaxs rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Ijtimoiy omil nima?
4. Biologik omil nima?
5. SHaxs rivojlanishida faoliyat qanday rol o‘ynaydi?
6. SHaxsni vojudlanishida tarbiya, shaxsning yoshi va o‘ziga xos xususiyatlari qanday ahamiyatga ega?

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta’limiy- axloqiy qarashlar.-T., 2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. O‘.Tolipov, M. Barakaev, SH. SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma’ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.
5. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996.
6. Karimova V.M., Akromova A.F. Psixologiya.(Ma’ruza matni). – T.: 2000.
7. G‘aybullaev M. va b.q.. Pedagogika. .(Ma’ruza matni). - T. 2000.
8. N.Xo‘jaev va boshqalar. Pedagogika asoslari. - T.: TDIU, 2003 .
9. Maxmudov YU.G‘., Xudoyqulov X.J. “Pedagogika.Psixologiya”.- T.: Dzayn-Press.2011.
10. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002.
11. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.
12. www.bilimdon.uz. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asosiy veb sayti.

13-MAVZU: O‘QITISH VOSITALARINING YARATILISHI VA QO‘LLANILISHI, HAMDA UNING TA‘LIMDAGI AHAMIYATI

Reja:

- 13.1. O‘qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida.
- 13.2. Hozirgi zamon o‘quv vositalarining tavsifnomasi.
- 13.3. O‘qitish vositalari va ularning turlari.
- 13.4. O‘qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari.
- 13.5. O‘quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish .

Tayanch so‘zlar: Ta‘lim vositalari, tabiiy, tasviriy, texnikaviy vositalar, illustratsiya, namoyish qilish, kompyutr, EHM, o‘lchov asboblari.

13.1. O‘qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida

Ta‘lim maqsadini amalga oshirish yo‘lida xizmat qilayotgan metodlarni muvaffaqiyatli natijaga erishishi uchun ishlatiladigan o‘quv asboblari ta‘lim vositalari bo‘lib hisoblanadi. Ular issiqlik sig‘imini o‘lchash asbobi, kompyuterlar, turli xil laboratoriyada ishlatiluvchi apparat turlari, o‘lchash asboblaridan tashkil topishi mumkin. Ta‘lim vositalari talabalarni amaliy ishlarni bajarishida hamda malaka hosil qilishida muhim ahamiyatga ega.

O‘qitish vositalari - bu moddiy va tevarak-atroflar, tabiiy obyektlar, bundan tashqari inson tomonidan o‘quv-tarbiyaviy jarayonida axborot olib yuruvchi pedagog va o‘qituvchilar faoliyatida ularning o‘z oldiga qo‘ygan o‘qitish, tarbiyalash maqsadida qo‘llaniladigan qurol sifatida yaratilgan sun‘iy obyektlardir.

O‘qitish vositalari shu bilan birga uning mazmuni, uslublari, tashkiliy shakllari o‘qitish tizimini loyihalashtirilgan va o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo‘limlaridan biridir. Bundan tashqari har bir o‘quv-tarbiyaviy muassasaning eng muhim tarkibiy qismidir. Pedagogika fani va amaliyotida qo‘llaniladigan turli xil tizimlarning bo‘limlarida bo‘layotgan moddiy o‘qitish vositalari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog‘liqligini nazarda tutgan holda boshqa tarkibiy qismlarga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ta‘lim oluvchilar o‘z ijodiy potensialini nazorat qilish, tabiatdan berilgan iste‘dod va qobiliyatlarini rivojlantirishga yangi texnika paydo bo‘lgandan beri o‘qitishning yangi usul va

texnologiyalarini egallashga real imkoniyatlari bor. Shunday qilib, didaktikaning kategoriya apparatida moddiy vositalar (ish qurollari) maqsad va mazmunlari, usullari, o'qitishning tashkiliy shakllari bilan birgalikda mustaqillik holatiga ega. Bundan tashqari ijtimoiy hayotning har bir sohasida texnologiyalashtirish munosabati bilan o'quv-tarbiyaviy faoliyatda o'qitish vositalarining ahamiyati ortib bormoqda, muammolarga oid tadqiqotlarda ikki asosiy yo'nalish: pedagogik va injenerlik nuqtai nazari bor.

Didaktik nuqtai nazarga atrof-muhitni tavsiflashga bag'ishlangan o'quv vositalarini tasniflash kiradi:

1. Tabiiy obyektlar – izlanish va o'rganish uchun haqiqiy real fanlarni o'z ichiga oladi: moddalarning namunalari va kolleksiyalarini, xom-ashyo, asboblar, detallar, o'simliklar, gerbariylar, hayvonlar va ularning qotirib qo'yilgan holati, mikropreparatlar va hokazolar. O'qitish vositalarining bu guruhiga yana maxsus ishlov berilgan moslamalar va ularning mexanizmlari hamda kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan o'quv ishlab chiqarish moslamalari kiradi.

2. Moddiy obyektlarni tasvirlash va aks ettirishga kiradigan guruhni quyidagilar tashkil etadi: modellar, mulyajlar, maketlar, jadvallar, ko'rgazmali qurollar (rasmlar, fotoaksli chizmalar, portretlar), ekran-tovush vositalari (diafilmlar, diapozitivlar, slaydlar), kinofilmlar, video va tovush yozuvlari, plastinkalar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar.

Alohida guruhga o'qitishning texnik vositalari kiradi. Bunday o'qitish vositalariga o'quv ma'lumotlarini etkazib beruvchi, uni ifodalash uchun maxsus texnik moslamalar talab qilinadi. Bu moslamalar transportlar, diafilm va kinofilmlar, videofilmlar, tovush yozish kompyuter dasturlari va boshqalardan iborat.

O'qitish vositalarini shakllantirish tizimi nafaqat o'qitish vositalarining turli xil belgilaridan aniqlab klassifikatsiya qilish emas, balki ularni funksiyalar va xususiyatlari haqida bilimlari ham taxmin qilinadi.

O'qitish vositalari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Natural (tabiiy) obyektlar. Tabiiy obyektlarga odatda jonli va jonsiz tabiatning obyektlari kiradi, ular bilan ta'lim oluvchilar mashg'ulotlarda tarqatma yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklida tanishadilar.

2. O'quv modellar, mulyajlar, maketlar. Modellar sun'iy yaratilgan tabiiy obyektlarning ko'rinishi ularning muhim sifatlarini, aloqalarini va

munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar deb qabul qilinadi.

Modellarning eng keng tarqalgan va tipik turlari bu moddiy ya'ni predmetli modellardir. Modellar hajmiga ko'ra ega va tekis modellarga bo'linadi.

Mulyaj va maketlar predmetlarning tashqi belgi va xususiyatlarini va atrof-muhit hodisalarini o'rganishda qo'llaniladi, modellar o'rganilayotgan obyektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili mashina va mexanizmlarning kinematikasini o'rganilayotgan hodisalarda o'rin olgan boshqa aloqalar va munosabatlar imkoniyatini beradi.

Ekran va ekran – tovushlik o'qitish vositalari bugungi kunda keng tarqalgan. Bu o'qitish vositalariga qo'yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oidligi, ikkinchidan, bu o'qitish vositalarining sifati yaxshi bo'lishi bilan ajralib turadi.

Diapozitiv – (slayd) bu harakatlanmaydigan o'qitish ekran vositasi hisoblanadi. Diapozitivdagi chizmalar va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.

Diapozitiv – bu juda qulay o'qitish vositasi, chunki o'qituvchi uning bir qismini yoki bir kadrni alohida ko'rsatishi mumkin. Har bir kadr to'liq bir informatsiyaga ega. Diafilm ham harakatlanmaydigan ekran o'qitish vositasidir.

Transportlar – bu ham harakatlanmaydigan ekran qo'llanmasidir.

Transportlar proektor yordamida ko'rsatilishi va xonani qorong'ilatish shart emasligi bu o'qitish vositasining katta yutug'idir. Transportlar sinf doskasini o'rnini bosadigan vositadir. O'qituvchi ta'lim oluvchilarga yuzlangan holatda, o'tilgan yozuvlar yoki chizmalarni ekranga proeksiya qilib tushuntirishi mumkin.

So'nggi yillarda o'quv filmlari chiqarilmay qo'ydi. Ularning o'rnini o'quv video yozuvi informatsiyani aks ettiruvchi ekran-tovushli vositalarni o'zida mujassamlashtirgan; kino, radio, televidenie, videofilm, diapozitivlar egalladi. O'quv priborlari, moslamalari, asboblari, laboratoriya priborlari tizimining ahamiyatga ega bo'lgan qismini tashkil qiladi.

O'quv ustaxonalarida olib borilgan ishlab chiqarish qulayliklariga o'rgatish shu ustaxonalarda qulay vaziyatlarni yaratishni talab qiladi.

Moddiy texnikaviy - etarli maydonda ishlaydigan moslamalar, texnik muhofazalashni ta'minlash.

Sanitar gigienik – tabiiy va sun'iy yoritish, ustaxona sanitar gigienik shartlariga javob berishi va birinchi yordam berish vositalarini ta'minlashi.

Estetik – ustaxonaning ichki bezagi va moslamalarning ranglariga e'tibor berish, o'simlik va gullar bilan bezatish.

Texnik pedagogik – o'quv ishlab chiqarish xonalarining ishlar bajarishida bir-biri bilan bog'liqligi, ta'lim oluvchilarga mos bo'lgan ish sharoitini yaratish va shaxsiy ish joyi bilan ta'minlash va ishni ilmiy texnika asosida tashkillashtirish.

Ta'lim oluvchilarning ish joyini tashkillashtirish:

- ish joyining texnik sozligi;
- yetarli darajada yoritilganligi;
- favqulodda holatda avariya signalining ishlashi yoki usta bilan bog'lanish moslamasi;
- ishlab chiqarish moslamasini tozalash, sozlash va yig'ishtirishning qulayligi.

O'qitish ustaxonasining ustasi uchun ish joyi shunday yoritilgan va tashkil qilingan bo'lishi kerak. O'qitish jarayonida usta ishini ilmiy asosda tashkillashtirishi, uni mazmuni va shaklini ta'lim oluvchilarning ish joylari bilan bog'lanishi uning pedagogik faoliyatini aniqlab beruvchi sifat bo'lishi kerak.

13.2. Hozirgi zamon o'qitish vositalarining tavsifnomasi

Keyingi vaqtlarda «o'qitishning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi tarqalgan bo'lib, bu kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o'qitish texnologiyalari bilan izohlanadi. Biroq axborot texnologiyalari tushunchasi o'qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar axborot texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (videodisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik axborotni bir vaqtda birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga uni qayta tiklashda yuqori sifatli tasvir paydo bo'ladi. Magnit yozuvdan farqli o'laroq, optik disklardagi yozuv istalgan sondagi qayta tiklashlarda ham yomonlashmaydi. Kompyuterlar ishining dastur-matematik ta'minoti yuqori texnologik ishlab chiqarish taraqqiyotining muhim yo'nalishi bo'lmoqda.

SHuningdek, texnik va dasturli axborot texnologiyalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

EHM tarmoqlari. Hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqalgan. EHM lokal tarmoqlari uncha katta bo'lmagan fazoda amalga oshiriladi va axborot xizmati turli tarmoqlarining integratori bo'ladi. Ular tashkilotlardagi barcha axborot texnologiyalari vositalarini birlashtiradi hamda ularning samaradorligini oshiradi. EHM global tarmoqlari esa, axborotni katta masofalarga uzatilishini amalga oshirish imkonini beradi.

Yo'ldosh aloqa tizimlari ko'plab er ustidagi stansiyalarni va er sun'iy yo'ldoshidagi retrenslyatorlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, bu tizimlar kompyuterlar orasidagi aloqani amalga oshirish uchun ma'lumotlar to'plash, televidenie dasturini uzatish maqsadida ishlatilmoqda.

Sun'iy intellekt tizimlari. Sun'iy intellekt elementli EHMning odatdagi EHMdan farqi shundaki, odatdagi EHMlar faqat statistik ma'lumotlarni, sun'iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi. Informatikaning alohida yo'nalishi sun'iy intellektdir. Odam aqliy faoliyatining ba'zi turlarini amalga oshiruvchi dasturli-texnika vositalari ishlab chiqilmoqda.

Elektron pochta. «Elektron pochta» – bu korrespondensiyalar almashishi uchun pochtaga o'xshash axborot uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya'ni bosma materiallar, jadvallar va jurnallarni uzatish hamda elektron pochta ya'ni, qog'ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo'lib, u xabarlarini to'plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.

Elektron pochta asosida aholiga elektron gazeta va jurnallar kabi axborot xizmati ko'rsatish amalga oshirilgan. So'nggi yillarda jahon bozorida elektron nashrlar soni borgan sari ko'payib bormoqda. Bu jarayon kompakt optik disklar keng tarqalishi bilan tezlashdi.

Telekonferensiyalar. Telekonferensiyalar zamonaviy axborot texnologiyalarining amalga oshirilishiga misol bo'la oladi. Telekonferensiyalarni o'tkazish uchun quyidagi apparaturalardan foydalaniladi: terminallar, televeziyon kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari. SHuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmiy materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini kengaytirish, xalqaro

ma'lumotlar banklaridagi istalgan axborotdan foydalanish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

O'qitishning yangi axborot texnologiyalari o'quvchi-talabaning emas, u eng avvalo o'qituvchi (pedagog)ning texnologiyasidir. O'quvchi-talaba zamonaviy axborot texnologiyasini o'rganmaydi, balki uning mahsulotidan o'qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. O'qituvchi (pedagog) zamonaviy texnologiyalarni qo'llab darsga tayyorlanadi, darsni tashkil qiladi, o'quvchi-talabalar bilimni nazorat qiladi va ta'lim mazmunini takomillashtirishda kompyuterlashtirishning eng yuqori darajasi yangi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo'ladi.

Axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni rivojlantirish omillari quyidagilar: bunda kompyuterlashtirishning har ikkala yo'nalishini ham rivojlantirib borish zaruriyati tug'iladi. Buning uchun shu sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda uzluksiz ta'lim tizimini hamma bosqichlarida «kompyuterlashtirishning konsepsiyasi» yaratilishi lozim.

Kompyuterli texnologiyalar dasturli o'qitish g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq ta'limning ham tadqiq qilinmagan yangi texnologik variantlarini ochadi. Ta'limning kompyuterli (yangi axborot) texnologiyalari – bu ta'lim oluvchiga axborotni tayyorlash va uzatish jarayoni bo'lib uni amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya'ni:

-o'quvchi-talabalarda axborot bilan ishlash mahoratini shakllantirish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;

-«axborotli jamiyat» shaxsini tayyorlash;

-ta'lim oluvchilarni o'zlashtirish imkoni darajasida etarli miqdordagi axborot bilan ta'minlash;

-o'quvchi-talabalarda tadqiqotchilik, optimal qarorlar qabul qilish mahoratini shakllantirish.

Kompyuterli texnologiya mazmuni bir qancha shakllantirilgan modelni qo'llashga asoslangan bo'lib, bu model kompyuter xotirasiga yozib qo'yilgan pedagogik dasturli vositalar va telekommunikatsiya tarmog'ining imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimini boshqarishda ham foydalanish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalish hisoblanmoqda. SHu munosabat bilan hatto «multimedia» tushunchasi paydo bo'ldiki, u o'qitishda ko'pchilik texnik vositalardan kompleks foydalanishni bildiradi. Multimediani qo'llagan holda eng muhim narsa talabalarni kerakli axborotni tanlab olishga o'rgatishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi (pedagog)ning vazifasi axborotni taqdim qilishdan emas, balki uni topishda yordam berishdan iborat bo'ladi, o'qituvchi (pedagog) bilimlar sohasida yo'l ko'rsatuvchi bo'ladi.

Bu kabi o'qitish vositalari kompleksidan foydalanilgan holda talabaga ta'sir ko'rsatish birgina axborot kanallari (ko'rish, eshitish va h.k.) orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta'lim samaradorligining ortishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini tiklash muammosi yangicha hal etilishi lozim. Agar an'anaviy ta'lim sharoitlarida bilish faoliyatini tashkil etishning eng ko'p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo'ladigan bo'lsa, axborot texnologiyalaridan foydalanishni ularning har ikkalasidan ham bir vaqtda foydalangan holda amalga oshishi mumkin.

SHuningdek, ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o'qituvchi (pedagog) vazifasining o'zgarishiga sabab bo'ladi, ya'ni pedagog ta'lim-tarbiya berishdan ko'ra ko'proq tadqiqotchi, tashkilotchi, maslahatchi va dasturlovchiga aylana boradi. Bularning barchasi o'qituvchi (pedagog)larni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini o'zgartirishni talab qiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchilarning axborot madaniyati asoslari metodologik, umumta'limiy, umummadaniy xarakterga ega bo'lib, ular pedagogik xodimlarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, barcha o'quv fanlari kompleksini o'rganish jarayonida shakllanishi lozim.

Keyingi yillarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakllari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Ma'lumki, o'qituvchilarning an'anaviy o'qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishiga ko'p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlash, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini

oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq, bunday mashg'ulotlar to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi – laboratoriya stendlari etarli darajada emas hamda ko'pgina laboratoriya stendlari va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan jihozlanmagan, ularning aksariyati bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlar har bir o'quv yilida takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun esa qo'shimcha sarf-xarajatlar qilish kerak bo'ladi. Boshqa yana bir muhim omil shundaki, ba'zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish jarayonlarining sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta'lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o'tkazishga qiynalishadi xolbuki, ma'lum bir sohada etarlicha ish ko'nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg'ulotlarni ko'p marotaba takrorlash talab etiladi. Afsuski, an'anaviy ish olib borish sharoitida laboratoriya stendlari kamligi hamda moslamalarining tez-tez buzilishi va shu bilan bog'liq ashyolarga qo'shimcha sarflar qilinishi bois har doim ham bunday qilinavermaydi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlash uchun fikr muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'ildi, deb ayta olamiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishmoq lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman butun o'qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar xususida o'ziga-o'zi baho berish imkonini ta'minlamog'i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tatbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi.

13.3. O'qitish vositalari va ularning turlari

Bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi innovatsion jarayonlar o'z-o'zidan ta'limda ham tubdan o'zgartirishlarni taqozo etmoqda. O'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalariga sifat jihatdan tez o'tish uchun obyektiv asos yuzaga kelganligi quvonarlidir. Hech bir o'qituvchi ertami-kechmi bu jarayonga qo'shilmasdan chetda qolishi

mumkin emas. O'qituvchining an'anaviy ish usullari, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, o'qitishni kompyuterlashtirish sifatlarini o'zlashtirish zaruriyati ularni ilmiy-metodik asoslash ehtiyojining tug'ilishida obyektiv omil bo'lib qolmo³da.

O'qituvchiga albatta ta'lim amaliyotining rivojlanish istiqbollari ongli dasturlashtirishga, yangi pedagogik texnologiyalarni asoslashga imkon beradigan ilmiy tasavvurlar tizimi kerak.

Axborot maydonining barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish va undagi boshqaruv sub'ektlari faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan davlat axborot siyosatini ishlab chiqish mamlakatimizda axborotlashgan jamiyat qurish yo'lidagi asosiy masalalardan bo'lib hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari bozorini shakllantirishning obyektiv zaruriyatidan kelib chiqqan holda, milliy iqtisodning deyarli barcha tarmoqlari manfaatlariga ta'sir etuvchi keng miqyosdagi iqtisodiy, huquqiy va siyosiy echimlarni hal qilishni talab qiladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Unda «...Real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta'lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholi turli qatlamlarining zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng bahramand bo'lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish...» belgilab qo'yilgan.

Respublikamiz kutubxona, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va vazirliklarida to'plangan katta miqdordagi axborot resurslariga ega. Biroq ushbu manbalarga integratsiyalashgan holda kirish usuli hali yo'lga qo'yilmagan. Chunki, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yangi darajasiga o'tish, jahon axborot mahsulotlari va xizmatlariga chiqish yuqorida keltirilgan manbalarga turli aholi guruhlarining tez suratda kirib borishini tashkil qilish muammo bo'lib turibdi. Respublikamizda axborotlar sohasining rivojlanishiga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatmoqsa, jumladan: jamiyatni axborotlashtirishning past darajadaliigi, axborot texnologiyalari rivojlanishi uchun zarur resurslarning etarli darajada emasligi, hisoblash texnikasi va aloqa vositalarining etarli darajada rivojlanmaganligi, EHM lokal va hudud tarmoqlarini qo'llash va rivojlantirish borasidagi qo'لاق, texnologik ma'lumotlar va bilimlar bazalarining sust qo'llanilishidir.

Jahon amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'z fuqarolarini axborotlashgan muhitda faoliyat ko'rsatishga o'rgatgan jamiyatgina

vaqtdan yutadi, chunki faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangan iqtisodiyot tizimining kelajagi yo'q.

Axborot mahsulotlari va xizmatlari axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari bozorida asosiy tovar bo'lib sanaladi, ular yordamida foydalanuvchilarga ko'proq axborot xizmatini ko'rsatish ko'zda tutilgan.

Bozor munosabatlari axborot mahsulotlarining yangiligi, ishonchligi va to'liqligi darajalariga yuqori talablar qo'yimoqda. Chunki busiz samarali marketing, moliya-kredit va investitsiya faoliyatini yuritish mumkin emas. Axborot mahsulotlarining respublikamiz hayotida tutgan o'rnini va roli ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Mamlakatimizda axborot kommunikatsiyalar texnologiyalari bozori industriyasini tarkib toptirish jamiyatimizda chuqur ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelib, uni «industrialdan axborotlashgan jamiyatga» aylantirishiga ishonchimiz komil.

Bugungi kunga kelib, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida virtual stendlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Xo'sh, virtual stend deganda nimani tushunamiz? *Virtual stend* – o'quv amaliy stendi yoki o'quv-malaka ustaxonasi bo'lib, o'quvchi-talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Virtual stendlar har bir o'quvchi-talaba uchun texnikaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o'tkazish, uni zarur tartibda tushunish va hokazolar bilan bog'liq vaqtdan yo'qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi.

Bunda, ayniqsa, zamonaviy jihozlar va apparatlarni xarid qilish, ularni barcha ta'lim muassasalarida taqsimlash bilan bog'liq ulkan moliya zahiralarning tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy axborot texnologiyasi bo'lgan oddiy kompakt diskka o'nlab, ba'zan esa, yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi esa bir dona shunday virtual laboratoriya stendi necha marta arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga ta'lim muassasalarini ta'minlash mumkin. Agar ularda Internetga ulangan kompyuter tarmog'i bo'lsa, undan ham yaxshi bo'ladi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, virtual stendlar ko'proq qo'llansa, shunday sarflarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Internet tizimining xalqaro axborot tizimi orqali masofali usullar yordamida mutaxassis kadrlar tayyorlash va pedagogik kadrlar malakasini oshirish imkoniyati respublika Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4

oktyabrda e'lon qilingan maxsus qarorida ko'zda tutilgan. Tahsil olayotganlar ham, ta'lim muassasalari ham virtual stendlardan foydalanishdan manfaat ko'radilar.

Ularning joriy qilinishi natijasida, an'anaviy ta'limga qiyoslaganda, mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim jarayonining yanada yuqori sifati ta'minlanadi. Bunga avtomatlashtirilgan o'qituvchi (pedagog) va test o'tkazuvchi, tizimlar, test topshiriqlari va o'z-o'zini tekshirish uchun savollarni o'z ichiga olgan ixtisoslashgan o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanish, o'quv jarayonining uslubiy negizini tezkor yangilash hisobiga erishiladi. Biz o'qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda turli ta'lim maskanlarining o'quv imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa ma'lum darajada turli muassasalar mutaxassislari diplomlari qadri teng bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, ta'lim jarayonida virtual stendlardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga ham imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Virtual stendlarning joriy etilishi ta'lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiy yondashuvini talab qiladi. Virtual o'qitish stendlarini, ayniqsa qimmatbaho jihozni xarid qilishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqish zarur. Bu xodimlarni mahalliy sharoitda o'qitishga, ta'lim oluvchilarni xorij mamlakatlariga guruh-guruh bo'lib jo'nashini oldini olishga imkon yaratadi.

SHunday qilib, ta'lim jarayoniga o'qitish vositalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta'lim jarayonini, o'quvchi-talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlari, yangi materialni o'zlashtirish sur'ati, qiziqish va mayllarini hisobga olgan holda ularga ko'proq individual ravishda yordam berish;

- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o'zini o'zi takomillashtirish, ta'lim va kasbga qiziqishlarini shakllanishiga intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o'rganish;

- ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;

- barcha ta'lim muassasalarida o'qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;

- ta'lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo'li bilan takomillashtirish.

13.4. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari

Inson faoliyatining turli sohasida axborot almashish, har qanday muammoni jamoa bo'lib muhokama qilish natijasida yangi natijalarni olish zaruriyati konferensiya, seminarlar, yig'inlar kabi muloqot shakllarini keltirib chiqardi. Hozirda biror bir jiddiy ishni oraliq natijalar, yakunlar, variantlar, qarorlar variantlari, opponentlarni tinglash va tegishli qarorlar qabul qilishning turli darajalarida hal qilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Axborotni uzatish va qayta qabul qilishning raqamli texnikasi imkoniyati telekonferensiya-yangi texnik darajada telefon va televideniening birga qo'shilgani-telekonferensiyani tashkil etish imkoniyatini beradi. Telekonferensiyani o'tkazish texnologiyasi bir paytning o'zida turli masofadagi muassasalarning xodimlari o'rtasida muloqot qilish imkonini yaratadi. Ishtirokchilar bunda nafaqat bir-birini ko'rish va eshitish bilan birga yonma-yon, yuzma-yuz turgandek sharoitga ega bo'ladilar.

Telekonferensiyaning asosiy afzalliklari quyidagilar:

1. Dolzarb masalalar muhokamasini tezkor tashkil etish va hududiy jihatdan uzoqda bo'lgan, bu masalaga qiziqqan o'rtoqlarni o'z vaqgida xabardor qilib qo'yish. Bu holatda biror joyga borishga va transport xarajatlariga zaruriyat qolmaydi. Mutaxassis o'z ish joyidan uzoq vaqt ketmaydi.

2. Muhokama qilish uchun ishtirok etuvchi tashkilotlardan biridagi har qanday materialdan - jadval, diagramma, matndan foydalanish mumkin. Ba'zan ayrim hisob kitoblar qilish yoki model vaziyatlarni qaytarish zarur bo'lib qoladi. Bularning barchasini telekonferensiya uchun foydalaniladigan texnika yordamida bajarish mumkin.

3. Telekonferensiya apparaturalari mavjud bo'lganda, muhokama etiladigan muammo bo'yicha qaror qabul qilish uchun qatnashishi zarur mutaxassislar doirasini kengaytirish mumkin. An'anaviy usullar orqali esa ishni amalga oshirish mushkul.

4. Telekonferensiya paytida ma'lumotlar bazasi bilan aloqa bo'lganda deyarli har qanday ma'lumotnoma axborotidan foydalanish va u bilan butun telekonferensiya ishtirokchilarini tanishtirish mumkin bo'ladi.

Telekonferensiya faksimil aloqa, televizion kamera, video-magnitofon, kompyuter, modem, displey, akustik apparatura kabi turli xil qurilmalarni jalb etishni talab qiladi. Odatda videokonferensiya o'tkazish uchun maxsus zal ajratiladi va shu erga televizion va akustik apparatura, boshqa texnikalar joylashtiriladi. SHu yerga aloqa liniyasi o'tkaziladi. Binoga katta televizion ekran o'rnatiladi.

Oliy va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi va umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv moddiy bazalari bugungi kunda bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda:

- ta'lim oluvchilarning o'quv-texnika vositalariga bimalol yondashishi, qo'llashi;

- axborot texnologiyalaridan foydalanishi;

- o'quv ko'rgazmali vositalarni qo'llashi;

- o'qitish tizimining bir-biriga bog'liqligi.

Hozirgi paytda to'rtta yo'nalishdagi yangi axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi:

1. Nashriyot texnologiyalarini qo'llash.

2. Telekommunikatsiya.

3. Katta maketlar va ommaviy axborot vositalari.

4. Kompyuter robotexnikasi.

Bugungi kunda texnologiyalarning qo'llanilishini yaratish haqida bir talay qarorlar qabul qilingan. Ammo ushbu texnologiyalarni ishlatishdan oldin nafaqat pedagoglar, balki sanitariya-gigiena va psixologlar tekshiruvlaridan so'ng qo'llash tavsiya etiladi.

Turli xil yo'nalishlarga mo'ljallangan ishlatish dasturlari foydalanuvchilar oldida bilim olishning hamma sohalarida keng imkoniyatlarni yaratadi. Ta'lim oluvchi nafaqat tayyor informatsiya bilan ishlaydi, balki o'zi ham maketlar yaratish imkoniyatiga ega, matematik va iqtisodiy masalalarni ishlashi, turli xil vaziyatlarni modellashtirishi, tabiiy fanlar, iqtisodiyot, ekologik va gumanitar fanlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi mumkin.

Masofaviy o'qitishning kelajagi porloqdir, chunki masofadan o'qitish kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. O'qitish jarayonining kompleks ravishda olib borilishiga katta ahamiyat beriladi. O'qitish jarayonlari uchta asosiy funksiyani bajaradi. *Ma'lumot beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi*. O'qitish jarayonining ko'rgazmali olib borilishida kompleksli o'qitish, pedagogik jarayonning hamma asosiy funksiyalari o'qitish vositalari orqali amalga oshiriladi. O'qitish

vositalaridan kompleks foydalanishning samaradorligi ularni qo'llashda ratsional jihozlashga qo'yilgan aniq talab va tavsiyalar quyidagicha:

- ko'rgazmali qurol, tarqatma material va darsda qo'llanilayotgan o'qitish vositalarini keragidan ortiqcha qo'llamaslik;

- darsda qo'llaniladigan vositalar (plakat, sxema, model, maket, mulyaj va boshqalar), har doim oldindan ko'rib chiqib tanlab olingan bo'lishi va foydalanish tartibida tayyor bo'lishi;

- texnik vositalar va boshqa ko'rgazmali qurollarni oldindan ishlatib ko'rish;

- individual qo'llash uchun tanlangan didaktik ko'rgazmali qurollar va boshqa qo'llanmalar hamma ta'lim oluvchilarga etarli bo'lishi;

- har bir didaktik materialning qo'llanish maqsadlari va o'rnini aniq rejalashtirib olish.

Masofadan o'qitish o'quv materialini oliy darajada olib borish va o'quv materialini translyasiya qilish imkoniyatini beradi. Masofadan o'qitishni tashkil qilish turlari:

- saqlab qo'yilgan o'quv mahsulotini kompyuter o'qitish vositalari yordamida uzatish:

- turli xil masofada joylashgan sinf va guruhlariga bitta mashg'ulotni uzatish:

- fan arboblari, pedagog novatorlar, metodistlarning ma'ruza va mashg'ulotlarini uzatish:

- telekonferensiyalar, munozalar:

- o'quv uslubiyot materiallarining almashinuvi.

Telekommunikatsiya tizimlari yangi pedagogik va axborot hamda turli sohalardagi kasbiy bilimlarni eng qisqa vaqtda uzatish imkoniyatini beradi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, o'qitishning yana bir yo'nalishini, ya'ni - media o'qitishni vujudga keltiradi. Bunda ta'lim oluvchilar turli xil ommaviy axborot vositalarini (gazeta, jurnal, TV, kino, radio, video va boshqa) egallab olishga tayyorlash yo'nalishida olib boriladi.

13.5. O'qitish jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish yo'llari

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati

shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida etakchi o'rinni egallamoqda.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie)dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

1. O'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

2. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish asosiy yo'nalishlaridan biri va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir.

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar - ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi. Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni texnologiyani) boshqarishning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining asosini quyidagi uchta texnika yutug'i tashkil etadi:

1. Axborotning mashina o'qiydigan tushunchalarda jamlash muhitining paydo bo'lishi (magnit, lentalar, kinofilmlar, magnit disklar va h.);

2. Axborotni er sharining istalgan nuqtasiga vaqt va masofa bo'yicha muhim cheklashsiz etkazishini ta'minlovchi aloqa vositalarining rivojlanishi, aholining aloqa vositalari bilan keng qamrab olinishi (radio

eshittirish, televidenie, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, yo'ldosh aloqa, telefon tarmog'i va h.);

3. Axborotni kompyuterlar yordamida berilgan algoritmlar bo'yicha avtomatlashtirilgan ishlab chiqish imkonini (saralash, tasniflash, kerakli shaklda ifodalash, yaratish va h.) oshirish.

Axborot texnologiyalari, birinchidan, axborotning sirkulyasiyasi va ishlov berish majmui, ikkinchidan, bu jarayonlarning tasviridir.

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

-har bir odamga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan o'quvchi va talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamolotga etkazishga intilishni shakllantirish;

-voqea va hodisalarni kompleks o'rganishni, texnika, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash;

-o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy dinamik yangilash.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. Texnik muammolar – bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron hisoblash va mikroprotsessori texnikasiga qo'yiladigan talablarni, uni qo'llash xususiyatlarini belgilaydi;

2. Dastur muammolari – bular ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi;

3. Tayyorgarlik muammolari – bular o'qituvchi va o'quvchi, pedagog va talabalarning hisoblash texnikasidan foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri kompyuter texnologiyalari an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayonida joriy etila boshladi. U o'zining asosiy mazmuni va metodlari bo'yicha mazkur texnologiyalarga yo'naltirilmagan va ularga ehtiyoj sezmaydi.

Umuman olganda, ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular ko'p xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga

etkazish bilan bog'liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- ta'limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va kommunikatsiya vositalari;

- ta'lim jarayonini tashkil etish uchun unga mos tizimli va amaliy dastur ta'minoti;

- ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar.

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot ehtiyojlari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, zamonaviy ta'limning yangi shakl, vosita va usullaridan foydalanish mexanizmini yaratishni o'z zimmasiga olmog'i talab etiladi. Bugungi kunda turli tipdagi ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta'limning o'rnini va darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlarda o'qitish vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish taqozo qilinadi. SHundagina ta'lim jarayonining natijalari fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qila oladi. Ushbu bobda o'quv vositalarining tavsifnomasi, ishlab chiqarishja o'qitish vositalari, ekran va tovushli ekran o'qitish vositalari, o'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari, axborot texnologiyalari xususida atroflicha fikr yuritilgan va bob bo'yicha juda ko'p axborotlar o'rin olgan.

O'z-o'zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. O'qitish vositalariga nimalar kiradi?
2. Hozirgi zamon o'quv vositalariga misollar keltiring?
3. Tabiiy va moddiy obyektlarga nimalar kiradi?
4. Ekran va ekran tovushlik o'qitish vositalari haqida fikr bildiring?
5. Axborot texnologiyalariga ta'rif bering?
6. Masofaviy o'qitish deganda nimani tushunasiz?
7. O'qitish vositalari qachondan boshlab ishlatilyapti?
8. Telekonferensiya deganda nimani tushunasiz?
9. Virtual stend nima va unga misol keltiring?
10. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi haqida fikr bildiring?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta’limiy- axloqiy qarashlar.-T., 2005.
3. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi. - T., Istiqlol.-2003.
4. O‘. Tolipov, M. Barakaev, SH.SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma’ruzalar matni). – T.: TDIU, 2001.
5. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996.
6. G‘aybullaev M. va b.q.. Pedagogika. - T. 2000.
- 7.N.Xo‘jaev va boshqalar. Pedagogika asoslari. - T.: TDIU, 2003 .
8. Xudoyqulov X.J. “Pedagogika.Psixologiya”.-T.: Dzayn-Press. 2011.
9. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002.
10. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.
11. www.bilimdon.uz. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asosiy veb sayti.

14-MAVZU: KASB TA'LIMIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

Reja:

- 14.1. Kasbiy pedagogikada innovatsion texnologiyalar
- 13.2. O'qitish texnologiyalari majmuaviy interaktiv tizim sifatida
- 14.3. Seminar darslarini tashkil etishda interaktiv metodlar
- 14.4. O'qitishda yangi texnologiyalarni loyihalashtirish
- 14.5. Pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo'llash

Tayanch so'zlar: Pedagogik texnologiya, innovatsiya, interaktiv usullar, didaktik o'yinlar,

14.1. Kasbiy pedagogikada innovatsion texnologiyalar

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinligini kafolatlovchi jamiyatni ma'naviy yangilaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantiradigan va uni jahon hamjamiyati darajasiga ko'tarib, uzviylikni ta'minlaydigan ochiq demokratik huquqiy davlat qurmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyoti va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Ta'limga 3 xil yondashuv

Ma'lumki pedagogikada talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir necha o'qitish uslublari ishlab chiqilgan; muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rollar bajarish, mavzuiy o'qitish va hokazo. Ammo ular xalq ta'limi tizimida keng qo'llaniladi deb bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha, buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishni, yuksak kasbiy mahoratni, ijodiy yondashuv va ko'p vaqt sarflashni talab qiladi. Odatda, har bir bunday mashg'ulot ssenariysi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir.

Ta'limda og'zaki - ko'rgazmali yondashuv juda katta tajribaga ega va qismlarga ajratilib ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim tizimida ulkan xizmat ko'rsatdi, biroz bo'lsa-da, takomillashuvni davom ettirmoqda, ammo bu

takomillashuv yondashuvning qonuniyatlari doirasida cheklangandir. Jadal sur'atlar bilan o'sib borayotgan fan va texnika talablari ta'lim tizimidagi islohotlar raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish istaklarini qondirishga bo'lgan jamiyat ehtiyojlari hamda o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tug'ilishiga olib keladi.

O'zbekiston pedagoglari pedagogik texnologiya bilan etarlicha tanish bo'lmasada, bu holatni tuzatishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Ko'p bosqichli ta'lim tizimida, yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubiyat bo'yicha olib borilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohotlarni respublika pedagoglari ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan mustahkamlashlari zarur. Avval ta'kidlanganidek, buning uchun pedagoglarimizni o'quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o'rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyadan foydalanish bilan bir qatorda uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi;

- ta'limda umummaqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umummaqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchilarning bilim darajasini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o'quv tadbirlari majmuasi (bu bosqichda o'quvchilar bilan muloqat asosida ta'limga joriy tuzatish) kiritilishi lozim;
- natijani baholash.

Ta'limga texnologik yondashuv

Tarbiyalash texnologiyasi - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni,

tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. SHu bois professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarni hukumat siyosatiga muvofiq tarbiyalash texnologiyalarini egallashi dolzarbdir.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi - har tomonlama yondashuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga uch yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi - tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga.

2. Tarbiya (tashqi pedagogik ta'sir) va o'z-o'zini tarbiyalashning uzviyligi tufayli ijobiy natijaga erishiladi.

3. Tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha vosita va tadbirlarning muvofiqlashtirilishi; ijtimoiy institutlar, birlashmalar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, oila, maktab, huquq targ'ibot idoralari, jamoalar - har tomonlama yondoshuvning zaruriy shartidir.

4. SHaxsning ma'lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishda va ko'p yoqlama bo'lishi, ular bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviy holda olib borishi zarur.

5. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqoza qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillar va ularning o'zaro ta'siri inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. SHu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish lozimligi uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni

tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Ta'lim texnologiyasi reproduktiv dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni talabalarga tipik holatlardagi harakatlarni egallashga yo'naltirilgan. Reproaktiv bilim berish jarayonida mashg'ulot aniq bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lagida talabalar bilishi va o'rganishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatiladi. O'quv materiallari mashg'ulot maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan va talabalarining o'quv jarayonida aniq savollarga konkret javoblar topishi asosida qurilgan bo'lib, savol va javoblar o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lishi natijasida bir butunlikni tashkil qiladi.

Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish jarayonida talabalar faoliyatining samarali shakl va uslublari, ularning mustaqil ishlarini tashkil qilish kerak. Bunday mustaqil topshiriqlar talabalarni o'ylashga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o'z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o'rgatadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tish jarayonida muammoli vaziyat talabalarining qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olingan holda tashkil qilinadi. Muammoli vaziyatni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsadni amalga oshirish uchun vaziyatni baholashda talabalarining og'zaki va yozma javoblaridan vaqti-vaqti bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion texnologiyalar asosida bahs-munozara darslari, aqliy hujum o'yinlaridan keng ko'lamli bilim, tajriba va mustaqillikka asoslangan holda mashg'ulotlar tashkil etilsa, quyidagi natijalarga erishiladi:

➤ mashg'ulotlar davomida talabalarining mustaqilligi, ixtiyoriyligi va erkinligiga erishiladi;

➤ talabalar o‘z fikr va qarashlarini himoya qilishga o‘rganadilar, ularni boshqalarga etkazish mahoratini egallaydilar;

➤ talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishga o‘rganadilar va ularda o‘zaro hurmat hissi ortib boradi;

➤ talabalar o‘quv faniga doir materiallar bilan mustaqil ishlashga, izlanishga, o‘qitishning samarali shakl va uslublaridan ijodiy foydalanishga odatlanib boradi;

➤ talabalarda bilimlarni mustaqil egallash, ijodiy fikr yuritish va erkin fikrlash malakalari shakllanadi;

➤ o‘quv mashg‘ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishga, o‘zaro fikr almashishga, pedagogik faoliyatni tanqidiy tahlil qilish va taqqoslashga o‘rganadilar.

Bugungi kunda tarkib topgan ta‘limning eng muhim elementlari qadimdan shakllanib kelgan va o‘zining ahamiyatini hozirda ham yo‘qotmagan. Ta‘lim maqsadi, mazmuni, shakllari, uslub va vositalari pedagogikada ta‘lim jarayonlarini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an‘anaviy kategoriyalar bo‘lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma‘lum bir predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo‘naltiruvchi pedagogik va o‘quv faoliyatining qonuniyat va mezonlari tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Pedagogik jarayonning mohiyati – o‘qituvchining ta‘lim oluvchi bilan birgalikdagi faoliyatida o‘z aksini topadi, bunda pedagog ta‘lim oluvchiga qiyinchiliklarni engib o‘tishi uchun yordam beradi. Pedagogik yordamning mohiyati pedagogik jarayonning yo‘naltirilganligi va tavsifida hamda shaxsni shakllantirish va tarbiyalashda hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. *Bu vazifalar eslatgan, ko‘rsatgan, tushuncha bergan, yo‘naltirgan, haqqoniylashtirgan, maslahat bergan, bartaraf etgan, hamdardlik qilgan, talabchanlikni qo‘llab-quvvatlagan kabi holatlarda namoyon bo‘ladi.*

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta‘lim jarayonini rejalashtirish, tashhis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta‘limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejiladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samaradorligi demakdir. Pedagogik texnologiyaning tasdiqlanuvchanligi - ishlangan model boshqa pedagoglar qo‘llaganda ham xuddi o‘shanday samara-natija berishi kerakligini bildiradi. Bir so‘z bilan aytganda, ta‘lim jarayoniga

yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tadbiriq etilsagina, ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi, ya'ni: talabaniing talabi, moyilligi, istak xohishi, uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;

- talabaniing o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;

- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;

- unda umr bo'yi o'z bilimini o'zigina boyitishi mumkinligiga ishonch paydo bo'ladi;

- erkin fikrlash malakasi shakllanadi;

- shaxs jamiyatda o'zining o'rnini tezroq topib olishiga muhit yaratadi.

Buning uchun biz talabaga «sen buni bilishing kerak» degan majburlovchi da'vatdan «menga bu zarur va men buni bilishga uni hayotda qo'llashga qodirman» degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'quv mashg'ulotlari samaradorligini, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, o'qitishda masofaviy ta'lim va kompyuter savodxonligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

14.2. O'qitish texnologiyalari majmuaviy interaktiv tizim sifatida

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – majmuaviy interaktiv tizimlar bo'lib, ular o'z ichiga ta'lim maqsadlari bilan belgilangan kasbiy ko'nikma va malakalarning, shaxs xislatlarining o'rganuvchilar tomonidan egallanishi hamda bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to'plamini qamrab oladi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi, mazmuni tanlash va ishlab chiqishga, ta'lim jarayonlarini tashkil qilishga, ta'lim metod va vositalarining belgilanishiga, shuningdek, o'qituvchilarning malaka darajasiga, erishilgan natijalarni baholash metodiga asoslanishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy qo'llanilishi o'quv jarayoni mohiyatini va uning texnologiyasini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» har bir o'qituvchining oldiga dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'ydi. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda

o'qitish amaliyotiga zamonaviy va jahonning eng ilg'or ta'lim texnologiyalarini qo'llashni davr taqozo etmoqda.

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limni rivojlantiruvchi yangi tamoyillarga asoslangan bo'lib, u o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltirilmog'i kerak. Yangi pedagogik texnologiya markazida ta'lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning sub'ekti va obyekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi-talaba turadi. SHunday ekan, bu ikki shaxs o'rtasidagi o'zaro muloqot, hamkorlik, bir-biriga ko'rsatadigan ta'sir jarayonlari yuksak darajada, zamonaviy va milliy talablar asosida bo'lishi lozim. Buning uchun ta'lim jarayoni, o'qituvchi va ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari o'quvchi-talabani aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi-talaba shaxsiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini vujudga keltirish, o'quvchi-talaba faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.¹

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan yana biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat etish, ular tomonidan egallangan bilim, malakalar darajasini baholash, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'planib, interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. 1996 yildan buyon mamlakatimiz ta'lim tizimi xodimlari o'rtasida interfaol metodlar va ulardan ta'lim jarayonini tashkil etishda foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlar targ'ib etib kelinmoqda.

Biz amaliyotda qo'llagan va ijobiy natija bergan texnologiyalardan biri bu - «BLITS-O'YIN» metodidir.

Ushbu texnologiya talabalarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Bu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar.

☞ Ўқув жараёнида илғор педагогик ва ахборот технологияларини қўлаш йўллари. – Т.: ТДИУ, 2005. 60-бет.

Maqsad: «Blits-o‘yin» texnologiyasi talabalarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so‘ngra o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo‘la olishga yordam beradi.

O‘tkazilish jarayoni

1-BOSQICH.

- o‘qituvchi ushbu o‘yin bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida talabalarga tushuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt ajratilishi, talabalar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

- talabalarga alohida-alohida tarqatma material beriladi;

- o‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani talabalarga tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda berilgan harakatlarni ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash, belgini esa qog‘ozdagi alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan ko‘rsatish kerakligini tushuntiradi;

- berilgan topshiriq avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2- BOSQICH

- o‘qituvchi birinchi berilgan topshiriqni har bir talaba tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi va tushunmovchiliklar yuzaga kelganda yordam ko‘rsatadi;

- har bir talaba tarqatma materialdagi «**yakka baho**» bo‘limiga shu erda berilgan harakatlardan o‘zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya’ni berilgan bir nechta harakatdan, uning fikricha qaysi biri birinchi bo‘lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo‘lishini belgilaydi, o‘qituvchi bu vazifani bajarish uchun talabalarga 10 daqiqa vaqt beradi.

3-BOSQICH

- o‘qituvchi talabalardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so‘raydi. 3 kishilik guruhlar o‘quvchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo‘yicha tashkil etilishi mumkin;

- kichik guruhlardagi talabalarning har biri o‘z qog‘ozidagi yakka baho bo‘limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil bo‘lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, ta’sir o‘tkazib kelishgan holda ularga tarqatilgan qog‘ozdagi «**guruh bahosi**» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar;

- o'qituvchi kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir talaba faoliyatini kuzatadi, bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

4-BOSQICH

Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, o'qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi, ya'ni talabalarga tarqatilgan qog'ozlardan «**to'g'ri javob**» bo'limini topishni va unga o'qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni so'raydi.

5-BOSQICH

O'qituvchi «**to'g'ri javob**» bo'limida berilgan raqamlarning «**yakka baho**» bo'limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya'ni kattadan-kichikni ayirgan holda «**yakka xato**» bo'limiga chiqqan farqni yozishni so'raydi. «**yakka baho**» bo'limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqib umumiysini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

6-BOSQICH

Xuddi shu tartibda «**to'g'ri javob**» va «**guruh bahosi**» o'rtasidagi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni «**guruh xatosi**» bo'limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

7-BOSQICH

O'qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo'yicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida sharhlaydi.

IZOH: Bajarilgan vazifani baholashning yana bir turi, quyidagicha: talaba-o'quvchilarning javoblari o'qituvchi tomonidan berilgan «**to'g'ri javob**»ning yarmidan ko'piga to'g'ri kelgan bo'lsa, demak, «qoniqarli», 75%ga to'g'ri kelgan bo'lsa, «yaxshi», 100%ga to'g'ri kelgan bo'lsa «a'lo» deb belgilash mumkin.

Umuman olganda, hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari o'qitishning asosiy vositalari bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki bularning qo'llanilishi talabalarning o'quv jarayoniga faol jalb kilinishini ta'minlaydi. SHuning uchun ta'lim texnologiyalari bazasida kompleks o'qitish vositalari konsepsiyasi ishlab chiqilishi zarur bo'lib, mazkur konsepsiya doirasida yangi axborot texnologiyalarini qo'llanilishi o'quv jarayonini samarali kechishiga olib keladi.

14.3. Seminar darslarini tashkil etishda interaktiv metodlar

Seminar musobaqa darslarini tashkil etish usuli 1976 yildan beri qo'llanilib kelinadi. Bu usul talabalarning qiziqishini va faolligini oshiradi. Bu usulga tayyorgarlik ko'rish uchun talabalar oldindan ogohlantiriladi va mavzu e'lon qilinadi. Talabalar guruhi ikki kichik guruhchalarga bo'linadi. Ularning har biri mavzu bo'yicha savollar tayyorlab kelishi lozim. Seminar boshida talabalar musobaqa shartlari bilan tanishtiriladi. Bunda faqat javoblar uchun emas, balki savollarni to'g'ri va aniqligi uchun, qo'shimcha va tuzatishlar kiritish uchun ham ma'lum ballar belgilanadi. Guruh talabalarining barchasi faol qatnashishlari uchun esa minus ballar ham ko'rsatilishi mumkin, masalan, +3 dan -3 gacha noto'g'ri javoblar va savollar uchun ballarni ayirish usuli ishlatilishi mumkin. Musobaqa davomida doskaga to'plangan ballar yozib borilishi mumkin. Seminar oxirida g'olib guruh qatnashchilari qo'shimcha ballar bilan rag'batlanishi mumkin. Pedagog esa sinchkovlik bilan javoblarni eshitib, har bir talabaga baho qo'yib borishi lozim. Bu usul bilimlarning yanada mustahkamroq egallanishiga, nutq madaniyatining oshishiga, savollarning to'g'ri tuzilishiga, o'z fikrini bayon etishga o'rgatadi. Eng muhimi esa talabalarda mustaqil bilimlarni egallash, qidirish, mavzuga ijodiy yondashish oshadi. O'rganilayotgan mavzu har tomonlama tahlil etiladi va hayotiy jarayonlar bilan bog'lanadi.¹

Kichik guruhchalar usuli: Bu usulda guruh talabalari bir necha guruhga bo'linadi, har bir guruhda 4-6 tadan talaba bo'lishi mumkin. Har bir guruhning rahbari tayinlanadi. Ularga oldindan vazifa beriladi. Guruh talabalari seminarga birgalikda tayyorlanib o'z savollarini to'liq ochib berishga harakat qilishlari kerak. Boshqa guruhlar asosiy ma'ruzachiga savollar beradilar, savollarga guruhning talabalari javob berishda yordam beradilar. Asosiy ma'ruzachi himoyasidan so'ng opponentlar savolni yanada to'liqroq izohlab berishlari kerak. Uchinchi va to'rtinchi guruh talabalari o'z fikrlarini bildirgach, tadqiqot olib borgan guruhga baho qo'yib, unga izoh berishlari kerak. Bunday usulda ish olib borish uchun guruhlarni tuzishda talabalarning bilimi teng bo'lishiga harakat qilish kerak. Guruh rahbari qilib yaxshi o'zlashtiruvchi talabalarni tanlash lozim. Bu usulda talabalarning mustaqil ishlashi, ijodiy yondashishi, jamoa bo'lib ish bajarish kabi malakalari rivojlanadi. Talabalarning

¹ М.Хошимова. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. (Маърузалар матни). – Т.: ТДИУ, 2005.

o‘zaro munosabati chuqurlashadi va individual xususiyatlar namoyon bo‘lishi ortadi.

Ma’lum bo‘limlar tugagach esa, bo‘lim yuzasidan turli musobaqalar o‘tkazish mumkin: ekspress metodi, KVN metodi (Slaboe zveno), bo‘sh zanjirlarini topish metodi, munozara metodi, muammoli vaziyatlar metodi va boshqalar.

Iqtisodiy ta’limda masala, grafik va modellashtirishning ahamiyati. Iqtisodiy ta’limda ma’ruza va seminar darslarida iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish turli masalalarni ishlash bilan birgalikda olib borilishi samaradorlikni oshiradi. Ma’ruza davomida 2-3 yillik qisqa muddatda ishlanuvchi masalalarni ishlash, seminar darslarida va uy vazifalarini rejalashtirishda esa bir oz murakkabroq masalalarning echimini topishga da’vat etiladi (Masalan: qo‘shimcha qiymat qonuni). Sxema, grafiklar ayniqsa iqtisodiyotda keng qo‘llanilishi zarur bo‘lgan ko‘rgazmali vosita hisoblanadi. Chunki ular talabalar tasavvurini shakllantirishning xotirada ma’lumotlarni aniq saqlanib qolishiga yordam beradi.

Ammo sxema va grafiklarni tuzishda o‘zaro bog‘liqlik, jarayonning izchilligi va eng muhim mantiqiylikka e’tibor qaratilishi kerak. Grafiklar jarayonning rivojlanishini o‘zida to‘g‘ri aks ettirishi lozim. Shundaygina ular talabga javob beradi. Sxemalar mantiqiylik va izchillik asosida tuzilishi va ish jarayonini aniq ko‘rsatishi talab etiladi.

14.4. O‘qitishda yangi texnologiyalarni loyihalashtirish

O‘qitish texnologiyasini loyihalashni pedagogik vazifaning qo‘yilishi va uni hal etishga qurish asosida qaraymiz.

1. Pedagogik vazifaning qo‘yilishi.
2. Didaktik jarayonni ishlab chiqish.

Pedagogik vazifaning belgilanishi quyidagilarni qamrab oladi:

- ta’lim maqsadlarini tahlil qilish va shu asosda o‘quv predmetining mazmunini aniqlash;
- o‘quv predmeti mazmunini tuzilmasini ishlab chiqish va uni o‘quv elementlari tizimi ko‘rinishida ifodalash;
- o‘quv elementlarini o‘zlashtirish darajalarini belgilash;
- ta’lim oluvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash, bu ko‘rsatkich o‘quv predmetining mazmuni asoslanadigan o‘quv materialini o‘zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi;

- o‘quv-moddiy baza hamda ta’limning tashkiliy shakllariga qo‘yiladigan chegaralarni belgilash.

vazifalarning hal etilishini ta’minlovchi o‘qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o‘qituvchi faoliyati ta’limning metod, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda pedagog faoliyati uchta asosiy tashkil etuvi bilan tavsiflanadi: boshqarish turi, axborot almashinuv jarayonining turi, axborotni uzatish vositalari tiplari va bilish faoliyatini boshqarish. O‘qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish konsepsiyasiga asoslanib, uni tashkillashtirishning quyidagi mantiqiy ketma-ketligini qurish mumkin. Dastlab o‘quv materialini mazmunining tavsifi, uni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad hamda pedagogik vazifaning qo‘yilish shartlari tahlil etiladi. So‘ngra o‘qitishning mos ravishdagi metodlari hamda ta’lim oluvchilar bilish faoliyatini boshqarish sxemasi belgilab olinadi. SHu asosda o‘qitish vositalari ro‘yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metodlar va ta’lim vositalari tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg‘unlashtiriladi, ya’ni texnologiya ishlab chiqiladi.

Ta’lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favquddolda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. O‘rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib loyihaga yangi o‘zgarish, qo‘shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o‘quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko‘ra mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha axborot to‘plash, to‘plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, talabalarning bilim va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko‘rsatish, guruhdagi har bir talabaga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo‘shimcha topshiriqlarni berish, ularni o‘quv materialini yanada atroflicha o‘zlashtirishga rag‘batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi talabalarning ma’lumot va ta’lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o‘zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o‘zlashtirgan o‘quvchi-talabalarni ogohlantirish, qo‘shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

Pedagogik texnologiya ta’lim maqsadini aniq o‘rnatishdan boshlab uning natijalarini baholashgacha bo‘lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining

texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko'rsatgan.¹

1. Tashxislanuvchan o'rnatilgan maqsad – talabalar tomonidan didaktik, jarayon mahsuli sifatida o'zlashtirilgan aniq o'lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.

2. Ta'lim mazmunini o'quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraksiya pog'onalarining va axborotlarni o'zlashtirish darajasining hisobga olinishi.

3. O'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichlarining etarlicha mantiqiy qat'iyatlanligi – didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi.

4. O'quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.

5. O'qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo'lgan chetga chiqish chegarasining ko'rsatilishi.

6. Talaba va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy, kasbiy mohiyat va boshqalar).

7. O'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

Yuqorida berilgan ko'rsatkichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, ularning amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, talabaning nufuzini oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar talimi tizimida ta'lim texnologiyasi asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar an'anaviy pedagogik amaliyotdan qator xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

- mashg'ulotlar talabalarning o'quv maqsadlarini oydinlashtirishdan boshlanadi;

- ta'lim-tarbiya jarayoni oldindan qayd etilgan natijaga mo'ljallab tashkil etiladi;

- har bir talaba o'z faoliyati xususiyatlariga mos keladigan sur'atda ishlaydi;

- jamoa a'zolarining har biri o'zlari erishgan natijadan tez-tez ogohlantirib turiladi; erishilgan natija ta'limning har bir bosqichida etalona birlashtirib turiladi;

- natija talabalarning asosiy o'quv maqsadlariga ko'ra aniqlanadi;

¹ Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Т.: Молия, 2003. 30-бет.

- o‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirgan talaba keyingi mavzuni o‘rganishga o‘tadi;

- etalondan past o‘zlashtirgan talabalar uchun ta’lim o‘xshash sharoitlarda takrorlanadi;

- talaba uchun o‘qish-o‘rganish harakatiga teng maqsadlarni amalga oshirishdan boshlanadi;

- talaba harakatga teng maqsadlardan oraliq maqsadga – bilimlarga, undan umumiy o‘quv maqsadiga qarab boradi;

- harakatga teng maqsaddan umumiy o‘quv maqsadiga qarab borish o‘qish-o‘rganishning siklligini ta’minlaydi;

- yakuniy (nazorat) baho o‘quv kursi to‘liq o‘rganilgach chiqariladi.

Bugungi kunga kelib, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Demak, buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar esa, ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyalarini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi.¹

Pedagogik texnologiya usulining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ta’limning rejalashtirilgan maqsadiga erishishni kafolatlaydigan o‘zlashtirish jarayoni loyihalashtiriladi.

Maqsadni ko‘zlash, joriy natijalarni tekshirib borish, o‘quv materialini ayrim bo‘laklarga ajratish – o‘quv jarayonini tashkil etishning bu belgilari - qayta ishlab chiqiladigan ya’ni takrorlanadigan ta’lim sikliga xos xususiyatlardir.

Boshqacha aytganda, takrorlanadigan ta’lim siklining asosiy qismlari quyidagilar:


- ta’lim maqsadlarini umumiy belgilash;
- umumiy maqsadni oydinlashtirib, o‘quv maqsadlariga aylantirish;
- o‘quv amallari majmui;
- ta’lim natijasini baholash.

☞ Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. – Т.: ТДПУ, 3-бет.

O‘quv jarayoni bunday takrorlanadigan shaklga ega bo‘lgani uchun modul xarakterini kasb etadi, alohida qismlarga ajratiladi, ular turli mazmunga va umumiy tuzilishga ega bo‘ladi.

2-chizma

O‘quv jarayonining tuzilishi
xatoni tuzatish



Aslida bu, pedagogik faoliyatning siklli algoritmi bo‘lib, uni ta’lim mazmunining yangi-yangi bo‘limlariga, mavzulariga qo‘llash mumkin.

Ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyaga binoan tashkil etish uchun loyihalashtirish bosqichida yuqori malaka talab etiladi, etakchi pedagoglar guruhi pedagogik texnologiya qoidalari va prinsiplari asosida metodik materiallarni ishlab chiqadi Bunday materiallar mavjud bo‘lsa, o‘qituvchining vazifasi asosan tashkiliy ishlar va maslahat berishdan iborat bo‘ladi.²

O‘quv jarayonining hamma bosqichlarida asosiy e’tibor ta’lim natijasiga erishishga qaratiladi.


Professor M.Ochilov pedagogik texnologiya usuliga quyidagilarni kiritgan:

1. Ta’limning umumiy maqsadlari, muhim masalalari tasnifi.
2. Oydinlashtirilgan maqsad (o‘quv vazifa)larini ishlab chiqish.
3. Ta’limning maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish.
4. Maqsadlarga erishish usullari.
5. Ta’lim maqsadlariga erishilganini baholash.

Bularning har biri pedagogik amallarning qulaylashtirilgan tizimidir.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o‘rganayotgan mutaxassislarining fikriga ko‘ra, pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq, hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan TSO, kompyuter, masofali o‘qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish demakdir.

▣ Очиллов М. Янги педагогик технологиялар. - Қарши.: Насаф, 2000. 33-бет.



Yuqorida ta'kidlaganimizdek, pedagogik texnologiyaning asosiy negizi-bu o'qituvchi va o'quvchi-talabning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik faoliyatini tashkil etgani holda, ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrga ega bo'lib, ijodiy faoliyat yurita olsalar, izlansalar, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi tomonidan esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratilsa, bularning barchasi, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmeti o'ziga xos texnologiyaga ega, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.¹

¹ Ишмухамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари.- Т.: ТДПУ, 2004. 6-бет.

14.5. Pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo'llash

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning quyidagi asosiy yo'nalishlarini anglab olmoq lozim:

- ta'lim mazmunini, tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi-yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Evropa va AQSHda, 60-yillarda paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.SHcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayez, A.Keyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil kilingan.

Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I.Prigojin innovatsiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka-tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar:

yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o‘zaro ta‘sirining mikrosathi.

Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta‘siri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashidir.

Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o‘lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonning sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g‘oya tug‘ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya‘ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o‘zining yangiligini yo‘qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo‘ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo‘llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

7. V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalari bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga, yangilik kiritishning oddiy ishlab chiqishi kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o‘zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga, yangilikni keng ko‘lamda ishlab chiqishga taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham, ichki mantiq ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o‘zaro ta‘sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. SHuningdek, u pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub‘ektiv yangilikka qiziqish uyg‘otadi.

Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik aniq obyektida yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Subyektni yangilik ma'lum obyekt uchun obyektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

«Innovatsiya» - bu ta'lim: ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon.

V.I.Zagvyazinskiy «yangi» tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi «yangi» faqatgina bu g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlar bo'lib, o'zgarib bo'lib, o'zgarib turuvchi vaziyatda va sharoitda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.YUsufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.YUsufbekova innovatsion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok – yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi

e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi: faoliyat tuzilmasi-motiv-maqсад-vazifa-mazmun-shakl-metodlar-metodika komponentlari yig'indisi;

- sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

- mazmun tuzilmasi–o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;

- bosqichlikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi-yangilikning paydo bo'lishi-ildam-o'sish-etuklik-o'zlashtirish-diffuziya (singib ketish, tarqalish) – zamonaviylashtirish;

- boshqaruv tuzilmasi–boshqaruv harakatlarining to'rtta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish:

- tashkiliy tuzilma–diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni, tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;

- nihoyat amalga oshish qonuni;

- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;

- qoliplashtirish (streotiplashtirish) qonuni;

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi–talaba asosiy figuraga aylanadi.

SHuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va i zlanishga majbur etish;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi-talabani bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talaba o'rtasida hamkorlikdagi faoliyatining uzluksizligi ta'minlash.

O'qituvchi va o'quvchi-talabani kutilgan natijaga erishishlari qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

SHu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, TSONi, eng asosiysi, o'quvchi-talabani imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkitn. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas,

chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar va usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq tayyorlangan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat va iqtisodiyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilgan.

SHu jihatdan ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlari bo'yicha ko'zda tutilgan iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiyani takomillashtirish, uni o'quvchi-talabalar ongiga singdirib borib, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muammosi dolzarbdir.

CHunki har bir o'quvchi-talaba bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir davrda – uni o'rab turgan iqtisodiy voqelikni, unda kechayotgan jarayonni anglashi, tadqiq va tahlil qilib, xulosalar chiqarish imkoniga ega bo'lishi lozim. Bu esa har bir fuqarodan iqtisodiyot nazariyasining asoslaridan xabardor bo'lishini, uni amalda joriy qilish yo'l va vositalarini talab darajasida o'zlashtirishini taqozo etadi. Bu masalalar asosan, o'quv muassasalarida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tarbiyaning bosh maqsadi – yoshlarda iqtisodiy savodxonlikni, iqtisodiy ongni, iqtisodiy madaniyatni yuksaltirishdan iboratdir. Bu esa shaxsning kamol topish faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog'liq, nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi, o'rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir.

O'quvchi-talabalarning bosqichma-bosqich uzluksiz ta'limi jarayonida, xususan, iqtisodiy bilim asoslarini o'rganish mobaynida ularning iqtisodiy tafakkurlari ham shakllana boradi. Ular quyidagi bilimlar majmui bo'lib xizmat qiladi: shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, aniq reja va dasturlar tuzib, o'ziga xos uslub va metodlar asosida amalga oshirishda; shaxsning mustaqil faoliyatida samarali o'rin tutadigan aniq iqtisodiy tushunchalarni; iqtisodning siyosiy va bozor munosabatlari bilan bog'liq qonuniyat asoslari va ulardan amalda foydalanish yo'l-yo'riqlarini; mustaqil faoliyat ko'rsatishda zarur bo'ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuini o'zlashtirishni; hayotda qaysi sohani tanlashidan qat'i nazar, ehtiyoj

darajasida iqtisodiy tayyorgarlikni o'zida shakllantirishni; iqtisodiy bilim asoslaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq holda foydalana olish shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlaridan biri deb qarashni; iqtisodiy bilim asosidan xabardorlikni o'z faoliyati davomida jamiyat va davlat iqtisodiy, huquqiy siyosati asosida namoyon etadi.

Bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda, ma'rifat va madaniyat hamda iqtisodiy sohalarga, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy bilimlar doirasiga ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtlarida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi. Bunda eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

- ta'lim majmui sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini belgilash;

- pedagogik texnologiyaning funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlariga qay darajada mos kelishi va uni baholash mumkinligini ko'rsatib berish;

- pedagogik texnologiyaning majmualar nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l-yo'rig'ini ishlab chiqish.

SHunday qilib, bugungi kunga kelib, jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan-kunga ortib borayotgan bo'lsa-da, biroq ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida umumiy taraqqiyotdan biroz orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdan iboratdir.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

SHu o'rinda ta'kidlash joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida, aniq fanlarni o'qitish uslubi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi kerak.

O'z-o'zini nazorat va tekshirish uchun uchun savollar:

1. Ta'limda «innovatsion jarayonlar» termini nimani anglatadi?
2. Innovatsion faoliyatni shakllantirish shartlarini izohlab bering?
3. Pedagogik texnologiyaga ta'rif bering?
4. Pedagogik texnologiyaning tasniflarini asoslab bering?
5. Muammoli o'qitishning mohiyati nimada?
6. Siz texnologiyalarning qaysi turlarini bilasiz?
7. Interfaol metodga misol keltiring?
8. Zamonaviy o'qitish texnologiyalarining ahamiyatini tushuntiring?
9. Nima uchun pedagogik texnologiya loyihalani (misollar yordamida asoslab bering)?
10. "Blits-o'yin" metodi bo'yicha misol keltiring?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Uzoqov H. va b.q.. Oila etakasi va psixologiyasi. -T., 1992.
2. G'oziev E. Pedagogik psixologiya asoslari.T. 1997.
3. B.Farberman. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000 yil.
4. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar. - T.: Moliya, 2003 yil
5. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. - T.: RTM. 2000 yil.
6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. - T.: TDPU, 2003 yil.
7. Xayitov O. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. - T., 2005.
8. Tursunov. I.Y, .Nishonaliev. U.N Pedagogika kursi. – T.: O'qituvchi, 1997.

9. Tolipov O‘., Barakaev M., SHaripov SH. Kasbiy pedagogika. (Ma‘ruzalar matni).– T.: TDIU, 2001 yil.
10. Xudoyqulov X.J. “Pedagogika.Psixologiya”.-T.: Dzayin-Press. 2011.
11. www.bilimdon.uz. www.glef.org. www.newhorizons.org.
www.rhecherswithoutborders.org. www.thelearningweb.net.
www.inetlibrary.com.

15-MAVZU: KASBIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Reja:

- 15.1. Ta’lim texnologiyasi va uning tuzilishi.
- 15.2. Kasbiy ta’limda axborot texnologiyalari.
- 15.3. Muammoli ta’lim texnologiyasi va uning maqsadi, vazifasi.
- 15.4. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati.

Tayanch so‘zlar: Texnologiya, muammoli ta’lim, axborot texnologiyasi, masofadan turib o‘qitish.

15.1. Ta’lim texnologiyasi va uning tuzilishi

Ta’lim nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, uning samaradorligi pedagog va talaba-o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, mazkur jarayonning tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmi kishilarga bo‘lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan omillarga bog‘liq. Jamiyat o‘zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida ta’lim samaradorligi yuqori bo‘lishini talab etadi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy strukturalar yaratilayotgan hozirgi kunda yuksak malakali va olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o‘zining o‘rnini topadi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov «...shuni yaxshilab tushunib olishimiz zarurki, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish va fuqarolik institutlarini shakllantirish, avvalo, aholi siyosiy, ijtimoiy va davlat hayotida nechog‘lik faol ishtirok etishi bilan uzviy bog‘liq»⁵ deb ko‘rsatdi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g‘oyasiga sodiq bo‘lgan shaxsni shakllantirish kerak.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini shunday tashkil etish kerakki, u bugungi kun yoshlariga chuqur va asosli ta’lim-tarbiya berish bilan birga ularni keng qamrovli fikrlashga o‘rgatsin. Ta’lim jarayonida

⁵ И.А.Каримов. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: “Шарқ” 1997

talabada mustaqil bilim olish ehtiyojining shakllanib borishi hozirgi kun talabidir.

Pedagogik amaliyot va tadqiqotlarda qator ish usullari qo'llab ko'rildi. Ta'limni muammoli tashkil etish, ta'limda o'quvchi-talabalarni faollashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch so'zlariga asoslanish, ta'limni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o'tdi. Lekin bu pedagogik vositalar ayrim o'qituvchilarda samarali natija bersa ham, uni ommaviy yo'sinda ta'lim tizimiga kiritib bo'lmadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda talabalarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni talabalarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya asosida dars o'tishda eng asosiy talab talabanning hayotiy tajribasi avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi. Pedagogik texnologiya o'rganilayotgan soha bo'yicha talabalarda bilim etarlicha bo'lmagan holda ham talabada salbiy kechinmaga o'rin qoldirmaslikni, bu talabanning aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko'rsatilsa, bilimlarni o'zlashtirib olishga talabalarda ishonch hosil qilish tavsiya etiladi.

Mavjud pedagogika fanida dars jarayoniga oid berilgan ma'lumotlarda e'tibor ko'proq yangi bilimlarni bayon etish, uni mustahkamlash va natijasini hisobga olishga qaratilgan. Bilim berishda talabanning avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi etarlicha hisobga olinmagan. Dars rejasida avval o'tilgan mavzuni yakunlab, yangi mavzuga bog'lash taklif etilgan. Lekin shu yangi o'tilayotgan mavzu bo'yicha talabanning bilimini aniqlash, mavzuga xos bo'ladigan dastlabki ma'lumotlarni berish etarlicha amalga oshirilmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarini esga tushirish, jonlantirish yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladi deb ko'rsatadi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash talabani faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi. Mavzuni o'rganishga kirishishda uni erkin suhbat, munozara, aqliy hujum va boshqa shakllarda jonlantirish mumkin.

Pedagogik texnologiya ta'lim amaliyotida 3ta darajada qo'llaniladi:

1. *Umumiy pedagogik daraja.* Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya o'quv-tarbiya jarayonining yaxlit tizimliliigi, ma'lum bir mintaqada, o'quv yurti tomonidan uzluksiz ta'lim

tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llanishining umumiy xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. SHu o'rinda qayd etish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim hisoblanadi. Uning tarkibiga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining obyekti va sub'ekti faoliyatining algoritm-lari kiradi.

2. *Xususiy metodik darajada* pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. *Lokal (modul) darajada* o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, ular bilimni nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. O'zbekistonda pedagogik texnologiya masalalari, asosan, ta'lim doirasida o'rganilmoqda. *Ta'lim texnologiyasi deb*, o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi maqomini o'zgartirish, yangilash yo'li bilan ma'lumot mazmunini va modellashtirish darajalari – o'quv material, o'quv predmetiga pedagogik ishlov berish, o'rganiladigan mavzuni o'quvchi-talabalarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirish, ta'lim natijasini qabul qilingan etalon darajasiga ko'tarish va baholashga oid usul va vositalar, shuningdek, ta'limning tashkiliy shakllarini tushunamiz. Ta'lim texnologiyasi o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning hozirgi yetakchi prinsipi (subordinatsiya) ni chegaralaydi, unda koordinatsiya o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishning etakchi prinsipiga aylanadi. Koordinatsiya ta'limni tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilishning bosh prinsipiga aylanganda o'quvchi-talaba ta'lim jarayonining o'qituvchi bilan teng huquqli sub'ektiga aylanadi, bunda ta'lim jarayonini o'qituvchi va o'quvchi-talaba birgalikda amalga oshiradi.

G'arb mamlakatlaridagi ta'lim texnologiyasining bosh g'oyasi dasturlashtirilgan ta'limga borib taqaladi. Dasturlashtirilgan ta'lim

asoschilaridan biri Berres Frederik Skinnerning ta'kidlashicha, o'quvchi-talabalarning o'quv materialini va uni o'zlashtirishga oid xatti-harakatlari (o'quvchi-talaba faoliyati) pog'onalar (ta'lim bosqichlari)ga ajratiladi, har bir bosqichda o'quv materialining ma'lum bir qismi to'liq o'zlashtiriladi, o'quv materialining mazkur o'zlashtirilgan qismi tekshirilib, keyingi qismni o'rganishga o'tiladi. Demak, pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyili ma'lumot mazmunini to'liq o'zlashtirish taktikasidan iborat bo'lib, u dastavval dasturlashtirilgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti negizida paydo bo'lgan edi.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'pqirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. SHu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashhishlash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

Pedagogning belgilangan o'quv-tarbiya vazifalarini me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida yo'l qo'yiladigan chegaraviy ko'rsatkichlar doirasida bajarish holati ishlash qobiliyati deb atalishi mumkin. Demak, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

Pedagogik nashrlarda pedagog faoliyatini baholash uchun qator ko'rsatkichlar tavsiya etiladi, jumladan:

- pedagogik natijaviylik – pedagog guruhida fan bo'yicha o'zlashtirishning o'rtacha qiymati;
- o'qitishning ilmiylik darajasi – pedagogning o'quv elementlarini fan abstraksiyasi pog'onalari bo'yicha tushuntirishi;
- ta'lim mazmunini metodik tayyorlash – umumiyligi, izchilligi, harakatdaligi, ortiqcha emasligi kabi talablarning e'tiborga olinishi;
- ta'limda u yoki bu natijani qo'lga kiritish yo'llaridan samarali foydalanish – ekstensiv yoki intensiv sharoitda va hokazo.


Umuman olganda, pedagog uchun asosiy kasbiy-me'yoriy ko'rsatkich – bu birinchi navbatda o'z holatini pedagogik jarayonda bunyodkor sifatida his etishi va anglab etishidir. Pedagog o'zining ish faoliyatiga xususiy kasbiy yaroqliligini, pedagogik voqelikdagi o'z

o‘rni baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni talab qilib bo‘lmaydi. Demak, pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir inson o‘zining unga moslanuvchanligini, shu kasbga layoqati, qiziqishi borligini to‘liq tasavvur etishi kerak.

Ta‘lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga mos keladigan ta‘lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psixologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg‘or g‘oyalariga tayangan holdagina yaratiladi.

Ta‘lim – boshqariladigan jarayon bo‘lib, uning natijasi, ko‘p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog‘liq. Didaktik loyiha esa ta‘lim texnologiyasining mahsulidir. O‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko‘ra boshqarish ta‘lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko‘p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo‘lgan masofada ta‘limning samarali usullari, vositalari ko‘p topiladi. Bu erda ta‘lim texnologiyasi eng samarali usul bo‘lib, ta‘limning samarali shaklini tanlashda o‘qituvchiga yordamga keladi. Didaktik loyihani tayyorlash va uni amalga oshirish jarayonlari 4-chizmada keltirilgan.

4-chizma



Demak, chizmadan ko‘rinadiki, maqsaddan etalonga etib kelguncha o‘qituvchi va talaba ongi juda ko‘p hodisalar bilan uchrashadi. Ta‘limga texnologik yondashish – bu ma‘lumot va ta‘lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o‘qituvchi va talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o‘qitish maqsadi, o‘qish maqsadi) ta‘limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta‘limni loyihalash va amalga oshirish yo‘llari bilan mo‘ljaldagi etalonga erishishdir.¹ Umuman, ta‘lim texnologiyasi haqida gap ketganda o‘zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug‘iladi: ta‘limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta‘limning joriy va oraliq natijasiga ko‘ra didaktik loyihaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish; ta‘limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an’anaviy ta‘lim tajribasida ham uchraydi. Ta‘lim texnologiyasining an’anaviy ta‘lim tizimidan farqi shundaki, ta‘lim natijasi va uning etalon darajasida bo‘lishi doimo o‘qituvchi hamda o‘quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O‘qituvchi ta‘lim natijasini tez-tez tekshirib, o‘quvchi-talabalarni o‘zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va talabalar o‘zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko‘paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar ta‘limning zaruriylikini, ular ta‘lim jarayonining haqiqiy sub’ektiga aylangan paytida sezishadi.

Demak, maqsaddan etalonga etib kelguncha o‘qituvchi va o‘quvchi-talaba ongi juda ko‘p hodisalar bilan uchrashadi. Ta‘limga texnologik yondashish – bu ma‘lumot va ta‘lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o‘qituvchi va o‘quvchi-talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o‘qitish maqsadi, o‘qish maqsadi) ta‘limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta‘limni loyihalash va amalga oshirish yo‘llari bilan mo‘ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta‘lim texnologiyasi haqida gap ketganda o‘zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug‘iladi: ta‘limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta‘limning joriy va oraliq natijasiga ko‘ra didaktik loyihaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish; ta‘limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an’anaviy ta‘lim tajribasida ham uchraydi.

Ta‘lim texnologiyasining an’anaviy ta‘lim tizimidan farqi shundaki, ta‘lim natijasi va uning etalon darajasida bo‘lishi doimo o‘qituvchi hamda

¹ Розиков О, Огаев С. ва бошқалар. Таълим технологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1999. 11-бет.

o'quvchi-talabanning diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchi-talabalarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va o'quvchi-talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. O'quvchi-talabalar ta'limning zaruriylikini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy sub'ektiga aylangan paytida sezishadi.

Ta'lim texnologiyasi bo'yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta'lim loyihasini tayyorlash va loyihani amalga oshirish.

1. Ta'lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o'qituvchi yoki ekspert a'zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo'lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma'lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta'lim mazmuni o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchi-talabalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy vazifalari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta'lim loyihasini amalga oshirish. Ta'lim loyihasi bevosita ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchi-talabalarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- o'quvchi-talabalarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ular diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish, emotsiyalar, tafakkur hodisalari, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha to‘plangan bilimlarga ishlov berish.

Ta‘lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favquddolda va tasodifiy hodisalar ham uchray turadi. O‘rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib loyihaga yangi o‘zgarish, qo‘shimcha va tuzatishlar kiritiladi;

- bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o‘quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko‘ra mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha axborot to‘plash, to‘plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o‘quvchi-talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o‘quvchi-talabalarning bilim va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko‘rsatish, guruhdagi har bir o‘quvchi-talabaga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo‘shimcha topshiriqlarni berish, ularni o‘quv materialini yanada atroflicha o‘zlashtirishga rag‘batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi o‘quvchi-talabalarning ma‘lumot va ta‘lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o‘zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o‘zlashtirgan o‘quvchi-talabalarni ogohlantirish, qo‘shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta‘lim maqsadini aniq o‘rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo‘lgan bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Pedagog faoliyatining texnologiyalanuvchanlik darajasini prof. N.Sayidahmedov quyidagi mezonlar asosida alohida ajratib ko‘rsatgan.¹

1. Tashhislanuvchan o‘rnatilgan maqsad – o‘quvchi-talaba tomonidan didaktik, jarayon mahsuli sifatida o‘zlashtirilgan aniq o‘lchamli tushunchalar, amallar va faoliyat turlari.

2. Ta‘lim mazmunini o‘quv elementlari yordamida bayon qilishda abstraksiya pog‘onalarining va axborotlarni o‘zlashtirish darajasining hisobga olinishi.

3. O‘quv materiallarini o‘zlashtirish bosqichlarining didaktik jarayon tuzilmasiga mosligi.

4. O‘quv jarayoniga yangi vositalar va axborotlashtirish usullarining joriy etilishi.

5. O‘qituvchining qoidabop (algoritmli) va erkin, ijodiy faoliyatidagi mumkin bo‘lgan chetga chiqish chegarasining ko‘rsatilishi.

¹ Н.Сайидахмедов. Янги педагогик технологиялар. – Т.: Молия, 2003.

6. O'quvchi-talaba va o'qituvchi faoliyatida shaxsiy motivlashganlikning ta'minlanishi (erkinlik, ijodiyot, kurashuvchanlik, hayotiy, kasbiy mohiyat va boshqalar).

7. O'qitish jarayonining har bir bosqichida kommunikativ munosabatlarning, axborot texnikalari bilan muomala qilishning maqsadga muvofiqligi.

SHunday qilib, yuqorida berilgan ko'rsatkichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, o'quvchi-talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

15.2. Kasb ta'limida axborot texnologiyalari

Axborot tizimlari va texnologiyalari yildan-yilga kishilik faoliyatining turli sohalarida yanada keng qo'llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad - jamiyat va inson butun hayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarni hal etishdir.

Jamiyatni axborotlashtirish deganda inson faoliyatining barcha ijtimoiy ahamiyatga ega bulgan sohalarida boyitilgan bilimlar, ishonchli axborotlar bilan to'liq, va uz vaqtida foydalanishni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni hamma joylarda tatbiq, etish tushuniladi. Bundan shu narsa nazarda tutilmoqdaki, zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalarini hamma joyga tatbik, etish qabul qilinajak qarorlar samarasini oshiradi. Bu faqat milliy iqtisod rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlari o'sishinigina emas, balki ayni paytda ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish joylarini tashkil etish, aholining turmush darajasini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga yunaltirilgan fundamental va amaliy fanlarda sifatli ilmiy yutuqlarga erishishni ham ta'minlaydi.

Yangi XXI asrda mamlakatlarning milliy iqtisodi globallashib, axborotlashgan iqtisod shakliga aylanmoqda. YA'ni milliy iqtisoddagi axborot va bilimlarning tutgan o'rni tobora yuksalmoqda va ular strategik resursga aylangan. Dunyoda jamg'arilgan axborot va bilimlarning 90%i so'nggi 30 yil mobaynida yaratilgan. Axborot va bilimlar hajmining kundan-kunga ortib borishi milliy iqtisodning barcha sohalarida, jumladan, ta'limda ham axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan keng ko'lamda samarali foydalanishni talab etmoqda.

Axborot xuddi an'anaviy resurslar kabi izlab topish, tarqatish mumkin bo'lgan resursga aylandi. Ushbu resursning foydalanadigan umumiy hajmi kelgusida davlatlarning strategik imkoniyatini, shuningdek mudofaa qobiliyatini ham belgilab beradi, deyishga jiddiy asos bor.

Axborot resurslarini oqilona tashkil etish va foydalanishda ular mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda axborot — bu boshqa barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda ularni asrab-avaylashga ko'maklashuvchi yagona resurs turidir.

SHunday qilib, axborot resurslari zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning asosiy qismi bo'libgina qolmay, balki ular milliy daromad manbai sifatidagi tovar hamdir.

XXI asrga kelib insoniyat tarixida ilk bor sanoati rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida axborot ish quroliga aylandi. Moddiy ishlab chiqarish sohasidan mehnat resurslarining og'ishmay axborotlar sohasiga o'tib borishi tendensiyasi tobora yaqqol sezilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ishlab chiqarish sur'ati o'sishi va rivojlanishi jarayonida qarorlar qabul qilish hamda boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot hajmi oshib borayapti. Bu o'sish avvalo, iqtisodiy, texnik, ilmiy, texnologik va ijtimoiy tizimlar va jarayonlarda namoyon bo'lmoqda.

Axborot tanqisligi bilan bog'liq, bo'lgan boshqaruv xatolari juda qimmatga tushadi.

Ayni paytda, boshqaruv va ishlab chiqarish samaradorligi, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va foydalanish bo'yicha eng ko'p axborotga ega bo'lgan tizim yutib chiqmoqda.

Mutaxassislar, birinchi galda muhandis-pedagoglarning axborotga erkin kirib borishini sanoat rivojlanishi sharoitida bozor iqtisodi samaradorligining asosiy shartlaridan biri deb hisoblaydi. Ularning faoliyati va jamiyat ishlab chiqarishining asosiy sohalari u yoki bu ma'noda axborot bilan bog'liq, bo'lib, ish bilan band bo'lganlarning 40-60 % ini tashkil etadi. Axborot xizmatlari jahon yalpi ijtimoiy mahsuloti va milliy daromadining 10% ini tashkil qilmoqda. SHuning 90%i AQSH, YAponiya va G'arbiy Evropa hissasiga to'g'ri keladi.

Axborot intellektual faoliyatning muhim mahsuloti sanaladi. Sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda ushbu mahsulotlarni o'z foydalanuvchilariga etkazishning "usullari va vositalari"ni ishlab chiqish hamda joriy etish jadal sur'atlarda olib borilmoqdaki, bu axborot tizimlari va texnologiyalari sanoatini yaratishda o'z aksini topgan.

Axborot texnologiyalari industriyasining yuzaga kelishi ularning axborot jamiyatini yaratishni qanday ta'minlashiga bog'liq. Axborot texnologiyalari industriyasi axborot mahsulotlari va vositalarini ishlab chiqaradi hamda iste'molchilarga etkazadi. Axborot mahsulotlari deganda avvalo, an'naviy yo'l bilan yoki elektron texnika yordamida olingan turli bilimlar sohasi, shuningdek, ma'lumot va axborotning boshqa shakllari tushuniladi.

SHaxsiy kompyuterlarning ommaviy ravishda ishlab chiqarilishi ayniqsa axborot texnologiyalari sanoati uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. SHaxsiy kompyuterlar inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bordi va mutaxassislarning bilimlar manbaiga kirib borishi hamda uni bevosita qayta ishlash jarayonida qatnashish imkoniyatini kengaytirdi.

Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashda shaxsiy kompyuterning tutgan o'rni oshib bormoqda. 2000 yilda AQSHda 1000 kishiga 500 ta kompyuter to'g'ri kelgan bo'lsa, axborotlashgan iqtisod hali kirib bormagan mamlakatlarda ahvol ancha jiddiy. Ya'ni Braziliyada - 24, Rossiyada - 31, Turkiyada - 20, Hindistonda esa - bu raqam 3 taga to'g'ri kelmoqda. Internet orqali savdo-sotiq, qilish kundan-kunga ortib borayapti, jumladan AQSHda shaxsiy kompyuter Internet tizimiga ulangan oilalarning 47%i elektron magazinlardan tovarlar sotib olishmoqda. Axborotlashgan iqtisod yangi ish o'rinlarini barpo etmoqda. Xizmatchilar o'z ish joyini AQSHda o'rta hisobda 4 yilda, Evropada esa 8 yilda almashtiradi. Bunday sharoitda uzluksiz ta'limni axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarisiz yo'lga qo'yib bo'lmaydi.¹

Axborot texnologiyalari rivojlanishi bevosita iqtisodiy obyektlarning axborot tizimlaridan foydalanishi bilan bog'liq. Zamonaviy axborot texnologiyalari rahbarlarga, mutaxassislarga, texnik xodimlarga axborotni qayta ishlash va qarorlar qabul qilishda hamda to'liq va ishonchli bo'lgan zamonaviy axborot tizimini yaratishda ko'mak beradi.

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni qayta ishlashning mustaqil tizimi sifatida ham, funksiyaviy tarkibiy qism sifatida ham ishlaydi va yanada yirik tizim doirasida boshqaruv jarayonini ta'minlaydi. Bunday tizimlar qatoriga sanoat korxonalari, firmalar, korporatsiyalar, moliya-kredit va tijorat-savdo tashkilotlari, ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlarining avtomatlashtirilgan boshqarish, ilmiy tajribalar, iqtisodiy-

¹ С.С.Фулумов ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2000.

matematik modeli, ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi, kutubxona xizmati va boshqa bir qator sohalar kiradi.

Jahonda ta'lim tizimi tezkor sur'atlarda taraqqiy etib bormoqda. Misol uchun Gollandiyani olib qaraydigan bo'lsak, yuqori saviyaga ega bo'lgan bitiruvchilar ishsiz qolmoqda. SHuning uchun ham etkazayotgan kadrlarimizga bo'lgan talab darajasini yaqindan o'rganishimiz kerak. Agar ichki bozorimizda bunday kadrlarga ehtiyoj bo'lmasa, Internet orqali tashqi bozorda ularga bo'lgan talabni qidirib topishimiz zarur. SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, AQSH universitetlaridagi professorlarning 85%ini hindistonliklar tashkil qiladi. Ularning ushbu yutuqlarga erishishini avvalo aniq fanlarni chuqur bilishi, chet tillarini mukammal o'rganganligi va axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini milliy iqtisod va ta'lim sohalarida samarali qo'llay bilishi bilan izohlash mumkin.

Hozirgi kunda nafaqat ta'lim sohasiga, balki milliy iqtisodning barcha tarmoqlariga Internet, elektron tijorat, elektron biznes, virtual tijorat, virtual ta'lim, masofaviy o'qitish, virtual stend texnologiyalari keng ko'lamda kirib kelmoqda.

SHunday qilib, bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hayotimiz barcha jabhalariga kirib kelishi, ayniqsa iqtisodiyot, kasbiy ta'lim, biznes va uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yish mexanizmlarini tubdan o'zgartirib yubormoqda. SHuni ta'kidlash kerakki, jahon iqtisodiyotining globallashib borayotganida Internet orqali ta'lim xizmatlarini taklif etish borasida mehnat bozorining hajmi cheksizdir.

15.3. Muammoli ta'lim texnologiyasi va uning maqsadi, vazifasi

Oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi va o'qituvchilarga quyidagi dars turlari tavsiya etiladi:

1. Ma'ruza (kirish ma'ruzasi, mavzuli ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza) mashg'ulotlari.

2. Seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo'ljallangan) darslari.

3. Modulli dars.

4. Muammoli (aqliy hujum) darslar.

5. Munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.

6. Didaktik-o'yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar, o'yin mashqlar) darslar.

7. Sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o'zaro nazorat varag'i yordamida EHM nazorat dasturlari vositasida o'tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. SHuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchi-talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchi-talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat

negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasa, ya'ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi-talaba mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilardir:

- o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi;

- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

O'qituvchi o'rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg'ulot turini belgilaydi, o'quv yili boshidan taqvim mavzularni rejalashtiradi.

Oliy o'quv yurtlarida zamonaviy ta'lim texnologiyasi – bu muammoli o'qitish, tadqiq etib, muammoni hal etishdir. Ta'lim texnologiyasi esa, rivojlanayotgan ta'lim jarayonini, muammoli o'qitish vazifasini faol o'rganish jarayonini rag'batlantirish, tadqiqot ishlarini olib

borish va tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir. Muammoli o'qitish jarayoni shaxsning ijodiy faoliyatini tarbiyalash maqsadlariga mos oliy o'quv yurtlari ish amaliyotida muammoli o'qitish bilan birgalikda illyustratsiyali tushuntirish texnologiyasi, axborot-ma'lumot texnologiyasi va dasturlashgan ta'lim texnologiyasi kabilardan keng foydalaniladi.

Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchi-talabaning mustaqillik roli reproduktiv o'quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo'ladi. Muammoli o'qitishning maqsadi o'quvchi-talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, o'quvchi-talabalar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha o'qituvchi (pedagog)lar ularda qiziqish uyg'ota olishdan iborat.

Professor N.N.Azizxo'jaeva muammoli vaziyatning ma'nosini quyidagicha ta'riflagan, ya'ni muammoli vaziyat o'quvchi-talabalarga ma'lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarama-qarshiliklar bo'lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining etishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar (tushunmovchiliklar) ijodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.¹

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat xususiyati quyidagilardan iborat:

- o'quvchi-talabalar uchun noma'lum yangilikning mavjudligi;
- muammolarni o'zlari hal etishlari;
- shaxsiy qiziqish va ehtiyojlari yuzaga kelgan tushunmovchiliklarni o'zlari o'rganishga harakat qilishlari;
- nima noma'lum ekanligini bilib, ma'nosini tushunib, uni hal etishga intilish kabilar.

Yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish, o'quvchi-talabalarning mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish o'quvchi-talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib etib, bu gapning ma'nosiga jiddiy ravishda e'tibor berishga qaratadi.

Muammoli ta'limni tashkil etish va olib borishda o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib, etishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchi-talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to'g'ri yo'nalish berishi lozim. O'quvchi-

¹ Н.Н.Азизхўжаева. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2003.

talabalar mashg'ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o'zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yishlari kerak. SHuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi muammoli ta'lim o'quvchi-talabalarning izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o'zgarishlarga bo'ladigan qarashiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.

O'qituvchi muammoli ta'lim tizimida o'quvchi-talabalar o'quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqat-e'tibori yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, echimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida o'quvchi-talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni oldiga qo'yish, yangicha fikrlash yo'llariga o'rganish hamda tafakkurining rivojlanish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. O'quvchi-talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini o'rganishlari, tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan echishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchi-talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchi-talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchi-talabalarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon muammoli darslarning didaktik maqsadi quyidagilardan iborat:

➤ O'quv muammolarini hal etishda o'quvchi-talabalar tomonidan avval o'zlashtirgan bilimlarini ijodiy qo'llab, yangi bilimlarni egallash ko'nikmalarini;

➤ Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va amalda qo'llash malakalarini;

➤ Izlanuvchanligi, qiziqishi, motivlari, mantiqiy tafakkuri, ijodiy faoliyati, aqliy kamoloti, zakovatini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli mashg'ulotda muammoli vaziyat bo'lishi nazarda tutiladi va u an'anaviy darsning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi: uy vazifasini tekshirish, maxsus og'zaki mashqlar, o'quvchi-talabalar oldiga dars maqsadini qo'yish, yangi o'quv materialini tayyorlash va uni o'rganish, yangi va ilgari o'rganilgan materialni bog'lab mustahkamlash, mashg'ulotni yakunlab, uyga vazifa berish kabilar. Muammoli mashg'ulotlarda yangi o'rganilayotgan qonun-qoidaga oid faktlar to'plash, ularni bir-biri bilan taqqoslash va tahlil qilish, bilimlarni o'rganish va mustahkamlash jarayoni parallel ravishda olib boriladi.

Ta'limda muammoli o'qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.

2. Vazifa berilganda uni echish usullarini tanlash imkoniyatini berish.

3. O'quvchi-talaba bilim olishni maqsad qilib qo'yishi va maqsadiga erishishi uchun o'z bilimini to'g'ri baholay olishi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko'zda tutiladi, ya'ni;

➤ o'quvchi-talabalar diqqati o'quv materialiga tortiladi;

➤ o'quvchi-talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish;

➤ ularni o'zlashtirish faoliyatini jonlantirish;

➤ ularning oldiga aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi masalalarni qo'yish;

➤ o'quvchi-talabalar o'rganishi zarur bo'lgan bilimlar etarli darajada emasligini dalillarga asoslangan holda ko'rsatish;

➤ o'quv materiallarini tahlil etishga o'rgatish;

➤ o'qitishdagi muammolarni hal etishning yo'l-yo'riqlarini topishda ularga ko'mak berish.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar bir necha turga bo'linadi:

1. O'quvchi-talabalar o'z oldilarida turgan masalaning echimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o'z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi.

2. O'quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo'llay olmaydi.

3. Ularning muammoni nazariy yo'l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

4. O‘quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o‘zlarining nazariy jihatdan tushunib etishlari o‘rtasida bilimlarining etishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Ta‘lim jarayonida muammoli o‘qitish samarali, maqsadga muvofiq bo‘lishi uchun uni o‘quv jarayoni, o‘quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta‘lim yordamida talabalarda o‘quv muammolari va mutaxassislik masalalarini echishga tadqiqiy yondashish, mustaqil tarzda o‘rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

SHunday qilib, muammoli ta‘lim o‘quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta‘lim muammolarini echa bilish, mustaqil izlanishga o‘rgatish, ijodiy tajribaga ega bo‘lish va uni rivojlantirish, ta‘lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta‘limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

15.4. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati

Birinchi navbatda ta‘lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko‘nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g‘oyasi kun tartibiga ko‘ndalang qilib qo‘yildi.

Bizningcha, bu g‘oyani ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari orqali ro‘yobga chiqarish mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy, amaliy ijtimoiy, ma‘naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san‘at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy, ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldirilgan boyliklar).

Ta‘lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so‘z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o‘rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta‘kidlanganidek, «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy

ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga yuksak umumiy va kasbiy madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish o'la bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi».

Kadrlar tayyorlash sohasida hozirga qadar amalga oshirilayotgan o'zgarishlar faqat mavjud ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan edi. U shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlari bilan kasbiy tayyorgarlikning amaldagi tizimi o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishni ta'minlamas edi. Xalqaro tajribani, mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning prinsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining mohiyati va o'ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagi komponentlar kiritilganligidadir:

- shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti, ta'limga oid xizmatlarning iste'molchisi va ularning yaratuvchisi;

- uzluksiz ta'lim – kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;

- fan – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste'molchisi;

- ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;

- davlat va jamiyat – kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi, kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning bosh kafillari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» umumiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashtirish, kasb-korga va ta'limga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila va jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni respublikamiz aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu birinchi navbatda bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim

darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalar ustuvor bo'lgan va xalq xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash muammosining samarali echimi birinchi navbatda bugungi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama chuhur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan:

1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi.
2. Ta'lim korxonalarini va professional ta'lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlaridan foydalanish.
3. Professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirish.
4. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash.
5. Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb ettirish.
6. O'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.
7. Kadrlar tayyorlashning sifat bahosini va obyektiv nazorat tizimini qo'llash.
8. SHaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baholash va kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarish.
9. O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

Bu holatlarning barchasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z aksini topgan. Bugungi kunning mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligidan tashqari, xorijiy tillardan birini egallagan bo'lishi hamda kompyuter texnikasidan foydalana olishi shart.

Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi zarur.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta'lim tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalari berilishini, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lim jarayonini differensiyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differensiyalash prinsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Ta'limni differensiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub'ektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzluksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdin, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdin, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra, talabalarning individual, ikkita talaba birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rnida foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda.

To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda obyekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyaning to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. SHuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan pedagog ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi hisoblanadi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish pedagogning tayyorgarlik darajasini birinchi o'rinda hal qilish bugungi kun «Pedagogika» fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, mazkur yo'nalishda ilg'or pedagogik tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish; darslik, o'quv qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ularni axborot vositalari bilan ta'minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ya'ni:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik texnologiyalar konsepsiyasining rivojlanish tarixi;
- ta'lim jarayoniga texnologik yondashish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- pedagogik texnologiyalarning didaktik qonuniyatlarini;
- o'qitiladigan fanga tegishli ilg'or o'qitish texnologiyalarini;
- didaktik jarayonni ma'lum vaqt chegarasida loyihalanishi;
- o'qitishning faol metodlarini bilish va qo'llay olish;
- uy vazifalarini maqsadli, tashhisli va aniq o'quv element turi tarzida berish, texnologiya loyihalarining mantiqiy tuzilmasi, korreksiyasi;
- o'quv maqsadlari tavsiyanomasini ishlab chiqish;
- test topshiriqlarini talaba faoliyat darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish sharti;
- internet kompyuter tarmog'idan foydalanish;

➤ o‘quv jarayoniga elektron pochtdan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

➤ reyting nazorati va talabalarning bilimlarini obyektiv baholashni bilishi kerak.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta‘lim tizimi yangi rivojlanish pog‘onasiga ko‘tarildi: ikki bosqichli ta‘lim – bakalavriat va magistratura faoliyat ko‘rsata boshladi; davlat ta‘lim standartlari ishlab chiqildi; talabalarning mustaqil ta‘lim olishini yakka tartibda amalga oshirish joriy etilyapti, ta‘lim mazmunida fan va ishlab chiqarish integratsiyasi o‘z aksini tobora ko‘proq topmoqda; professor-o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga e‘tibor kuchaytirilganligi ayniqsa quvonarlidir.

Ta‘lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirish, uning ishtirokchilari – o‘qituvchi va talaba-magistr faoliyatini «sub’ekt-sub’ekt» imkoniyatlari asosida tashkil etish zarurati bugun barcha oliy o‘quv yurtlarida pedagogika va psixologiya fanlarini o‘quv rejasiga kiritish lozimligini isbotladi. Endigi vazifa esa, bu fanlarni o‘qitishga alohida e‘tibor qaratish, pedagogik faoliyatning siru-sinoatlarini tadqiq qilish asosida amaliy xulosalarni qo‘lga kiritishdir.

SHunday qilib, mamlakatimizda shaxs manfaati va ta‘lim ustuvorligi e‘tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va prinsiplarini o‘rganadi. Endilikda pedagogika o‘z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ta‘lim amaliyotiga qo‘llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda ko‘ndalang qo‘ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji – o‘quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda jahon ta‘lim maydoniga kirishga yo‘naltirilgan yangi ta‘lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o‘quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ta‘limdagi yondashuvlar, tarkibi o‘zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o‘rnatilmoqda.

Ta‘lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy echimining ta‘lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Axborotning an'anaviy usullari-og'zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, talaba bilan o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

SHu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ushbu bobda mavzu bo'yicha qator ma'lumotlar keltirilgan va eng asosiysi talabalarga tushunarli tarzda bayon etilgan.

O'z-o'zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi yangiliklar haqida so'zlab bering?
2. Ta'lim texnologiyasi va uning rivojlanishi haqida fikr bildiring?
3. Ta'limda texnologik yondashish variantlari deganda nimani tushunasiz?
4. Axborot texnologiyalariga nimalar kiradi?
5. Rivojlangan jamiyatda axborot texnologiyalarining o'rni qanday?
6. Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflarni izohlab bering?
7. Muammoli ta'lim texnologiyasi haqida fikringiz qanday?
8. Modulli ta'lim texnologiyasiga misol keltiring?
9. "Reyting", "Texnologiya", "Innovatsiya" tushunchalarini izohlab bering?
10. "Internet", "Elektron pochta", "Multimediya"ga misollar keltiring?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Qodirov B. Ta'lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo'nalishlar. - T.: O'zbekiston, 2000.
3. G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. - T.: SHarq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2000.
4. Tojiev., Salaxutdinov R., Barakaev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2001.
5. Farberman B.L. Прогрессивные педагогические технологии. – T.: 1999.
6. Maxmudov YU.G'., Xudoyqulov x.J. "Pedagogika.Psixolgiya" .- T.: Dzayn-Press.2011.

7. Xo‘jaev N.X., Xodiev B.YU., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2002.
8. www.bilimdon.uz. -O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.
9. www.de.uz - Masofaviy ta’lim tizimiga bag‘ishlangan veb sayt.

3-BOB. PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASIDA TARBIYAVIY ISHLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI

16-MAVZU: KASBIY PEDAGOGIKADA TA'LIM TARBIYA JARAYONI VA TA'LIM MAZMUNI

Reja:

16.1. Talaba- yoshlarning ma'naviy-axloqiy, kasbiy madaniyatini tarbiyalash.

16.2. Kasb ta'limi muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati .

16.3. Kasb ta'limi muassasalarida mehnat intizomi va axloqiy tarbiya muammosi.

16.4. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda tarbiyaning tarkibiy qismlarining o'rni.

Tayanch so'zlar: Kasbiy tarbiyalanganlik, intizom ,kasbga qiziqish, ma'naviy etuklik, kasbiy madaniyat.

16.1.Talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy,kasbiy madaniyatini tarbiyalash

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan bir paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3–sentyabrdagi “Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.¹

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya

¹ K.Хошимов., М.Хошимова. Тарбиявий ишлар услубиёти. – Т.: ТДИУ, 2006.

go‘zalligidan bahramand bo‘lish ma‘naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma‘naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.^{6[2]}

Ma‘naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. SHaxsni esa uning ma‘naviy qiyofasi tanitadi. Ma‘naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta‘lim–tarbiyasiz ma‘naviyatning bo‘lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so‘zlari fikrimizga dalil bo‘ladi.

Tarbiya – ma‘naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa, insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma‘naviy manbaga aylanadi. SHu tarzda inson asta-sekin komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas‘uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko‘rsatadiki, faqat ma‘naviyat–ma‘rifat keng quloch yoygan, ilm-urfon taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli va jamiyat fuqarolarida sog‘lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo‘ladi.

Mustaqillik bizga ma‘rifiy, madaniy, adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonini berdi. Endi bu jamiyatga har bir inson o‘z o‘rni, mavqeiga yarasha vijdonan hissa qo‘shmog‘i lozim.

Insonning ma‘naviyati uning odobi, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlari zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatleri majmuidan iborat.

Sifat – alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

^{6[2]} Собиров Б.Б. Талабаларда иқтисодий тушунчаларни шакллантиришда инновацион усуллардан фойдаланишнинг педагогик асослари. П.ф.н.илмий дараж. олиш учун ёзилган дисс. - Т.2004, 186- б.

Fazilat – alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlanganligi bilan belgilanadi. SHu o‘rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to‘xtalib o‘tish joizdir.

Odob – har bir insonning o‘zi bir inson yoki jamoa bilan bo‘lgan muloqotida hamda yurish-turishida o‘zini tuta bilishidir.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma’naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam izchil va bir tizimga kirgan shaklda bo‘lishini taqoza etadi. Bu yo‘lda kasbiy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini takomillashtirish, professional fanlar singari g‘oyaviy mazmuni talabalarga yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo‘lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasini hosil qilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishga yangicha yondoshuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin. Talaba yoshlarda yagona pedagogik jarayonda ma’naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- sho‘rolar hokimiyati davrida ta’lim sohasidan o‘rin olgan mafkuraviy mahdudlikdan xalos bo‘lish;

- o‘zbek milliy mentaliteti va jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadigan ma’naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash;

- SHarq mutafakkirlari asarlarida ko‘tarilgan Komil inson g‘oyasi ta’limotlariga amal qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida ta’lim-tarbiya xususan hozirgi zamon yoshlari qanday bo‘lishi kerak degan ta’limotiga nisbatan javoblarga to‘la amal qilish kabilar.

16.2. Kasb ta’limi muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘liga asoslangan holda bozor

iqtisodiyotiga to‘la ishonch bilan o‘tib bormoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «Siyosiy mustaqillik rivojlangan, o‘zaro mutanosib, to‘laqonli iqtisodiyot bilan mustahkamlanmas ekan, u bor-yo‘g‘i quruq, balandparvoz gaplar, soxta obro‘-e‘tibor orttirish vositasiga aylanib qolaveradi».¹

Mustaqillikning bosib o‘tgan yillari davomida milliy xo‘jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning ko‘pgina sohalarida barqaror o‘shishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davr ichida milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.²

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, «Istiqlol mafkurasi ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining ezgu g‘oya-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu intilishlari, hayotiy ideallarini o‘zida aks ettiradi»³

Bu qo‘yilgan dastlabki qadamlarimiz natijasida shakllanib kelayotgan milliy iqtisodimiz yangi XXI asrda biz yashamoqchi bo‘lgan umumiy uyimiz, ya‘ni yangilanayotgan vatanimizning hayotiy asosini, uning kelgusidagi taraqqiyot manbaini tashkil etadi.

Bugungi kunda xalqning boy zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: «..bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri– bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz»¹.

Ta‘lim-individning jamiyat hayotining turli sohalariga jamiyatda mavjud madaniyatga tayyorlash va moslashtirish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institutdir,

¹ Каримов И.А. Жамятда тадбиркорлик руҳини қарор топтириш – тараққиёт гарови. /Халқ сўзи, 2001 йил 18 июль.

² Шодмонов Ш., Алимов Р., Жўраев Т. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: .Молия, 2002, 3-бет.

³ Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.:Ўзбекистон, 2001, 6-бет.

☞ Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори - Т.: “Шарқ” 1997, 5-бет.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday sohada bo'lganidek ta'lim sohasida ham muammolar mavjud. Bu kabi muammolar mustaqil respublikamizni ham chetlab o'tgan emas. Ushbu muammolarni hal etish hamda ta'lim sohasida zaruriy islohotlarni amalga oshirish maqsadida ta'lim tizimining huquqiy asoslari yaratildi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga ko'ra mamlakatimizda yagona uzluksiz ta'lim tizimi tashkil qilinib, ta'lim islohoti va uning istiqbollari quyidagi tamoyillar asosida belgilandi:

a) millati, dini, irqi, e'tiqodidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratilganligi.

b) ta'lim tizimining uzluksizligi, ilmiyligi, dunyoviyligi va izchilligi.

v) ta'limda umummilliy, umuminsoniy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarining ustuvorligi.

g) ta'limning insonparvarligi, demokratiyaliligi, ta'lim-tarbiya muassasalarining siyosiy partiya va boshqa ta'sirlardan xoliligi.

Demak, yuqoridagi tamoyillar amalga oshirilayotgan ekan, jamiyatimizning har bir a'zosi, xoh duradgor, hisobchi, korxonah rahbari yoxud mashhur siyosatchi bo'lsin, bu sohaga yuksak hurmat-e'tibor bilan munosabatda bo'lishi lozim. Vaholanki, YUrtboshimiz I.A.Karimovning «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, aqlli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart» degan shiori hamisha har birimizning diqqat markazimizda bo'lishi shart.

Kasbiy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati – uning milliy istiqbol mafkurasiga asoslangan, ma'naviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo'nalishlar bilan erishiladigan g'oyaviy a'mol va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga molik masaladir. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifadir.

Mustaqillik sharoitida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Jumladan:

- Har bir ta'lim oluvchining ongida davlat mustaqilligi xalqning oliy g'oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o'z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta'minlash va O'zbekistonning ulug' tarixiy o'tmishiga, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o'ziga xos yo'lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug'orilgan oliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni to'g'ri tushuntirish va uni e'tiqodga aylantirish;

- Ta'lim oluvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularni zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji - o'zini yuqori tutish va viqor

saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish kabi illatlarga murosasiz bo'lish ruhida tarbiyalab borish ularni yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda, axloqiy tarbiya tarbiyaviy ishlar kompleksida etakchi o'rin tutadi. Kasb ta'limi muassasalarida talaba-yoshlarda axloqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlagan ma'qul. Chunki yoshlarda axloqiy tushuncha e'tiqodlarni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlarni, xatti-harakat bilan bog'liq malaka va odatlarni hosil qilib bo'lmaydi. Bunda asosan yoshlarga axloq-odob norma va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim.

16.3. Kasb ta'limi muassasalarida mehnat intizomi va axloqiy tarbiya muammosi

Axloqiy tarbiya mazmunining shakllanishida o'zbek mutafakkirlarining alohida xizmatlari bor. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar tarbiya jarayoniga jiddiy qaraganlar va bu boradagi qimmatli fikrlarini dunyoga tanilgan asarlarida bayon etganlar. Ushbu asarlar nafaqat o'zbek xalqining, balki butun insoniyatning rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham insoniyat uchun dasturil amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Abu Nasr Forobiy - mashhur mutafakkir, qadimgi Yunon ilmi va falsafasining sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi. O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga asos solgan mutafakkir. Forobiy «Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak», «Substansiya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi^{7[3]}. Alloma bu asarlarida davlat tuzilishi va uni boshqarish, turli ijtimoiy nizolarning oldini olish hamda kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish kabi masalalar ustida fikr yuritadi. Etuk jamoani vujudga keltirish, komil insonni yaratish muammosini hal etish bilan bog'liq ekanligini birinchi bor o'rta asr sharoitida Forobiy olg'a surdi. Uning «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi mashhur asarlari shu masalalarga bag'ishlangan. Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zururligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubiyatlari haqida fikr yuritadi. Uning «Fozil odamlar shahri», «Ixsol-

^{7[3]} М.М.Хайруллаев. Абу Наср Форобий. Рисолалар... - Т.: Фан, 1975 (71-72 бет).

ilm», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Jamiyatda mavjud an'ana va urf-odatlarida ham axloq me'yorlari va mazmuni o'z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning bir kategoriyasi sifatida axloqiy qadriyatlar qabul qilingan va bu axloqiy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning mazmunini va me'yorlarini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Umuman qadriyatlar deganda milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushuniladi. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog'liq holda yuzaga keladi. So'ngra asta-sekin sub'ekt faolligining orta borishi natijasida nisbiy mustaqil soha tarzida amal qila boshlaydi. Axloqiy mazmundagi qadriyatlar bolaning ongi va faoliyatini faollashtiradi, ish va so'z biriligini ta'minlashga yordam beradi. Bunday qadriyatlar jumlasiga insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, mehr-muhabbat, poklik, kattalarga hurmat, muhabbat, xushmuomalalik, do'stlik, saxiylik, sahovat, shirinso'zlik va boshqalar kiradi. Mazkur qadriyatlar negizida jamiyatda, oilada, maktabda bolani yuksak insoniy fazilatlariga ongli ravishda amal qilishga da'vat etish g'oyasi yotadi.

Axloqiy tarbiya jarayonining dastlabki bosqichida shaxs axloq me'yorlariga ma'lum darajada to'g'ridan-to'g'ri bo'ysungan holda ko'r-ko'rona amal qilsa, axloqiylikning yuqori darajasiga etganda, to'g'ridan-to'g'ri ko'r-ko'rona bo'ysunish ongli idrok etishga yakka shaxsning axloq me'yorlari va jamiyat axloq me'yorlari o'rtasida uyg'unlikning hosil bo'lishiga erishish lozimdir. Axloqiy madaniyatning muhim belgilaridan biri ham xuddi ana shu shaxs va jamiyat orasidagi uyg'un munosabatning, axloqiy birlikning hosil bo'lishi demakdir.

Inson axloqiy madaniyatning eng oddiy me'yorlarini ilk yoshligidan boshlaboq avval oilada, so'ng o'rtoqlari bilan bo'ladigan munosabatlarida egallay boshlaydi. Bu ahloqiy me'yorlarga amal qilishning motivlari turlicha bo'ladi. Ota-onaga bo'lgan hurmat va muhabbat bolani axloqiy talablarga amal qilishga va shu orqali ota-onaning hayrixohligiga va mehriga sazovor bo'lishga undaydi. Bundan tashqari axloqiy me'yorlarga amal qilmaslik holatida jazolashdan foydalanish ham bolani ogoh bo'lishga undaydi. O'z tengqurlari bilan muloqotga kirishish ishtiyoqi, ichki ehtiyoj ham bolada axloqiy me'yorlarga amal qilish motivatsiyasini uyg'otadi. Bularning barchasi har bir yosh bolani axloqiy me'yorlar bilan to'qnashishiga va ularga amal qilishni o'rganishiga yordam beradi.

SHuningdek, insonda axloqiy me'yorlarga amal qilish malakasini va ko'nikmasini hosil bo'lishiga olib keladi. Ammo bunday axloqiy me'yorlarga amal qilishni biz hali axloqiy onglilik darajasi deb ayta olmaymiz. CHunki bu holda axloqiy me'yorlar ichki ehtiyojdan kelib chiqqan holda emas, balki tashqi ta'sirlarning natijasi sifatida vujudga keladi. SHunga qaramay axloqiy darajaning bu dastlabki pog'onasi juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u boshlang'ich nuqta sifatida keyingi rivojlanish uchun xizmat qiladi. Axloqiy rivojlanishning bu bosqichida atrof-muhitdagi axloqiy madaniyat darajasi eng muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanishning barcha bosqichlarida jamiyatda qaror topgan axloqiy bilimlar yangi axloqiy bilimlar bilan to'ldirilib birishi talab etilgan. Aytish joizki, bu qonuniy jarayondir. Demak, hozirgi vaqtda ham axloqiy bilimlarimiz qanchalik boy bo'lmasin dialektik rivojlanish qonuni ushbu axloqiy bilimlarni yanada to'ldirib borilishini talab etadi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar bugungi kunda axloqiy qarashlarni qaytadan talqin etishni, fan va texnikaning rivoji natijasida erishilayotgan yangi bilimlardan axloqiy tarbiya jarayonida foydalanishni taqozo etishini nazarga olsak, bu vazifaning qanchalik zarurligini his etamiz. Demak, biz axloqiy tarbiyani uchinchi vazifasini ham aniqlab oldik bu: - axloqiy bilimlarni yanada to'ldirib borish, ilm-fan erishgan yangi bilimlardan va yutuqlardan foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

16.4. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda tarbiyaning tarkibiy qismlarining o'rni

O'zbekiston Respublikasida chuqur keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, zamon talablariga javob beradigan oliy ma'lumotli muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashtirishgan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda.

Ma'lumki, qaysi davlatda kadrlar tayyorlash siyosati to'g'ri va omilkorlik bilan tashkil etilsa, o'sha davlatda har doim taraqqiyot bo'ladi.

Ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichidir. Har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligini yanada yuksaltirish, respublikaning aql zakovat salohiyatini o'stirish, davlatimiz qudratini oshirish, uning mustaqilligini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni» va «Kadrlar tayyorlash

milliy dasturi» ishlab chiqildi. Ta'lim tizimining moliyaviy va moddiy ta'minoti qonuniy yo'l bilan ijobiy hal etildi.

Faqat o'tish davrining o'zida mazkur dastur uchun 65 mlrd. so'm ajratish ko'zda tutilgan. 1999 yilda bu maqsadlar uchun 34 mlrd. so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 8-10 foizga teng qismi ma'rifat, ta'lim va tarbiyaga ajratilmoqda – bu katta miqdordagi mablag'dir. Masalan, respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» doirasidagi ta'lim xarajatlari 1999 yili 159,2 mlrd. so'm, 2000 yili 248,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2001 yili 336, 1 mlrd. so'm sarflangan.

1997 yilda tashkil topgan «Umid» va boshqa jamg'armalarning ko'magida iqtidorli yoshlar rivojlangan davlatlardagi nufuzli o'quv markazlarida tahsil olmoqdalar. YOshlar xorij hayotini ko'rib, xalqaro hayotiy tajriba orttirib, chet tillarini mukammal egallab, zamonaviy bakalavrluk va magistrlik darajasiga respublikamizning turli bosqichdagi kadrlar xorijiy ta'lim markazlarida tajriba va malaka orttirib kelmoqdalar. Bunday yondashuvlar ham O'zbekiston ta'lim tizimining yorqin istiqboliga va uning mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi zamon talablariga mos ravishda o'zgargan mutaxassislarimizga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yangicha fikrlaydigan, yangi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlash davr talabi va haqiqat taqozosidir.

Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida muhandis-pedagog mutaxassislar tayyorlashning umumiy mazmuni va o'ziga xos xususiyati shundan iboratki:¹

- u bozor iqtisodiyotining fundamental asosi;
- zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri;
- aholi kasb ta'limining obro'li sohasi;
- uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini barpo etish va rivojlantirish tajribasi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi, chunki u zamonaviy iqtisodiy ta'limning ahvolini tahlil qilish va nazariy jihatdan izohlash, uning uzluksiz kasb ta'limi

¹ Фуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: Шарқ, 2002. 139-бет.

tizimi bilan uyg'unlashtirish va samarali didaktik rivojlanishni bashorat qilish vazifalarini hal etish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda kasb ta'limi (shu jumladan oliy ta'lim)ning bosh maqsadi – raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va barcha toifadagi malakali xodimlarni tayyorlash orqali raqobatbardosh xizmat ko'rsatishdan iborat.

Zero, raqobatbardosh mutaxassislersiz raqobatbardosh iqtisodiyot bo'lishi mumkin emas.

O'zbekistonda mazkur masalani muvaffaqiyatli hal qilishda Kadrlar tayyorlash milliy modeli asos bo'lib hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub'ekti va obyekt, ta'lim xizmatini talab etuvchi hamda amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish hamda ish olib borishning boshqarishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularga talabgorlik kafolati;

uzluksiz ta'lim – o'z tarkibiga barcha ta'lim turini, davlat ta'lim standartlarini, faoliyat ko'rsatish tuzilmasi va muhitini olgan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash asosi;

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va talab etuvchi, ilg'or pedagogik va informatsiyaviy texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan talabni, shuningdek ularning tayyorlanganlik va sifat darajasiga talabni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimlarini moliyalash va moddiy-texnik ta'minlash ishtirokchisi.

Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosini amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga e'tiborni qaratish kerak. Ular:

1. O'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish;

2. Talaba va ustoz o'rtasidagi axloqiy hamda aqliy saviyani oshirishga erishish;

3. Ta'lim-tarbiya masalalarining qat'iy reja asosida olib borilishi;

4. O'quv muassasasida ijobiy emotsional sharoit yaratish;

5. Ta'lim oluvchilarning o'quv muassasasining umumiy tartib, hayot tizimiga rioya qilishiga erishishni ta'minlash.

SHunday qilib, yagona ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy tarbiya ishini amalga oshirishda suhbat, munozara, ma'ruza kabi metodlardan,

axloqiy odatlarni esa mashq, turli faoliyatni uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin.

O‘z-o‘zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. Respublikamizda ma’naviyat-ma’rifat bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

2. Tarbiya mazmunining mohiyatini belgilashda qanday yondashuvlar mavjud?

3. Oliy maktabda ta’lim-tarbiya ishlari qanday shakllarda amalga oshiriladi?

4. Talabalarda ma’naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?

5. Tarbiyaviy ishlar mexanizmini ta’riflab bering?

6. Kasb ta’limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosi qanday tartibda amalga oshiriladi?

7. Talabalarning aqliy faoliyati xususiyatlari qanday izohlanadi?

8. Madaniyat, ma’naviyat, axloq, odobga ta’rif bering?

9. Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifasi haqida so‘zlab bering?

10. SHarq mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi qarashlaridan misollar keltiring?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O‘zbekiston, 1999.

2. Karimov I.A. YUksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – T.: O‘zbekiston, 1995.

3. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O‘zbekiston, 1997.

4. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi: o‘rta maxsus, professional ta’limmuassasalari uchun qo‘llanma. - T.: Istiqlol. 2003.

5. Bordavskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika.- M.: Piter, 2004.

6. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996.

7. www. bilimdon. uz. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asosiy veb sayti.

17-MAVZU: O‘ZBEKSITONDA MAHSUS KASB-HUNAR TA‘LIMIDA DAVLAT TA‘LIM STANDARTLARI

Reja:

17.1. Barkamol avlodni dunyo raqobatlariga bardosh beradigan, etuk mutaxassis va kasb egasi, mas’uliyatli, mustaqil fikrli fuqaro sifatida shakllantirish.

17.2. O‘zbeksitonda O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining rivojlanishida davlat ta‘lim standartining o‘rni va roli.

17.3. Uzliksiz ta‘lim tizimida davlat ta‘lim standartlariga amal qilish.

Tayanch so‘zlar: Barkamol avlod, raqobatbardosh, mas’uliyat, mustaqil fikr, standart, norma, me‘yor.

17.1. Barkamol avlodni dunyo raqobatlariga bardosh beradigan, etuk mutaxassis va kasb egasi, mas’uliyatli, mustaqil fikrli fuqaro sifatida shakllantirish

Oliy Majlisning bugungi sessiyasida ko‘rib, muhokama qilinayotgan, hayotimizni hal etuvchi muhim masalalari qatorida ta‘lim –tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko‘tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor qonun loyihalari ham bor.

Fursatdan foydalanib, bugungi kun tartibiga qo‘yilgan mana shu masalalar bo‘yicha o‘zimning ba‘zi fikrlarim, mulohazalarimni bildirishga ruxsat bergaymiz .

Barchamiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

Bu maqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o‘z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko‘rish uchun butun hayot davomida kurashadi, mehnat qiladi, o‘zini ayamaydi.

Bola tug‘ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

O‘zbek oilasi mustabidil zamonida ham o‘zining tarixan shakllangan qiyofasini yo‘qotmadi. O‘lug‘ adibimiz Abdulla Qodiriy qahramonlarida birining :” Bu xonadondan hech kim norizo bo‘lib ketgan emas ”, deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam.

Bu yo‘q joydan paydo bo‘lgan gap emas. Ota –onaning farzand oldidagi burchlari, o‘zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqollaridan so‘rasangiz, ularni lunda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib, savodini chiqarish, ilmi, kasbli-hunarli qilish, boshini ikki, uyli-joyli qilish.

Bugun ana shunday olijanob an‘analari qaytadan mustahkam qaror topish va rivojlanishi uchun istiqbol sharofati tufayli zing qulay muhit yaratildi. Bu, shubhasiz, biz ota-onalar va mustaqil buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz ziyamasiga juda katta vazifalar va mas‘uliyat yuklaydi.

Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e‘tibor bermoqdamiz. SHuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat-e‘tibori markaziga o‘tmoqda, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Lunda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshiralayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz.

SHu bilan birga, xammamiz yana bir haqiqatni anglab etmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma‘rifatli odam inson kadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida, o‘ziga munosib, obro‘li egalashshi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti va er usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma‘naviyati bilan kuchlidir. Bunday boylikning ahamiyatini anglash uchun chor Rossiyasining Turkiston o‘lkasidagi general-gubernatori M. Skobelev.

“Millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, sana‘tini, tilini yo‘q qilsang bas, tez orada o‘zi tanazzulga uchraydi”, deb aytan gapini eslashning o‘zi kifoya qiladi.

Bunday yovuz qarashlarga qo‘shimcha izoh berishga hojat yo‘q, deb o‘ylayman. Lekin ulardan kerakli xulosa-saboq chiqarish uchun butun ham kech emas.

SHu bois mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq , buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uygunlashtirish asosida jahon andozalari va ko'niqmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelmoqda.

Bu jarayonda oirgi yillarda qilgan ishlarimiz haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Maktab soxasida "Ta'lim haqida " qonun qabul qildi. 1996-1997 o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o'qish yangi alifboda olib borildi . YAngi imlo, alifbode o'qitish zarur dastur, qo'llanma va darsliklar yaratildi.

SHu davr mobaynida 300ga yaqin yangi turdagi ta'lim muassasalari ochildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil o'qituvchilar xorijiy davlatlarning ilgor tajribalarini o'rganish maqsadida chet mamalakatlarga borib qaytdi.

Joylarda maktablarga va o'qituvchi –murabbiylarga, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish , yordam berish masalalariga e'tibor ancha kuchaytirildi.

O'rta maxsus ta'lim sohasida viloyatlarda, joylarda biznes maktabi, kichik va o'rta maktab uchun kasb-hunar kurslarining ochilishi, bozor iqtisodiyoti kelib chiqqan holda yangi mutaxassislik (fermer, soliq va bojxona xodimi, audit va hokazo)larning kiritilishi e'tiborga loyiqdir.

Toshkent, Samarqand,Urganch, To'rtko'l va andijonda bank kollejlari hamda Toshkent ayollar kolleji tashkil ham shular jumlasidandir.

Oliy maktab sohasida test usuli joriy etilishi; viloyatlar markazlarida pedagogika institutlarining universitetlarga aylantirilishi va joylardagi o'quv yurtlariga yuqori ta'sis nizomi berilishi; tashkil etilgan milliy tashkilot va xalqaro jamoalar hisobidan chet ellarga tajriba almashish va talabalarni o'qishga yuborish yo'lga qo'yilishi; iqtisod va biznes sohasidagi mutaxassis va o'quvtuvchilarni qayta tayyorlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar olib borilishi; o'tish davrida 2 mingdan ortiq talaba va mutaxassisning chet ellarda o'qib kelishi: 200 dan ortiq chet el mutaxassisining respublikamiz o'quv muassasalariga jalb qilishini qayd etishimiz zarur, deb hisoblayman.

Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Bank va Moliya akademiyalarini tashkil qilganimiz hozirdanoq o'z samarasini berayotganini katta mamnuniyat bilan ta'qidlashimiz lozim.

“Mahalla”, “Kamolot”, “Sog‘lom avlod uchun”, “Nuroni”, “Uluhbek”, “Umid” jamg‘armalarining ta‘lim –tarbiya sohasidagi ezgu ishlarini, o‘tib kelayotgan avlodni jismonan sog‘lom va ma‘naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qo‘shayotgan hissalarini alohida aytib o‘tmoqchiman. Bu borada amal oshirilayotgan ijobiy tadbirlarimiz kam emas. Ammo, holisona baho berganda, shuni tan olishimiz kerakki, o‘tgan davr mobayinida amalga oshirilgan tadbirlarimiz butun hayot talab qilayotgan natijalarni berayotgani yo‘q. Avvalo shuni ta‘kidlashimiz kerakki, biz eski, sho‘rolar zamonidan qolgan ta‘lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sakrqlardan xali-beri to‘liq qutulganimiz yo‘q.

Ikkinchidan, barcha amaldagi o‘zgarishlar va tadbirlar, asosan yuzaki bo‘lib, ta‘lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash ya‘ni uzluksiz ta‘lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini echib bergan emas.

Uchinchidan, bizning amaldagi ta‘lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko‘p joylarda yaqqol ko‘rinmoqda.

Bugungi kunda mutaxassis qadrlarni tayyorlash, ta‘lim va bilim berish tizimi, hayotimizda, jamiyatimizda bog‘layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talabalari bilan yaqindan bog‘lanmaganligi har tomonlama sezilmoqda.

Ruxsatingiz bilan, aziz do‘stlar, ana shu masalalarga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Ochiq tan olish kerak: maktablarning moddiy bazasi juda nochor. Bu masalada naqadar oqsoqligimizni, nochorligimizni, birinchi navbatda qishloq joylardagi ahvol-vaziyat misolida ochiq tan olishimiz kerak.

Ikkinchi masala, avval aytanimdek, tarbiyachi, ya‘ni o‘qituvchiga borib taqalyapti.

Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma‘lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz.

Mening fikrimcha, ta‘lim-tarbiya o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu erda. O‘qituvchi bolalarimiz zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak.

SHu bilan birga, o‘qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish ularni rag‘batlantirish, ularning o‘z ishi, kasbidan mamnun bo‘lishini ta‘minlashimiz lozim.

Albatta, bu masalani birdaniga echish qiyin, lekin uni echmasdan turib, kelajak avlod tarbiyasi to'g'risida gapirishning o'zi mutlaqo nomaqbuldir.

Uchinchi masala o'quv jarayoniga tegishli. Biz sho'ro davrining oxirroq'ida o'quv tizimiga o'tdik.

11yillik tizim tarkiban 3 qismga bo'linadi: boshlang'ich ta'lim-4yil, to'liqsiz ta'lim o'rta ta'lim-9yil va, nihoyat ,2 yillik to'liq o'rta ta'lim. Lekin hech kim shu kungacha boshlang'ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o'qiyotgan bolalarga qaysi sinfdan nimani o'qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtai nazardan asoslab bergan emas. Nima uchun 10yillik umumta'lim o'quv jarayonini 11yillikka o'tkazganimizni ham ko'pchilik hozirgacha tushungani yo'q.

Eski ta'lim tizimining eng yomon qusuri boshlang'ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qaralayotganimizdir. Ochiq aytishimiz kerak: bilim sayoz muallimlar ham birinchi sinfdan dars beraveradi.

Boshlang'ich ta'limga past nazar bilan qaralishining isboti shuki, sobiq SSSR da butun boshli pedagogika texnikumlari va bilim yurtlari tizimi tashkil etilib, ular asosan 1-4 sinf o'quvchilarini o'qitadigan muallimlar tayyorlar edi.

Vaholanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng etuk, eng tajribali murabbiylar birkitib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan o'zi iborat bo'lishi kerak? Bola 1-4sinflarda qanday bilimga ega bo'lish lozim? Ularning tarbiyasi qanday bo'lish kerak? SHu masallarga javob topishimiz zarur.

YAna bir muhim savol.

Norasida bolaning miyasi, ongi nimani o'ziga singdira oladi, nmani qabul qilmaydi ? kim bu masalani ilmiy jihatdan tadqiq qilgan?

Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf- odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anlatishimiz kerak?

Afsuski, bu haqda hech kim bosh qotrayotgani yo'q . SHu masalalar bilan shug'ullanishi kerak bo'lgan mutasaddi institut va markazlarimiz etarli. Huloosa shundayki, bugungi umumta'lim jarayonida uch bosqichdan hech qaysisida o'ziga yarasha talab yshq. Boshqacha aytganda, har qannday o'quv bosqichiga aniq talablar standart darajasida rasmiylashtirilgani yo'q.

SHunga qarab o'quv jarayoni, mazmuni, o'qitiladigan darsliklaar sonini, qanaqa sinfda fandan bilim va berish kerakligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Misol uchun, umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlarning soni 20ga etadi. Lekin, afsuski, o'quv rejalarida yoshlarga ahloq va odob, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar asoslarini o'rgatadigan fanlar etarli o'rin emas. Mavjud fanlar tarkiban eski holda saqlanib qolmoqda. Bu esa mustaqillik va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga chiqqan davlat va milliy ehtiyojlarni qondirishga to'sqinlik qilmoqda.

17.2. O'zbekistonda professional ta'limining rivojlanishida davlat ta'lim standartining o'rni va roli

Davlat ta'lim standartlari ta'lim tizimining eng zarur va etarli darajasi hamda o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beradi.

Ta'lim mazmunining zaruriy o'zagi hisoblanmish ta'lim standarti vositasida mamlakat xududidagi turli o'quv muassasalarida ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. O'quv yuklamalari me'yoriga keltiriladi, ta'lim oluvchilar bilimni baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Ta'lim oluvchi davlat belgilagan ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda, ya'ni kengroq, chuqurroq bilim olishga va yuqori reyting balli to'plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki ta'lim oluvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unga standartda belgilangan me'yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda ta'lim oluvchi o'zining qiziqishi, xohishi, qobiliyat va intilishlarini ro'yobga chiqarishga, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari uchun majburiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar ochiq bo'lishini nazarda tutadi. Ta'lim oluvchilar uchun shakl va mazmun jihatidan tushunarli tarzda ifoda qilingan mazkur talablar ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalariga oldindan ma'lum qilinadi.

Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi. O'rta maxsus, professional ta'limtarmoqli standarti – malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosida muayyan tayyorlov yo'nalishi va

kasb-hunar bo'yicha ta'lim mazmunining zarur va etarli hajmi va so'nggi maqsadlarini, o'quv yuklamalari hajmini aniqlovchi hamda ta'lim sifatining standart talablariga muvofiqligini ta'minlovchi me'yoriy hujjatdir.

Professional ta'lim dasturi kasb-hunar kolleji bitiruvchisiga egallagan kasbi bo'yicha ishni malakali bajarish imkonini berish hajmidagi ma'lum kasbga doir umumkasbiy va maxsus fanlarni hamda ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotini o'z ichiga oladi.

Professional ta'lim dasturini muvaffaqiyatli egallash kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini kasbi va ixtisosligi bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlaydi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini standartlashtirishning maqsadi va vazifalari – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning manfaatlarini himoya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini, ta'lim faoliyatini baholash mezonlari va tartibini belgilashdan iboratdir.

professional ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlariga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibiga, xalqning boy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etishdan iborat bo'ladi.

professional ta'lim, o'quv-tarbiya jarayonini, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan, ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzimning xususiyatlari.

2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalari.

3. O'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklarda ifodalangan.

O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi.

O'quv rejasi – barcha umumta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

O'quv dasturi – o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy – siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

Darslik – o'quv jarayonining zarur qismidir. Ko'p vaqtlardan beri u o'qitishning eng muhim vositasi xisoblanar edi.

Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Darsliklar bilan bir qatorda ayrim fanlardan o'quv qo'llanmalar xam tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblari va shu kabilarni misol qilib keltirish mumkin.¹

O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash tarbiyalanuvchilarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq-odob, nutq va tafakkurning va mustaqil fikrning rivojlanishiga yordam beradi.

¹ Н.Хўжаев ва бошқалар. Таълим назарияси. Ўқув қўлланма. - Т.: ТДИУ. 2003. 28-бет.

17.3. Uzluksiz ta'lim tizimida davlat ta'lim standartlariga amal qilish

O'zbekiston siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyolash Milliy dasturi" haqidagi Qonunlarini hayotga tadbiiq etishda yangi istiqbollarni ochib berdi. Bu vazifalarni bajarish murakkab va ko'p tarmoqli jarayon bo'lib, yangidan tug'ilyotgan va o'tishdan meros bo'lib kelgan ko'pgina muammolarni hal etishni talab qiladi. O'zgarishlar davomida aniq-ravshan ijobiy hodisalar bilan birgalikda salbiy hodisalar ham kuzatilmoqda. SHundan kelib chiqib kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, milliy ta'lim tizimini xalqaro darajaga olib chiqishni ta'minlash, uzluksiz ta'limining faoliyati va rivojiga qulay sharoit yaratish zaruriy ehtiyojga aylandi.

Keyingi yillarda milliy ta'lim standartlarini yaratish jarayoni jahonning ko'pgina mamlakatlari uchun xosdir. Ta'limga davlat standarti kiritishning muhimligi shundaki, ta'lim jarayonini tartibga solish va istalgan natijaga erishish uchun uni davlat miqiyosidagi va xalqaro darajadagi hujjatlar bilan ta'minlash zarur. Bunday hujjatlarda belgilangan me'yor va talablar barcha uchun vazirlikdan tortib, to pedagogok-o'qituvchilar, ota-onalargacha bajarishni talab etiladi. Bular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonunlari, "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqalardir. Qonundagi aniq talablarni joriy etish va bunda ta'lim jarayoni barcha qatnashchilarining manfaatlarini himoya qilish uchun esa ta'limning davlat standartlari ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

Me'yoriy hujjatlar tizimida standart, ta'lim tizimining faoliyati muayyan me'yoriy hujjatlar asosida boshqarilib boriladi, ta'lim standarti bugungi kunda shulardan biri bo'lib qolmoqda. Standart tushunchasi me'yor, namuna, o'lchov ma'nolarini anglatadi. Standartlar, odatda, muayyan xususiyat va sifatga ega, jamiyat ehtiyojini qondira oladigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi kishilar va tashkilotlar munosabatlari va faoliyatini boshqarish usulini tayin etadi.

Ta'lim stanrdartlashning maqsad va vazifalari. Davlat ta'lim standarti quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutishi lozim:

-ta'lim berishning sifati masalalarida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish va kadrlar tayyorlash, ta'limiy xizmatlarni tavsiya etish mehnat bozorini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash;

-shaxs, davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash va ta'lim berish sifatini oshirish, xalqaro tajribalar asosida fan va texnikani rivojlantirish;

-kadrlar tayyorlash va ta'lim jarayonida muvofiqlik va uzluksizlikni ta'minlash;

-ta'limning barcha shakl va bo'g'inlarida o'quv tarbiya jarayonini mukammallashtirishga ko'mak berish;

-ta'limiy xizmat ko'rsatishda raqobat bo'lishini ta'minlash;

Ta'limni standartlashtirishning vazifalari:

Ta'lim berish va kadrlar tayyorlash, tavsiya etiluvchi ta'limiy xizmatlar ro'yxati va sifatiga yuqori talablar belgilash.

Davlat shaxs ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ta'lim berish va uning oqibat natijasining muayyan talablarni o'rnatuvchi me'yoriy hujjatlar tizimini ishlab chiqish, shuningdek mazkur xujjatdan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish.

Milliy standart talablarini xalqaro mezonlar bilan uyg'unligini ta'minlash.

Ta'lim to'g'risidagi milliy hujjatlarning shu turdagi hujjatlarga mos kelishini ta'minlash.

Uzluksiz ta'lim jarayoning tarkibiy qismlari va tarkibiy unsurlariaro bog'liqlik va muvofiqlik bo'lishiga erishish.

Ta'lim berish va kadrlar tayyorlashda yuqori natijalarga erishuvda moddiy boyliklar, vaqt va boshqa sarf-xarajatlarni kamaytirish.

O'quv-tarbiya jarayoni va umuman, ta'lim uchun me'yor, qoida, ko'rsatma va talablar belgilash.

Standartlash buyicha xalqaro tajribalarni bevosita qo'llash amaliyotini kengaytirish, agar ulardagi talablar O'zbekiston Respublikasining ta'limi fani, madaniyati, texnikasi va texnologiyasi uchun mos tushsa chet el davlatlari milliy standartlari yo'riqidan foydalanish.

Pedagogik texnologiyalar (o'quv-o'qituv va tarbiya metodikasi o'qitishning texnik vositalari va b.)ga muayyan talablar belgilash.

Ta'lim darajasini, ta'lim olayotganlar va bitiruvchilar malakasini baholash va nazorat qilishning me'yoriy-texnik va metodik ta'minotini yuzaga keltirish.

Ta'lim standartlari turli mamlakatlarda turlicha amalga oshiriladi. Lekin ta'limga nisbatan "standart" atamasidan foydalanish yaqindan ishlatila boshlandi. Bizning mamlakatimizda ta'limni standartlashga asosan 1993 yildan kirishildi. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish

va uni hozirgi bosqichda amaliyotga tatbiq etishning imkoniyati yuzaga keldi.

Standartni ishlab chiqish “Ta’lim to’g’risida” gi qonunning 7-maddasi va muayyan bandlarida, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta’limning mazmuni haqida bayon etilgan umumiy talablarga ko’ra amalga oshiriladi.

Standart vositasida ta’limning talab etilgan darajasini bir me’yorda saqlash, uni jamiyat taraqqiyoti istiqboliga ko’ra takomillashtirish amalga oshiriladi.

Standart oldiga quyidagi tallablar quyiladi:

1. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji ehtiyojlari va xalqaro tajribalarni tahlil qilish asosida ta’lim jarayonidagi barcha manfaatdor tomonlarning imkoniyatlarini hisobga olish.

2. Standartda, avvalo, oqibat natijalarni me’yorlashtirish ko’zda tutiladi.

3. Standartlarda ta’limning shakli, bosqichi va sohalari bo’yicha muvofiqlik tajribalarini saqlash talab etiladi.

4. Standart mazmuni va ichki tuzilishiga ko’ra, shaxs kamolotini ta’minlash nuqtai nazarida to’laqonli bo’lishi lozim.

5. Standartlardagi har bir band bayoni uning yaxlitligini ta’minlaydigan izchil va ta’limning maqsadlarini to’la qamrab olganligi nuqtai nazaridan iloji bor qadar mukammal bo’lishi kerak.

6. O’zining ichki tuzilishi, mazmun-mundarijasiga ko’ra standart davlatning, mintaqaning va ta’lim muassasining manfaatlari mutanosibligini. Huquqini aks ettirishi lozim.

7. Mazmunan standart o’quv yuklamalarini me’yorlashtirishi lozim.

8. Standartning mazmun-mundarijasiga undan foydalanuvchilarning barcha toifalarini hisobga olmog’i darkor.

9. Standart texnik vositalari bilan tekshirish ehtimoliga mo’ljallangan, ya’ni texnik jihatdan qulay bo’lishi lozim.

Yuqoridagi tallablardan kelib chiqib ta’lim standartlari bir necha bosqichda olib boriladi. Davlat ta’lim standartlar shunday me’yorlarni belgilaydiki, unga amal qilish O’zbekiston miqyosidagi yagona pedagogik muhitni saqlab turishni ta’minlaydi, jahon madaniyati tizimida, fan, texnika va texnologiya yangiliklari ta’sirida shaxsning uyg’unligini ta’minlaydi.

Ta’lim standartini amaliyotga kiritish har bir ta’lim oluvchining muayyan va oldindan belgilab qo’yilgan ma’lumotni olish uchun kafolat

berishga imkoniyat yaratadi, oqibatda kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligi oshadi.

O‘z-o‘zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qanday amalga oshiriladi?
2. Pedagogik jamoaga ta’rif bering?
3. Marketing – nima?
4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing tizimi haqida so‘zlab bering?
5. Boshqaruv dasturi qanday amalga oshiriladi?
6. SHaxs rivojlanishining asosiy psixologik va pedagogik omillari haqida so‘zlab bering?
7. SHaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi qanday kuchlar mavjud?
8. O‘quv yurtlarida ta’lim jarayoni qanday shakllarda amalga oshiriladi?
9. Menejment – nima?
10. Rahbarga shaxsiga qo‘yiladigan talablar Siningcha bugungi kun rahbari qanday xislatlarga ega bo‘lishi kerak?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002.
2. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod. red. V.A.Slastenina. - Moskva. Akademiya, 2004 g.
3. E.N.Pronina, V.V.Lukashevich. «Psixologiya i pedagogika». Uchebnik dlya studentov VUZov. - M.: Elit, 2004 g.
4. O‘. Tolipov., M.Barakaev., SH.SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma’ruzalar matni).– T.: TDIU, 2001 yil.
5. N.Xo‘jaev va boshqalar. Pedagogika asoslari .- T.: TDIU, 2003 yil.
6. www.inter-pedagogika.ru.
7. www.bilimdon.uz. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asosiy veb sayti.

18-MAVZU: PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Reja:

- 18.1. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish
- 18.2. Pedagogik jamoa – o'quv muassasasini boshqarishning obyekti
- 18.3. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi
- 18.4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing.
- 18.5. Kasbiy ta'limda rahbarlik qilish va unga qo'yiladigan talablar.

Tayanch so'zlar: Boshqarish , rahbarlik, o'qituvchi rahbar, rahbar sifatlari, rahbarlik qobiliyati.

18.1. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish

Mustaqil Respublikamiz amaliyotida qo'llanayotgan qomusimizda belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har tomonlama kamolga etgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari - iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, muruvvatlilik, qanoatlilik va sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish zarurdir.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. SHunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari aynan ana shu maqsadga erishishni taqozo etadi.

Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko'pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o'quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o'sishini ta'minlaydi.

Quyida o'quv-tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko'rib chiqamiz.

1. Tarbiyaning ma'lum bir maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko'ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo'ysundirilgan bo'lsa, uning g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo'ladi.

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama kamol topgan — mukammal inson shaxsini voyaga etkazishdan iboratdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda yosh yigit-qizlarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

2. Tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi; Umumiy ta'lim maktabida yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchiga ehtiyoj tug'iladi. Zero o'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni xarakterga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. O'qituvchi o'zining insoniy fazilatlari, yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, odob-axloqi va muomalasi bilan o'quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo'naltirishi zarur.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishdek mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchi-talabalarni bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchi-talabaning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yukori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degandi: «Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatni, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta

qilmog‘i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordir”¹.

O‘quv jarayonini boshqarish nisbatan oson, uning natijalari darhol namoyon bo‘ladi. Tarbiyaviy jarayon esa g‘oyatda murakkab.

SHunisi quvonarliki, tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma’naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida, xalq ta’limi islohotlarida, olimlar va ijodkor o‘qituvchilarning izlanishlarida o‘z aksini topmoqda. O‘zbekistonning uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha o‘quv muassasalari yosh avlod ongida milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, ma’naviyatni milliy merosimiz bilan boyitish, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish

orqali amalga oshiriladi. SHu sababli o‘quv muassasasini boshqarishning uslublari asosida ijodiy yondashmoqdalar.

Ma’lumki, o‘quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish asosiy obyektidir pedagogik jamoa hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati quyidagi ikki asosiy masalani echishga qaratiladi:

1. Pedagoglar faoliyatini yo‘naltirish.
2. Pedagoglar faoliyatini faollashtirish.

Birinchi masalani hal qilish uchun boshqaruv sub’ekti xodimlar faoliyatini talab etiladigan yo‘nalishga soluvchi ma’lum dasturni ishlab chiqishga zarurat tug‘iladi. Ikkinchi masalani amalga oshirish uchun esa shaxsning hissiy-ehtiyoj sohasidagi talablarini (moddiy va ma’naviy, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, mehnatni tashkillashtirishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish) rag‘batlantirishni qondiruvchi imtiyozli sharoitlar yaratish taqozo etiladi.

Pedagogik faoliyatni faollashtirishda boshqaruv dasturining sifati, ya’ni aniqligi, real sharoitga asoslanganligi, pirovardida yuqori natija berishi, ishlanganlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Har bir sohaga oid dasturlar alohida xususiyatlarga ega bo‘ladi, biroq ularning barchasida quyidagi qonuniyatlar kuzatiladi: bajariladigan ish qay darajada ko‘proq ijodiy mehnatni talab qilsa, jamiyat shu darajada insonparvarlashib va demokratlashib boradi, cheklashlar qay darajada kam bo‘lsa tashabbus bilan ishlash darajasi shuncha ortib boradi.

¹ А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: 1992. 43-бет.

18.2. Pedagogik jamoa – o‘quv muassasasini boshqarishning obykti

Respublikamiz hukumati tomonidan ta'lim sohasida o'rtaga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan pedagogik jamoaga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish vazifasi asosan pedagogik jamoa zimmasiga yuklatilgan. Bu o'z navbatida o'quv muassasasini boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Qaysi o'quv muassasasida ichki va tashqi nazorat yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha ta'lim maskanida ta'lim-tarbiya ishlari ham izchil bo'ladi. Pedagoglar jamoasi ishini sistemali nazorat qilish bir tomondan har bir pedagogning o'z ishi uchun mas'uliyatini oshiradi hamda o'z faoliyatida uchraydigan kamchiliklarni vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi.

Ta'lim muassasasi ishini har jihatdan to'g'ri tashkil qilish, uning samaradorligi natijasi garovidir. Bu esa jamoa mehnati jarayonlarini oqilona yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Binobarin, yoshlarni tarbiyalash ko'plab kishilarning umumiy mehnati jarayonida hal qilinar ekan, demak bu mehnatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning kuchlari qanchalik to'g'ri yo'naltirilganligiga, maqsadlar birligi va harakatlar muvofiqligi qanday ta'minlanayotganligiga bog'liqdir. Aks holda birgalikda qilinayotgan jamoa mehnatining samaradorligi pasayib ketishi mumkin. Umum maqsadlarga erishish yo'lida o'qituvchi-pedagoglar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlash, o'zaro hamkorlik aloqalarini izchil yo'lga qo'yish, maktabni boshqarishning muhim vazifasi bo'lib, bu vazifaning pirovard natijasi asosan rahbarning faoliyatiga bog'liq.

Ta'lim muassasasini boshqarishda rahbar:

1. Tizimni tashkil etishni ishlab chiqishi, tadqiqot, loyihalash ishlarini yo'lga qo'yib ish tartibini belgilashi, shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasligi.

2. Amaliy ish bajarishning belgilangan tartibda va tizimga muvofiq bajarilayotganini tekshirish.

3. Ish me'yorining buzilishiga yo'l qo'yimaslikni, qiyinchilik va to'siqlarni o'z vaqtida bartaraf etilishini kuzatishi va shu singari boshqa muhim ishlarni amalga oshirishi lozim.

Demak, ta'lim muassasasi rahbari ish faoliyatini 4 bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Olingan axborot asosida qaror qabul qilish. Ishning vazifalarini va yo'nalishlarini belgilash. Ma'lum obyektiv ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish. Yaqin istiqbolli rejalarni belgilash. Ishning mavjud

haqiqiy ahvolini belgilash, ularni taqqoslash, imkoniyat darajalarini hisobga olish, variantlarni tanlash, muassasaning rivojlanish yo'lini belgilash va boshqalar.

2. Tegishli yangi qarorlarning asosiy g'oyalarini ularni ijro qiluvchilarga tushuntirishi, olingan ma'lumotlarga asosan ishni ko'rib chiqib, kamchiliklarni tuzatishi, bu vazifalarni amalga oshirishda o'quv-tarbiyaga oid tadbirlarni amalga oshirishi, kadrlar tanlashdan to'g'ri foydalanishi va hokazolar.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonining haqiqiy ahvoli to'g'risida doimiy ishonchli ma'lumotlar olib turishi, davlat dasturlarining bajarilishini, talabalarda yagonalikka erishilishini nazorat qilishi, o'qituvchilar va butun jamoaning hisobotlarini eshitib borishi va boshqalar.

4. Favqulodda yuzaga kelgan kamchilik va nuqsonlar hamda to'siqlarni bartaraf etishi, intizomga oid suhbatlar tashkil qilishi, shikoyat va iltimos bilan kelgan ota-onalarni qabul qilishi, muassasani boshqarishning asosiy vazifalaridan chalg'itmaydigan ishlar va topshiriqlarni bajarishi va hokazolar.

Har o'quv yilining oxirida pedagoglar jamoasi faoliyati yakunlari muayyan shaklda aniqlanadi va baholanadi. Mazkur jarayon bundan keyingi ishlarning tashkil etuvchisi va boshlanishi bo'lib xizmat qiladi. Pedagog o'quv yili oxirida qilingan barcha ishlardan olingan natijalarni solishtirib u yoki bu metodlarning qanchalik muhim ekanligiga baho berishi va shu asosda tajriba to'plashi, o'z ishini takomillashtirib borishi mumkin.

Yil davomida pedagoglar jamoasida muhokama qilish uchun barcha pedagoglarning bir xildagi tushunishi mumkin bo'lgan prinsipial masalalarni qo'yib borish ham yaxshi natija beradi. Jamoa rahbari ma'naviyat-ma'rifat borasidagi ishlarning haqiqiy ahvolini, mashg'ulotlarga, suhbatlarga, majlislarga, turli mavzulardagi yig'ilishlarda muntazam qatnashish hamda ota-onalar, talabalar, pedagoglar bilan doimiy suhbatlar o'tkazish orqali o'rganib boradi va ayrim juz'iy kamchiliklarni yo'l-yo'lakay tuzatib boradi.

YUqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, demak, jamoa rahbari va jamoa a'zolarining faolligisiz, ta'lim-tarbiya ishlarida samarali natijalarga erishib bo'lmaydi. SHu sababli ta'lim muassasasi rahbari doimo ularning kuchiga tayangan holda ish yuritishi va ular bilan muntazam ravishda aloqada bo'lib turishi zarur.

18.3. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi

Ushbu qonuniyat o'qituvchilardan tashabbusni, mustaqil qaror chiqara olishni, o'z vazifasiga ijodiy yondoshuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham tom ma'noda taalluqlidir. SHu sababli bu sohada bajarilishi qat'iy talab etiladigan direktiv dasturlarning kamroq qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish tartibi, hujjatlarni yuritish va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablarni belgilash bilan cheklanish mumkin. Ta'lim natijasiga belgilanadigan talab qat'iy belgilanadi va u davlat ta'lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko'rsatkichi esa, mos ravishda ta'lim oluvchilarning ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o'z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan erkinlik berilishini anglatmaydi. Ushbu yo'nalish e'tiborini ta'lim jarayoni usullari va mazmunidan uning yakuniy natijasiga ko'chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyligi nuqtai nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-metodik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ularning bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o'zi uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga ega. Informativ dasturlarni bajarish to'laliligicha pedagogning xohishi, uning ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlarning bajarilishi majburiy bo'lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasida informativ dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta'lim muassasasini boshqarish konsepsiyasini ko'plab boshqaruv g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondashilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy elementlarni uchratish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, harakat, natijalarni baholash va tizimga tegishli tuzatishlar kiritish.

Boshqaruv jarayoni davriy xarakterga ega bo'lib, mazkur davrlarning har biri o'z davomiyligi, tatbiq etilish sohasi, vazifalari va echimiga ega. Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo'g'in sifatida tasavvur qilish mumkin:

1. Axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili.
2. Boshqaruv qarorining qabul qilinishi.

3. Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish.
4. Rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish.
5. Hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarini tahlil qilish.

18.4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing

Bugungi kunda kasbiy ta'lim muassasalari ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat ko'rsatishi va ta'lim oluvchilarni raqobatbardosh qilib tayyorlashi talab etiladi. Bunda ta'lim muassasasining marketing xizmati muhim o'rin tutadi. Marketing tadqiqotlari keng sohadagi bir qancha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- qisqa (1 yilgacha) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- uzoq (1 yildan ortiq) muddatli ijtimoiy-pedagogik prognozlar;
- bozorning joriy va istiqbol potensialini o'rganish;
- bitiruvchilarning ishga joylashuv statistikasi tahlili;
- yangi sohalar mutaxassislarining ish o'rinlarini o'rganish;
- yangi ish o'rinlarini yaratishning yo'nalishlarini tadqiq qilish;
- bozor narxlarining belgilanish xarakterini o'rganish;
- ta'lim muassasasi ish faoliyatining samaradorligini belgilash.

Ta'lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo'nalishi barcha imkoniyatlarni asosiy maqsad - yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim muassasasi rahbari tomonidan olg'a suriladigan rejalar va muhim tadbirlar jamoada muhokama qilinishi hamda muvofiqlashtirilishi lozim. Rahbarning bu boradagi harakatlari qo'yilgan vazifani amalga oshirishga izchil va qat'iy yondashib borilganda doimo qabul qilinadi va qo'llab-quvatlanadi. O'quv yurti rahbari jamoada o'z ishini o'zaro hurmat va talabchanlik asosida tashkil etishi lozim.

Rahbarlik qiluvchining shaxs o'z xatti-harakatlari bilan jamoaga ibrat ko'rsata olishi amalga oshiriladigan qat'iy choralarning tushunilishi va ijobiy samarasini ta'minlaydi.

Agar rahbar o'z sohasining bilimdoni, deylik u yaxshi bir pedagog bo'lishi mumkin yoki bo'lmasa u ajoyib insoniy fazilatlari bilan odamlarning hurmat-e'tiborini qozongan, ularni nimagadir og'dirish, nimagadir ishontirish, nimagadir undash yoki nimagadir ergashtirishni qoyilmaqom qilib uddalay oladigan bo'lsin. Lekin u kundalik tashvishlaridan ortib, o'z ustida ishlamasa, bugungi kunning dolzarb muammolari, dunyo miqyosida ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida hech

qanday tasavvurga ega bo'lmasa, bunday rahbar o'zi istamagan holda tuzatilmas xatoga yo'l qo'yishi hech gap emas. YUrtboshimiz ta'kidlab o'tganidek "...bugungi hayot shiddati, voqealar rivoji shu qadar jo'shqinki, biz ma'naviyat va mafkura borasida qanchalik muhim va zarur ishlarni amalga oshirayotgan bo'lsak-da, ba'zi o'rinlarda afsuski kech qolyapmiz".

Jamiyat hayotining turli sohalarida global o'zgartirishlarni amalga oshirishning eng muhim muammolaridan biri boshqaruvchi kadrlar muammosidir. Ta'lim ham jamiyatning tarkibiy qismi sifatida hozirgi zamon sharoitida o'quv yurti ishida boshqarish nazariyasidan foydalanish muammolarining yanada rivojlantirilishiga ehtiyoj sezadi.

Rahbarlar-rahbar-menejer jamoasini shakllantirish murakkab masaladir. Hayotning o'zi, bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik amaliyoti bu masala uning hal etilishiga ko'maklashadi. Biroq ko'p narsa kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, boshqaruvning ilg'or tajribasini o'rganish va yoyish, boshqaruv fani yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha maqsadga yo'natirilgan ishga ham bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishning aniq yo'llaridan biri bozor sharoitida bir necha yuz yildan beri yashab kelayotgan ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishdan iborat. XXI asrda bunday tajribaning juda qimmatli aspektlaridan biri keng hajmli "menejment" tushunchasi bilan qamrab olinadigan faoliyat va bilim sohasidir. Bunda "menejment" tushunchasiboshqarish vazifasini kasb sifatida amalga oshiruvchi odamlar-menejrlarni ham anglatadi.

Boshqaruvni hali juda yosh, fanlararo rang-barang yutuqlariga tayanadigan ilmiy va amaliy bilimning kasbi sifatida anglab etish hozirgi zamon sivilizatsiyasida mustahkam o'rin tutmoqda. Bular XX asr boshida F.Teylorning "Ilmiy boshqaruv", M.Veberning "Ideal byurokratiya", A.Fayolyaning "Ma'muriyat fani" kabi asarlarda o'zining aniq ifodasini topgan. Bu bilim sohasi dastlab boshqaruvda qat'iy va yagona ratsionalizm (amaliylik) yo'lidan bordi. Biroq bu menejmentda ratsionalizmning barcha afzalliklariga qaramasdan, ko'pchilik hollarda yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarda o'quv yurtlarining ish samaradorligini oshirishda eng yaxshi yo'l ham emas ekan. Boshqarish bilimlari tizimida boshqarish ratsionalizmining cheklanganlikdan ta'sirlanishi sifatida boshqa fe'l-atvoriy yo'nalish mustahkam qaror topdiki, bu tashkilotlarda boshqarishning real mohiyatini tushunishni chuqurlashtirish uchun psixologiya, sotsiologiya, madaniy antropologiya yutuqlarini keng jalb qilishga asoslangan. Bu yo'nalish asosida "odamlar

orasidagi munosabatlarni" takomillashtirish, "inson omilini" ishga solish, muhandis-pedagog, iqqisodchi-pedagog va boshqa xodimlarning boshqaruv jarayoni ixgirosini rivojlantirish, peshqadamlik samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar amalga oshirila boshlandi.

Boshqaruv tafakkuri uchun nazariy va amaliy jihatdan bugungi kunda eng xos narsa nima? Adabiy manbalarni tahlil etishning ko'rsatishicha ikkita yangi oqim eng ko'p ko'zga ko'rinmo³da.¹

1. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon iqtisodiyotida raqobat va o'zaro boqliqlikning o'sishi, tranmilliy korporatsiyalarning rivojlanishi, xalqaro axborot tizimlarshing yaratilishi, integratsiya xususiyatli boshqa tuzilmalar munosabati bilan yuzaga kelgan yangi voqealikalarni jamoaviy tafakkur qilish.

Boshqarish bo'yicha ko'plab adabiyotlarning chop etilishi, millionlab odamlarga tushunarli bo'lgan menejment bo'yicha dasturlarning tarqalishi, turli mamlakatlarning boshqarish tajribasini tekshirish orqali umumlashtirish, holatlarni ishlab chiqish, olimlar va amaliyotchilarning xalqaro keng aloqalari vositasi orqali «boshqarish» fani unga ehtiyoj sezayotgan barcha kishilarning mulkiga aylanmoqda.

2. So'nggi yillarning xususiyati shundaki, boshqarishning og'ir yukini o'z zimmasiga olayotgan yoki shu yo'lga qadam qo'yayotgan rahbarlarning tushunishlari va foydalanishlari uchun kuchlari etadigan bo'lgan, yaxshi o'zlashtiriladigan retseptlarga hamda haqiqatlarga murojaat qilinmoqda. Menejment fan sifatida o'zining butun serqirraliligi bilan o'z yo'li bo'yicha rivojlanmo³da va ulkan istiqbolga erishmoqda.

18.5. Kasbiy ta'limda rahbarlik qilish va unga qo'yiladigan talablar

«Rahbarlik qilish» so'ziga izohli lug'atda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo'naltirish, ko'rsatma berish kabi ta'riflar berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda rahbarlar zimmasiga yuklatilgan talablar juda ko'pdir. Ularni quyidagi besh yirik guruhga bo'lish mumkin.

1. Ma'naviy etuklik.

- siyosiy, huquqiy va axloqiy etuklik;

- ma'rifatlilik va madaniyatlilik;

- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;

-topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik.

¹ С.С.Фуломов.ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. - Т.: "Шарқ, 2000.

- tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati.

2. Intizom va mehnatga bo'lgan munosabati.

- mehnatsevarlik; jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;

- atrofda gilar da mehnatsevarlik fazilatlarini tarbiyalay bilish;

- ishni rejali olib borish.

3. Bilim darajasi.

- iqtisodiyotni, texnika va texnologiyani bilishi;

- boshqarish ilmini, funksiyalari va tuzilishini bilishi;

- istiqbolni bilishga qodirligi.

4. Tashkilotchilik qobiliyati.

- xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni uddalay bilish;

- qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalash salohiyatiga ega bo'lish;

- jipslashgan jamoani vujudga keltira olish;

5. Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish.

- boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;

- ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyatiga ega bo'lish;

- turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;

- boshqaruv organi qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta'minlay bilish.

Har bir rahbar psixologik bilimlar bilan bir qatorda muayyan pedagogik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Aynan shu bilimlar yordamida yordamida u xodimlarga ularni tarbiyalash va mukammallashishlariga yanada samarali ta'sir ko'rsatuvchi shakl hamda usullarni topish mumkin.

Sharq mutafakkirlari rahbarlik haqida juda ko'p asarlarida ma'naviy axloqiy jihatlarga e'tibor bergan xamda yaxshi fikrlarni ma'naviy me'ros sifatida bizga qoldirgan.

Hikoyamizni eng avvalo, IX asrning oxirgi choragi - X asrning birinchi yarmida yashab o'tgan buyuk allomalardan biri Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi, - deb o'ylaymiz.

Abu Nasr Forobiyning bu asarida jamiyatda adolat o'rnatish, shahar, davlatni boshqarish yo'llari, yurtboshi, shahar hokimi qanday kishi bo'lishi kerakligi, boshliq uchun zarur hislat-fazilatlar haqida qimmatli fikr-mulohazalar keltirilgan. Asar muallifi boshliq hamda uning atrofida gilar rahbar kadrlarni tanlash va har birining u yoki bu hislat-fazilatlariga qarab o'ziga loyiq, munosib ishga qo'yish masalari xususida so'z yuritgan.

Uning fikricha, fozillar shahrining boshlig'i o'n ikkita hislat-fazilat egasi bo'lishi kerak.

Birinchidan, to'rt muchali sog'-omon bo'lishi, kasal bo'lmasligi, sog'ligi o'z zim-masidagi vazifalarni bekami-ko'st ado etishga halaqit bermasligi lozim.

Ikkinchidan, tabiatan nozik, farosatli bo'lishi, kim bilan muloqatda bo'lmasin, suhbatdoshining so'zlari, fikrlarini tez va to'g'ri tushunib, maqsadini ilg'ab oladigan bo'lishi, gap nimada ekanligini aniq tasavvur qila olishi zarur.

Uchinchidan, ko'rgan, eshitgan, anglagan narsalarni to'la-to'kis yodida saqlay oladigan, hech nimani esdan chiqarmaydigan darajada yaxshi xotiraga ega bo'lishi darkor.

To'rtinchidan, u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va ular nimani anglatishini tez bilib, seza oladigan bo'lsin.

Beshinchidan, chiroyli so'zlaydigan, fikrini aniq-ravshan tushuntira oladigan bo'lishi zarur.

Oltinchidan, u ta'limga tashna, bilim, ma'rifatga havasli, o'qish-o'rganishda har qanday qiyinchiliklardan qo'rqmay, hormay-tolmay ishlashga o'rgangan bo'lishi kerak.

Ettinchidan, ovqatlanishda, ichishlikda, qimor yoki boshqa o'yinlarda o'zini tiya oladigan, me'yorini bilib ish qiladigan bo'lishi lozim.

Sakkizinchidan, haq va haqiqatni, odil, haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi darkor.

To'qqizinchidan, o'z qadriga etadigan, qadr-qimmatini ardoqlaydigan, or-nomusli, pastkashlardan yuqori turuvchi, tug'ma oliy himmat, ulug' ishlarga intiladigan odam bo'lishi kerak.

O'ninchidan, boylik mol-dunyo ketidan quvmaydigan, bu dunyo boyliklari, so'm, dollar, evro va rubllarga qiziqmaydigan bo'lishi lozim.

O'n birinchidan, adolatparvar, odil odamlarni sevadigan, o'z odamlari va begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yoqtirmaydigan, nohaq jabrlangan-larga madadlashuvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan-go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. U har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi kerak. Haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutishi lozim.

O‘n ikkinchidan, o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi dardkor.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, ana shu o‘n ikki fazilatga ega bo‘lgan kishigina shaharga, xalqqa boshchilik qilishi ma’qul bo‘ladi. SHunday rahbarga ega bo‘lgan shahar aholisi osuda va farovon hayot kechirishi, yurtda adolat hukm surishi mumkin.

Ammo, deb afsuslanadi Abu nasr Forobiy bunday kishilar jamiyatda juda kam bo‘ladi. Bunday nodir insonlar topilmasligi ham mumkin. U hol-da, yuqorida sanab o‘tilgan fazilatlarining bir qanchasiga ega bo‘lgan inson-larni qidirish kerak. Fozillar shahri aholisi orasidan aqlli besh yoki olti ana shunday fazilatga ega bo‘lgan kishi ham aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qilishi mumkin, deb uqdiradi. Bugungi rahbar quyidagi muammolarni erkin hal eta olishi kerak:

- aqliy rivojlanish (xodimlarning umumiy va kasbiy ma’lumoti);
- ma’naviy boyish (madaniy tadbirlar tashkil etish, etik muammolarni echish);

- muomala madaniyatini yuksak darajaga ko‘tarish.

Bunda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim:

- ezgu ideallar bilan mashg‘ul bo‘lish;

- shaxsiy xislatlarni takomillashtirish.

Tarbiyaviy ta’sir rahbarning quyidagi omillarni bilishiga bog‘liq:

- xodim madaniyati va ma’lumot darajasi, uning axloqiy kasbiy va hayot tajribasining qay darajada rivojlanganligi;

- jismonan sog‘lomligi, ma’naviy barkamolligi;

- individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlari;

- mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit;

- axloqiy-ma’muriy choraga xodimning munosabati.

Tabiiyki, tarbiyaviy ta’sir umumiy va qotib qolgan bo‘lmasligi lozim, chunki yuqorida qayd etilgan omillar orqali har bir muayyan shaxs uchun o‘ziga xosyondashuvni talab qiladi. SHuning uchun tarbiyaviy ta’sir har bir shaxsning o‘ziga qaratilgan bo‘lishi kerak, bu esa rahbar tarbiyaning turli-tuman usullaridan xabardor bo‘lishini taqoza etadi.

Rahbar tarbiyaviy ta’sirni amalga oshirishining quyidagi ta’bir joiz bo‘lsa, «texnologik tamoyillari» mavjud:

1. Ruhiy o‘ziga xoslik, ya’ni shaxsga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishdan oldin uning individual, ijtimoiy-ruhiy sifatlarini anglash lozim;

2. Ma'naviy motivlar – o'ziga bo'ysunuvchilar oldida yuqori darajadagi xulq-atvor egasi ekanligini shaxsan namoyon etish;

3. Yakka tartibda yondashish, bu – har bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan «a'lo» tomonini izlash;

4. Mehnat faoliyatining talablariga moslashish, bu – xodim aqliy imkoniyatini aniqlash va undan samarali foydalanish bo'yicha muammoni hal etish;

5. SHaxsiy mo'ljal. Bu – xodimda noyob qobiliyat kurtaklarini o'stirish va ularni rivojlantirish.

Umuman olganda, rahbar xodimga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatar ekan, G.Salening quyidagi so'zlarini yodda tutishi foydadan xoli emas: «SHuni unutmangki, hamma uchun mos andoza yo'q. Biz, hammamiz – turli toifadamiz va muammolarimiz ham turlicha».

Ta'lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabat mustaqillik, ma'naviyat negizi asosida hukumat qarorlarida ta'lim islohotlarida olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan boyitishda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondoshmoqdalar. O'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. SHu sababli o'quv muassasasini boshqarishning asosiy obyekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

SHu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu bobda o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish, pedagogik jamoa-o'quv muassasasi boshqarishning obyekti, pedagogik faoliyatni faollashtirish yo'llari, ta'lim muassasasini boshqarish konsepsiyasi, pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi, rahbar va uning shaxsi kabilar ko'plab misollar asosida bayon qilingan.

O'z-o'zini nazorat vatekshirish uchun savollar:

1. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qanday amalga oshiriladi?
2. Pedagogik jamoaga ta'rif bering?
3. Marketing – nima?
4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing tizimi haqida so'zlab bering?
5. Boshqaruv dasturi qanday amalga oshiriladi?
6. SHaxs rivojlanishining asosiy psixologik va pedagogik omillari haqida so'zlab bering?

7. SHaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi qanday kuchlar mavjud?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Professionalnaya pedagogika. Uchebnik dlya studentov. – M.: Pedagogika, 2002.

2. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod. red.V.A.Slastenina. - Moskva. Akademiya, 2004 g.

3. E.N.Pronina, V.V.Lukashevich. «Psixologiya i pedagogika». Uchebnik dlya studentov VUZov. - M.: Elit, 2004 g.

4. O‘. Tolipov., M.Barakaev., SH.SHaripov. Kasbiy pedagogika. (Ma’ruzalar matni).– T.: TDIU, 2001 yil.

19-MAVZU: MUHANDIS-PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH

Reja:

- 19.1. Kasbiy malakaviy tuzilmada kadrlarning o'zgarishi.
- 19.2. Xodimlarning kasbiy ixtisosligini tahlil qilish metodikasi.
- 19.3. Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlar tayyorlashga qo'yiladigan asosiy talablar.
- 19.4. Xodimlarning kasbiy malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

Tayanch so'zlar: kadrlarning kasbiga sadoqati, kasbini moslashtirishi, qayta tayyorlanish, malaka oshirish, ixtisosligini o'zgartirish.

19.1. Kasbiy malakaviy tuzilmada kadrlarning o'zgarishi

Ta'lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash ta'lim sifatining asosiy yakuniy sifatidir, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **insonlar:** professor-o'qituvchilar tarkibi, ta'lim oluvchilar, o'quv-yordamchi faoliyat xodimlari, ma'muriy xodimlar va boshqalar;
- **texnologiyalar:** pedagogik, tarbiyaviy, informatsiyaviy, boshqaruv, nazorat qiluvchi va boshqalar;
- **moddiy-texnikaviy ta'minot:** binolar, jihozlar, laboratoriya va amaliyot bazasi va b;
- **me'yoriy-huquqiy va o'quv-metodik ta'minot;**
- **rag'batlantirishlar va asoslar;**
- **tashqi ta'sirlar:** bozor iqtisodiyoti talablari, korxonalar, jamiyat va davlat.

Ta'lim tizimining yuqorida keltirilgan tarkibiy unsurlari ustunlik qiluvchi omillar majmuini belgilaydi, bular ta'lim va xodimlarni kasbiy tayyorlash sifatiga ta'sir etadi.

Ilmiy-texnika inqilobi davrida ishchi xodimlarning mehnat qilish sharoiti o'zgaradi, chunki ishlab chiqarish jarayonida ishchi xodimning bajaradigan faoliyati, dunyoqarashi, o'zini o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar ya'ni ishlab chiqarish bosqichlarining rivojlanishi yangi mayllarning o'sishiga olib keladi. Ishchi xodim ushbu rivojlanishdan foydalangan holda yangicha ishlashni xohlaydi. Xodimlardagi o'zgarishlarni kuchaytirishda ishlab chiqarish faktorlari kuchli ta'sir etadi. Buning asosida jismoniy mehnat, ya'ni insonning bajaruvchi funksiyasi yotadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonida inson asosan 4 asosiy funksiyani bajaradi:

1. Ishchi xodim o'z jismoniy harakati bilan aylantiruvchi va harakatlantiruvchi harakatlar hosil qilishi uchun mehnat qurollarini ishlatishi;

2. Mehnat qurollarini boshqarishi va ularga ta'sir ko'rsatishi;

3. Ularni to'g'irlashi va ta'minlashi;

4. Ularni loyihalashtirishi va ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq qilishi.

Mehnatni boshqarishda zamonaviy ishchi xodimga 1 va 2 funksiyalardagi ko'rsatkichlar ahamiyatli bo'lishi bilan bir qatorda mehnatning mazmuni va ijodiyligini oshirishda 3-4 funksiyalar ham muhimdir.

Tarixga nazar solib ko'rsak, mashinasozlikda yuqori malakali ish darajasi oshib bormoqda. Masalan, 30-yillarda chilangar ta'mirlovchi 9-10 ta stanokda ishlay olgan bo'lsa, hozirda esa 25-30 stanokda bimalol boshqara oladi va 100 dan ortiq metall va nometall materiallar bilan ishlaydi. Bundan tashqari u payvandlashni ham bilishi kerak.

90-yillarda texnikaning rivojlanishi yangi tipdagi stanok ishchi xodimlarini yuzaga keltirdi. Keng profilli universal ishchi xodimlar vujudga keldi. Hozirda bu ishchi xodimlar 14 ta ixtisosliklarni egallagan. Bu ixtisosliklardan tokarlik avtomatlarni sozlovchilar, yarim avtomatni, avtomatlashtirilgan stanoklarni sozlovchi va boshqalar. Ishchi xodim sozlovchilarning bu guruhi elektrotexnik bilimiga ham ega.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida ham yuqori malakali ishchi xodim mutaxassislar vujudga kelmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlashga asoslangan agrar mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda yaratiladigan yalpi ichki mahsulotning qariyb 1/3 qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti mamlakatga valyuta tushumlarini 55 foizdan ortig'ini ta'minlaydigan muhim eksport manbalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillari mobaynida respublika qishloq xo'jaligida bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar o'zining ijobiy natijasini bera boshladi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligi mustaqil respublikamiz iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanib, uning zamon talablari darajasida rivojlantirilishi xalqimizning farovon turmush tarzini va istiqbolimizning barqaror bo'lishini kafolatlaydi. Buning uchun esa, sohani zamonaviy va har

jihtdan xorijiy yuksak malakaga ega bo'lgan mutaxassislar bilan ta'minlash birlamchi va muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda malakali mutaxassis xodimlar ish faoliyatini tekshirishda ularning ixtisosligi tahlil qilinadi, komissiyalar tuziladi. Tuzilgan komissiya a'zolari o'qituvchilar va vrachlardan iborat bo'ladi.

Reja tuziladi:

1. Mehnat turi va miqdorini aniqlash;
2. Texnik-tashkiliy sharoitlar;
3. Ishchi xodimlar bajaradigan ishlar;
4. Kvalifikatsiya;
5. Maxsus tajriba;
6. Javobgarlik;
7. Maxsus texnik talablar;
8. Maxsus jismoniy texnik talablar;
9. Tashkiliy tayyorlashga taklif;
10. Ilmiy texnik progressga etib borishi.

Bu tahlillarni sharoitni hisobga olgan holda bajarish kerak. Xodimlarning o'qishi uchun o'sha tashkilot etarli darajada o'quv materialiga ega bo'lishi kerak. Tahlilning natijasi xodimlarning tarkibiga bog'liq. Mehnatning sifati – uning mexanizatsiyalashganligi va avtomatlashtirilganligi, yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda xodimning ma'lum bir sohadagi aniq faoliyatini belgilab beradi. Ma'lum sohadagi xodimlarning ish quroli bilan ishlashi sifatni boshqarishni belgilab beradi.

19.3. Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlar tayyorlashga qo'yiladigan asosiy talablar

Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlarni boshqarishda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi nomli yangi mehnat turi paydo bo'ldi. Ularning mehnatida bir qancha umumiyliklar bor.

Keng qamrovli mutaxassis xodim o'z faoliyatida bir qancha kasblarni qamrab oladi, zarur bilimlarga, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Bu aralash texnologiya uchastkalaridagi ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshirishda qo'l keladi. U ishlab chiqarishning fan sohasidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lib, ishlab chiqarishning o'zgarib turadigan shartlariga tez ko'nikib keta oladi.

Keng ko'lamlı mutaxassis xodimning professionalligi shu bilan belgilanadiki, uning yangi joyga va yangi sharoitga tez ko'nikishidir.

Bunday hollarda qayta qurish va to'g'irlash ko'nikmalari hosil bo'ladi. Amaliy ko'nikmalar o'z-o'zidan o'zgarmaydi, bular ishlab chiqarish sharoitlarining o'zgarishi, mehnat jarayonlari tuzilmalari va uning miqdori bilan o'zgaradi.

Professionallikning yuqori bosqichlarga ko'tarilishi ko'p funksiyalarni bajarishi boshqa kompleks mehnat bilimlarida hamda ish faoliyatining kengayishi bilan kelib chiqadi. Professional ishchi xodim o'zi ishlab chiqargan mahsulotni tahlil qila oladi. Bu jarayondagi asosiy narsa, bu nazariy bilimlarni bilishda emas, balki amaliyotda ishlata olishdir.

Bugungi kunda integratsiya jarayoni texnik jarayonda yangi texnikani boshqara oladigan xodimlarni talab qiladi. Yuqori malakali xodimlar yuqori bilimlarga umumiy texnik bilimga, tajribaga ega bo'lgan, hamda ular ishlab chiqarishda yangi bilimlarni o'zining amaliy faoliyatida qo'llay oladigan ishchi xodimdir.

Alohida tarmoq korxonasi yoki tashkilot miqyosidagi muhandis-pedagog mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi xususida gapiradigan bo'lsak, bu strategiyaning ham bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bunday strategiyadagi asosiy masala bo'lib tegishli tarmoq va uning korxonasi yoki tashkilot sharoitidagi yangi xo'jalik yuritish tizimida yanada samarali faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash maqsadida ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy shakl va usullarini aniq ishlab chiqish va amaliyotga samarali joriy etish hisoblanadi. Bu strategiyaga ko'ra, tarmoqdagi ishlab chiqarish faoliyatining barcha bo'linmalariga istiqbolni to'g'ri baholay oladigan qo'l ostidagi kishilar bilan hamkorlikda ishlay oladigan va o'z mutaxassisligi sohasini puxta o'rgangan rahbar kadrlarni tanlash, shuningdek ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlari uchun yuqori malakali, vijdonli va har qanday sharoitga moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lgan muhandis-pedagog mutaxassislarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadlarda muhandis-pedagog mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning turli usul va shakllari strategiyada o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, har qanday korxonasi yoki tashkilotda mutaxassislar ishini muvaffaqiyatli tashkil etishda ularni kompleks va tizimli tarzda o'qitish muhim ahamiyatga egadir. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mutaxassislarni tayyorlashni rivojlantirish strategiyasi o'z ichiga barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarini qamrab oladigan turli xil o'qitish shakllarini olishi kerak. SHuning bilan birga mutaxassislarni tayyorlashni doimiy va

uzluksiz tarzda amalga oshirishni ta'minlash ham strategiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, alohida tarmoq korxonasi yoki tashkilotlar miqyosidagi mutaxassislarini tayyorlashni rivojlantirish strategiyasidagi mutaxassislarini malakasini oshirish va o'qitish shakllarini o'zida ifodalagan model tasvirlangan.

Ko'rinib turganidek, bu strategiyada mutaxassislar tayyorlashning aniq shakli va usullarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, tarmoq, korxonasi yoki tashkilotlardagi strategiya ham ko'plab bosqichlarga ega bo'ladi, biroq imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu bosqichlarga keyingi izlanishlarda to'xtalib o'tamiz.

Yuqorida mutaxassislarini tayyorlashni rivojlantirish strategiyasini ikkiga bo'lib ko'rib chiqdik. Biroq, bu degani bular bir-biridan alohida rivojlanadigan strategiyalar ekan deb xulosa chiqarishni anglatmaydi. Zero albatta har qanday tarmoq, korxonasi yoki tashkilotdagi bunday strategiyalar, birinchi navbatda, tegishli davlat strategiyalaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida muhandis-pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga quyidagi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Mamlakatdagi tarkibiy o'zgarishlar. Ma'lumki, O'zbekiston rejali iqtisodiy boshqaruv tizimidan yangi bozor iqtisodiyoti mexanizmi sari intilmoqda. Bu esa, tabiiy ravishda, yangi iqtisodiy shart-sharoitlar va tuzilmalarni yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda yangicha bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarsiz hech qanday muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. SHuning uchun ham mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirishning zamonaviy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qilmoqda.

2. Bugungi kunda «mehnat bozori»dagi ishsizlik muammolari. Bu ayniqsa, o'tish davridagi mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekistonda ham alohida echim talab qiladigan muammolardan hisoblanadi. O'tish davridagi mamlakatlarda ko'plab sanoat obyektlarining to'liq hajmda ishlash imkoniyatlarining kamayishi, davlatning ko'plab nazorat organlarini qisqartirilishi, shuningdek, yangi obyektlarga aylantirilayotgan korxonasi mutaxassislarining zamonaviy bilimlarga ega bo'lmasligi oqibatida mehnatga layoqatli ishsizlarning soni ortib boradi. Buning oldini olish uchun esa, bu ishsizlarni qisqa muddatli qayta

tayyorlash tizimini rivojlantirish orqali bozor talablariga mos bilim va tajribalarni oshirishga katta ehtiyoj seziladi.

Muhandis-pedagog kadrlar, ta'lim oluvchilar va uni ta'minlash uchun zarur resurslar o'quv-tarbiya jarayonining asosiy komponentlari hisoblanadi.



5-расм. Таълим тарбия жараёни

Muhandis-pedagog mutaxassislar ta'lim xizmatini talab etuvchilar sifatida oliy ta'lim (bakalavriyat, magistratura)ning barcha bosqichida ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan shaxs sifatida shakllantiruvchilardir. Davlat ta'lim standartlari va resurslari vositasida ularning sifatli ta'lim olishi va kasbiy tayyorlanishi kafolatlanadi. Ta'lim oluvchilarning vazifasi har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib etishishlari uchun oliy ta'lim tizimidagi keng imkoniyatlardan foydalanishdan iboratdir.¹

Oliy ta'lim resurslari quyidagilardan iborat:

- moliyalar (byudjet va byudjetdan tashqari manbalardan olinadigan);
- moddiy-texnika bazasi, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan;
- kompyuter texnologiyalarining texnikaviy, matematik va dastur ta'minoti;
- informatsiya bazasi (darsliklar va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazma materiallar va jihozlar va h.k.).

O'quv-tarbiya jarayonining sanab o'tilgan komponentlari kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Ularning sifati va raqobatbardoshligi

¹ Эгамбердиев Э., Хўжамқулов Х. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. – Т.: Маънавият, 2003. 81-бет.

ayrim olingan har bir komponentning va umumiy zaminning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

XXI asrga kelib, yangi texnika va texnologiyalarning jadal sur'atlarda o'sib borayotganligi, hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari ayniqsa, halqaro internet tizimining butun dunyoni qamrab olayotganligi, mamlakatimizga chet el sarmoyasi orqali rivojlangan mamlakatlarning import asbob-uskunalarini kirib kelayotganligi, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarda yangi talablar asosida boshqaruv va ishlab chiqarish tizimlarini takomillashtirish zaruriyati kabilar etuk malakali mutaxassislar tayyorlashni talab qilmoqda.

Shunday qilib, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekistonda muhandis-pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish strategiyasini jahon talablari darajasida amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz joizki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday strategiyada birinchi navbatda, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro integratsiyalashuvni yanada chuqurlashtirish masalasiga asosiy e'tibor qaratilishi kerak. Shunday bo'lgandagina respublikamizda muhandis-pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimidagi sifat kriteriyasini kutilgan darajada rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, mamlakatimiz korxonalar va tashkilotlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishishni, mos ravishda mamlakat makroiqtisodiy o'sishiga erishishni ta'minlaydi.

19.4. Xodimlarning kasbiy malakasini oshirish va qayta tayyorlash

Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilarni o'qitish va malakasini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. Chet ellarda ularni tashkil qilishda maxsus o'rgatuvchi tashkilotlar ishtirok etadi (masalan, biznes maktabi, malaka oshirish fakulteti, boshqaruv universiteti). Hozirgi kunda chet el va mamlakatimiz olim va mutaxassislari yordamida ishlab chiqilgan tadbirkorlik bo'yicha yangi o'quv dasturlari keng qo'llanilmoqda.²

Yo'nalish bo'yicha o'quv dasturlari quyidagilarga bo'linadi:
- boshlang'ich o'qish dasturlari;

² Гуломов С.С. Тadbirkorlik va kichik бизнес.-Т.: Шарк, 2002, 147-бет.

- tadbirkorlik ishini kompleks o'qishini ta'minlab beruvchi dasturlar va uning alohida tomonlarini o'rgatuvchi dasturlar (masalan, marketing, bank ishi, qimmatbaho qog'ozlar);

- boshqaruv faoliyatini o'rganish dasturlari va mutaxassisni o'qituvchi dasturlar o'qish dasturini vaqtinchalik omili bo'yicha qisqa va uzoq muddatga bo'linadi.

O'qishning ko'lamiga qarab quyidagi dasturlardan foydalaniladi:

1. Doimiy tavsifga ega dasturlar, ko'pincha to'g'ri yoki qisman o'qish dasturi hisoblanadi. Ularga tadbirkorlarni o'qitish dasturlari kiradi.

2. Malakani oshirish dasturlari chet ellardagi kabi bizning respublikamizda ham keng tarqalmoqda.

Kichik biznes ham boshqa faoliyat kabi, doimo ishchilarni o'qitishni talab qiladi. Bu jarayon kadrlarni sifatini va rivojlanishini ta'minlaydi.

O'qish – bu odamning fundamental bilim olish jarayonidir. Aslida, u maktablarda, kollejlarda, institutlarda, universitetlarda yoki boshqa joylarda amalga oshadi. Islohotlar o'qishning turlariga ta'sir qiladi. Oliy ma'lumot ochiq va demokratik holda bo'ladi. Oliy ma'lumotni rivojlantirishning boshqa ko'rinishi—bu oliy va o'rta maxsus o'qishni integratsiya qilishdir.

Oliy ma'lumot islohoti o'z ichiga quyidagi yo'nalishlarni oladi:

1. Yangi takomillashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda xalqaro o'qish jarayonini tashkil qilish.

2. Auditoriya darslari va mustaqil ishlar orasidagi o'quv vaqtini eng qulay tarzda taqsimlash va boshqalar.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi mutaxassislari ishtirokida «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz iqtisodiy ta'lim konsepsiyasi» ishlab chiqilgan. Bu konsepsiyada uzluksiz iqtisodiy ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishning strategik yo'nalishlari belgilab qo'yilgan bo'lib, ular muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlashning va umumiy iqtisodiy ta'limning jahon andozalariga mos keladi. Uzluksiz iqtisodiy ta'lim konsepsiyasini amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ta'lim andozalariga mos yuqori malakali kadrlarni

Halqaro standart ta'lim klassifikatsiyasi va Halqaro standart kasb tayyorlashdir. Konsepsiya klassifikatsiyasi qoidalari asosida ishlab chiqilgan. Konsepsiya yaratilishidan avval ko'plab tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda iqtisodiy ta'lim bo'yicha jahon tizimi, ayniqsa AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Rossiya ta'lim tizimi

tajribasi o'rganildi va umumlashtirildi. Umuman olganda, taklif etilgan konsepsiya asosan muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlashning Inglizcha-Amerikacha tizimiga tayanadi. Ammo unda, O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, o'tish davri, iqtisodiy ta'lim bosqichlari va darajalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan xo'jalik yuritish tizimi hisobga olingan.

Uzluksiz iqtisodiy ta'limni jahon andozalari darajasiga ko'tarish konsepsiyaning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini jahon ta'lim tizimi bilan o'zaro uyg'unlashtirish;

- muhandis-pedagog mutaxassislar bilim darajasini xalqaro miqyosda raqobatbardoshligiga erishish;

- dunyoning etakchi mutaxassislari va ta'lim texnologiyalarini mamlakatimizda muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimiga jalb etish;

- muhandis-pedagog mutaxassislarning bakalavrluk va magistrlik diplomlarini xalqaro darajada tan olinishiga erishish va boshqalar.

Bu jarayonda bo'lajak muhandis-pedagog mutaxassislarni xorijiy tillarga, asosan ingliz tiliga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari muntazam ravishda kengayib va chuqurlashib borayotgan bugungi kunda bu hayotiy zaruriyatga aylandi.

Hozirgi kunda Respublikada iqtisodiy ta'lim tizimini isloh qilish borasida nufuzli xalqaro tashkilotlar, oliy o'quv yurtlari va jamg'armalar bilan faol xamkorlik qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil iqtidorli yoshlarning chet elda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash «Iste'dod» jamg'armasini tuzish va Prezident grantlarini joriy etish to'g'risidagi Farmoni qobiliyatli yoshlarimizni xorijning eng nufuzli o'quv yurtlarida chuqur bilim olishlariga katta imkoniyatlar yaratdi. «Iste'dod» jamg'armasi faoliyatini boshlagan 2000 yildan to hozirga qadar yuzlab muhandis-pedagog mutaxassislar AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi davlatlarning oliy o'quv yurtlarida tahsil olib, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining turli jabhalarida o'zlaridagi etuk malaka va jahon andozalariga mos keluvchi bilim darajalari bilan faol ishtirok etib kelishmoqda. YOshlar xorij hayotini ko'rib, xalqaro hayotiy tajriba orttirib, chet tillarini mukammal egallab, zamonaviy bakalavrluk va magistrlik darajasiga respublikamizning turli bosqichdagi pedagog kadrlar xorijiy ta'lim

markazlarida tajriba va malaka orttirib kelmoqdalar. Bunday yondashuvlar ham O‘zbekiston ta’lim tizimining yorqin istiqboliga va uning mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’limning moddiy texnikaviy asosini rivojlantirishga ham shaxsan Prezidentimizning o‘zlari, hukumatimiz ham katta e’tibor qaratmoqda. 1999 yil oktyabr oyida davlatimiz rahbarining Janubiy Koreya Respublikasiga qilgan safari paytida Koreya Eksim banki O‘zbekistonda akademik litsey va kollejlarni o‘quv jihozlari bilan ta’minlash loyihasining ijrosi uchun 35 million dollar miqdorida imtiyozli kredit ajratdi. SHuningdek, Evropa Ittifoqining TESIS dasturi asosida «O‘zbekistonda menejmentni o‘qitish», «O‘tish davrida uzluksiz ta’lim va mehnat bozorini shakllantirish» va boshqa shu kabi xalqaro loyihalarida Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti faol ishtirok etib kelmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining ko‘p ukladliligi keng qamrovli iqtisodiy muammolar bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan muhandis-pedagog mutaxassislarga talabning kun sayin ortib borayotganligidan dalolat bermoqda. SHunday ekan, makroiqtisodiyot va davlat boshqaruvchi bo‘yicha muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimi sifat jihatdan qayta tashkil etilishi zarur. SHuningdek, yirik tadbirkorlik va boshqaruv bo‘g‘ini mutaxassislari malakasini oshirish tizimi ham rivojlantirilishi lozim.

SHu bilan bir qatorda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish o‘quv muassasalari tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Buning uchun birinchi navbatda, o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlarida kichik va xususiy tadbirkorlarni tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish kerak. O‘quv jarayoniga tadbirkorlik faoliyati, huquq, soliq, moliya va bank ishi, marketing, strategik rejalashtirish, sug‘urta asoslari haqida bilim beradigan fanlarni dadillik bilan kiritish maqsadga muvofiqdir.

Universitet bakalavrluk va magistrlik diplomlari darajasini oshirish, muhandis-pedagog mutaxassislarni tayrlash tizimini zamon talablari darajasida rivojlantirish uchun muhim asos hisoblanadi. Buning uchun, o‘quv muassasalari moddiy bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy o‘quv kompyuter texnikasi bilan jihozlash, zarur o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash, o‘qitishning turli shakllarini kengaytirish, professor-o‘qituvchilarning mehnatga rag‘batini kuchaytirish kabilar muhim vazifalardan hisoblanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, O'zbekistonning har jihatdan rivojlanishi va mavjud qiyinchiliklarni engib o'tishi samarali iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi va amal qilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat o'zining bir qator o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor jihatlari bilan mamlakatimizda mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan imkon qadar samarali foydalanish, uni jahon mamlakatlarining ilg'or tajribasidan kelib chiqqan holda tejamkorlik va raqobatbardoshlik tamoyillariga tayangan holda qayta takomillashtirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini chuqur integratsiya-lashuv asosida rivojlantirish kabilar uchun etarlicha imkon yaratmoqda.

Biroq, mamlakatda zamonaviy sharoitlarda samarali faoliyat ko'rsata oladigan hamda tadbirkorlik bilan har qanday iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta oladigan mutaxassislarining etarli darajada emasligi iqtisodiy rivojlanish modelini samarali amal qilishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu esa, muhandis-pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimini yangi tamoyillar asosida rivojlantirishning nihoyatda dolzarbligidan dalolat bermoqda.

Dunyo siyosatida ro'y berayotgan ulkan yangilanishlar natijasida olamni tushunish, idrok etish va unga munosabat ham o'zgarganining guvohi bo'lib turibmiz. Bizning mamlakatimizda ham inson haqidagi tasavvur izchillik bilan o'zgarib bormoqda. YUrtboshimiz ta'kidlaganlaridek, bugungi kun kishilari kechagi kun odamlariga nisbatan boshqacha.

Taraqqiyot jarayonida ijtimoiy munosabatlar chuqurlashib, davlatimiz umumbashariy muloqotlar tizimiga kirib borar ekan, rahbar kadrlar mas'uliyati ham kuchayib boradi. Mas'uliyatni his etish esa birinchi navbatda, davlat manfaatlari, umummilliy manfaatlar darajasida fikr qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Bugun insondan keskin sifat o'zgarishlar talab qilinmoqda. Inson, uning aql-idroki, zakovati, salohiyati ijtimoiy taraqqiyot, olam yaxlitligining birdan-bir omiliga aylanishiga ehtiyoj kuchaymoqda. Zamon insoniyatdan o'z-o'zini anglab olishni talab qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan, bunyodkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan hayotimizni obod va farovon bo'lishiga xizmat qiladigan yangi g'oyalar, taklif va tavsiyalar bugun har qachongidan ham zarurdir. Keng qamrovli mutaxassis xodim o'z faoliyatida bir qancha kasblarni qamrab oladi, zarur bilimlarga, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Bu aralash texnologiya uchastkalaridagi ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshirishda qo'l keladi. U ishlab chiqarishning fan

sohasidagi bilimlari bilan qurollangan bo‘lib, ishlab chiqarishning o‘zgarib turadigan shartlariga tez ko‘nikib keta oladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining ko‘p ukladliliigi keng qamrovli iqtisodiy muammolar bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan muhandis-pedagog mutaxassislariga talabning kun sayin ortib borayotganligidan dalolat bermoqda. SHunday ekan, makroiqtisodiyot va davlat boshqaruvchi bo‘yicha muhandis-pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimi sifat jihatdan qayta tashkil etilishi zarur. SHu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu bobda kasbiy malakaviy tuzilmada ishchi xodimning o‘zgarishi, ishlab chiqarish jarayonining asosiy vazifasi, ishchilar ixtisosligini tahlil qilish uslubi, keng qamrovli soha xodimlari va ularga qo‘yilgan talablar, xodimlar oliy maktabi kabilar bo‘yicha qator ma’lumotlar keltirilgan.

O‘z-o‘zini nazorat va tekshirish uchun savollar:

1. Keng qamrovli soha xodimlari va yuqori malakali xodimlar tayyorlash va ularga qo‘yilgan talablar?
2. Kadrlar ixtisosligini tahlil qilish uslubi haqida fikr bildiring?
3. Keng qamrovli soha xodimlari va yuqori malakali xodimlar haqida tushuncha bering?
4. Kasbiy malakaviy tuzilmada xodimlarning o‘zgarishi qanday amalga oshiriladi?
5. Xodimlar oliy ta’limi haqida Sizning fikringiz?
6. Kasbiy mahorat deganda nimani tushunasiz?
7. Mehnat shartnomasiga ta’rif bering?
8. Mehnatni tashkil etish va uning usullari haqida fikr bildiring?
9. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida qanday ishlar amalga oshiriladi?
10. Mutaxassisliklarni tahlil qilib bering?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

4. Nishonova S. Komil insonni tarbiyasi: o‘rta maxsus, professional ta’limmuassasalari uchun qo‘llanma. - T.: Istiqlol. 2003.
5. Bordavskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika.- M.: Piter, 2004.
6. Munavvarov A.Q. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996.
7. www. bilimdon. uz. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asosiy veb sayti.

20-MAVZU: TA'LIM JARAYONIDA TESTOLOGIYA ASOSLARI

Reja

1. Testologiuaning nazariu-amaliu asoslari.
2. Testologiuaning pedagogik test sifatida qaut yetilishi
3. Pedagogik testlarni tuzish va shakllantirish talablari.
4. Testlardan foudalanish prinsiplari. Pedagogik testlarni tadbiiq yetish imkoniatlari.
5. Pedagogik testologiuaning tarkibiu qismlari. Pedagogik testologiuada konfidensiallik

Ta'lim muassasalari reytinglarini tashkil etish va aniqlash usullari turli-tuman bo'lib, davlatlarning ta'lim tizimlari va oliy ta'limni baholash usullari bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda bir qator xorijiy davlatlar, jumladan Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Niderlandiya, Ispaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Ykraina kabi davlatlar ta'lim muassasalari reytingini aniqlash va qo'llash bo'yicha boy tajribaga ega. Ylardagi mavjud reyting tizimlari turli yondoshuvlar asosida ta'lim tizimlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

AQShda reytinglar o'tkazishda uch guruh sifat ko'rsatkichlari ishlatiladi: talabalar muvaffaqiyati, o'qituvchilar tarkibi erishgan yutuqlari va OTMning akademik imkoniyatlari. Yshbu ko'rsatkichlarni reyting ko'rinishiga o'tkazishda vaznlash va jamlash usuli qo'llaniladi.

Buyuk Britaniyada reytingni ommaviy axborot vositalari statistik manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib aniqlaydi. Ko'rsatkichlar orasida ilmiy ishlarga ham e'tibor qaratilgan. Ta'lim muassasasi haqidagi kadrlar iste'molchilari fikrlari asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qabul qilinadi.

Germaniya reyting tizimi birinchi navbatda maktab bitiruvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda mutaxassisliklar reytingi aniqlanadi. Natijada, universitetlar yaxshi, o'rta va yomon guruhlarga bo'linadi. Reyting bo'yicha qaror qabul qilishda asosan universitetlar va ular joylashgan shaharlar haqida ma'lumotlar, talabalar kontingenti, kurslar va o'qitish bo'yicha asosiy ma'lumotlar, ishga joylashish, mehnat bozori hamda professor-o'qituvchilar va talabalar fikrlari hisobga olinadi.

Polshada OTMlar reytingi ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida olib boriladi (umumuniversitetlar reytingi, xususiy universitetlar reytingi, ijodiy universitetlar reytingi). Reytingda o'tgan yil

reytingi natijalari ham ma'lum bir vazn bilan hisobga olinadi. Xususi universitetlar reytingi bevosita universitetda olingan hamda ish beruvchilar va o'qituvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnomalar asosida aniqlanadi.

Yaponiyada universitetlar reytingi asosan 3 ta yo'nalish bo'yicha olib boriladi: ta'lim faoliyati, ilmiy tadqiqot faoliyati va rivojlanishga qo'shilgan hissa. So'nggi vaqtlarda talabalardan o'tkazilgan so'rovnomalar ham keng qo'llanilmoqda.

Rossiya Federatsiyasida OTMlarning reytingini aniqlash 2001 yildan buyon amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda reytingning 2 modeli, ya'ni ta'lim vazirligi reytingi va ommaviy axborot vositalari reytingi mavjud. Birinchi modelda reyting ekspertlar fikri va statistik ma'lumotlarga asoslangan, ammo ish beruvchilar fikri kamroq hisobga olinadi. Ikkinchi model nisbatan mustaqil, ammo yetarli darajada ilmiy asosga ega emas. Yshbu ikki modelning ijobiy tomonlarini hisobga olish maqsadida nodavlat reyting Agentligi tashkil etilgan. Reytingni tuzish uchun ijtimoiy so'rovnomalar va ekspert baholash, bitiruvchilar sifatini ish beruvchilar tomonidan baholash, OTMni va uning ta'lim dasturlarini bitiruvchilar tomonidan baholash natijalari ishlatiladi. Shuningdek, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha ham ta'lim dasturlari reyting aniqlanadi. To'plangan ma'lumotlar ayrim mezonlarga ajratilib, ularni vaznlash, jamlash va umumiy mezonni aniqlash uchun ilmiy asosga ega uslubiyat qo'llanilgan.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonlarining jadallashganligi, jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borishi, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, ta'lim tizimining globallashuvi oliy ta'lim sifatini yanada oshirishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz ta'lim xizmati iste'molchilari - o'kuvchi va talabalarga sifatli ta'lim berish O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunchilik bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi (DTM) tarkibida tashkil etilgan "Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshkarmasi" vazifalari qatoriga ta'lim muassasalari reytingini belgilash ham yuklangan. Bu borada DTM tomonidan ma'lum ishlar amalga oshirildi. Oliy ta'lim muassasalari reytingini belgilashda ularning attestatsiya jarayonida to'plagan ballarini asos qilib olish tajribasi ko'llanilib kelinmoqda.

Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustakil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Hozirgi vaqtda barcha o'quv yurtlarida o'tkazilayotgan test sinovlarida, ayniqsa oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida qo'llanadigan, Davlat Test Markazi tomonidan tuzilgan testlarda shu shakldan foydalaniladi. Ylarda har bir savolga bir necha (ikki va undan ortiq) javob variantlari beriladi hamda ulardan bittasi to'g'ri javob bo'ladi. Javob variantlarining soni cheklangan bo'lib, ularning raqami yoki belgilovchi harf doiracha shaklida ajratiladi.

Ba'zi hollarda to'g'ri javoblar soni ham birdan ortiq bo'ladi. Lekin bunday shakldan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki bu holda testning ob'ektivligi amalga oshmaydi.

AQShda tanlash usulida tuzilgan topshiriqlarning javob variantlari qancha bo'lishi maqbulligini aniqlash maqsadida maxsus tadqiqotlar o'tkazilgan. Bunda 2 tadan 5 tagacha, ba'zi hollarda 7 tagacha javob variantlari bor topshiriqlar qo'llangan. Natijada variantlar soni 5 ta bo'lishi kerak, degan xulosaga kelingan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, to'g'ri javobning qaysi o'rinda kelishi muhim ahamiyatga ega emas ekan.

Kuzatishlar natijasida tanlash usulidagi testlarning bir qator afzalliklari ma'lum bo'ldi:

- ularda variantlarning bir nechta bo'lishi tanlash jarayoniga, demak, fikrlashga olib keladi. Bu esa talabalarning bilmini aniqroq baholashga yordam beradi;

- bu shaklni deyarli barcha fanlar va barcha mavzularda qo'llash mumkin;

- tanlangan variant bir xil usulda: yozma testlarda doiracha shaklida, kompyuterdagi testlarda strelkani harakatlantirish yo'li bilan belgilanadi;

- ushbu shaklni yozma testlarda ham (shablon qo'yib), kompyutera bajariladigan testlarda ham baholash qulay;

-bu shaklni qo'llaganda ma'lum bir vaqtni belgilab qo'yish imkoniyati bor.

Fikrimizcha, yuqorida aytib o'tilgan jihatlarining barchasi tanlash usulining eng qulay shakl ekanligidan dalolat beradi.

Testlarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan shakllaridan tashqari, har bir o'quv fanining o'ziga xos bo'lgan maqsadlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'plab tur va shakldagi testlarni yaratish mumkin. Masalan, chizmalı testlar, rasmlı testlar, formulalı testlar, grafiklı testlar, hisoblash testlari, xaritalı testlar shular jumlasidandır. Ylarnı tuzısh va qo'llash o'qıtuvchınıng ıstagıga bog'lıq, deb o'ylaymız.

Ishlab chiqiladigan test topshiriqlari soni, rejalashtirilgan sondan taxminan ikki-uch marta ko'proq bo'lishi kerak. Bu, bir xil o'quv fani bo'yicha testlarning bir necha turli variantlarini yaratishda zarur bo'ladi. Tajribalarning ko'rsatishicha, topshiriqlarning taxminan yarmidan ko'prog'i birinchi sinovdan keyin, boshqalaridan esa keyingi chuqur tahlil jarayonida yaroqsiz deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Chunki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini inqirozdan xoli etish, uni bozor iqtisodi sharoitiga mos holda takomillashtirish va Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyani joriy etish tajribasini o'rganish va unga ijodiy yondashish, o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, bunda talabani sust ob'ektdan faol sub'ektga aylantirish, bilish faoliyatining aniq maqsadlarga yo'nalganligini hamda o'quv jarayonini ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchanligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, pedagoglarda turli shakldagi test topshiriqlari tuzish, ularni sinash malakalari shakllanadi va takomillashadi.

Pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan turli xil didaktik konstruksiyalarga murojaat qilish esa, o'quv jarayonini tashkil qilishga oqilona va ijodiy yondashishga, bunda o'qıtuvchi o'z erkinligıga ega bo'lıshı, darsda qo'llanılğan turli shakl, uslub va vosıtarlar samaradorlıgını o'zi baholashıga imkonıyat yaratadı. Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik texnologiya tamoyillari va qoidalariga amal qilish, o'quv jarayoni mazmunini talaba shaxsiga, uning qiziqishlari, intilishlari, yosh davrlari

xususiyatlariga va individual o'zlashtirish sur'atlariga muvofiq holda olib borilishini ta'minlaydi.

Respublikamizda uzluksiz ta'limni joriy etish jarayonida ta'lim mazmuni yangilandi, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS modernizatsiyalandi. Yshbu jarayon ta'limtarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda. Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyat yuritayotgan moderator o'qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o'qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalarni egallamoqda. Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimiga innovatsiya quyidagi yo'llar orqali tatbiq etilmoqda:

- Axborot va kommunikatsion texnologiyalar-texnologik innovatsiyalar; 42
- Ta'lim-tarbiya jarayonining mazmunini yangilash, uning borishi va o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi texnologiyalar-pedagogik innovatsiyalar;
- Ta'lim sohasidagi zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar-iqtisodiy innovatsiyalar;
- Ta'lim sohasidagi zamonaviy tuzilmalar-tashkiliy innovatsiyalar;

Ma'lumki, yuqorida qayd etilgan innovatsiyalar ta'lim-tarbiya jarayoniga kompleks holda joriy etilishi o'qituvchidan muayyan metodik bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ni talab etadi. O'qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlik (layoqat)ning mavjudligi uning o'z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga yetkazishni nazarda tutishiga asos bo'ladi. Innovatsion ta'lim muhiti o'qituvchilardan qaysi bilimlarni egallash va amaliy faoliyatni talab etmoqda?

- O'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan amaliy faoliyati.
- O'qitishning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdagi amaliy faoliyati.
- O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- Innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;
- Innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;
- O'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;
- O'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni

mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash; • Mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyasi ta'lim va uning sifatini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Jamiyat va davlatning talablariga mos keladigan ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi darajasini ta'minlash maqsadida ta'lim muassasalari holatining monitoringi va diagnostikasini amalga oshirish, o'qitishning ob'ektiv natijalarini muntazam tahlil qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul jarayonlarida o'quvchi va abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini baholashda yuqori darajada xolislikni, haqqoniylikni va tenglikni ta'minlash imkonini beradigan testlardan foydalanishga asoslangan pedagogik o'lchovlar alohida o'rin tutadi.

Testologiya – shaxsning turli xil xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar va ularni talqin qilish usullari yordamida baholash imkoniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, testolog testologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisdir. Ta'limning asosiy maqsadi — o'quvchilarga fanlar bo'yicha nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda ma'naviy, axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, dunyoqarashlarini shakllantirish, kengaytirish va rivojlantirishdan iboratdir. Berilayotgan bilim, hosil qilayotgan ko'nikma va malakalar qay darajada o'zlashtirilganini aniqlash va baholash o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ylarni aniqlashda esa turli shakl va usullardan foydalaniladi. Jumladan, savol va javoblar, suhbat, yozma ishlar, kollokvium, seminar, sinov, imtihonlar o'tkazish va boshqalar. Yuqorida qayd qilingan shakl va usullarga nisbatan test topshiriqlari asosida sinovlar o'tkazish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashda hamda baholashda ancha qulay va samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Test shaklidagi topshiriq – pedagogik o'lchovlar nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- maqsad;
- qisqalik;
- texnologiya mavjudligi;

- mantiqiy ifodalanganlik;
- javoblar o‘rnining mavjudligi;
- javoblarni baholashda bir xillilik;
- topshiriq elementlarining to‘g‘ri joylashganligi;
- barcha sinalayotganlar uchun yo‘riqnomaning bir xilligi;
- yo‘riqnomaning topshiriq shakli va mazmuniga mosligi.

Mazkur talablar test topshiriqlarini boshqa xildagi topshiriqlardan farqlash imkoniyatini beradi.

Testlarning tarixiy jarayonda paydo bo‘lish vaqtini aniqlashga qaratilgan har qanday urinish geograflarning ko‘plab irmoqlarga tarqalib ketadigan katta daryoning boshlanadigan joyini aniqlashga o‘xshab ketadi. Testlar bilan ham taxminan shunday holat sodir bo‘ladi. Testlarning tarixini o‘rganish uchun avvaliga ularning ilk ibtidosini izlash kerak.

Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda Qadimgi Vavilonda hattotlarni tayyorlaydigan maktablarning bitiruvchilari uchun sinovlar o‘tkazish an‘ana bo‘lgan. O‘sha davrlarda bilimlari chuqur va keng qamrovli deb tan olingan malakali hattot Mesopotamiya sivilizatsiyasining markaziy figuralaridan hisoblanar edi; u dalalarning yuzasini o‘lchash, mol-mulknini taqsimlash, qo‘shiq ijro etish, musiqiy asboblarda kuy chalishni bilishi zarur bo‘lgan. Sinovlar jarayonida uning matolarni, metallarni, o‘simliklarni yaxshi ajrata olish qobiliyati, to‘rtta arifmetik amal, va albatta, yozishni bilish malakalariga ahamiyat berilardi.

Qadimgi Misrda koinlik san‘atiga faqatgina belgilangan sinovlar tizimidan o‘tgan shaxslarni o‘rgatishardi. Avvaliga nomzod hozirgi vaqtda suhbat deb talqin qilinadigan rasmiy marosimga o‘xshash sinovni boshidan kechirishi kerak bo‘lgan. Bunda uning tarjimai holini, ma‘lumoti qay darajada ekanligini aniqlashar, tashqi ko‘rinishi, suhbatni olib borish layoqatiga baho berishardi. Keyin esa mehnat qilish, tinglash, sukut saqlay olish qobiliyatlarini tekshirishar, olov, suv va o‘lim xavfi bilan sinab ko‘rishar edi. Yzoq vaqt ta‘lim olish mashaqqatlariga chidashiga shubhasi borlarga o‘ylab ko‘rib, ehromning eshigini qaysi - ichki yoki tashqi tomondan yopish ma‘qulligini hal qilishni maslahat berardilar.

Ma‘lumotlarga qaraganda, bunday qattiq sinovlar va tanlov tizimidan yosh Pifagor muvaffaqiyatli o‘tgan. O‘qishni bitirib, Gretsiyaga qaytgach, u o‘zining maktabiga asos solib, unga faqat o‘zi o‘tgan sinovlarga o‘xshash turli kirish imtihonlarini joriy qilgan.

Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda Xitoyda hukumat amaldori lavozimi bo'lgan. Tabiiyki, bu lavozimga tanlov o'tkazishning dastlabki elementlari ham qo'llangan. Tanlov davrida tantanali vaziyat hukm surgan va bu lavozimga talabgor bo'lib, davlat imtihonlarini topshirishga jazm qilgan yoshlarga alohida e'tibor berilgan. Xitoy jamiyatida bu imtihonlar deyarli bayramdek nishonlangan. Imtihon mavzusini ko'pincha imperatorning o'zi belgilagan.

O'sha davrlarda inson xarakteri va qobiliyatlarini uning tashqi ko'rinishiga qarab aniqlash san'ati – fiziognomika keng tarqalgan edi. Bu nomni ilk bor Gippokrat qo'llagan va fiziognomikani alohida fan darajasiga ko'targan. Yning tadqiqotlari natijasida fiziognomikadan birinchi darsliklar va amaliy qo'llanmalar, shuningdek ilk mutaxassislar paydo bo'lgan.

1884 yilda AQShda o'z ichiga qator topshiriqlar va besh balli tizimda baholanadigan javoblarni olgan test materiallaridan iborat birinchi kitob nashr qilingan. Ynga matematika, tarix, grammatika, navigatsiyaga oid topshiriqlar kiritilgan bo'lib, insholarning taxminiy matnlari va ularni baholash usuli ilova qilinardi. Bu tarixda ilk bor pedagogik jarayonda oddiy statistik hisob-kitobning qo'llanishi bo'lgan.

Testlarni qo'llash metodikasining asoschisi bo'lib AQShda faoliyat ko'rsatgan mashhur amerikalik ruhshunos Djeym Makkin Kettel hisoblanadi. Yning "Intellektual testlar va ulardan foydalanish" nomli maqolasi (1896) da diagnostikaning aniq usullari ishlab chiqilgan. Kettel fanga "test" so'zini kiritdi va bu bilan hozirgi amerika ta'limida an'anaga aylangan o'quv yurtlariga kirayotganlarni test yordamida tanlash usulini boshlab berdi.

Yevropada testlarning asoschisi sifatida taniqli ingliz olimi Frensis Galton (1822-1911) tan olingan. O'zining "Inson qobiliyatlari va ularning rivojlanishini o'rganish" asarida u insonning aqliy qobiliyatlari asosan nasldan-naslga o'tadi, degan fikrni ilgari suradi. Y fanga "umumiy qobiliyatlar" (general abilitu) va "maxsus moyillik" (spesial aptitudes) degan atamalarni kiritib, ularning birinchisi tabiat tomonidan ato etiladi, ikkinchisi insonning hayoti davomida shakllanadi, deb ta'kidlaydi. Galton o'z faoliyati davomida insonning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini aniqlash usullarini ishlab chiqdi. Bu tadqiqotlar testlarni yaratishning boshlanishi bo'ldi. 1884-85 yillarda u o'zining laboratoriyasiga keluvchilar orasida sinovlar o'tkazardi. Y yerga 5 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan kattalar va bolalar kelishar, ozgina haq evaziga reaksiya tezligi, vazn, o'pka hajmi, kaft kuchi (dinamometr

yordamida – bu ham F.Galtonning ixtirosi edi), mushtum kuchi, bo‘y uzunligi, ko‘zning o‘tkirlik darajasi o‘lchanardi. Yndan tashqari, harflarni eslab qolish va rang ajratish qobiliyati, organizmning qator fiziologik imkoniyatlari va psixik xususiyatlari baholanardi. Butun dastur bo‘yicha 9337 nafar odam tekshirilgan.

XIX asr oxiriga kelib Yevropada bilimlarni nazorat qilishning ikki turi an’anaviy bo‘lib qoldi. Birinchisini shartli ravishda nemischa an’ana deb atashgan bo‘lib, unda imtihonning og‘zaki shakllariga e’tibor qaratilgan. Kamida ikki kishidan iborat komissiya ishtirokida o‘tkaziladigan bunday imtihonda bitta katta hajmli savolga beriladigan javob butun kurs bo‘yicha bilimlar darajasini ko‘rsatishi kerak bo‘lgan. Boshqa an’ana inglizcha deyilib, nazoratning yozma shaklidan iborat edi va sinalayotganlarga turli mavzulardagi 10-12 ta qisqa vazifa berilardi.

Bolalarning aqliy layoqatini ilk bor o‘lchashga urinish XX asr boshida Fransiyada yuz bergan. Bunday maqsadda tuzilgan testning mualliflari Alfred Bine va Teodor Simon testga kiritiladigan topshiriqlarning empirik tekshiruvini o‘tkazishgan. Topshiriqlarning maqsadga muvofiqligini tekshirish uchun mualliflar ikki asosiy mezondan foydalanganlar: 1) har bir topshiriqning turli yoshdagi bolalar guruhlarida murakkabligini aniqlaydigan empirik o‘lchovi; 2) test natijalarining otanalar fikri bilan qanchalik mosligi haqidagi ma’lumot.

O‘zlari olgan natijalarni boshqa tadqiqotchilar olgan natijalar bilan taqqoslash va o‘lchovdagi xatolarni imkon qadar kamaytirishga erishish uchun A.Bine va T.Simon testga uni o‘tkazish bo‘yicha standar yo‘riqnoma ilova qilganlar.

Alfred Bine 1899 yilda dunyoda birinchi bo‘lib maktab qoshidagi psixologik-pedagogik laboratoriyaga asos solgan. Yshbu kashfiyot jamiyatning zaruriy ehtiyojlaridan kelib chiqqan. XX asrda maktab ta’limi birinchi bor ommaviy hodisaga aylandi. Shu munosabat bilan ta’limning asosiy muammolaridan biri, ya’ni ko‘pchilik bolalarning nima uchun yomon o‘qishlari, ularga qanday qilib yordam berish mumkin, degan muammo paydo bo‘ldi.

Ma’lumki, fanlarni o‘zlashtira olmaslikning sabablari har xil. Ba’zi bolalarning aqliy layoqatlari yuqori bo‘lsa-da, ular yalqovlik yoki boshqa xususiyatlarga ko‘ra yomon o‘qiydilar, boshqalari aqliy tanqislik sababli oddiy maktabda o‘qiy olmaydilar. Lekin qanday qilib bu sabablarni aniqlash mumkin? O‘qituvchilarning har bir o‘quvchi to‘g‘risidagi fikrlari har doim qarama-qarshi va sub’ektiv bo‘ladi. Shuning uchun aqliy layoqatlarni xolisona aniqlaydigan usul kerakligi

ayon bo'ldi. Bine testlarining paydo bo'lishi ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan.

1904 yilda Parijning maktablar boshqarmasi unga aqli zaif bolalarni sog'lom bolalardan ajratishga yordam beradigan usullarni ishlab chiqish vazifasini topshirgan. Bu aqli zaif bolalarni maxsus maktablarga joylashtirish qarori bilan bog'liq edi. Shunday qilib, 1905 yilda Binening mashhur testlari paydo bo'lgan. Yning tadqiqotlari natijasi - "aqliy qobiliyatlar rivojlanishining o'nlik ko'rsatkichi" (shkalasi)dir. Y 1911 yilda e'lon qilinib, nafaqat Fransiyada, balki boshqa mamlakatlarda ham tez tarqalgan.

Bine o'zining tadqiqotlari bilan bolaning kelajagini muayyan test ko'rsatkichlari asosida oldindan aytib berish uchun emas, balki ta'lim jarayonidagi nuqsonlarni aniqlash uchun xizmat qilgan. Y bolaning aqliy rivojlanishida ijtimoiy-madaniy sharoitning ahamiyati katta ekanligini, testlardan foydalanishda raqamlarga berilib ketmaslik kerakligini ta'kidlagan. Yning quyidagi fikriga e'tibor bering: "Shaxs tafakkuri o'sishi mumkin emas, degan noxush fikrga zamonamizning ba'zi faylasuflari ruhan ko'nikib qolmoqdalar. Biz ... bu kabi fikrlar asossiz ekanligini isbotlashimiz zarur. Bolaning miyasini haydalmagan dalaga qiyoslasak, tajribali fermer bunday dalada yerni parvarish qilish orqali o'ylagan niyatlarini amalga oshirishi va natijada unumsiz yer o'rniga unumdor yerga ega bo'lishi mumkin..."

Bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qiladigan birinchi testlar XX asr boshida paydo bo'lgan. Ylar tezda Angliya va AQShning oliy o'quv yurtlari va maktablari o'qituvchilari orasida ommalashib ketgan. Taxminan o'sha paytdan ularni AQShda pedagogik testlar deb atay boshlaganlar. Aynan shu testlar an'anaviy, "sof", testlarsiz pedagogik fan va amaliyot tarafdorlarining qarshiligiga uchragan.

XX asrning birinchi o'n yilligidan boshlab test haqidagi odatiy tasavvurlar va uning ilmiy asoslanishi bir-biridan keskin farq qila boshladi. Garchi har qanday test sinov elementlari bo'lgan topshiriqlardan iborat bo'lsa-da, uning vazifasi faqat bundangina iborat emas, chunki hozir bu ilmiy tadqiqot usuli ham bo'lib, qator o'lchov talablarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda "Ay-kyu" deb ataladigan nazariyaning muallifi avstriyalik psixolog Yilyam Shtern bo'lib, u 1911 yilda bolaning xronologik (haqiqiy) yoshidan tashqari aqliy yoshi borligini e'tirof etgan. "Intellekt" so'zi Intelligense ("aql-zakovat, tafakkur, insonning fikrlash

qobiliyati” va Quotient (“ko‘rsatkich, o‘lchov darajasi”) so‘zlari birikmasi, ya’ni aqlning ko‘rsatkichi degan ma’noni bildiradi.

O‘zbekistonda XX asrning 20-30 yillarida testlar ta’lim jarayonida keng qo‘llangan. O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida “Pedologiya” bo‘limi faoliyat ko‘rsatgan. Pedologlar iqtidor tug‘ma bo‘ladi, degan fikrni ilgari surganlar va bolalar hamda o‘smirlarning aqliy layoqatlarini tekshirish uchun ko‘plab testlar yaratganlar va qo‘llaganlar. 30-yillarning o‘rtalarida pedologiyaga qarshi qattiq kurash boshlangan. Pedologiyaning g‘oyasi – bolalar taqdirining biologik va ijtimoiy omillarga, irsiyatga va o‘zgarmas muhit ta’siriga bog‘liqligi tanqidga uchrab, marksizmga zid deb topilgan. Hukumat qarori bilan testlarning tahlim jarayonida qo‘llanishi tamoman taqiqlangan. Pedologiya esa “burjua illati” deb e’lon qilingan. Shu tariqa, Sovet Ittifoqida pedologiya yo‘q qilinadi, Yevropa va AQShda esa bu soha jadal rivojlanadi.

Fan rivojining har bir bosqichida testlarga bo‘lgan talab va testlarning o‘zi ham o‘zgarib borgan. Bu dialektik xususiyatning hisobga olinmasligi ko‘p hollarda testlarni baholashda soddalashtirishga olib kelgan. Soddalashtirish asosan testni bilimlarni baholashning boshqa, keng tarqalgan turlari (sinov, imtihon) bilan adashtirishda yaqqol ko‘ringan. Lekin bu to‘g‘ri fikr emas. Test pedagogik o‘lchov vositasi bo‘lib, bu xususiyat uni pedagogik nazoratning barcha boshqa shakllaridan ajratib turadi.

Test nima? "TEST – 1) psixologiya va pedagogikada – sinalayotgan odamning ruhiy-fiziologik va shaxsiga tegishli tavsiflar, shuningdek, bilimlari, mahorati va ko‘nikmalari to‘g‘risida tasavvur beradigan standartlashtirilgan topshiriqlardir;

2) fiziologiya va tibbiyotda – inson organizmiga undagi turli fiziologik jarayonlarni o‘rganish maqsadida, shuningdek, ayrim organlar, to‘qimalar va butun organizmning funksional ahvolini aniqlash uchun tajriba tariqasida ta’sir o‘tkazish;

3) hisoblash texnikasida – EHM bilan ishlashning to‘g‘iligini tekshirish uchun qo‘llanadigan kontrol vazifa;

Ilmiy adabiyotlardagi testning ko‘plab ta’riflaridan birmuncha to‘liqrog‘i va aniqrog‘i quyidagidir: "Metodik test – barcha o‘quvchilar uchun bir xil sharoitlarda o‘tkaziladigan kontrol vazifa (yoki vazifalar) bo‘lib, uning davomlilik va xarakteri o‘qitishning hamda aynan shu testning umumiy maqsadi, o‘quvchining yoshi, o‘rganilgan mavzu xususiyati kabi ob’ektiv omillarga qat’iy bog‘liqdir. Yning bajarilish

natijalari miqdoriy baholanib, shu test o'tkazilgan vaqtdagi o'quv jarayonining ma'lum natijalarini ko'rsatadi".

Aytish kerakki, har doimgidek, bu sohada ham amaliyot nazariyadan ilgari ketardi. Amaliyotda ommaviy test sinovlari jiddiy sifat nazoratidan o'tmasdan qo'llanardi.

Testlardan foydalanish metodikasi qariyb bir asrdan ortiq vaqt davomida rivojlanib va takomillashib keldi. Endi u quruq raqamlardangina iborat bo'lmay, insonning u yoki bu sohadagi bilimlari va tajribasi, mahorati va ko'nikmalari haqida ma'lumot beruvchi tezkor va qulay usulga aylandi. Shu bilan birga bu sohada juda ko'p muammolar borki, ularni hal qilish zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biridir.

Testlardan foydalanish hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bu esa bilim, ko'nikma va malakalar qay darajada

Testlarning quyidagi turlari mavjud: a) psixologik; b) pedagogik; v) sotsiologik.

Psixologik testlar shaxsning psixologik xususiyatlarini, uning intellektual tomonlarini o'rganadi va aniqlaydi.

Pedagogik testlar ta'lim-tarbiya jarayonida bilimlar darajasini aniqlaydi.

Sotsiologik testlar — shaxsning ijtimoiy tomonlarini o'rganadi va aniqlaydi.

Biz ko'proq pedagogik testlarga to'xtalib o'tamiz. Pedagogikada qo'llanadigan testlar predmet testlari deb ataladi. Predmet testlari har bir predmetdan o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish, sistemalashtirish, o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash maqsadlariga qaratilishi mumkin. O'quv yili davomida ta'lim-tarbiya jarayonida yuqoridagi test formalarining istalganidan foydalanish mumkin. Bitirish va kirish imtihonlarida programmashtirilgan testlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Test varianti qancha ko'p bo'lsa, sinov natijasi shuncha ob'ektiv bo'ladi.

Kasbiy ta'lim yo'nalishlari talabalarni ilg'or pedagogik texnologiya va uni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli axborotlar bilan qurollantirish maqsadida yaratilgan. Testshunoslik asoslari mazmunini yoritishda uning odatdagi o'qitish usullaridan farq qiluvchi jihatlari, O'zbekiston ta'lim tizimiga uni joriy etishning ahamiyati, test topshiriqlari shakllari, ularni tuzish hamda pedagogik texnologiyaning tamoyillari va qoidalari, o'quv materialini to'la o'zlashtirish g'oyasini vujudga kelishi va uning amalga oshirish usullari bayon etilgan. Har bir

mavzuga oid mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar va turli shakldagi nazorat testlari berilgan. Tuzilgan test topshiriqlari faqatgina o'zlashtirishni nazorat qilibgina qolmay, balki o'rgatuvchi (o'qituvchi) funksiyani ham bajaradi. Chunki, bu test topshiriqlarini yechish jarayonida mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirishga ham erishiladi.

Pedagogik o'lchovlar – pedagogika sohasi bo'lib, sinalluvchilarning o'quv faoliyati natijalarini o'lchash va baholashning usul va vositalarini ishlab chiqadi va amalda qo'llaydi.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida» gi Qonunda (1997 yil 29 avgust) mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asoslari, tamoyillari va bosqichlarini belgilab berilgan. Milliy mustaqillik g'oyalari singdirilgan bu tarixiy hujjatlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Buning natijasida rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganishga keng yo'l ochildi, iqtidorli yosh olimlarimiz va talabalar «Ystoz» va «Ymid» (hozirgi «Iste'dod») jamg'armalari orqali rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. O'z navbatida xorijiy mutaxassislar ham mamlakatimiz ta'lim tizimida ro'y berayotgan islohotlarni o'rganib, ularga ijobiy baho bermoqdalar. Bu kabi o'zaro aloqalar o'z navbatida mamlakatimiz ta'lim tizimiga rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'z milliy qadriyatlarimiz nuqtai nazaridan tahlil qilib, o'quv jarayoniga joriy etishni ham taqozo qiladi. Zero, bu mamlakatimiz ta'lim tizimining jahon ta'lim standartlari bilan integratsiyalashuvining asosiy belgilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» alohida ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga yuklatilgan asosiy vazifalardan biri «Respublika ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda test sinovi orqali tanlab olish, kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligini xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish» hisoblanadi. Davlat test markazi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda o'tkaziladigan test sinovlari materiallarini tayyorlash uchun olimlar, yetakchi pedagog mutaxassislarni jalb etish huquqiga ega bo'lib, ularni o'qitish va malakasini oshirish vazifasini ham bajaradi.

DTMning «Test sinovlari texnologiyalarini rivojlantirish» bo'limi xodimlari tomonidan har yili, muntazam ravishda, tashkilotlar tavsiya

etgan mutaxassis-ekspertlar uchun test sinovlari topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni ekspertiza qilish bo'yicha uslubiy seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi, maslahatlar beriladi, ular uslubiy ko'rsatmalar bilan ta'minlanadi. Ammo, to'laqonli, ilmiy asoslangan test topshiriqlarini ishlab chiqish uchun metodik seminarlar, maslahatlar, ekspert-testologlar uchun test tuzish va ishlab chiqish bo'yicha eslatmalar yetarli emas.

Abituriyentlar test sinovlari uchun test topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni ekspertiza qilish bo'yicha ekspertlar bilan olib borilgan uslubiy ishlar ayrim fanlardan ko'pchilik o'qituvchilarning zamonaviy testologiya asoslari bo'yicha bilimlari yetarli emasligini ko'rsatdi. Ko'pchilik pedagoglar test – bu savollar va ularga berilgan javoblar ro'yxatidan iborat, testni yaratish hech qanday maxsus bilim talab qilmaydi, deb mushohada yuritadilar.

Ta'lim sohasidagi test sinovi – bu testdan o'tuvchilarning ma'lum o'quv fanlari yoki ta'lim dasturlari bo'yicha tayyorgarligi darajasini xolis baholash usulidir. Test topshiriqlarini bajarish intellektual faoliyat bo'lib, u chegaralangan vaqtda va nazorat qilinadigan sharoitlarda amalga oshiriladi. Test sinovlari natijalarining xolisligi, birinchi navbatda, test topshiriqlarining sifatiga bog'liq, shuning uchun topshiriqlarni ishlab chiqishda zamonaviy testologiya fani nazariyasi va amaliyotiga asoslangan talablarni inobatga olish zarur.

Testologiya – shaxsning turli xil xususiyatlarini maxsus ishlab chiqilgan testlar va ularni talqin qilish usullari yordamida baholash imkoniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, testolog testologiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisdir.

Zamonaviy testologiya yetuk amaliy fan bo'lib, o'zida test topshiriqlarini yaratishning asosiy tushunchalari va terminlarini, tamoyillarini, shakllarini (tuzilishini), mazmuniga, murakkabligiga qo'yiladigan talablarni, test topshiriqlarini baholash shkalalarini, ya'ni test topshiriqlari bankini yaratish bo'yicha faoliyatni belgilovchi me'yorlarni o'zida jamlaydi.

Hozirgi vaqtda ixtiyoriy ta'lim muassasasining har bir o'qituvchisi o'z faoliyatida o'qitadigan fani bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini baholash usuli sifatida test o'tkazishdan foydalanadi. Buning uchun u ilmiy asoslangan test topshiriqlarini Davlat ta'lim standartlari yoki davlat talablariga mos ta'lim dasturi bo'yicha ishlab chiqishi zarur. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari zamonaviy testologiya fani talablariga javob

beradigan test topshiriqlarini ishlab chiqishi uchun maxsus tayyorgarlikni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Davlat test markazi qabul test sinovlarini takomillashtirish va test tuzuvchilarni tayyorlash bo'yicha ma'lum tajribaga ega. 2004-2009 yillari Davlat test markazi va Britaniya Kengashi hamkorlikda test sinovlarini takomillashtirish va test tuzuvchilarni tayyorlash bo'yicha loyihani amalga oshirdilar. Loyiha test o'tkazishning zamonaviy samarali usullarini tatbiq etish, ingliz tili, o'zbek tili va adabiyoti, tarix, matematika, kimyo kabi fanlardan test tuzuvchilar guruhini tayyorlash, pilot variantda test topshiriqlarini tuzish va o'tkazish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, o'qituvchilar uchun seminarlar o'tkazish masalalariga qaratilgan. Yshbu loyiha bo'yicha o'qitilgan o'qituvchilar hozirda respublikamiz ta'lim muassasalariga qabul test sinovlarini o'tkazish uchun test topshiriqlarini tayyorlash va ekspertiza qilishda ishtirok etmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi 25-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari»da pedagog kadrlarning tayyorlanganligiga qo'yiladigan talablar, umumiy malaka talablari belgilangan. Jumladan, davlat talablarida ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati bo'yicha «Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak»ligi belgilangan.

Shulardan kelib chiqib, respublikamiz ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini rivojlantirish uchun test topshiriqlarini tuzish, test sinovlari natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash usullarini, yondashuvlarini o'zlashtirish maqsadida mutaxassis-testologlarni davriy o'qitish zarur bo'ladi. Shu maqsadda Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari tizimida respublikamiz pedagogik xodimlarni o'qitish jarayoniga kasbiy ta'lim dasturi bo'yicha «Zamonaviy testologiya asoslari» o'quv kursini kiritish tavsiya etilgan. Yshbu kurs ta'lim dasturini ishlab chiqishda ta'lim tizimi uchun testologlarni tayyorlash ishlari bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanish mumkin.

O'z-o'zini nazorat qilish savollari

1. Test topshiriqlarining mezonlari haqida gapirib bering.

2. O‘zbekiston ta’lim tizimida test sinovlarining tutgan o‘rni.
3. Xorijiy mamlakatlarda testologiyaning rivojlanishi.
4. Masofaviy ta’lim tizimida testlardan foydalanish.
5. Yuksak malakali kadrlar tayyorlash istiqbollarini ochib berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O‘quv qo‘llanma.-T.: TDPY.2016 b.
2. Shodmonova SH.S. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T: “Fan va texnologiya”, 2019. 234b.
3. Shodmonova SH.S. va boshqalar. “Pedagogika”. O‘quv qo‘llanma –T: “Fan va texnologiya”, 2019. 343b.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligiga erishiiib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlanishi, kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta ko‘rib chiqish va tashkil etishni o‘z oldiga dolzarb vazifa qilib qo‘ydi. Bu muhim vazifani hal etishda kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan uzluksiz ta‘lim ning bir bo‘g‘ini - yangi turdagi o‘quv muassasasi bo‘lgan kasb-hunar kollejlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta‘lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda o‘quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o‘quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy jihatlariga ko‘ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart–sharoitlarning mavjudligi, pedagog va talabalar o‘rtasida samimiy, ijobiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida tak‘lim jarayonini samarali tashkil qilish, uning izchilligi va uzluksizligini ta‘minlashga erishish masalalari etuk mutafakkirlar hamda ilg‘or pedagoglarning diqqat – e‘tiborini jalb etib kelgan. Yosh avlod ta‘lim tarbiyasini tashkil etishning ushbu jihatlari o‘z davrida Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Yan Amos Komenskiy, D.K.Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy va boshqalar tamonidan o‘rganilgan.

Inson faoliyatining turli sohasida axborot almashish, har qanday muammoni jamoa bo‘lib muhokama qilish natijasida yangi natijalarni olish zaruriyati konferensiya, seminarlar, yig‘inlar kabi muloqot shakllarini keltirib chiqardi. Hozirda biror bir jiddiy ishni oraliq natijalar, yakunlar, variantlar, qarorlar variantlari, opponentlarni tinglash va tegishli qarorlar qabul qilishning turli darajalarida hal qilmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Axborotni uzatish va qayta qabul qilishning raqamli texnikasi imkoniyati telekonferensiya-yangi texnik darajada telefon va televideniening birga qo‘shilgani-telekonferensiyani tashkil etish imkoniyatini beradi. Telekonferensiyani o‘tkazish texnologiyasi bir paytning o‘zida turli masofadagi muassasalarning xodimlari o‘rtasida muloqot qilish imkonini yaratadi. Ishtirokchilar bunda nafaqat bir-birini ko‘rish va eshitish bilan birga yonma-yon, yuzma-yuz turgandek sharoitga ega bo‘ladilar.

Keng malakali ishchi-mutaxassis uchun asosiy model qilib ilg'or ishchilarni mehnat faoliyatini misol qilib yoki namuna qilib olishimiz kerak. Ularni malakalari, ish qobiliyatlari, pedagogik kuzatuv va tajriba orqali o'rganiladi. O'rganib chiqilgan natijalar asosida mukammal model yaratiladi. Bunday model ishchi-mutaxassislarni shaxsiy sifatlarini va fikrlashlarini, bilim darajalari, ko'nikma malakalari, ish jarayonida qo'llaniladigan uslub va metodlarni aniqlashga yordam beradi. Keng malakali ishchi-mutaxassisni modeli quyidagi ko'rinishda tuzilishi mumkin: prognostik - oldindan bilish va ish rivojini xarakterlash; malakaviy - texnik mazmuniga qo'yiladigan talablar.

Jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida professional ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning 1.2 bandida "mamalakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish" yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilganligi, bugungi kunda ushbu yo'nalishning qanchalik darajada muhimligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarini hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha professional ta'lim muassasa faoliyatini boshqara oladigan rahbar kadrlarni o'z o'rniga qo'yish hozirgi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi.

Ushbu muammoni hal etish uchun fikrimizcha ta'lim jarayonini tashkil etishda mamlakatimiz va ilg'or xorijiy tajribalarini qo'llash asosida ta'lim muassasaning faoliyatini optimal tarzda boshqara oladigan rahbar kadrlarni maqsadli tayyorlashga qaratilgan. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni qabul qilindi.

Ushbu hujjatda 2020/2021 o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim

dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim tizimi, Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim tizimi, Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etilishi belgilab berildi.

Yangi professional ta'lim tizimining oldida turgan asosiy vazifalaridan biri mahalliy va xorijiy mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq va yuqori malakali kadrlar tayyorlash hisoblanadi.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash orqali mindaqadagi investitsiya jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish vositalaridan biri bu dual ta'lim tizimi bo'lib, uning afzalligi - bu mutaxassislarni tayyorlashda o'quv va ishlab chiqarish sohalarining hamkorligi hamda bitiruvchilarni yuqori darajada ish bilan ta'minlashdir.

Dual ta'lim zamonaviy professional ta'limning ta'lim standartlari asosida kompetentlik yondashuvining asosiy tamoyillariga (nazariya va amaliyotning birligi, o'quv jarayonida fanlararo kompleks yondashuv, ko'nikma va bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llashga e'tibor) to'liq javob beradi. Shuning uchun dual ta'limni professional ta'limning o'quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu "Professional ta'lim tizimida dual ta'lim prinsiplarini joriy etish" majmuasida tinglovchilar uchun dual ta'lim tushunchasi, maqsadi, vazifalari, dual ta'limni amalga oshirishda muhim bo'lgan me'yoriy hujjatlar va ularning mazmuni, Dual ta'lim tushunchalari, prinsiplari, amalga oshirish mexanizmi hamda afzalliklari, Dual ta'limni tashkil etishda xorijiy davlatlar tajribalari (Germaniya misolida), Professional ta'lim tizimiga dual ta'lim elementlarini joriy etishni tashkiliy va uslubiy ta'minlash maqsadini ko'zda tutiladi.

Ушбу дарслик орқали китобхонларга педагогика тарихи, унинг тармоқлари ҳамда соҳалари, тамойиллари ва зарурий жиҳатлари ҳақида кенг маълумот тақдим этган бўлсак ажабмас. Ишларингизга омадлар тилаб қоламиз.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. “O‘zbekiston” 2016y.
2. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” T. “O‘zbekiston” 2016 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti. 2017 y.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni. T-2020 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 yevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 25 iyuldagi 803-F-sonli Farmoyishi.
7. O‘zbekiston Prezidentining 2017 yil 18 maydagi «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha Respublika komissiyasini tuzish to‘g‘risida»gi 4941-sonli Farmoyishi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5313-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martda “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari xakida”gi 163-sonli qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 oktyabrdagi “Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 795-sonli qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori.
13. Xo‘jaqulov S. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida dars berish sifatini takomillashtirish. Toshkent 2015 y.
14. “Boshlang‘ich ta’limni modernizatsiyalash orqali o‘quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish. Toshkent 2016 y.

15. Xolmuxamedov M. “Yuqori texnologiyalar sari intilgan mamlakat”. Sputnik O‘zbekiston muxbiriga bergan intervyusi, 2018 y.

16. Muslimov N.A. va bosh. Innovatsion ta’lim texnologiyalari– T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015 y.

17. Ro‘zieva D. va bosh. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi, Met.qo‘ll. – T.: TDPU, 2013 y.

18. Petrov Yu.N. Dualnaya sistema injenerno-pedagogicheskogo obrazovaniya –innovatsionnaya model sovremennogo professionalnogo obrazovaniya. N. Novgorod, 2009. 280 s.

19. Dualnoe obrazovanie v Yaroslavskoy oblasti: Organizatsionnyy etap: Metodicheskoe posobie / V.Yu. Vybornov i dr.; pod. red. V.Yu. Vybornova. Yaroslavl: GOAU YaO IRO, 2014. 155 s.

20. www.gov.uz

21. www.lex.uz

22. www.norma.uz

Ismailova Zuxra Karabaevna
Mustafoyeva Durdoni Asilovna
Komilova Maloxat Olimovna
Raxmonova Muqaddas Qahramonovna
Sadikova Firuza Maxmudjanovna

KASBIY PEDAGOGIKA

Darslik

Muharrir: M.Talipova
Musahhah: I.Tursunova
Kompyuterda tayyorlovchi: G.Ibragimova

Bosishga ruxsat etildi 27.05.2023.
Qog‘oz bichimi 60x84^{1/16}. TIMES garniturasida
Shartli bosma tabog‘i 17,2. Nashr tabog‘i 14,2
Adadi 50. Buyurtma № 27-05.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti
Toshkent, Komolon ko‘chasi, Erkin tor ko‘chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.